

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**B.ALIEV, M.MULLAJONOVA, B.RAHMONOV**

**S O T S I O L O G I Y A**

**(Darslik)**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yonalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

**T O S H K E N T - I Q T I S O D I Y O T - 2 0 1 1**

**B.Aliev, M.Mullajonova, B.Rahmonov. “Sotsiologiya”. Darslik.  
T.: Iqtisodiyot, 2011, 334 bet.**

Mazkur darslik ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sotsiologiya fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti va usullari, fan darajasiga ko'tarilishi va rivojlanish bosqichlari, jamiyatning asosiy ijtimoiy tizimlari, tashkilotlar, guruhlar, shahs, jamiyat va davlatning sotsial mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Darslikdan jamiyat turli tabaqalari o'rtasidagi sotsial munosabatlar, sotsial taraqqiyot va sotsial o'sishning dinamikasi, mohiyati va manbalari, sotsial-etnik munosabatlar masalalari, mehnat va mehnat jamoalari, ta'lim va tarbiya sohasidagi sotsial muammolar, nikoh va oila masalalari, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabi jamiyatning zaruriy sohalariga tegishli mavzular tadqiq etilgan. Darslik ikki bo'limdan iborat tarkibda yoritilgan bo'lib, ikkinchi bo'limning so'ngi qismida empirik sotsiologiya tadqiqotlar o'tkazish usullari va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Darslik ayrim kamcxiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Shu sababli darslik yuzasidan bildiriladigan har qanday fikr-mulohazalar va takliflarni mualliflar jamoasi minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

Darslik iqtisodiy yonalishdagi oliy o'quv yurti talabalari hamda sotsiologiya bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar - i.f.d., prof. Xolmo'minov Sh.R.  
i.f.d., prof. Aliqoriyev N.S.**

**Mas'ul muharrir – f.f.d., prof. Saifnazarov I.S.**

**© Toshkent – “Iqtisodiyot” – 2011**

**MUNDARIJA**

<b>KIRISH .....</b>	<b>7</b>
..	
<b>I BO'LIM. MAXSUS SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR.....</b>	<b>9</b>
<b>I BOB. SOTSILOGIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
..	
<b>1-MAVZU. SOTSILOGIYA FANINING PREDMETI, OB'EKTI VA IJTIMOY FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI .....</b>	<b>9</b>
1.1. Sotsiologiya fanining predmeti va funksiyalari .....	9
1.2. Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati .....	15
1.3. Sotsiologiya fanining siyosiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni .....	17
<b>II BOB. SOTSILOGIYA FANINING YUZAGA KELISHI VA TARAQQIY ETISHI .....</b>	<b>19</b>
<b>2-MAVZU. ANTIK DUNYO VA O'RTA ASR SHARQ MUTAFAKKIR-LARINING SOTSIOLOGIK QARASHLARI.....</b>	<b>19</b>
.	
2.1. Antik dunyo sotsiologiyasi .....	19
2.2. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari .....	21
<b>3-MAVZU. G'ARBIY EVROPA SOTSILOGIYA MAKTABI. XX ASR SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>27</b>
3.1. XIX asr ohiri va XX asrning boshlarida sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlantirilishi (O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, M.Veber va boshqalar) .....	27
3.2. XX asr AQSH sotsiologiyasi .....	36
3.3. Turli xil yonalishlardagi sotsiologik oqim va maktablar .....	40
3.4. Hozirgi sharoitda sotsiologiya fanining rivojlantirilishi.....	47
<b>II BO'LIM. SOTSILOGIYADAGI TARMOQ VA YONALISHLAR .....</b>	<b>52</b>
<b>III BOB. MA'NAVIY HAYOT SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>52</b>
<b>4-MAVZU. IJTIMOY MUNOSABATLAR SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>52</b>
.	
4.1. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi va uning turlari .....	52
4.2. Iqtisodiy-taqsimot va sotsial-sinfiy munosabatlar .....	55
4.3. Sotsial – demografik munosabatlar .....	61

4.4.	Sotsial-etnik munosabatlar .....	63
4.5.	Begonalashuv va tanazzul, uning ijtimoiy oqibatlari.....	70
<b>5-MAVZU.</b>	<b>FAN VA TA'LIM</b>	<b>74</b>
	<b>SOTSILOGIYASI .....</b>	
5.1.	Fundamental, nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar.....	74
5.2.	Ta'lim sotsial bilimning tarmoʻi va instituti sifatida.....	81
5.3.	Ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligi va undagi o'zgarishlar .....	82
5.4.	Uzluksiz iqtisodiy ta'limning samaradorligi.....	89
<b>6-MAVZU.</b>	<b>MADANIYAT, DIN VA AHLOQ</b>	
	<b>SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>98</b>
.		
6.1.	Madaniyat sotsiologiyasi .....	98
6.2.	Din va diniy munosabatlar sotsiologiyasi .....	104
6.3.	Ahloq sotsiologiyasining mohiyati .....	113
<b>IV BOB.</b>	<b>IJTIMOIIY TUZILMALAR</b>	<b>122</b>
	<b>SOTSILOGIYASI .....</b>	
<b>7-MAVZU.</b>	<b>IJTIMOIIY STRATIFIKATSIYA VA YOSHLAR</b>	
	<b>SOTSILOGIYASI. DEVIANT XULQ-ATVOR</b>	
	<b>SOTSILOGIYASI.....</b>	<b>122</b>
7.1.	Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va mohiyati .....	122
7.2.	Ijtimoiy mobillik va ijtimoiy stratifikatsiya .....	126
7.3.	Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari .....	130
7.4.	Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati .....	137
<b>V BOB.</b>	<b>IJTIMOIIY - IQTISODIIY VA SIYOSIIY HAYOT</b>	
	<b>SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>144</b>
.		
<b>8-MAVZU.</b>	<b>SHAHS, JAMIYAT, IJTIMOIIY BOSHQARUV</b>	
	<b>SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>144</b>
.		
8.1.	Sotsologiyada shahs tushunchasi va uning shakllanish asoslari .....	144
8.2.	SHahs ijtimoiylashuvining ikki fazasi, ijtimoiy faoliyat hamda o'z-o'zini anglash holati .....	156
8.3.	Jamiyat va davlatning sotsial mohiyati .....	161
8.4.	Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi tushunchasi hamda boshqaruvning tarkibiy tizimi va tasnifi .....	178
8.5.	Ijtimoiy-hududiy birliklarni boshqarish idoralari.....	181
<b>9-MAVZU.</b>	<b>IQTISOD VA MEHNAT SOTSILOGIYASI .....</b>	<b>184</b>

9.1.	Iqtisod sotsiologiyasining predmeti va ob'ekti. Iqtisodiy jarayonlardagi sotsial munosabatlar .....	184
9.2.	Hozirgi davr iqtisodiyotining ijtimoiylashib borayo'tganligi.....	186
9.3.	Mehnat sotsiologiyasining mohiyati va asosiy xususiyatlari. Mehnat sotsiologiyasining asosiy tushunchalari .....	189
9.4.	Mehnatning sotsial shakllari va shart-sharoitlari .....	198
9.5.	Mehnat jamoalarining sotsial harakteri va asosiy funksiyalari.....	200
9.6.	Ishsizlikning sotsial qiyofasi .....	202
<b>10-MAVZU. MAHALLA VA BOSHQA O'Z-O'ZINI BOSHQARUV</b>		211
<b>SOTSILOGIYASI .....</b>		
10.1.	Mahalla va boshqa o'z-o'zini boshqaruv sotsiologiyasi tushunchalari.....	211
10.2.	Bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish va undan foydalanishning sotsial muammolari .....	219
10.3.	Jamoatchilik fikri monitoringi .....	227
<b>11-MAVZU. JAMOATCHILIK FIKRI SOTSILOGIYASI ...</b>		233
11.1.	Jamoatchilik fikri tushunchasi va uning mohiyati. Jamoatchilik fikrining funksiyalari .....	233
11.2.	Jamoatchilik fikrining hozirgi kontseptsiyalari .....	239
<b>12-MAVZU. SIYOSIY HAYOT SOTSILOGIYASI .....</b>		241
12.1.	Siyosiy hayot sotsiologiyasining predmeti, ob'ekti va uning tarkibiy tuzilishi .....	241
12.2.	Siyosat atamasining sotsiologik ta'rifi va uning asosiy tushunchalari .....	248
12.3.	Siyosiy hayotning institutsionallashtirishida siyosiy tizim va siyosiy hokimiyat masalasi .....	254
12.4.	Hokimiyat organlariga saylovlar .....	265
12.5.	O'zbekistonda siyosiy hayot sotsiologiyasining o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi .....	275
<b>13-MAVZU. IJTIMOIIY INSTITUTLAR, TASHKILOTLAR VA TIZIMLAR</b>		278
<b>SOTSILOGIYASI .....</b>		
13.1.	Sotsiologiyada sotsial institutlar hamda ular amal qilishining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari .....	278
13.2.	Sotsial tashkilotlar, ularning tarkibi va asosiy elementlari ....	281
13.3.	Sotsial tizimlar va ularning asosiy xususiyatlari .....	284
<b>14-MAVZU. O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY</b>		

<b>TARAQQIYOTI .....</b>	289
14.1. Sotsial taraqqiyot va sotsial o'sishning manbalari .....	289
14.2. O'zbekistonning hozirgi sotsial taraqqiyoti va o'sish holati .	290
<b>15-MAVZU. IJTIMOIIY-ETNIK MUNOSABATLAR .....</b>	297
15.1. Millatlar va etnik guruhlarining sotsial-etnik tarkibi.....	297
15.2. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sotsial-etnik munosabatlar .....	299
15.3. Sotsial tabaqalashuv jarayoni .....	301
<b>16- MAVZU. NIKOH VA OILA SOTSILOGIYASI.....</b>	305
16.1. Oilaning sotsial mohiyati hamda uning ahloqiy va huquqiy asoslari .....	305
16.2. Oilaning funktsiyalari va uning tiplari .....	306
16.3. Hozirgi davrda oila rivojidadagi sotsial xususiyatlar .....	310
16.4. O'zbekiston Respublikasida nikoh va oila munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidagi sotsial tadbirlar ....	312
<b>VI BOB. SOTSILOGIK TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA UMUMLASHTIRISH .....</b>	320
<b>17- MAVZU. EMPIRIK SOTSILOGIK TADQIQOTLAR ....</b>	320
17.1. Empirik sotsiologik tadqiqotning mazmun - mohiyati .....	320
17.2. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy tuzilishi .....	322
17.3. Tadqiqot ob'ekti va predmeti .....	323
17.4. Empirik (aniq) tadqiqot usullari .....	324
<b>ADABIYO'TLAR .....</b>	329

.

***Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi davlat  
mustaqilligining 20 yilligi va Toshkent davlat  
iqtisodiyot universitetining 80 yilligiga  
bag'ishlanadi.***

**K I R I S H**

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, boshqa sohalar kabi milliy ta'lim tizimida ham chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada ta'limning ijtimoiylashuvi va ta'lim tizimining insoniylashuvi (gumanizatsiyalashuvi) kuchaydi. "Mustaqil rivojlanish yillarida – tarixan qisqa bir davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, buning natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda"<sup>1</sup>. Bunday sharoitda katta ma'suliyat ijtimoiy - gumanitar fanlar zimmasiga tushishi tabiiy.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy–gumanitar bilimlarni egallash jarayonida sotsiologik ta'limotlar muhim o'rin tutadi. Sotsiologik ta'limning eng muhim funksiyalaridan biri – bu sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari va imkoniyatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologiya fani doirasida tahlil qilish, o'rganish va olingan ilmiy nazariy xulosalardan amaliyo'tda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyot yonalishini o'rganish ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va uning nazariy xulosalarini umumlashtirgan holda mamlakat ichki siyosatining yonalishini to'g'ri anglashga yordam beradi. Shu tufayli sotsiologiya fani barcha oliy o'quv yurtlarida chuqur o'rganilmoqda.

Sotsiologiya fanidan tavsiya etilayo'tgan mazkur darslik ushbu fan yuzasidan mavjud adabiyotlardagi nazariy materiallarni umumlashtirib, bir tizimga solgan holda o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Mualliflar darslikni yaratishda, hususan, 1999 yilda chop etilgan ToshDU (hozirgi O'zMU) Sotsiologiya kafedrasida olimlarining maqolalaridan, ma'ruza matnlari va o'quv qo'llanmalaridan foydalandilar. N.S.Aliqoriev, R.A.Ubaydullaeva, I.S.Dilmuradov, A.J.Holbekov, B.A.Farfiev, A.H.Haydarov, M.Bo'rieva, M.H.Fanieva, N.Latipova, K.Kalonov, S.Ho'jaev, B.Ocxilov kabi olimlarning yaratgan manbalariga

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. "Xalq so'zi", 2010 yil, 13 noyabr.

asoslanildi. SHuningdek, «Sotsiologiya» o'quv qo'llanmasida (2002) (mualliflari M.B.Bekmurodov, O.Ota-Mirzaev, R.A.Ubaydullaeva, A.B.Yunusov, K.Kalonov, A.H.Haydarov) bayon etilgan fikrlarga, manbalarga, materiallariga tayanib va ularga ijodiy yondashgan holda hozirgi davrdagi yangi, zamonaviy manbalar asoslandi.

Darslik sotsiologiya fani bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dasturga mos holda Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti "Politologiya va huquq» kafedrasida professor-o'qituvchilarining hammualliflikdagi jamoasi tomonidan tayyorlandi.

Darslik iqtisodiy yonalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan.



# I BO'LIM. MAXSUS SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR

## I BOB. SOTSILOGIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI

### I – MAVZU. SOTSILOGIYA FANINING PREDMETI, OB'EKTI VA IJTIMOY FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI

#### 1.1. Sotsiologiya fanining predmeti va funksiyalari

**Sotsiologiya** (lotincha *so'cietas* – jamiyat va yunoncha *Lo'go's* – ta'limot) – so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, u yahlit tizim sifatidagi jamiyat, alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan. «Sotsiologiya» haqidagi tushuncha birinchi marotaba XIX asrning 30 - yillarida frantsuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga taalluqli bo'lgan hamma narsalarni o'z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan.

Sotsiologiya – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning tarkibiy qismidir. U HVIII asrda kixilik jamiyati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi.

Ma'lumki, falsafiy bilimlar doirasi juda keng bo'lib, ularning tarkibiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) **Ontologiya** – borliq haqidagi qarashlar.
- 2) **Sotsiologiya** – jamiyat haqidagi qarashlar.
- 3) **Gnoseologiya** – borliqni bilish muammolari.
- 4) **Logika** – inson tafakkuri qonunlari haqidagi qarashlar tizimlari.
- 5) **Etika** – ahloqiylik haqidagi qarashlar.
- 6) **Estetika** – go'zallik haqidagi qarashlar.

Demak, biz falsafiy bilimlar doirasidan kelib chiqib, sotsiologiya fani va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganamiz.

Sotsiologiya XIX asr boshlaridan boshlab o'ziga xos ilmiy metodlar asosida falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'ldi. SHunga ko'ra sotsial sistemaning taraqqiyoti va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so'ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi.

Sotsiologiyaning asoschisi frantsuz mutafakkiri O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. Uning vatandoshi E. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.

Marksizmda sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyat va uning tuzilmaviy elementlarini tashkil etgan shahslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o'rganish hisoblanadi.

Hozirgi kundagi adabiyotlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: **Sotsiologiya - yahlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shahslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishini o'rganuvchi fandır. Sotsiologiya ob'ekti** jamiyat hisoblansada, lekin sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish etarli emas.

Sotsiologiyaning ilmiy maqomini asoslashning mohiyati uning ob'ekti va predmeti o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

**Ob'ektni bilish** – tadqiqot ob'ekti nimaga yonaltirilganligi va ob'ektiv voqelik sifatida unga nima qarama-qarshi turganligini anglatadi.

Har qanday hodisa, jarayon yoki ob'ektiv voqelikning o'zaro munosabati turli fanlarning (fizika, himiya, biologiya, psixologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va hokazolar) ob'ekti bo'lishi mumkin.

**Predmet** ob'ekt kabi ob'ektiv voqelikning bir qismi yoki uning elementlari yirindisi bo'lib, umumiy yoki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir fan o'z navbatida predmeti nuqtai nazaridan farq qiladi.

Ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilararo aloqalar, o'zaro bo'riqliklar majmuasi - sotsiologiya fanining ob'ekti vazifasini o'taydi.

**Ob'ekt va predmet** hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bo'riqlik bo'ladi. Chunki, ob'ekt mohiyatni to'g'ri tushunish, ilmiy tadqiqot yonalishini holis belgilay olish imkonini beradi.

Demak, **sotsiologiyaning ob'ekti jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir.**

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z ob'ektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning ob'ekti bo'ladi. Insonlar o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umummilliy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Hususan, ob'ektiv va sub'ektiv, erkinlik va zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik ob'ekt mohiyatni talqin etadi.

**Sotsiologiya sotsial ob'ektni** sotsial sub'ektlar orqali (shahs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi.

Sotsiologiya turli sotsial sohalarni tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi orqali u jamiyat va inson to'rtisidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendentsiyalarni yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shurullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarda inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi o'rni, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus ob'ekti asosida yakka shahs faoliyatining, konkret namoyon bo'lishining empirik darajasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

O.Kont fikricha, ob'ekt va predmet qarama-qarsxiliklardan iborat. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini 3 bosqichda o'rganadi:

**1. Aniq- empirik.**

**2. Xususiy (maxsus).**

**3. Umumiy.**

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umum-sotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha sotsial aloqalar hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish ob'ektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlanrich nuqta hisoblanadi.

**Sotsiologiyaning predmeti:**

Agar fanning ob'ekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o'sha ob'ektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi. Quyida sotsiologiyaga doir bir qancha ta'riflarni keltirib o'tamiz.

**Sotsiologiya** – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rni, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır.

**Sotsiologiya** – ayni vaqtda jamiyat va shahsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o’rganadigan fan hamdir.

**Sotsiologiya** – jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo’layo’tgan ijtimoiy jarayonlarni o’rganadigan fandır.

**Sotsiologiya** – shahsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko’nikma xosil qilishga (adaptatsiya) ko’maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psihologik va ma’naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fandır. «CHunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o’zining manfaatlarini qandaydir yo’llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va bahtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo’lsa, qonuniy yo’llar bilan o’z maqsadlariga erishishga intiladi».<sup>1</sup>

O’z navbatida sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy-madaniy modellarni topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o’z-o’zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o’zaro birikuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mehanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendentsiyalarini belgilashdan ham iboratdir.

Bugungi kunda **sotsiologiya predmetining mazmun doirasidan:**

1. **Falsafiy germenevtika** – yangicha tus berilayo’tgan naturalizmdan foydalanib, ularni yangicha talqin qilish (tendentsiyasi).

2. **Gumanistik oqimni** rivojlantirish (tendentsiyasi) tobora zalvorliroq mavqe kasb eta boshladi.

SHunday qilib, **sotsiologiya aniq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning shahslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, halqlar faoliyatida namoyon bo’lishi va ta’sir ko’rsatishi mehanizmi haqidagi fandır.**

Sotsiologiyaning mavqei, roli va o’rnining nazariy va amaliy asoslanishida sotsial degan tushuncha asosiy hisoblanadi. «Cotsial» tushunchasi birinchi marta Karl Marks tomonidan qo’llanilgan. U odamlarning bir-biriga bo’lgan munosabati, hayot tarzi, sharoitlari va

<sup>1</sup> I. Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. «O’zbekiston», 2005. 12-13 betlar.

dalillarini hamda insonning jamiyatda tutgan roli, holatini tahlil etganida «Sotsial» munosabatlar tushunchasini qo'llagan.

Ma'lumki, sotsial u yoki bu xususiyatning va sotsial munosabatlarning o'ziga xos yirindisidir. Har qanday sotsial munosabatlar tizimi (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) odamlarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga taalluqli hisoblanadi. **Sotsial degan tushunchaning o'ziga xosligini harakterlovchi quyidagi asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.**

**Birinchi**, bu xususiyat turli guruh, individlar uchun taalluqli va ular tomonidan sotsial munosabatlarning u yoki bu xususiyatini integratsiyalash natijasi hisoblanadi.

**Ikkinchi**, hozirgi sotsial munosabatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) bilan borlangan individlarning va ularning guruhlari o'rtasidagi turli munosabatlarning mazmuni va harakterini anglatadi.

**Uchinchi**, sotsial jihat turli individ va guruhlarning bir-biriga, jamiyatda tutgan o'rniga, ijtimoiy hayot, voqelik va jarayonlarga munosabatida namoyon bo'ladi.

**To'rtinchi**, individlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi birgalikdagi faoliyat natijasi demakdir.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu formada va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, sotsiologiyaning asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy vazifasi birinchi navbatda u bajarayo'tgan funktsiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi **sotsiologiyaning eng asosiy funktsiyalaridan biri nazariya va amaliyo'tning birligidir.**

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pxilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yonaltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yonaltirilganligi shunda namoyon bo'ladi-ki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. SHu holatda sotsiologiyaning **oldindan aytib berish funktsiyasi** namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

**Sotsiologiya mafkuraviy funktsiyani** ham bajaradi.

U **birinchidan**, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarini ishlab chiqishga qaratilgan.

**Ikkinchidan**, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish.

**Uchinchidan**, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish.

**To'rtinchidan**, malakali mutahassislarni tayyorlash va ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga, uyfun hissiyo'nlarni ijtimoiy munosabatlarga hizmat qildirib yahsxilashga ham yordam berishi mumkin.

SHu tufayli sotsiologiya **insonparvarlik funksiyasini** ham bajaradi.

### **Sotsiologiyaning metodlari:**

Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini nazariy hal etishga hizmat qiladigan o'ziga xos metodlari ham mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

1. **Funksional metodologiya** (jamiyatdagi hodisalarning ahamiyatini aniqlashga intiladi).

2. **Fenomenologik metodologiya** (jamiyat a'zolarining mavqeini aniqlashga harakat).

1. Tasniflash metodologiyasi (bu qo'llanishiga ko'ra klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirishlarni o'z ichiga oladi). SHuningdek, sotsiologiya fani muayyan ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etish asnosida umumiy, maxsus hamda empirik metodologiya tamoyillariga tayanib ish tutadi.

**Sotsiologiya ob'ektini turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllangan:**

**1. Tushuntiruvchi** (umumiy qonuniyatlarni, ob'ekt xususiyatini hislatini belgilaydi, aloqa, munosabat o'rnatishni nazarda tutadi) metodologiya.

**2. Ta'riflovchi** (ya'ni tavsiflash, klassifikatsiyalash, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirish) metodologiya.

**3. Tushunuvchi** (ya'ni, inson faoliyatini o'rganishda tabiiy hamda ijtimoiy fanlar qonuniyatlaridan uyfunlashtirib foydalanishni taqozo etuvchi) metodologiya.

## **1.2. Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati**

**Qonun** deganda, odatda aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoki munosabatlar tushuniladi.

Sotsial qonuniyat – sotsial voqelik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi.

Sotsial qonunlar sotsial munosabatlarni ham aks ettiradi. Bular halqlar, millatlar, sinflar, sotsial-kasbkorlik guruhlari, shahar va qishloq, shuningdek, jamiyat va oila, jamiyat bilan shahs o'rtasidagi munosabatlardir. Sotsial qonunlarni odamlar o'z hayotiy faoliyatlari uchun zaruriy bo'lgan sharoit ta'siri ostida qo'llaydilar.

Tabiat qonunlari kabi sotsial qonunlar voqealarning tabiiy harakati davomida paydo bo'ladi. Ular ko'pxilik individlarning ijtimoiy vaziyatda va ob'ektiv aloqalarda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi natijasi hisoblanadi, kixilar o'z faoliyati davomida moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishda qatnashadilar. Mahsulotni ayirboshlaydilar, taqsimlaydilar va iste'mol qiladilar, bolalarni dunyoga keltiradilar va tarbiyalaydilar, ularning irodasi va ongi bilan bo'fliq bo'lmagan holda qonuniy voqealar zanjiri yuzaga keladi.

Sotsial qonun va qonuniyatlarni tadqiq etish, demak sotsial soha turli elementlari o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rnatishdir.

Sotsiologik qonunlar sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan odamlar o'rtasidagi mavjud o'ziga xos, muhim takrorlanib turuvchi aloqalardir.

Sotsiologik qonunlar 2 turga bo'linadi: **umumiy va hususiy qonunlar.**

#### 1. **Umumiy sotsiologik qonunlar:**

- a) barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi.
- b) sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlarining mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligini ifodalovchisi umumsotsiologik qonunlar.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan faol roli ham muhim sotsial qonuniyatdir. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarining yahlitlanishi, jamoada shunga mos muhitning yaratilishi ishlab chiqarish rivojiga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ehtiyo'j va qiziqishlarning sotsial shartlanganligi ham umum-sotsiologik qonuniyatga kiradi.

SHahs shakllanishi sotsial mohiyatini ham umumsotsiologik qonunlar orqali o'rganiladi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari qonuni o'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish).

2. **Hususiy (maxsus) qonunlar.** Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarida amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar.

Sotsial rivojlanish qonunlari ob'ektiv bo'lib inson ongi, irodasiga bo'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi. SHuning uchun sotsial qonunlar inson faoliyati qonunlaridir, ularning hatti-harakatlari esa - omma va insonlarning, sotsial sub'ektlarning determinatsion mehanizmidir.

Bu jihatdan qaraganda **sotsiologiyaning umumiy qonuniyatlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda** amal qiladi.

Qonunlarni ularning namoyon bo'lishiga qarab dinamikaga(jo'shqin) oid va statikaga (turrun) oid deb ajratib o'rganish mumkin.

Dinamikaga oid qonunlar ijtimoiy o'zgarishlarning omillari va formalari, yonalishlarini belgilaydi hamda aniq vaziyatda voqealarning davomiyligini anglatadi.

Statikaga doir qonunlar dinamik qonunlardan farq qilib, ijtimoiy voqelik bo'flanishini qat'iy belgilamasdan, faqat o'zgarishlarning yonalishini aks ettiradi.

Sotsiologik tadqiqot amaliyo'tida guruhlariga bo'lish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida sotsiologik qonunlar aloqa formalariga qarab ajratiladi.

Sotsial qonunlar umumiylik darajasi nuqtai nazaridan farq qiladi. Sotsial sohani yahlit holda rivojlantirishni harakterlovchi qonunlar mavjud. Bu qonunlar sotsial sohaning alohida bo'laklarining rivojlanishini belgilaydi (masalan, sinflar, guruhlar, millatlar). **Sotsial qonunlarning beshta kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin.**

**Birinchi,** o'zgarmas harakter kasb etuvchi yoki unga bo'liq bo'lgan qonunlar. Bu qonunga binoan «A» voqelik mavjud bo'lsa u holda, albatta «B» voqelik ham bo'lishi shart.

**Ikkinchi,** rivojlanish tendentsiyasini aks ettiruvchi qonunlar. Unda ijtimoiy ob'ektning tuzilish dinamikasi bir turdagi o'zaro munosabatlardan ikkinchisiga o'tishi bilan bo'liq.



**Uchinchi**, sotsial voqelik o'rtasidagi funktsiyaga oid bo'rlanganlikni qaror toptiruvchi qonunlar. Bu qonunlar u yoki bu ijtimoiy tizimning barqaror holatda saqlab turilishini ta'minlaydi.

**To'rtinchi**, sotsial voqelik o'rtasidagi sababiy bo'rlanishni aks ettiruvchi qonunlar. Masalan, sotsial integratsiyaning eng muhim va zaruriy sharti bu ijtimoiy va shahsiy manfaatlarni oqilona birga qo'shib olib borish hisoblanadi.

**Beshinchi**, sotsial voqelik o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish mumkinligini anglatuvchi qonunlar. Sotsial qonunlar odamlar aniq faoliyati davomida ro'yo'bga chiqariladi.

### **1.3. Sotsiologiya fanining siyosiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni**

Sotsiologiya fani birinchi guruhga bo'rlig bo'lgan, bevosita siyosatning o'zini o'rganuvchi fanlar: 1) Siyosat falsafasi, 2) Siyosiy institutlar to'rrisidagi ta'limot. 3) Halqaro siyosat nazariyasi, 4) Siyosiy tarix kabi fanlar bilan uzviy aloqada faoliyat yuritadi. SHuningdek, Sotsiologiya fani ikkinchi guruhdagi siyosatga yondosh fanlar bilan ham bevosita bo'rlig. Ular: 1) Siyosiy sotsiologiya. 2) Siyosiy psixologiya. 3) Siyosiy antropologiya. 4) Siyosiy geografiya. 5) Siyosiy astrologiya fanlari bilan chambarchas bo'rlanib ketgan. Masalan, **Siyosiy sotsiologiya** - siyosat va jamiyat, ijtimoiy tuzum va institutlar, jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik to'rrisidagi fan bo'lib, u bevosita sotsiologiya bilan jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini birgalikda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.

2. U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy- gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.

3. U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. YA'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.

4. Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadiki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. SHunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladiki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Sotsiologiya statistika fani bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sotsiologiya shuningdek, iqtisodiy nazariya, boshqaruv nazariyasi, tarix, pedagogika, huquqshunoslik, politologiya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

YUqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar, munosabatlarning yuzaga kelishi, funktsionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada boyib, takomillashib boradi. YAngi mazmundagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy qilib borishi bilan sotsiologiyaning o'rganish ob'ekti o'zgarib, uning o'zi ham yanada rivojlanib boradi. SHunga asosan tadqiqot usullari ham mukammallashadi. Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida o'rin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va ma'naviy munosabatlar o'z o'rnini yangisiga osonlikcha bo'shatib bermaydi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak. Sotsiologiya shu vaqt davomida ma'naviyatda ro'y berayo'tgan o'zgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega bo'lgan tadbirlar ishlab chiqishga hizmat qiladi.

## **II BOB. SOTSILOGIYA FANINING YUZAGA KELISHI VA TARAQQIY ETISHI**

### **2-MAVZU. Antik dunyo va o'rta asr SHarq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari**

#### **2.1. Antik dunyo sotsiologiyasi**

Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo, uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy hayotning rivojlanish qonuniyatlarini

o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayo'q yunon faylasuflari asarlarida yoritilgan.

**1. Suqrot (er.av 470–399).** U hakda Aflotuning «Suqrotni alqab» asari mavjud, uni faqat shu asar orqali bilish mumkin. Sababi, Suqrot yo'zgan asarlar bizgacha etib kelmagan. U omma orasida ijtimoiy fikrlari bilan donri ketgan, obro' topgan mutafakkir hisoblanadi. Suqrot «Husndorlar o'z husnlariga doir tushirmaslik uchun, hunuklar esa o'z hunukligini aql-zakovatini tarbiyalash bilan bezamoq uchun tez-tez ko'zguga qarab tursinlar», deydi. U hotiniga «Biz yashamoq uchun eymiz, boylar esa ovqat emoq uchun yashaydilar» degandi. Suqrotning ijtimoiy qarashlarini yana quyidagi fikrlardan bilsa bo'ladi: «Har qanday yo'monlikning ildizi nodonlikda», «Haqiqatni o'zingdan izla». «Haqiqatga bahs orqali erishish mumkin».

**2. Aflotun (er.av 427–347).** Uning falsafiy qarashlari «Bazm», «Teetet», «Fedon» nomli dialoglarida, siyosiy qarashlari esa «Davlat», «Qonunlar» nomli asarlarida bayon etilgan. Aflotun fikricha, olamda «Foyalar dunyosi» birlamchi bo'lib, moddiy dunyo esa uning mahsuli, soyasidir<sup>1</sup>. «Foyalar dunyosi» zamon va makonga bo'liq bo'lmay, u mangu harakatsiz va o'zgarmas, haqiqiy dunyodir. «Foyalar dunyosi»da eng oliy foya – yahsxilik va baht foyasi – hudodir. Boshqa foyalarning hammasi u bilan bo'liq.

**3. Arastu (er.av. 384–322).** Uning «Metafizika» (yoki «Birinchi falsafa»), «Fizika», «Jon to'rrisida», «Analitika», «Kategoriyalar», «Siyosat to'rrisida», «Ritorika», «Etika» kabi asarlari bilan sotsiologik an'analar rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning ta'limoticha, jamiyatning qul va qul egalarga bo'linishi, quldorlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir. Ahloqiy fazilatlar faqat erkin kixsilarga, qul egalarga xosdir. U halqni 2 yo'l bilan: qo'rquv urufini sohib hamda mehr-muhabbat qozonib boshqarish mumkin deydi.

Platon va Aristoteldan keyin T. Gobbs, J. Lokk, J. Milb, G. Leybnits, T. Kampanella, B. Paskal', SH. Montesk'e, J.J. Russo, F. Gizo, B. Konstan, M. Veber va boshqalar jamiyat va davlatni boshqarishdagi parlamentarizm muammolariga o'z munosabatlarini bildirganlar<sup>2</sup>. YAngi davrning mashhur mutafakkiri «J. Lokk o'z davridayo'q fuqarolik jamiyatining havfsizligi va uni muhofaza qilish institutlari genezisi haqida fikr yuritar ekan, halq qonun chiqaruvchi hokimiyat senat, parlament deb yoki boshqa nomda atash mumkin bo'lgan mushtarak organ qo'lga

<sup>1</sup> Platon i ego epoxa. M., Izd. Nauka, 1979, str 16–92.

<sup>2</sup> Bobobekov A. YUqori palata va parlamentarizm rivoj topishining asosiy yo'nalishlari. «Qonun himoyasida». 2004. 2-son. 22-bet.

berilmaguncha na havfsizlikka, na hotirjamlikka ega bo'lmagan, na fuqarolik jamiyatida yashayapman deb his eta olmagan»<sup>3</sup> deb yo'zgan edi.

Ta'kidlash joizki sotsial fikrlar rivojida diniy ta'limotlar ham muhim o'rin tutgan.

**4. Budda (buddizm)** - jahon dinlaridan biri bo'lib, asosan Hindiston, Nepal, Birma, Yaponiyada keng tarqalgan. U er.av 6-asrda SHimoliy Hindistonda ham rivojlangan. Budda ta'limotidagi sotsiologik foyalarga ko'ra, inson hayoti – yo'vuzlik va azob-uqubatdan iborat, azob-uqubat chekishning sabablari esa istak va ehtirosdadir, ana shulardan qutilmoq kerak. Budda taklif qilgan «qutilish» yo'li dindor kishi uchun «taqvodorlikka intilish» va «yahsxilik bilan hayot kechirish»ga borib taqaladi.

**5. Zaratushtra (Zardusht).** Milod. av 6-asrdan to milodning 3-asrigacha bo'lgan dualistik dunyoqarash markazida zardo'shtiylik ta'limoti yo'tadi. Zardushtlik faqat din bo'lib qolmay, balki o'sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-falsafiy qarashlari ifodasi hamdir. Zardushtiylikning nazariy asosi «Avesto» adabiy yo'dgorligi hisoblanadi. «Avesto»da qadimgi kixsilarning tabiat va uni bilish yo'llari haqidagi tasavvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan. «Avesto»da afsonaviy tasavvurlar bilan birga kixsilarning hayotiy tajribalari ham o'z ifodasini topgan. Kitobda inson va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. «Avesto»da inson, mehnat dehqoncxilik kabi ezgu ishlar uluflanadi. Sotsial qarashlar taraqqiyotida qadimgi Hitoy sotsial foyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**6. Konfutsiylik (551–479)** - millodan av. V-III asrlarda vujudga kelgan ta'limotdir. U qadimgi Hitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu ta'limot Hitoy, Bobil, Misr mamlakatlarida keng tarqalgan. Konfutsiyning falsafiy va sotsiologik qarashlarida ahloqiy masalalar markaziy o'rinda turadi. «Hamma odamlar bir-birlaridan farqlanadilar» -, yangini bilish uchun - eskini o'rganish kerak», «mulohazasiz ta'limot foydasizdir, ta'limotsiz mulohoza bo'lmaydi» - degan fikrlar shular jumlasidandir.

## 2.2. SHarq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari

**1. Muhammad ibn Muso Horazmiy (783-850)** - Markaziy Osiyoning jahonga mashhur olimlaridan biri. U qomusiy olim sifatida

---

<sup>3</sup> Lokk Dj. Sochinenie. V 3t. «Perevod s angl. i lat. T.3.» Red. i sost., primech. A.L. Subbotin. – M. Мысль. 1988. – st. 316.

dunyoga taniladi. Ko'proq Bofdodda yashagan. Halifa Ma'mun rahnamoligida SHarqning fanlar akademiyasi – Baytul-hikma» («Donishmandlar uyi»)da ishladi. U bu erda juda ko'plab matematik, astronomik kuzatishlar olib bordi. Horazmiy "Ilmlar kalitlari" asarida ilmlarni 2 qismga: 1) an'anaviy arab ilmlari va 2) ajam (arab bo'lmagan) ilmlarga ajratgan. Horazmiy algebra fanining asoschisidir. «Algebra» so'zi uning tomonidan kashf etilgan, tenglamalarni echish metodi esa «aljabr» bilan borliqdir.

**2. Abu Nasr Forobiy (873–950).** U o'zining ko'plab ijtimoiy fikrlari bilan sotsiologik bilimlar rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning «Fozil shahar aholisi qarashlari haqida kitob», «Ijtimoiy ahloqiy risolalar», «Falsafiy risolalar» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tuzumini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan. Forobiy sotsiologiyaga doir quyidagi o'gitlarni yo'zib qoldirgan:

1) Turli masalalar hususida fikr yuritish, ularning tarkibi, farqi, ehtimoli va mutloq mulohazalarni tiniq, puhta tahlil etish.

2) Keskin va mutlaq (ya'ni e'tirozga o'rin qoldirmaydigan) mulohaza hususida fikr yuritish.

3) Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bo'lmagan farqli mulohazalar hususida fikrlash, ularning qanday holatlarda qarama-qarshi kuchga aylanib qolishini o'rganish.

4) Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlar, mulohazalarning qanday ko'rinishlarga ega ekanligini qayd etish.

5) Haqiqiy mezon asosida har bir mulohazaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirish va ularning qanday ahvoldaligini o'ylab ko'rish.

6) O'zgaruvchan, o'zgarmas va o'zgaruvchi mulohozalarning o'zgarish ma'no va sabablarini bilib olish.

7) Ma'lum bo'lgan umumiy fikrdan kelib chiqmaydigan mulohaza ko'rinishlari hususida fikrga ega bo'lish.

8) Fikr-qarashlar ta'rifi, ularning nimalar asosida turishi, tarkib topganligini, ehtimolli va mutlaq fikr-qarashlar haqida ilmiy tasavvurlarga ega bo'lish lozim.

Demak, har qanday sotsiolog:

a) ijtimoiy fikr; b) har bir individ fikrini tahlil va sintezdan o'tkazishi kerak.

Forobiy fikricha, davlat - ijtimoiy tuzumni boshqaruvchi tashkilot, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlari, hokimning fazilatlariga borliq. «Fozillar shahrining birinchi boshlari - shu shahar

aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan 12 hislat, fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur», deydi. Bular:

1) hokimning to'rt muchali sof-salomat bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarishi lozim;

2) nozik farosatli, hotirasi yahshi, zehnli, fikrini ravshan tushuntira oladigan, bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi;

3) taom eyishda, ichimlikda, ayo'llarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, o'zini tiya oladigan bo'lishi va haqiqatni sevadigan, yo'lfon va yo'lfoncxilarni yo'mon ko'radigan, oliyhimmat bo'lishi, oliy ishlarga intilishi zarur;

4) mol-dunyo ketidan quvmaydigan;

5) tabiatan adolatparvar, istibdod va jabr-zulmni yo'mon ko'ruvchi, sabotli, jur'atli, jasur bo'lish, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymaslik kabi hislatlardir.

Forobiy o'z zamonasining qomusiy olimlaridan biri bo'lib, ilk bor to'liq ilmlar tasnifini yaratdi. Uning «Kitob fi ihso al-ulum va at-ta'rif» («Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi») yoki qisqacha nomi «Ihso al-ulum» («Ilmlar tasnifi») asarida ilmlar quyidagicha tasnif qilingan:

1. Til haqidagi.

2. Mantiq.

3. Riyo'ziyo't.

. Tabiiy va diniy ilmlar yoki metafizika.

54. SHaharlarni boshqarish ilmi yoki siyosat, fikh va kalom ilmlari va h.k.

Forobiy «Ilmiy san'atlar haqida»gi risolasida ilmlarning quyidagi tasnifini keltiradi:

1. Hayotni tartibga soluvchi va hayotiy ishlar to'rtisidagi ilmlar majmui.

2. SHariat:

a) Qur'on.

b) Qur'on talqini ilmi.

v) Payғambarlar rivoyatlari ilmi.

g) Fikh, sunnat va buyurilgan narsalar.

d) Hutba, va'da berish, fidoyilik ilmlari.

e) Tushlarni talqin qilish ilmi.

3. Falsafa.

**Arab ilmlari:**

1) Fikh.

2) Kalom.

3) Grammatika.

4) Ish yuritish.

5) SHE'riyat va aruz.

6) Tarix.

Arab(larniki) bo'lmagan ilmlar:

1)Falsafa.

6) Ilmu-n-nujum (astronomiya).

2) Mantiq.

7) Musiqa.

3) Tib.

8) Mehanika.

4) Hisob.

9) Kimyo'.

5) Handasa.

**3. Abu Rayhon Beruniy (973-1048).** Beruniy Markaziy Osiyo'dagina emas, balki umuman SHarqda, jahon fani va madaniyati tarixida ham eng uluf va buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U o'zinig «Qadimgi halqlardan qolgan tarixiy yo'dgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, erdagi burchi, olijanobligi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to'rtisidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Qadimgi halqlardan qolgan tarixiy yo'dgorliklar» asarida turli halqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, hristian-molikiylar va hristian-nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'rtisida qimmatli ma'lumotlar yo'zib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi, bu erdagi halqlarning urf-odatlar, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalari to'rtisida ishonchli fikrlar keltirgan.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar hususida muhim ilmiy-falsafiy foyalarni ilgari suradi va isbotlab berdi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, paydo bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy-ilmiy va sotsiologik mulohazalarini o'rtaga tashlaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 1998 yili tarixchi olimlar bilan uchrashuvda shunday degan edi: «Abu Rayhon Beruniy bobomizning bundan o'n asr burun aytgan fikrlarini eslatib o'tmoqchiman: «Ilm-fan kixsilarning hayotiy ehtiyo'jlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi»<sup>1</sup>.

**4. Ibn Sino (980-1037)** - Uyfonish davri madaniyatining yirik mutafakkirlaridan biri. U 400 dan ortiq asar muallifi edi. Uning yo'zgan asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taalluqlidir. SHundan 242 tasi bizga etib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyo't, tasavvuf, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhshunoslikka barishlangan. U SHarqda «SHayhur-rais» - «Olimlar boshliri» deb nom olgan. «Kitob ash shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najoat», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob al-qonun fit tib» («Tib qonunlari kitobi») va boshqa asarlari bor. Ibn Sino o'zining bir nechta falsafiy risolalarida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy munosabatlarni atroflicha yoritib bergan. Mutafakkirning «Solomon va Ibsol», «YUsuf qissasi» kabi asarlari bunga misol bo'la oladi.

**5. Ibn Holdun (Ibn Holdun Abdurahmon Abu Zayd 1332-1406)** arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining asarlarida «Sotsiologiya» (arab.ilm al-ijtimo') faniga oid dadil fikrlarni o'rtaga tashlagan va SHarqda haqli ravishda shu fan asosxilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370) asarining muqaddima qismida tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. U insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratdi. SHarqning etuk sotsiologi bo'lgan Ibn Haldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kixsilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'frisida» deb nomlagan. Ibn Haldun sotsiologik ta'limotining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1) «Insoniyat jamiyati vujudga kelishining mohiyati sabablari, mavjudligi va mazmunli hayot kechirishning asosiy shart-sharoitlari, avvalo ularning (insonlarning) o'zaro munosabatlaridan iborat bo'ladi.

2) Tabiiy fizik-jurrofiy muhitning hayotga ta'siri jismoniy qiyofa va kixsilarning ruhiyatida ko'rinib, bu jarayonda ikki - tabiiy jurrofik va ijtimoiy muhit bir-biri bilan bevosita munosabat va ta'sirda bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 150-bet.



3) Tabiiylikdan yuqori bo'lgan kuchning jamiyat hayotiga ta'siri va bu ta'sirdan qutilish imkoniyatlari.

4) Insoniyat jamiyati kixxilarining ana shu birikmasi birlashmasining natijasidir».

5) Bunday insoniyat uyushmalarini boshliqlar boshqaradi va uning tanlanishi Alloh tomonidan emas, balki insonning hayot vositalariga bo'lgan intilish va tabiiy ehtiyo'jlari tufayli sodir bo'ladi.

Ibn Haldundagi bu qarashning yunon faylasuflari Arastu va boshqalarning «inson siyosiy majudotdir» degan foyasidan farqi ham shundadir.

6) Insonning ijtimoiy mavjudligini uning faqat ma'naviy tabiatidan emas, balki tabiiy ehtiyo'jlaridan keltirib chiqaradi.

Kixxilar mavjud ekan, ularning ehtiyo'j va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari hamda shahslar o'rtasida kelishmovcxilik, qarama-qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilish ishlarini o'rtaga qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu foya ham Ibn Haldun qarashlarining muhim xulosalaridandir.

Ibn Haldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yo'zadi.

Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo'ravonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz shohga bo'linadi. YAshhi hukmdor shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini halqi zo'r-bazo'r sezadi va u o'z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo'ladi. CHunki o'z siyosatini adolat asosiga qurgan shohning fuqarolari kuchli va erkin bo'ladi, buning oqibatida ular qudratli yaratuvchi kuchga aylanadilar.

SHu bois mutafakkir shohlarga maslahat berib, halq erkinligini haddan ortiq bo'fmaslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqtish yo'li bilan bo'lar ekan, u hoh o'quvchi, hoh qul, hoh hizmatkor bo'lsin, ularga qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o'sishiga halaqit beradi, harakatchanlikni so'ndiradi va uning o'rniga yalqovlik, aldash, yo'lfoncxilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan shu zo'ravonlik ta'sirida sodir bo'ladi. Ular qalbi befarqlik bilan to'ladi, yahshi va fazilatli sifatlaroi sdan ham mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishini siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini, yanada erkinlashtirish haqidagi masalani ko'targanliklari bejiz emas, albatta.

**6. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1529)** temuriylar sulolasining eng buyuk vakillaridan biri. Hindistonda «Buyuk mo'fullar» deb nomlanuvchi saltanatni q Ur gan, turkiy, arab-musulmon, fors-

tojik, hind madaniyati, badiiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy va diniy-tasavvufiy fikriga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir.

Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'z davri ijtimoiy hayotini voqeligini, inson shahsi xususiyatlarining yahshi va yo'mon tomonlari, Andijondan Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududda yashagan halqlarning ijtimoiy jihatlarini shahsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yo'zib qoldirgan.

Xulosa qilib aytganda, IX-XII asrlar va temuriylar davri madaniyat, san'at, adabiyotning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikrlar taraqqiyotida ham o'ziga xos bir bosqich bo'ldi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Antik dunyo olimlarning «oltin davri»da sotsiologik qarashlarni ilgari surgan Suqrot, Aflotun, Arastu, Konfutsiy kabi mutafakkirlar inson, tabiat va jamiyatning o'zaro umumiy munosabatlarini aniqlaganlar. Antik davr sotsiologiyasi o'zi yuzaga kelgan davr ijtimoiy tuzum va tartiblari, davlat va jamiyat qurilishi, ana shu tizimlardagi shahslarning o'rni va roli, siyosiy va ma'naviy hayot jarayonlarining yorqin va real ifodalovchi sifatida foyatda saboqlidir. Bu davrda diniy ta'limotlar, ayniqsa «Avesto» manbalarida bayon etilgan zardushtiylik ta'limoti ezgu roya ezgu fikr, ezgu amal haqidagi qarashlar ham bizga boy ma'lumotlar beradi.

2. O'rta asr SHarq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari sotsiologiya, falsafa, fan muammolariga qiziqishning har tomonlama tiklanish jarayoni sodir bo'lishi bilan bog'liq. Bu jarayon SHarq yoki Musulmon Renessansi nomi bilan tarixdan o'rin oldi.

3. Islom o'rta asrlar SHarq uyronishining diniy-ijtimoiy, falsafiy va ma'naviy negizini tashkil qiladi.

### **3-MAVZU. FARBIY EVROPA SOTSILOGIYA MAKTABI. XX ASR SOTSILOGIYASI**

#### **3.1. XIX asr ohiri va XX asrning boshlarida sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlantirilishi (O. Kont, G. Spenser, E. Dyurkgeym, M. Veber va boshqalar)**

Sotsiologiyani «kuzatishga asoslangan fan darajasiga» ko'tarish talabini frantsuz utopistlari Sen-Simon, SHarl Furbe va Robert Ouenlar ilgari surgan. Ular XVIII asr 2-yarmida va XIX asr birinchi yarmida bu

fanning ba'zi masalalari hususida o'z fikr-mulohozalarini bildirganlar.tstststs

Sotsiologiyaning fan sifatidagi asosiy rivojlanish bosqichlari: **klassik, noklassik, marksistik va XX asr Amerika sotsiologiyasi** kabi sohalarga bo'linadi. Quyida ana shu sohalarga qisqacha to'htalamiz:

**1. Klassik sotsiologik, falsafiy qarashlar.** Nemis klassik falsafasida ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi ilgari surilgan. Nemis klassik falsafasining asoschilaridan biri sifatida tan olingan. **1) I.Kant (1724–1804)** dialektika foyalarini qayta tiklagan mutafakkir. Kant o'zining tabiiy-ilmiy qarashlari bilan tabiatni metafizik tarzda tushunishga chek qo'ydi. Falsafaning borliq, ahloq va din kabi muammolari bilan shuullanishdan avval insonning bilish imkoniyatlarini aniqlab olish lozim, degandi. Kant kishini o'rab turgan tashqi dunyodagi narsalarni ikki turga ajratadi: a) o'z-o'zida mavjud bo'lgan narsalar dunyosi; b) sezgilarimiz aks ettirgan narsalar, hodisalardir. Inson bilish jarayonida hodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma'lum vaqt makon bilan bo'rlab o'rganadi.

**2) G.F.Gegelʼ (1770–1831).** Nemis klassik falsafaning vakili, uning ta'limoticha, barcha mavjud narsalarni asosida «mutloq foya» (ruh)ning rivoji yo'tadi. Oldin mutloq foya «sof borliq» sifatida mavjud bo'ladi. Keyinchalik u rivojlanib mazmun jihatdan biridan biri boy bo'lgan tushunchalarni vujudga keltiradi. Inson ongi rivojlangan sari foya moddiylikdan qutulib boradi. Ohiri mutloq foya oldingi holatiga qaytadi.

**3) L.Feyerbah (1804-1872).** Nemis klassik falsafasining so'nggi vakili bo'lib, falsafadagi materialistik yonalishga mansubdir. U Gegelning mutloq foyasiga qarshi chiqadi. Feyerbah fikricha, tafakkur insondan tashqarida, unga bo'rluk bo'lmagan holda mavjud bo'lishi mumkin. Feyerbah: tafakkur, ong ikkilamchidir, materiyaning, tabiatning mahsulidir, deydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi. XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy qismi bo'lib keldi. Jamiyat haqida «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi. XIX asr boshlarida esa sotsiologiya o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib, falsafadan to'la ajralib chiqa boshladi.

Lekin u mustaqil fan sifatida XIX asrning 30-yillarida ilmiy muomalaga «sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so'ng shakllandi.

**4) Ogyust Kont (1798-1857).** Frantsuz faylasufi, yangi fanga «sotsiologiya» deb nom berdi. Kont nuqtai nazariga ko'ra, sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandir. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar,

eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O. Kont tomonidan 1839 yilda «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi jildi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o'rganish sifatida sotsiologiya terminini qo'lladi va bu sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Keyinchalik sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont sotsiologiyani ikki qismga ajratadi: a) sotsial statika va b) sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o'rganilishini ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivojini insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili deb qaraydi. Bu tamoyil hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O.Kont: «Har qanday bilim tafakkur mahsulidir va u insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, aks holda bu bilimlardan fozarli maqsadlarda foydalanilsa, jamiyatga katta zarar keltiriladi», degan edi.

O.Kontning ta'biricha, sotsiologiya inson aqlini va psixikasini ijtimoiy hayot ta'sirida takomillashib borishini o'rganib boradigan yagona fandır. Bu fikrni Kont butun bir ta'limotga aylantiradi, va unga muvofiq jindivid abstraktsiyadir, jamiyat esa voqelik bo'lib, u tabiiy qonunlarga bo'ysunadi. Umuman, sotsiologiyada O.Kont yana quyidagi metodlarni asoslab berdi: a) kuzatish metodi; b) eksperimental qiyo'siy; v) tarixiy metod; g) qiyo'siy metod - bu metodlar sotsiologiyada pozitiv fanlarning metodlari ham deyiladi. Kontning fikricha, tarixiylik metodi yordamida olingan har bir induktiv xulosalar asosida inson biologik nazariya tushunchalari yordamida qiyo'slanib tekshirilishi lozim.

O.Kont tomonidan ta'riflangan inson intellektual rivojlanishining uchta izcxillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivistik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.

**Birinchi teologik bosqichda** insonning fayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosiga qurilgan.

**Ikkinchi metafizik bosqichda** inson fayritabiiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat, sabab va boshqa falsafiy me'yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi - tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u **uchinchi - pozitiv yoki ilmiy** bosqichni tayyorlaydi. Bu bosqichda inson mavhumiy mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir

bosqichdan ikkinchisiga o'tish hamma fanlarda bir vaqtlarda bo'lmasada, izcxillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon oddiydan murakkabga (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida yuzaga chiqariladi.

O'rganilayo'tgan ob'ekt qanchalar oddiy bo'lsa, u erda pozitiv bilimlar shuncha tez qaror topadi. SHuning uchun pozitiv bilimlar, avvalo matematika, fizika, astronomiya, himiyada, so'ng esa biologiyada tarqaladi.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar cho'qqisidir. U o'z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to'plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e'tirozni turdirmaydigan empirik ma'lumotlar majmuini nazariy tahlil etishga suyangan. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun bo'ldi. Bu omillar jamiyat tarixida juda katta ijobiy ahamiyatga ega. SHu tufayli sotsial va kasbkorlik guruhlari yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o'sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko'tariladi.

O. Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, sotsiologiyani ikki qismga: sotsial turfunlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi. Sotsial turfunlik ijtimoiy tuzumlarining amal qilish sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O. Kont sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarning sotsial funktsiyalari, ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqilgan. Sotsial jo'shqinlikda O. Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.

O. Kontning ko'pgina foyalari, ijobiy ko'rsatmalaridan foydalangan, shuningdek yahlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib, uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri Gerbert Spenserdir.

**5) G. Spenser (1820-1903)** ham O. Kont kabi keng ma'lumotga ega bo'lgan olim, o'z davrining buyuk aql egalaridan biri hisoblanadi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bo'yicha qator ilmiy asarlar muallifidir. G. Spenserning asosiy asari «Sintetik falsafa tizimi» bo'lib, unda tabiiy va sotsial voqealarning tarixiy rivojlanishi haqidagi chuqur qarashlarini bayon etgan. G. Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini «Ilmiy siyosiy va falsafiy tajribalar» asarida atroflicha bayon etgan.

G. Spenser jamiyatga tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvchi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik

organizmga o'zlashtiradi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o'sish va rivojlanish jarayonida o'z massasida ortib boradi.
2. U va boshqalari murakkablashadi.
3. Uning qismlarining tobora bir-biriga bog'liqligi kuchayib boradi.
4. Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, bir butun holda yashashni davom ettiradi.

G.Spenserning sotsial, shuningdek evolyutsiya nazariyasi katta qiziqish uyotadi. Evolyutsiyada u quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatgan: Oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya); bir turdan xilmaxillikka o'tish (differentsiatsiya, noaniqlikdan aniqlikka o'tish tartibining o'sishi). Sotsial evolyutsiya bu - jamiyatning murakkablashuvi yo'lidagi progressiv rivojlanish va sotsial, avvalo, siyosiy institutlarni takomillashtirish sohasidagi faoliyatdir. G.Spenser sotsial evolyutsiyaning odamlar ehtiyo'jlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

«Davlat evolyutsiyasi sotsial ehtiyo'jlar natijasi hisoblanadi», - deb ta'kidlaydi Spenser.

G.Spenserning nuqtai nazaricha, sotsial evolyutsiya jarayonida odamlarning va turli sotsial institutlar jamoaviy faoliyatining ahamiyati ortadi. Turli avlod odamlarning birgalikdagi intilishlari orqali amalga oshirilayotgan sotsial evolyutsiya davomida jamiyatning ko'p funktsiyalari o'zgaradi.

G.Spenser jamiyatning parchalanish muammosini - muvozanat, uyfunlik va barqaror qarama-qarshi bo'lgan jarayon deb hisoblab, shu asosda o'z qarashlarini bayon etgan. Jamiyatning parchalanishi, uning fikricha, inqirozga uchrashi orqali yuz beradi. Bu jarayon ichki, shuningdek, tashqi sabablar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Jamiyatning parchalanishi siyosiy hokimiyat, armiya, o'tmishda progressiv bo'lgan tashkilotlarni o'z ichiga olgan davlat institutlari samarali faoliyat ko'rsatishining kuchsizlanishi natijasida boshlanadi. Jamiyatning parchalanishi jarayonida, deb davom etadi Spenser, integratsiyalashgan harakatlarning kamayishi va markazdan qochuvchi harakatlarning kuchayishi yuz beradi. Tartibsizlik kuchayadi, hukumat o'zining qobiliyatsizligini namoyish etadi. Spenser aytgan ushbu fikrlar dolzarb, mazmunan chuqur va aniq ekanligi nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Spenserning fikr va qarashlari bizning zamondoshlarimizga hozirgi hayotning mazmunini chuqur tushunib olishlariga yordam beradi.

**6) XIX asrning ohiri va XX asr boshlaridagi sotsiologik pozitivizmning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, bu frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeymdir (1858-1917).** U bir necha marotaba O. Kont va G. Spenserlar sotsiologik qarashining ahamiyatini ta'kidlagan, ularni tanqidiy anglagan va yanada rivojlantirgan. U bir butun sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi nazariyani ishlab chiqib, rivojlantirgan. U sotsial realizm nazariyasida sotsial voqelik tabiatini sotsial voqealar orqali tushuntirish lozimligi, odamlarning fe'l-atvorini tahlil etishning boshlanishi bo'lib individlar, ijtimoiy guruhlar va tegishli sotsial institutlarning o'zaro munosabat tizimini tashkil etgan jamiyat hisoblanishini yoritadi.

Dyurkgeym «Sotsiologiya uslubi» nomli asarida sotsiologiya sohasidagi jamiyat rivojlanishi nazariyalarini ishlab chiqishga e'tiborini qaratib, sotsial omillarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan tafsilotlarni yaratish ustida shurullangan.

Sotsiologiya,- deb yo'zadi u, – sotsial dalillar haqidagi fan bo'lib, uning asosida siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy va boshqa royalar, qoida va qadriyatlar yo'tadi. Dyurkgeym fikricha, amaliyo'tda ro'yo'bga oshiriladigan odamlarning roya va madaniy qadriyatlari sotsial voqelikning yakuniy sabablari bo'lib, hisoblanadi. Aynan ana shunda, u har qanday sotsial evolyutsiyaning manbai mavjudligini ko'radi. Bunda so'z jamoaviy ongning nomoyon bo'lishi sifatidagi royalar va ma'naviy qadriyatlar ustida boradi.

Sotsial nazariya va uslub muammolarini ishlab chiqishda Dyurkgeym sotsiologiya va falsafaning o'zaro ta'siri muammolariga ham e'tiborni qaratgan. U sotsiologiya buyuk falsafiy ta'limotlardan yuzaga kelganligini e'tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyanganligini ta'kidlaydi. Sotsiologiya -deb yo'zadi Dyurkgeym, - allaqachon mustaqil fan bo'lib shakllangan, o'z predmetiga ega va shu tufayli o'z ishi bilan shurullanishi kerak. Dyurkgeym asarlari sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida qaror topishida muhim rolni o'ynaydi.

**2. Noklassik sotsiologik qarashlar tipi.** Sotsiologiyaning noklassik tipi nemis faylasuf, sotsiologi G.Zimmels (1858-1918) va M.Vrber (1864-1920)lar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodologiya asosida jamiyat va tabiat qonunlarining butunlay qarama-qarshi ekanligi tushunchasi yo'tadi.

**1) G.Zimmels (1858-1918)** - nemis faylasufi va sotsiologi. Uning hozirgi kunda 14 tomlik asari chop etilgan. Asosiy asarlaridan «Darvinizm va bilish nazariyasi», «Sotsial differentsiatsiya: sotsiologik va psihologik tadqiqotlar» kabilardir. U Marks royalariga ta'sir o'tkazdi. Zimmels

fikricha, sotsial fanlar uchun a'anaviy xususiyat - boshqa fanlar shufullanadigan fanlar predmetini tanlash uchun emas, balki metod sifatida kerak. Zimmel' qarashicha: a) umumiy sotsiologiya - turli ijtimoiy fanlarda a'anaviy predmetlar doirasini, qonuniyatlarini aniqlaydi; b) sotsiatsiya (muloqot)ning shakllarini tasvirlash; v) sistemalashtirish - toza haqiqiy yoki formal sotsiologiyadir. Asl sotsiologiya jamiyat haqidagi turli fanlarning tadqiqotxilariga o'z predmetlariga sotsiologik yondashishlarini ta'minlash uchun kerakli yonalishlarni ishlab chiqishi lozim. Asl sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologiya bo'lib hizmat qilsa, hususiy sotsial fanlar uchun nazariya bo'lib hizmat qiladi. Sotsial bilish sistemasi o'zida ikkita falsafiy fanlarni birlashtiradi: 1) Bilishning sotsiologik nazariyasi va 2) Sotsial metafizika.

Sotsial bilimning uch darajali kontseptsiyasi - umumiy - formal - falsafiy sotsiologiya vujudga keladi. Zimmel' fikricha, «Sotsiologiya hususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir». U jamiyatning umumsotsiologik qonuniyatlarini rad etib, shunday fikrlarni yo'zadi: «Ijtimoiy rivojlanish qonunlari to'frisida so'z bo'lishi mumkin emas. Albatta, har kandy ijtimoiy unsur harakati tabiiy qonunlarga bo'ysunadi; ammo umumiy jamiyat qonuni yo'q: bunda barcha tabiatdagidek, qonunlar ustidan hukmronlik qiladigan qonun yuq. SHuning uchun biz har qanday ikki bir xil ijtimoiy sharoitda mutlaqo boshqa-boshqa hodisalarni keltirib chiqaradigan kuchni bila olmaymiz»<sup>1</sup>.

**2) Maks Veber (1864-1920).** Buyuk nemis sotsiologi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va nazariy pozitsiyalari ko'p jihatdan XIX asrning ohirgi choragida Germaniyadagi ijtimoiy-siyosiy holat va vaziyatlar bilan bevosita bo'fliq. Uning «O'rta asrlardagi savdo jamiyatlari tarixiga oid» (1989), «Rim agrar tarixi va uning davlat hususiy huquq uchun ahamiyati» (1891), «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» (1905), «Dunyo dinlarining ho'jalik etikasi» (1919), «Ho'jalik va jamiyat» (1920) kabi asarlari sotsiologik ta'limotlarga barishlangan. M.Veber Dil'teyning antinaturalizmni yo'qlaydi. U insonning ongli mavjudod ekanligini» hech bir tarixchi yo' sotsiolog, iqtisodchi inkor eta olmasligini ta'kidlaydi.

M.Veber fikricha, madaniyat, jamiyat va tarix haqidagi fanlar huddi tabiiy fanlarga o'hshab baholash fikrlaridan holi bo'lishi kerak. Lekin bu holat olimni jamiyatga baho berish va unga bo'lgan qiziqishlaridan voz kechishi lozim degan fikrni tur'dirmasligi kerak. Faqatgina bu qiziqish va baho berish asosida olimning ilmiy xulosalar doirasiga bostirib kirishi joiz emas. Bu doiradan tashqarida u qanchalik o'z mulohazalarini bayon qilishini o'zi belgilaydi, lekin endi olim sifatida emas, balki hususiy shahs

---

<sup>1</sup> Zimmel' G. Sotsial'naya differentsiatsiya. Moskva. 1909, 3-bet.



sifatida. M. Veber qadriyatni u yoki bu tarixiy davrning ko'rsatmasi, davrga xos bo'lgan manfaatning yonalishi deb talqin qiladi. M. Veber qadriyatli hukmlar doim shahsiy va sub'ektiv xususiyatga ega deb bilgan. Ularni ahloqiy, siyosiy yoki boshqa qarashlar bilan bo'liq, deb hisoblaydi.

M. Veberda sotsial bilishning asosiy quroli «ideal tip» hisoblanadi. Ideal tiplar - bu sotsial tarixiy reallikni taqqoslash orqali bilish to'rtinchi darajadagi tushuncha hisoblanadi. Uning fikricha, barcha sotsial ma'lumot sotsial tip bilan tushuntirilmog'i lozim. Veber davlat tiplari va ratsionallik tiplari kabi sotsial faoliyat tipologiyasini ham ilgari suradi. «Kapitalizm», «byurokratizm», «din» va shu kabi ideal tiplarga asoslanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ideal tip tushunchasi yordamida M. Veber tarix va sotsiologiya fanlari o'rtasidagi masofani qat'iy qisqartirib, har ikkovining rolini aniq belgilab beradi<sup>1</sup>.

Umuman olganda, G. Zimmels va M. Veberlar sotsiologik bilimlar predmeti sifatidagi «jamiyat», «halq», «insoniyat», «jamoatchilik» kabi tushunchalarni rad etadilar. Ular sotsiologik tadqiqot predmeti faqat individ bo'lmog'i kerak, deb hisoblaydilar.

**3. Marksistik sotsiologiya ta'limoti. K. Marks (1818-1883) va F. Engel's (1820-1895).** K. Marks va F. Engel'sning jamiyat turrisidagi materialistik ta'limoti sotsiologiyadagi klassik va noklassik tiplarning o'ziga xos sintezi sifatida vujudga keldi. Marksizmda sotsiologiya predmeti jamiyatning asosiy rivojlanish qonuniyatlarini, uning ijtimoiy birliklari va institutlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat taraqqiyotini materialistik tushunishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) Tarixiy materializmning asosiy tamoyillaridan biri ijtimoiy rivojlanish qonuniyatini e'tirof etish. Haqiqatan ham K. Marks jamiyat tarixi rivojlanishining umumiy qonuniyatini kashf etdi

2) K. Marks va F. Engel's jamiyat hayotida amal qiladigan xilma-xil, ko'plab ijtimoiy munosabatlarni, ularning belgilovchisini aniqlash zarur deb bildilar. Bu ijtimoiy munosabatlar - moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usuli bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridan iborat.

Moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli o'z navbatida sotsial, siyosiy va ma'naviy hayot jarayonlarini belgilaydi. Kisxilarning ongi ularning borlirini belgilamaydi, aksincha, ijtimoiy borliq ularning ongini belgilaydi.

3) Jamiyat to'rtinchi darajadagi materialistik ta'limotning yana bir muhim tamoyili jamiyat hayotining progressiv rivojlanib borishi harakteriga ega ekanligidir. SHu tamoyil asosida Marks va Engel's **ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'rtinchi darajadagi qonuniyatni** ochdilar.

<sup>1</sup> Sotsiologiya tarixi. Toshkent: ToshDU, 1999. 29-33-betlar.

4) Tabiiy-tarixiy jarayonlar tabiatda ro'y beradigan jarayonlar singari qonuniyatli, zaruriyat orqali sodir bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv harakterga ega. Ammo tabiat hodisalaridan farq qilib, jamiyat hodisalari stihiyali tarzda emas, balki unda yashovchi kishilarning ongli faoliyati natijasidan iboratdir. Jamiyat hayotida hech bir hodisa kishilar ongida aks etmay sodir bo'lmaydi.

5) G.Zimmel va M.Veber sotsiologik qarashlaridan farq qilib, K.Marks va F.Engel's sotsiologik qarashlarida empirik sotsiologik ma'lumotlar va nazariy xulosalar «tarixiy davr manfaatlari»ga - proletariat manfaatlariga qaratilgan edi. V.I.Leninda bu yondashuv partiyaviylik tomoyili sifatida yanada rivojlantirildi. Bu esa, jamiyat tarakqiyoti to'rtisidagi barcha «burjua» sotsiologik ta'limotlarini noilmiy deb, inkor etilishiga olib keldi. Umuminsoniy qadriyatlar o'rmini sinfiy, partiyaviy qadriyatlar egalladi.

Marksizm klassiklari empirik harakterdagi ochiq sotsial tadqiqotlarni burjua ilmi ko'rinishi deb qayd etadi. K.Marksning «Kapital», F.Engel'sning «Angliyada ishxilar sinfining ahvoli», «Turar-joy masalasiga doir», V.I. Leninning «Rossiyada kapitalizmning taraqqiyoti», "Buyuk pochini» singari asarlari, nazariy tadqiqotlari ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish asosida sinfiylik printsipi bilan yo'zilgan. Bu borada K.Marks va F.Engel's tomonidan 1848 yilda yo'zilgan «Kommunistik partiya manifesti» asari ana shu sinfiylik va partiyaviylik tamoyilining nazariy cho'qqisi bo'ldi.

K.Marks va F.Engel's sotsiologik qarashlarining ayrim tomonlarini G.V.Plehanov, A.Bebel, R.Lyuksemburg va boshqalar ham rivojlantirib, konkretlashtirganlar. SHuningdek, ularning fikrlarini, sotsiologik qarashlarini V.J.Kelle, S.A.Kugel, P.Tamasha, K.Myuller, I.T.Frolov, V.A.Engel'gardt kabi sotsiologlar rivojlantirganlar, fanning ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa sohalari bilan aloqasini yanada takomillashtirish, fan ahloqi kabi yonalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, sobiq Sovet tuzumi davrida sotsiologiya fani o'tilmay kelindi. CHunki sobiq ittifoq fuqarolarining siyosiy ongi, jamiyat haqidagi qarashlari, davlat, jamiyat, shahs munosabatlarini anglash, bilish siyosiy onglilikka olib kelishini oldindan bilganlar. Sababi «buyuk ittifoq»ni boshqarish uchun uning fuqarolari ongsiz bo'lishi lozim edi. SHu boisdan ham marksizm-leninizm ta'limoti asosida qurilgan jamiyat, davlat: 1) ma'muriy buyruqbozlik asosidagi davlatni yuzaga keltirdi. 2) Mulkcxilikning begonalashuvi: rejali ho'jaligi iqtisodiyoti-davlat mulkcxliligigagina asoslangan edi. 3) Totalitar

aqidaparastlik, kommunistik yagona mafkuraga asoslanib, bir partiyaviylikka tayangan edi. 4) O'zbekiston jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lolmasdi. Qat'iy jihatdan markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmron edi. Bunda jamiyatning barcha sohasi faqat 1) sinfiylikka; 2) partiyaviylikka; 3) inqilobiylikka asoslangan bo'lib, hokimiyat ishcxilar sinfi, o'qimagan tabaqa qo'lga topshirilgan edi. Bu holatlar albatta milliy O'zbekiston Respublikasiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib keldi. Jamiyat rivojlanishi yagona marksistik formatsion nazariyaga asoslanib, u tsivilizatsion taraqqiyot nazariyasini inkor etgan edi. Faqat bu holatlardan bizni mustaqillikgina qutqaza oldi.

**Nomarksistik sotsiologiya** rivojlanishida AQSH sotsiologlaridan T.Parsons, R.Merton, P.Sorokin, F.Znanetskiy, A.Chayld, Ch.R.Mills, V.Stark, P.Berger, T.Lukmansar, Farb sotsiologlaridan S.Latur, T.Kun, S.Chepin, P.Forman, E.M.Malkey, M.Polani, E.SXilz, M.SHeler, K.Manheymlarning roli katta bo'ldi.

### 3.2. XX asr AQSH sotsiologiyasi

Empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi «sotsial obrazlar» yoki «dalillarni tadqiq qilish» deb atalgan narsalarni e'lon qilishdan boshlangan edi. Bu o'rinda gap muayyan sotsial dalil va hodisalarni batafsil bayon qilish va ishlab chiqarish to'rtisida boradi. Sotsiologik muammolarni hal qilishning bunday usuli tez orada birinchi bo'lib AQSHda, ayniqsa, keng tarqaldi. Empirik sotsiologiya shakllanishining markazi CHikago universiteti bo'ldi (uni CHikago «hayot markazi» deb ham atashgan). Bu erda XX asrning 20–30-yillarda empirik sotsiologiyaning yaqqol rivojlanishini ifodalovchi ko'p qirrali amaliy tadqiqotlar keng sur'atda amalga oshirildi. Bu yonalishlar aniq holatlarda kishilar hayot faoliyatlarini mukammal tadqiq etishga qaratilgan edi. Masalan, empirik sotsiologiyaning asoscxilari deb hisoblanuvchi U.Tomas va F.Znanetskiylarning besh tomli «Polyak dehqoni Evropada va Amerikada» (1918-1920) nomli asarida AQSHga ko'chib kelgan polyak dehqonlarining hayotini batafsil tahlil qildilar. Bunda ular ashyo'viy dalillardan, shahsiy hujjatlardan, 28 polyak oilasining shahsiy yo'zishmasi, ayrim kishilarning tarjimai holi, anketalar va shu kabi bir qancha materiallardan keng foydalandilar.

Bu sotsiologiyada tadqiqotlar o'tkazishning yangi turi bo'lib, unda zamon va makon bilan cheklangan juda ko'p dalillar o'rganilar, ammo, odatda jamiyat hayotining muhim tomonlari qonuniyatlariga oid umumlashtiruvchi xulosalar chiqarilmas edi. SHunga ko'ra, tadqiqotlar

o'tkazishda tekshirishning maxsus tartibi va texnikasi ham qo'llanila boshlandi: kuzatish, interv'yu, anketa tarqatish, hujjatlarni o'rganib chiqish, tajriba o'tkazish va modellashtirish, to'plangan materiallarni statistik jihatdan ishlash, diagramma, grafiklar tuzish kabilar.

Ommaviy so'rovlar usuli va texnikasi rivojiga J.G. Gellapning "Jamoatchilik fikrini o'rganish Amerika instituti" faoliyati katta rol o'ynadi. U XX asr 30-yillarida o'n kunlab davom etadigan umummilliy so'rovlarni o'tkazdi.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Amerika Qo'shma shtatlari jahon sotsiologiyasi rivojida etakchi mavqeni egalladi. AQSHda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishida quyidagi omil muhim rol o'ynadi. Kapitalizmning yuqori bosqichga ko'tarilishi, Evropada sinfiy kurashning kuchayishi natijasida majud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan empirik tadqiqotlarning katta hajmda to'planganligi AQSHda sotsiologiyaning fan sifatida jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu erda sotsiologiya dastlab universitet fani sifatida shakllandi. 1892 yilda jahonda birinchi marta CHikago universitetida sotsiologiya kafedrasini va fakul'teti o'chirdi. 1901 yilda sotsiologiya 169 universitet va kollejlarda fan sifatida o'qitilgan bo'lsa, XX asr 80-yillarining ohirlariga kelib bu raqam 250 ni tashkil qildi.

AQSHda sotsiologiya o'zining ilk davridayo'q amaliy-empirik fan sifatida shakllandi. 1910 yildayo'q mamlakatda 3000 dan oshiq empirik tadqiqotlar o'tkazilgan edi. Hozir bu ko'rsatkich ikki baravardan oshib ketgan. Sotsiologik tadqiqotlar o'zining juda katta moliyaviy asosiga ega. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun yiliga 2 milliard dollar ajratiladi. Bu harajatlarning yarmini AQSH hukumati, qolgan yarmini hususiy biznes o'z zimmasiga olgan. AQSHda hozirga kelib 100 ming sotsiolog mutahassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Hukumat va mulk egalari sotsiologiyaga sotsial ziddiyatlarni hal etish quroli sifatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, ijtimoiy nazorat va boshqaruv omili, mehnat unumdorligini oshiruvchi kishilarning moddiy va ma'naviy munosabatlarini tartibga solib turishning ilmiy asosi sifatida jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar. Empirik tadqiqotlar muntazam ravishda olib borilishi fundamental metodologik va nazariy asosning ishlab chiqilganligi, uning matematik statistik, komp'yuter texnologiyasi yuqori darajadali, modellashtirish va sotsial eksperimentlarning yuqori saviyada olib borilishi oqibatida hozirga kelib AQSHda sotsiologiya aniq prognozlar beruvchi fanga aylangan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab, AQSH sotsiologiyasida mehnat munosabatlari, insoniy munosobatlarni o'rganish yangi ijtimoiy-iqtisodiy

munosabatlarga o'tish jarayonlarini tezlashtirdi. Masalan, 1927 -1932 yillarda E.Meyo rahbarligida mehnat va boshqaruv munosabatlarini o'rganishga qaratilgan va Hotorn eksperimentlari nomi bilan mashhur bo'lgan sotsiologik tadqiqotlar ana shunday izlanishlardan biridir. Bu tadqiqotlar Farbiy Evropani larzaga solgan kuchli iqtisodiy tanazzul davrida o'tkazilgan bo'lib, uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi - ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning qo'shimcha omillarini qidirib topishdan iborat edi. SHu asosda 1943 yilda Abrahaam Maslou tomonidan «iste'molning ierarhik nazariyasi» yaratildi va amaliyo'tda qo'llanildi. Keyinchalik, shu nazariya asosida, 1950 yili F. Hertsberg tomonidan «motivatsiya nazariyasi» (mehnat sharoitlarining ichki va tashqi omillari haqidagi nazariya) va 1957 yili D. Makgregor tomonidan «boshqaruv usullari nazariyasi» yaratildi. Bunda boshqarishning 3 asosiy usullari – avtoritar, demokratik va aralash tip haqida fikr yuritiladi. F.Hertsberg nazariyasiga ko'ra, faqat ichki omillargina mehnat mazmunini, mehnatdan qoniqishni oshiradi. Mehnat sharoitlari: ish haqi, shahslararo munosabatlar, korhona rahbariyatining tutgan siyosati, boshqaruv usuli va boshqa shu kabilarga u tashqi omillar sifatida qaraydi.

Bu omillar mehnatdan qoniqmaslik darajasini pasaytirib, kadrlarni, mutahassislarni korhonaga bo'rlanishini mustahkamlaydi. Ammo, bu omillar mehnat unumdorligining oshishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Bu bilan F. Hertsberg quyidagi o'zaro bo'rlqlikni asoslaydi: mehnatdan qoniqish xosil qilish mehnat mazmunining funktsiyasidir. Qoniqmaslik esa mehnat sharoitining funktsiyasidir.

XX asrning 60-yillaridagi AQSH nazariy sotsiologiyasi fenomenologik yonalishning kuchayganligi bilan karakterlanadi. Fenomenologik sotsiologiyaning shakllanishi A. SHnetts nomi bilan bo'rlqlik. O'z mohiyatiga ko'ra, fenomenologik sotsiologiya antipozitiv yonalishda yuzaga kelgan. AQSHda yana bir antipozitiv sotsiologik yonalish - simvolik interaktsionizm bo'lib, unga G. Blumer asos solgan. «YAngi sotsiologiya» nomi bilan atalgan uchinchi antipozitiv sotsiologik yonalish CH.R. Mills nomi bilan bo'rlqlik. Simvolik interaktsionizm, fenomenologik sotsiologiya, «yangi sotsiologiya», konflikt sotsiologiyasi, ijtimoiy ayirboshlash nazariyasi, neofunktsionalizm va boshqa shu kabi nazariyalar – hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yonalishlari hisoblanadi.

Amerika sotsiologiyasida XX asrning 60-yillariga qadar marksistik foyalar ta'siri yo'q edi. Ana shu 60-yillardan boshlab AQSHda marksistik sotsiologiyaga qiziqish orta bordi. 70-yillarda R.Fridrihs kabi sotsiologlar «dialektik sotsiologiya» dasturini ishlab chiqish foyasi bilan chiqdilar.

Unga ko'ra, marksistik va nomarksistik sotsiologik nazariyalar, kontseptsiyalar o'rtasidagi ziddiyatli ajralishni bartaraf qilish masalasi ilgari surilgan.

AQSH sotsiologiyasida uzoq vaqt bihevizorizm metodologiya sifatida hukmron bo'ldi. **Bihevizorizm** inglizcha so'zdan kelib chiqan bo'lib, xulq ma'nosini anglatadi. Bunga ko'ra sotsiologiya inson xulqi to'rtisidagi fandır. Bihevizorizm asosxilari E.Torndayk, D.Uotson, B.Skinnerlar edi. Ularning fikriga ko'ra, inson xulqi ko'p jihatdan boshqariladigan ruhiy jarayondir. SHuning uchun, bihevizorizm namoyondalari sotsiologiya, ijtimoiy psihologiya kabi fanlarning asosiy vazifasi inson xulqini boshqarishdan iborat bo'lmofi lozim, deb hisoblaydilar.

Bihevizorizm sotsiologiyaning noempirik usullariga katta ahamiyat beradi. Bu metodologiya asosxilari sotsiologiyada, ayniqsa kuzatish va eksperiment usullari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda esa miqdoriy, matematik va statistik usullar ko'proq ahamiyatli ekanligini ko'rsatadilar. Sotsiologiya fani rivojida bu yonalish katta ahamiyat kasb etib, u inson xulqining chuqur ichki yashirin, botiniy duyo'sini o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

AQSH sotsiologiyasida bihevizorizm metodologiyasidan tashqari yana Parsons va Mertonlarning tarkibiy-funksional tahlil maktabi metodologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asr sotsiologiyasi rivojida «industrial jamiyat», konvergentsiya, sotsial stratifikatsiya nazariyalari, «ommaviy jamiyat» doktrinasi, strukturali-funksional yonalish, tanqidiy sotsiologiya kabi foyalar ham sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning ayrimlari haqida qisqacha to'htalib o'tamiz.

**YAgona industrial jamiyat nazariyasi** – bunda jamiyatning asosiy printsiplari quyidagilardir:

1. Hususiy mulkcxilik - iqtisodiy o'sish, shahs erkinligi va sotsial tartibni himoya qilish asosidir.

2. Biznes - sotsial taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi (ishbilarmonlik markaziy figura).

3. Menejerlik - boshqarish shakli sifatida (ma'lumotli administrator markaziy figura).

4. Siyosiy yakdillikka olib boruvchi demokratiyaning xilma-xilligi.

5. Sotsial ziddiyatlar qarama-qarsxiligini bartaraf etuvchi ijtimoiy hayotning hukmron foyadan holi bo'lishi.

6. Korporatsiyaning rivojlanishi (masalan, transnatsional korporatsiya yoki «umumevropa bozori» kabilar).

7. Industrial jamiyat inson faoliyati, ishlab chiqarishni tashkil etish, muomalani yo'lga qo'yish (masalan, bozor ho'jaligi bo'yicha), siyosiy, demokratiya, davlatcxilik, sotsial struktura, iste'mol, halqlar va madaniyatlar munosabatlari sohalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

**Sotsial stratifikatsiya nazariyasi** – Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontal hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kixilarning aynan bir tabaqa ichida harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirish gorizontal harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog Seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikatsiya tizimi sotsial zinaning quyi po'fonasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikatsiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo shu bilan birga u kixilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga rabatlantirishning asosiy mehanizmidir. Amerika sotsiologiyasida U.Uortner Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelda oltita sotsial sinfning tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K. Deyvs, U. Mur, V. Koleman, L. Reyuoter, E.SHoyh, T. Gayger, R. Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikatsiya shemalarini ishlab chiqdilar.

**Elita nazariyasi** – Farbiy Evropa va Amerika sotsiologlari orasida elitalar nazariyasi va jamiyatdagi elita munosabatlari nazariyasi keng tarqalgan. Bu sotsiologlar biron bir sohada - siyosiy, ma'muriy, harbiy, ilmiy, tehnik, ho'jalik va madaniyat sohalarida yuksak vazifalarni ado etayo'tgan kixilarni ijtimoiy elitaga kiritadilar. SHundan kelib chiqqan holda, ular siyosiy, harbiy, ilmiy va boshqa shunga o'hshash elitalar haqida gapiradilar hamda elitani «jamiyatning qaymo'i» deb ataydilar.

Xulosa qilib aytganda, Amerika Qo'shma SHatlari va Farbiy Evropadagi turli sotsiologik nazariyalar, ta'limotlar sotsiologiyani yuqori darajada taraqqiy etgan industrial jamiyat sharoitida rivojlantirib, uni jahon miqyo'sida keng tarqalishida katta rolb o'ynaydi.

### **3.3. Turli xil yonalishlardagi sotsiologik oqim va maktablar**

XIX asrga kelib sotsiologlar boshqa maxsus fanlarga xos ayrim nazariya va foyalardan foydalanib, ularni jamiyat hodisalariga ko'r-ko'rona tatbiq eta boshladilar. Masalan, Spenser biologik organizmlarning rivojlanish qonuniyatlarini jamiyat taraqqiyo'tiga, sotsial darvinistlar

organik dunyodagi hayot uchun kurash qonuniyatlarini jamiyatga tatbiq etdilar. SHu boisdan ham sotsiologiya fani yuzaga kelishi va rivojlanishida bir necha oqim hamda yonalishlarni ko'rish mumkin. Dastlabki «pozitiv» harakterdagi Farb sotsiologiyasi bir necha oqimlarga bo'linib ketdi. Umuman, turli xil yonalishlardagi sotsiologik oqim va maktablar quyidagilardan iborat:

**1. Pozitivistik oqim.** Pozitivist olimlar (O.Kont G.Spenser) sotsiologik tadqiqotlarni o'rganish jarayonida faqat tabiiy fanlar metodologiyasining qo'llanilishini talab etadilar. Bu olimlar ijtimoiy hodisalarga baho berishda faqat naturalistik yondashuvgina yagona ilmiy xulosa qilish imkonini beradi, deb hisoblaydilar.

O.Kontning fikricha, ob'ekt va predmet o'zaro ziddiyatli holatlardan iboratdir. Uningcha, sotsial reallik aqliy evolyutsiyaning natijasi sifatida namoyon bo'ladi, demak ob'ektni naturalistik tushunish, predmetni sub'ektiv-idealistik talqin qilish asosida qarama-qarsilik yuz beradi. O.Kont tomonidan sotsiologiya ob'ekti va predmetini pozitiv-naturalistik talqin qilish asosida turli xil sotsial oqimlar paydo bo'ldi (Sotsial darvinizm, irqiy-antropologik, bioorganik yonalishlar va boshqalar). O.Kont fanlarni klassifikatsiya qilish tamoyillarini ishlab chiqdi. Fanni metafizika va teologiyadan ajratib olish O.Kont pozitiv metodining asosiy foyasi edi. Kont tomonidan Astronomiya–Fizika–Himiya–Biologiya–Sotsiologiya ko'rinishidagi fanlarning joylashishini oddiydan murakkabga qarab qurilgan tizim tarzida talqin etish mumkin.

Kontning fikricha, sotsial hodisalar tabiat hodisalariga nisbatan murakkabroq xususiyatga ega. Jamiyat haqidagi pozitiv fanni Kont avval «sotsial fizika», keyinroq esa «sotsiologiya» deb atadi. Sotsial fenomenni o'rganish uchun maxsus fundamental fan zarurligini uqtiradi.

Angliyalik Gerbert Spenser XIX asr 60-yillarida o'sha davr barcha nazariy bilimlarni birlashtirish, sintetik falsafa sistemasini yaratish uchun kuch-fayrat sarfladi. Spenserning harakat natijalari 5 ta asar, 10 jildan iborat bo'lib, ular: «Biologiya asoslari», «Psihologiya asoslari», «Sotsiologiya asoslari», «Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida» kabilardir.

Umuman, sotsiologiyani Spenser o'zida antropologiya, etnografiya va tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasini mujassamlashtirgan umumqamrovli fan deb hisoblaydi. O'zining sotsiologik nazariyasini Spenser ikkita muhim printsip asosida yaratadi: 1. Jamiyatni organizm sifatida tushunish. 2. Sotsial evolyutsiya foyasi. Spenserning fikricha, har qanday rivojlangan jamiyat organlarning uchta sistemasiga egadir: 1) Qo'llab-quvvatlab turuvchi sistema – jamiyatda bu zarur oziq-ovqatlar



ishlab chiqarish ta'minotini tashkil qiladi. 2) Taqsimot sistemasi sotsial organizmning turli qismlari o'rtasidagi ta'minlanishdir. 3) Regulyativ sistema davlat timsolida tarkibiy qismlarni yahlitlikka bo'sunishini ta'minlaydi. «Jamiyatning hususiy qismlari» organizmlari - bu muassasa va institutlardir. Spenser 6 turdagi institutlarni sanab o'tadi: oilaviy, urf-odatli, siyosiy, diniy (cherkov), kasbiy (professional) va sanoatli. Spenser fikricha, rivojlanish jarayoni ikki tomonni o'z ichiga oladi – **integratsiya** (oddiydan murakkabga o'tish) va **differentiatsiya** (bir turdan xilma-xillikka o'tish).

**2. Neopozitivizm oqimi** («mantiqiy pozitivizm», «mantiqiy empirizm» degan nomlari ham bor). XX asr 20-30-yillariga kelib mantiqiy pozitivizm negizida «neopozitivizm» sifatida vujudga kelgan falsafiy oqimdir. Dunyoqarash masalalarini nazariy bilish vositasi bo'lgan falsafa imkoniyatlarini rad etib, fanni falsafaga qarshi qo'yadi. Bilimni mantiqiy yoki lingvistik tahlil qilish metodini ishlab chiqishni maqsad qilib olgan. Bu oqim fikricha, falsafa ilmiy bilishning o'zini tadqiq etish bilan shufullanmoqi lozim. Uning vazifasi ilmiy nazariyalarning mantiqiy tuzilishni o'rganishdan, fanning qoidalari qanday tuzilishini, ular o'rtasidagi mantiqiy bo'lanish qoidalarini oydinlashtirib berishdan, fan tilini analiz qilishdan iborat. Neopozitivistlar ijtimoiy taraqqiyotning umumiy ob'ektiv qonunlarini inkor qiladilar, jamiyat haqidagi fanni ayrim voqealarni tasvirlab ko'rsatishdan iborat qilib qo'yadilar. Umuman, bu oqim tarafdorlari ijtimoiy hodisalar tabiat va sotsial tarixiy qonuniyatlar asosida yuz beradi, tadqiqotlar aniq, qadriyatlar va mafkuradan holi bo'lishi lozim, deydi.

Demak, pozitivizm va neopozitivizm oqimlari sotsiologiya fani imkoniyatlarini cheklab qo'yadi, uni konkret fanlar qatoriga qo'shadi. Uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1) Ijtimoiy hodisalar tabiat va sotsial-tarixiy qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

2) Sotsiologik tadqiqot metodlari tabiiy fan metodlari kabi ob'ektiv, konkret va aniq bo'lishi lozim.

3) Insonning kuzatish uchun qulay bo'lgan tashqi hatti-harakatlari, «sub'ektiv jihatlari» o'rganilishi mumkin.

4) Tadqiqot natijalari empirik tekshiruvdan keyingina haqiqiy deb topilishi lozim.

5) Barcha ijtimoiy hodisalar miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalanishi darkor.

6) Sotsiologiya fan sifatida qadriyatlar va mafkuraviy ta'siridan holi bo'lishi zarur.

Demak, pozitivistik va neopozitivistik oqim tarafdorlarining maqsadi sotsiologiya fani imkoniyatlarini chegaralab, uni tarix yoki antropologiya singari ijtimoiy konkret fanlar qatoriga qo'shadi. Bu oqimlar orasida yana 40 dan ortik tarmoq, maktab yonalishlari yuzaga keldi. Ularning asosiylarini keltiramiz:

1) **Geografik yonalishdagi** irqiy-antropologik maktab (J.Gobino, H.CHemberlin, O.Ammon, J.Lanuj).

2) **Sotsial darvinizm:** bu bioorganik maktab (P.Lilienfel'd, A.SHeffle, R.Vorms, A.Ful'e va boshqalar).

**3. Psihologik oqim maktabi.** Bu oqim XIX asr ohiridan boshlab vujudga kelgan va uning o'zi yana uchta yonalishga bo'linadi:

a) **instinktivizm** (lat. organizmning tashqi yoki ichki ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan murakkab turfa reaksiyalari majmui, murakkab shartsiz reflekslar – ovqatlanish, himoyalalanish instinkti, jinsiy instinkt va h.k. Instinkt ong bilan nazorat qilib turiladi).

b) **biheaviorizm** (ingliz-xulq) XX asr AQSH psihologiyasidagi etakchi oqim. Uningcha, psihologiyaning asosiy vazifasi inson ongini emas, balki **xulqini** o'rganish bo'lib, xulq tashqi muhit ta'sirotiga ko'rsatiladigan hapakat reaksiyalari hamda ularga barobarlashtirilgan so'zli va emotsional javoblar majmuidir. Umuman, bu oqim mehanik yonalishni davom ettirib, ruhiy hodisalarni organizm hatti-harakati bilan bo'liq, deb hisoblaydi, ong va hatti-harakatlar uzviy, yagona narsadir, deydi.

Uotson biheaviorizm - «odam tayyorlash»ning klassik foyasini quyidagi so'zlar bilan ifodalab beradi: «Mening ihtiyoringa tashqi ta'sirlarni yahshi qabul qiluvchi bolalardan bir qanchacini topshiring va ularni o'z usulim bo'yicha tarbiyalashga imkon bering. Men sizga kafolat berib aytamanki, ulardan qobiliyati, mayli, intilishi, imkoniyati, e'tibor-mavqey va irsiyatidan qat'iy nazar – kimni hohlasam shuni, ya'ni shifokor, huquqshunos, bankir, rahbar-boshqaruvchi, rassom, savdogar, hatto o'fri, jangari, shayka boshlifini tarbiyalab, voyaga etkazib beraman».

Biheaviorizm foyasi yangi dunyo loyihasini yaratish uchun asosdir. Bu asos hokimiyat tomonidan yaratiladi. Bunday dunyo xulq-atvor haqidagi fanlardan odamlarni faqat boshqarish vositasidagina emas, balki fikrga yonalish beradigan «instrument» sifatida ham foydalaniladi.

G.Markuze bunday loyiha allaqachon ishga tushgan deya e'tirof etadi<sup>1</sup>. Ehtimol, bu usul ongga tegishli ahborotni joylab, aqlni ma'lum yonalishga boshqarishning klassik namunasidir. Endilikda Amerikani, Evropani maftun etgan psihoanaliz (ruhiy tahlil) emas, balki biheaviorizm zabt etdi.

<sup>1</sup> Yo'ldoshev A. Aql, istak va imkon iskanjasida. «Hurriyat». 1998 yil 28 yanvar

Bihevizorizm – chetdan turib inson aqlini tor doiradagi mafkuraviy fikrlar quliga aylantirishni maqsad qilib qo'yadi. Mantiqqa oshno bo'lgan aqlgina bunday havfli tashqi kuchlar ta'siridan o'zini himoya qila oladi.

**4. Empirik sotsiologik oqim.** Bu oqim hozirgi zamon Farb sotsiologiyasidagi eng katta oqimlardan biri hisoblanadi. Bu oqim tarafdorlari (E.Landberg, E.Dyurkgeym va boshqalar) «sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishdan maqsad jamiyat hayotining ayrim tomonlarini harakterlab berishdir» deydilar. Jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv qonunlarini inkor etadilar. Ular ijtimoiy hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishni hohlamaydi. Jamiyatni esa «ijtimoiy hodisalarning mehanik yirindisi» deb qaraydilar. Ular o'z tadqiqotlarida anketa, interv'yuu, statistik materiallarga tayanadilar. Ular ijtimoiy taraqqiyotni haddan tashqari ajratish, bo'laklashga urinadilar. Bular:

- a) burjua shahar sotsiologiyasi;
- b) qishloq sotsiologiyasi;
- v) oila sotsiologiyasi;
- g) alkogolizm sotsiologiyasi;
- d) industrial sotsiologiya va h.k.

Empirik sotsiologiya jamiyat tarkibini alohida tizimiy bo'linmalar tarzida tadqiq etishni asoslab berdi. Empirik sotsiologiya tarafdorlari stratifikatsion differentsiatsiyani absolyutlashtirib, ijtimoiy integratsiya jarayonlarini e'tibordan soqit qiladilar.

Bu oqimlar umuminsoniy qadriyatlarga asoslanuvchi qonuniyatlarga, ilmiy nazariyalarga asoslanilsa, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'lardi.

**5. Strukturaviy funksionalizm oqimi.** (T.Parsons, R.Merton va bosh.). Bu oqim ijtimoiy tizim integratsiyasi va yahlitligi printsiptga asoslanadi.

**6. Industrial jamiyatdan so'nggi jamiyatga o'tish kontseptsiyasi.** (Dj.Bell, Dj.Gelbrayt, E.Bjezinskiy, O.Toffler va boshqalar).

**7. Ahborotga asoslangan jamiyat nazariyasi** (YAponiya, AQSH, Evropa kabi mamlakatlarda). Ular jamiyatning ahborotlashuvi va kompyuterlashuvi foyasini ilgari suradi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar sotsiologiyasida jamiyatda bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan ikki model mavjud:

**1. Jamiyatning muvozanatli integratsion modeli.** Bu modelni AQSH olimi R. Appelbaum ishlab chiqqan. Uning tarkibiy elementlari:

a) har qanday jamiyat o'zini tashkil etuvchi uyfun, mukammal integratsion elementlar yirindisidan iborat.

b) jamiyat har bir elementi uning ish yuritishiga sharoit yaratadi.

v) har bir jamiyat o'z a'zolarining faolligi, yangiligiga tayanadi.

**2. Jamiyatning konfliktli modeli.** (Nemis tadqiqotchisi R.Darendorf ishlab chiqqan). U:

a) har bir jamiyat istalgan paytda ijtimoiy o'zgarishlarning doimiyligi bilan harakterlanadi.

b) har bir jamiyat istalgan paytda doimiy ijtimoiy konfliktlarga ehtiyo'j sezib turadi.

v) jamiyat har bir elementi o'zgarib borishiga sharoit tu'ndirib turadi.

g) har bir jamiyatda o'z a'zolarining bir qismi ikkinchi kismi tomonidan tazyiq ostida bo'lishi tabiiy holdir.

SHu boisdan ham Farb mamlakatlarida o'tkazilayo'tgan sotsiologik tadqiqotlar ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadlariga ham qaratil-gandir.

**Konkret sotsiologiya** – ijtimoiy borliqning turli (iqtisodiy, siyosiy, madaniy turmush, ma'naviy hayot) sohalarini qamrab oladi. Konkret sotsiologiya ilmiy va empirik tadqiqot usullarini uyrunlashtirib, umummaqsad doirasida konretlashtiradi. Bu sotsiologiya-da ijtimoiy jarayon va sotsial hodisalar, jamiyatning odatiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot muhitida o'rganiladi. Konkret sotsiologiyada sotsiologik tadqiqotlar ilmiy bazasi konkret umuminsoniy qadriyatlarga, SHarq va Farb falsafasiga tayanadi. Jamiyat ijtimoiy tendentsiyalari chuqur tahlil qilinadi. Bu soha sotsiologlari jamiyat ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlarni, mehnatga munosabatini, aholi turli qatlamalari ehtiyo'j dinamikasini, ular hayot tarzining to'laqonli obrazini ilmiy o'rganadilar. Konkret sotsiologik tadqiqotlarni uch guruhdagi metodlarga bo'lish mumkin:

**1. Birinchi guruhga** ayrim faktlarni aniqlash, dastlabki ilmiy tadqiqot materiallari bilan tanishish sistemasini ishlab chiqish kiradi.

«Predmetni o'rganish, - deydi Abu Rayhon Beruniy, - ana shu pedmetni tashkil etgan elementlardan boshlab o'rganish lozim... Predmetni o'rgangan paytda fikrlash lozim... Bir ma'lumotni, fikrni, afsonani ikkinchisi bilan chorishtirish, taqqoslash va ulardan eng ishonchlisini, ya'ni tabiatda mavjud bo'lgan qonunlar va tartiblar yo'l qo'yadiganini haqiqiy narsa sifatida qabul qilish kerak. Tekshirganda ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa borish kerak».

Faktlarni qayd etish, aniqlash bevosita kuzatish orqali amalga oshiriladi:

**Kuzatish** - (chetdan yoki voqelikka bevosita aralashib).

**Hujjatlarni tahlil etish** (rasmiy protokollar, shahsiy hisobot kartochkalari va norasmiy biografiyalar, hatlar, kundaliklar, hujjatlar).

**YAlpi so'rash yo'li bilan** (erkin interv'yu, ma'lum reja va dastur asosida interv'yu, sirtqi anketa orqali so'rash va boshqalar).

Sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshiradigan kishiga Abu Rayhon Beruniy alohida talab qo'yadi. «Tadqiqotchi, - deydi Beruniy, - ziyrak, o'z hatolarini sinchiklab izlash, tobora tirishqoq bo'la borishi, mehnatdan zerikmasligi, o'z-o'zini qayta-qayta tekshirib turishi kerak». Bunday talabchanlik ilmning haqqoniyligini ta'minlashning muhim omilidir, deydi, u.

**2. Ikkinchi guruh usullariga** monografik tadqiqotlar, yalpi yoki qisman kuzatish, umumiy so'rab chiqish kiradi. Qisman o'rganish bu kixilar fikri, umumijtimoiy qatlam, sinf, muayyan kishi fikriga mos tushmori shart.

**3. Uchinchi guruh usullariga** olingan ma'lumotlarni bevosita qayta ishlash vazifasi kiradi. To'plangan, dastlabki ishlovdan o'tgan materiallarni yo'zish, klassifikatsiya qilish, umumlashtirish va sistemali analiz qilishdir.

Yifilgan materiallarni logik usulda ishlash (analiz va sintez) bilan bir paytda statistik qonunlarni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Analiz qilishning muhim usuli ijtimoiy eksperimentlar o'tkazib turishdir.

Demak, turli xil sotsiologik qarashlar jamiyat hayotining ma'lum bir sohalarini oydinlashtirishga hizmat qiladi. Agar pozitivizm sotsial jarayonlarning tabiiy asosda xosil bo'lishidan kelib chiqsa, gumanistik oqim sotsial jarayonlarni inson va uning ongli faoliyatidan kelib chiqishini ko'rsatib beradi. Ular sotsial hodisani ma'naviy munosabatlar natijasi deb qaraydilar. Agar pozitivizm ob'ektiv hodisalarni o'rganishda ob'ektivlashtirishga bo'ysunadigan rarbantlantirish, ta'sirlanish, xulq-atvor, sharoit kabi hodisalarga e'tibor bersa, gumanistik oqim esa asosiy e'tiborini ongli hayotga qaratadi. Bu oqim sotsiologiya fanini yangi bosqichga ko'tarib, uning nazariy va metodologik asoslarining yangi yonalishlarini ko'rsatib berdi. M.Veber fikricha, ongli faoliyat eng murakkab jarayondir, bu jarayonni psixologik akt ham, dunyoqarash jarayoni ham qamrab ololmaydi. SHuning uchun u nafaqat naturalizmni rad qiladi, balki sotsiologiyada muayyan mavqega ega bo'lgan oqim psixiologizmni ham tanqid qiladi. Uning fikricha, sotsiologiyaning predmeti individ va indvidlarning xulq-atvoridan iborat bo'lgan harakatdir. Sotsiologiya, deb yo'zadi u, - tahlil va talqin qilish bilan sotsial harakatni o'rganadi va shu tufayli uning sodir bo'lishi va oqibatlarini konkret omillar vositasida tushuntirmoqchi bo'ladi. Pozitivizm oqimidan farqli o'laroq M.Veber sotsiologiya fanini bir butun ijtimoiy asosda emas, balki alohida individ asosida yaratmoqchi bo'ladi. Bu bilan u Evropa

gumanistik an'anasini davom ettiradi. Umuman, sotsiologiya predmeti muammosini hal qilishdagi (naturalistik, pozitivistik, materialistik va gumanistik) uchinchi tendentsiya, deb gumanistik oqim rivojlanishini e'tirof etish mumkin.

### **3.4. Hozirgi sharoitda sotsiologiya fanining rivojlantirilishi**

Rossiyadagi sotsiologik foyalar umumjahon sotsiologik fanining bir qismi sifatida rivojlangan. Tadqiqotcxilar Rossiyada sotsiologik foyalar rivojlanishining uch bosqichini ajratib ko'rsatadilar. Birinchi bosqich–HIH asr o'rtalaridan to 1918 yilgacha; ikkinchi bosqich XX asr 20-yillari boshidan to 50-yillar ohirigacha; uchunchi bosqich esa XX asr 60-yillari boshidan to hozirgi davrga qadar.

**Birinchi bosqich** P.Lavrov (1828-1900) va N.M.Mihaylovskiy (1822-1904) kabi yirik mutafakkirlar faoliyati bilan bo'liq. Ular tomonidan rivojlantirilgan sotsial foyalar «sub'ektiv sotsiologiya» nomini olgan. Bunday yonalishdagi foya P.Lavrovning 1870 yildagi mashhur tarixiy hatida birinchi marta ta'riflab berilgan, «Sub'ektiv sotsiologiya» nomoyondalari ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini ishlab chiqishga e'tibor berdilar.

Lavrovning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati-madaniyatni qayta tashkil etish: shahsan an'anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o'zgaruvchan, jo'shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarur. Sub'ektiv sotsiologlar andozalarida shahs asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'lchovi bo'lib gavdalanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shahsning har tomonlama kamol topishi uchun hizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Sub'ektiv sotsiologiya bilan bir qatorda, o'sha davr sotsial fanida sezilarli rolni M.M.Kovalevskiy (1857-1916)ning asarlari o'ynadi. Kovalevskiy sotsiologik nazariyasining mohiyati sotsial guruhlar, sinflar va halqlar o'rtasidagi birdamlikdir.

Rossiyada sotsial fikrni rivojlantirishda sezilarli rolni YU.YAsonning «Rossiya va Farbiy Evropa davlatlarining siyosiy statistikasi» asari o'ynadi. Sotsiologiyani tavsiflashga, sinflar haqidagi nazariyalarga barishlangan Rossiya sotsiologlari A.Bogdanov, V.SHumyatnikov, P.Sorokin, K.Tahraevlarning asarlari yuzaga keldi.

1918-1919 yillarda Peterburg va YAroslavль universitetlarida sotsiologiya kafedralari tashkil etildi.

P.A.Sorokin (1889-1969) yirik olim va jamoat arbobi bo'lib, Rossiya sotsiologiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

**Ikkinchi bosqichda** nazariy sotsiologiyaning rivojlanishi davom etdi. 1920 yillarda P.A.Sorokin «Sotsiologiya asoslari», 1922 yilda M.S.Salinskiyning «Odamlarning sotsial hayoti», 1922 yilda M.M.Hvostovning «Sotsiologiya asoslari» asarlari, 1928 yilda N.A.Buharinning «Tarixiy materializm nazariyasi» asarlari chop etildi. 1974 yildan boshlab ixtisoslashgan maxsus «Sotsiologik tadqiqotlar» jurnali chiqa boshladi. 1988 yildan boshlab Moskva, Leningrad, Sverdlovsk, Kiev universitetlarida sotsiologiya fakul'tetlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Sobiq sovet tuzumi davrida tarixni materialistik tushunishga sinfiy va partiyaviy yondoshishni absolyutlashtirish oqibatida umumsotsiologik qonuniyat mohiyatiga putur etkazildi. Jamiyat taraqqiyotini bir tomonlama bo'rttirib tushintirish oqibati sub'ektivizmga, volyuntarizmga olib keldi. Sotsiologiya, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar siyosatga bo'ysindirilib, uning hizmatkoriga aylantirildi. Sotsiologiyaning asosiy ijtimoiy vazifasi muayyan andozaga solingan, oldindan qat'iy belgilangan siyosiy buyurtmani bajarishdan iborat bo'lib qoldi. Mavjud mafkura doirasidan chiqish qat'iy taqiqlandi.

SHunday qilib o'sha davr ijtimoiy fanlari uchun metodologik asos qilib olingan tarixni materialistik tushunishdan chetlasildi. Ijtimoiy ong ijtimoiy hayotni emas, balki ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, degan materialistik mohiyatga ega bo'lgan umumsotsiologik qonuniyatga xilof ravishda ish yuritildi.

Sobiq Sovet ittifoqi davrida sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishi uchun to'la imkoniyat bo'lmadi. Buning asosiy sababi demokratiyaning yo'qligi, ijtimoiy munosabatlarga faqat sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan qaralganligi bo'ldi. Sotsiologiya esa faqat to'laqonli demokratiya bo'lgandagina fan darajasida amal qiladi. CHunki sotsiologiya mohiyat e'tibori bilan jamiyat hayotining o'zaro borliq bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy turmush sohalari rivojlanishi va funksional qonuniyatlarini ob'ektiv jihatdan umumiy tahlil qiladi.

Binobarin empirik tadqiqot darajasida olingan ma'lumotlar o'rganilayo'tganda ob'ektning salbiy jihatlarini ham ifodalash mumkin. Kixxilarning davlat siyosatiga mavjud siyosiy rejimga munosabatini, moddiy turmush darajasini, kayfiyati, intilishlari va shu kabi munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish orqali mavjud ijtimoiy siyosiy

holat yuzaga chiqariladi. Faqat to'laqonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yiladi.

Sotsiologiyada tadqiqot natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ilmiy asoslangan va ob'ektiv harakterda bo'lishi talab qilinadi. Agar davlat demokratik asosda boshqarilmasa, hokimiyat tepasidagi siyosiy kuchlar manfaatiga hizmat qilmaydigan har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqotdan voz kecxiladi va u taqiqlanadi. Siyosiy ideologiyaga bo'ysindirilgan sotsiologiya o'zining ilmiyligini yo'qotib sub'ektiv, sun'iy va sohta xususiyatga ega bo'lib qoladi.

O'zbekistonda sotsial fikrlar rivojida XX asr 20-30-yillaridagi jadidcxilik harakati ro'yalari muhim roľ o'ynadi. Ma'rifatparvar jadidlar shartli ravishda uchta guruhga bo'lingan holda (Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy) milliy mafkurani yaratish, yangicha ta'limni joriy etish, milliy madaniyatni rivojlantirish, diniy va mahalliy urf-odatlarni keng yo'yishning ijtimoiy-ma'naviy jihatlari bilan bir qatorda sotsial jihatlarni ham atroflicha tahlil qilganlar. Ularning bu ro'yalari Respublikamizda keyingi davrlarda sotsial qarashlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'muriy – buyruqbozlik tizimi bo'rrida bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda XX asr 60–90-yillarida sotsiologiya faning bir qancha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. jumladan sotsial sinfiy sutrukтура (S.Tursunmuhamedov, A.Valiev), boshqarish sotsiologiyasi (A.S.CHamkin, A.Holbekov), oila sotsiologiyasi (U.Toshtemirov, G.Hamidova, B.Umarov, M.Sangilov) kabi sohalarda e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

1989 yilda Moskvada tashkil qilingan Jamoatchilik fikrini o'rganish Butunittifoq markazning O'zbekiston bo'limi ish boshladi. Bo'lib sotsiologlari respublikamiz viloyatlari va tumanlarida xilma-xil mavzular bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, ular asosida kisxilarning ruhiyati va kayfiyatidagi o'zgarishlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Ma'lum ma'noda, bu holat respublikamizda milliy mustaqillikka erishishning tezlashuviga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda dastlab 1989 yilda Toshkent davlat universiteti falsafa fakul'teti tarkibida sotsiologiya bo'limi va kafedrasi tashkil qilindi. SHu yildan boshlab sotsiologlar tayyorlana boshlandi va 1994 yili 40 nafar mutahassis bitirib chiqdi. 1995 yilda 30 nafar, 1996 yilda 21 talaba sotsiolog mutahassisligiga ega bo'ldilar. Bugungi kunda har yili universitetni o'rtacha 20-25 nafar sotsiolog mutahassislar bitirib chiqmoqda. Respublikamizdagi 4 ta oliy o'quv yurtida: M.Ulufbek nomli



O'zMU, FarDU, SamDU, BuhDU larida fakul'tetlar qoshida sotsiolog mutahassislar tayyorlanayo'tgan bo'limlar mavjud.

Mustaqillik yillarida sotsiologiya masalalari jamiyatimizda muhim mavzuga va o'rganish ob'ektiga aylanib, bir qator yirik sotsiologlar ham etishib chiqdi. Jumladan M.B.Bekmuradov O.B.Ota-Mirzaev, N.S.Aliqoriev, A.Begmatov, M.H.Fanieva, M.Qirrizboev, B.Farfiev, A.Karimov, A.Holbekov, R.A.Ubaydullaeva kabi olimlar sotsiologiyaning mumuiy nazariy, amaliy va hususiy masalalarini o'z ilmiy izlanishlarida to'liq yoritib berdilar, ma'ruza, o'quv adabiyo'tlari, darslik va qo'llanmalar bilan yanada sotsiologiyani boyitdilar.

O'zMUning Sotsiologiya kafedrasida 18 ta mutahassis, sotsiolog, professor N.S.Aliqoriev rahbarligida faoliyat ko'rsatmoqda. 1996 yili kafedra dotsenti A.J.Holbekovning «SHarq va Farb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti» kitobi «Universitet» nashriyo'tida 350 nushada chop etildi.

Farrona Davlat universitetda dastlab 1990 yilda sotsiologiya kafedrasini tashkil etildi. 1992 yilda esa shu kafedra asosida «Umumiy sotsiologiya» va «Amaliy sotsiologiya» kafedrasini ilmiy tadqiqot yonalishi – yoshlar faoliyatida mehnat omilini faollashtirish yo'llari bo'lib, bu borada aniq tadqiqotlar olib borildi. 1991 yilda sotsiologiya bo'yicha mutahassislar tayyorlash bo'limi o'cxilib, unga qabul qilingan dastlabki talabalardan 17 kishi 1996 yilda sotsiologiya bo'yicha mutahassis sifatida bitirib chiqdi.

O'zbekiston FA Falsafa va huquq instituti qoshida 1993 yilda O'zbekiston sotsiologlarining assotsiatsiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 18 iyul 1994 yil 87-01-242 sonli buyruqi bilan 1995-1996 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fani o'qitilishi joriy qilindi. Sotsiologik tadqiqotlarning jamiyatimiz ijtimoiy hayotini o'rganishdagi salmo'i endi takomillashmoqda.

1992 yilda Mehnat vazirligi qoshida sotsiologik tadqiqotlar markazi tashkil qilinib, bu markaz tomonidan respublikamizda keng sur'atda tadqiqotlar o'tkazilib, unda aholining iqtisodiy islohatlariga, demokratlashtirish jarayonlariga bo'lgan munosabatlari atroflicha o'rganila boshladi.

Uning barcha viloyatlar va tumanlardagi shahobchalarida mutasaddi ilmiy hodimlar sotsiologlar jamiyat hayotini o'rganish maqsadida aholi ichiga tobora chuqurroq kirib borishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

### **Qisqacha xulosalar**

Kisxilarning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabati, moddiy turmush darajasi, kayfiyati, intilishlari va shu kabi holatlarni sotsiologik tadqiq qilish orqaligina mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy holatni yuzaga chiqarish mumkin. Faqat to'laqonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yiladi.

O'zbekistonda sotsiologiya fanini rivojlantirish borasida talay tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, respublikaning barcha oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fani o'qitilishi joriy qilindi. Respublika «Ijtimoiy fikr»ni o'rganish markazi va uning viloyatlardagi shahobchalari orqali sotsiologik tadqiqot ishlari keng ko'lamda amalga oshirilib, o'zining ijobiy natijalariga ega bo'lmoqda.

## **II BO'LIM. SOTSILOGIYADAGI TARMOQ VA YONALISHLAR**

### **III BOB. MA'NAVIY HAYOT SOTSILOGIYASI**

#### **4-MAVZU. IJTIMOYIY MUNOSABATLAR SOTSILOGIYASI**

##### **4.1. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi va uning turlari**

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va

masalalardan ajralib tursada, u hali mutahassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy holatning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yo'qlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilxor farb ijtimoiy adabiyotlaridagi, bu soha bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir hususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda ikki xil darajada: **keng va tor ma'noda talqin qilingan**. Keng ma'noda tushunish – sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bo'rlidir.

**Tor ma'noda** esa sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretatsiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan<sup>1</sup>.

**Sotsial munosabatlar** – bu tabiat hodisalaridan farqli o'laroq, unda ijtimoiy munosabatlar butun bir tizimining mujassamlashganidir. O. Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini huddi biologik hodisalar usuli bilan o'rganish printsiplari kabi keng tarrif qiladi. Pozitivistik-naturalistik yonalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday usulda talqin etganligi uchun O. Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning jiddiy kamcxilik va hatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligini muammolar echimining asosiy omili deb isbotlashga intiladi. Bu yonalish vakillarining fikricha, faqatgina inson va uning tafakkuri tufayli sotsial voqelikni hamda sotsial munosabatlarni konstruksiyalash (yaratish) mumkin. Chunki sotsial reallik va sotsial munosabatlar insonning interpretatsion faoliyati orqaligina vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyaning taniqli vakillaridan biri D. Silverman yuqoridagi royalarni asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jufrofiy-siyosiy makonlar paydo bo'ldi. Eng muhimi, totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir

---

<sup>1</sup> B.A.Farfievning mavzuga tegishli maqolasi.. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999, 79-81-betlar.

partiyaviylik hukmronligi emirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik printsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati turildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning xosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yonalish natijalari asosida tadqiq qilinayo'tganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammolarni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda kompleks harakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiq qiladi.

Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik – bu ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayo'tgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligi ko'rinishidir. Avvalambor shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, Sotsiologiya faniga bu atama sotsial jiplashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O.Kont tomonidan kiritilgan edi. Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining keng etiborlarini qaratganlar. Ayniqsa, E.Dyurkgeym, G.Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yonalishlarda olib borganlar. E.Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik bu ahloqiy printsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi. O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikning asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o'rinni egallaydi. G.Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, kixilik jamiyati o'z rivojlanish yo'lida ikkita harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Butun hayot bu erda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoning ikkita muhim jihatga ajratib tahlil qilinishini D.Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish mumkin. U o'z ta'limotini mehanik va organik birdamlikka ajratadi. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni E.Dyurkgeym mehanik birdamlik, deb ataydi.

**Mehanik birdamlik** – bu «jamoat turidagi» birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning o'hshashliklari bilan belgilanadi va ular

tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi. Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi tufayli individlar maxsus vazifalarni bajaradilar va bu hislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. SHu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym organik birdamlik, deb ataydi. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o'zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo'ladi. Endi har bir individlarning o'zi esa bir-birlariga bo'liq bo'ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyfulariga erishadilar.

Ko'pgina farb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sermahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar mulki qilib berish kerak. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, «ma'muriyat» halqdan ajralib qoladi va shu sabab tufayli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. Tabiiyki, bu jarayonlar natijasida ishcxilar o'z mehnatlaridan manfaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur tahminlarning aksariyati o'z isbotlarini topgan. Ayniqsa, yarim mustamlakacxilik davrida bizning diyorda sohta birdamlik asosidagi kooperatsiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida hududimiz homashyo' etishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'nodagi birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlab ko'rsatganlaridek, "O'z-o'zini boshqarishning halqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda... Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korhona, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti bu borada mahalla bilan tenglasha olmaydi»<sup>1</sup>.

## **4.2. Iqtisodiy, taqsimot va sotsial-sinfii munosabatlar**

Jamiyat ijtimoiy tarkibida har bir shahs qaysi ijtimoiy guruhga va undagi hududiy, tarmoq (soha) va ijtimoiy mavqe yonalishiga mansubligi bilan harakterlanadi. Bulardan tashqari, yana shahs jinsi, yosh jihati, oilaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy mansubligi, ma'lumoti, ilmiy darajasi kabi me'zonlar bilan ham o'rganiladi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrining iqtisodiy qiyincxiliklari ijtimoiy guruh va ayrim shahslarning qanchalik moddiy imkoniyatga egaligi, jamfarma mablari miqdori qanchaligi kabi tomonlarni o'rganishni ham talab etadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: «O'zbekiston», 1996, 281-bet.

Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Hususiy mulkcxilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'ldi. SHuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiyasini ishlab chiqish Sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirda mehnatning mazmunini chuqur va har jihatdan o'zgartirmay turib, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida sifat o'zgarishiga erishib bo'lmaydi. SHu boisdan ham bugungi kunda mehnatga yangicha munosabat tarkib topmoqda, yangi texnologiya yaratilib, fan yanada taraqqiy etmoqda, munosib malakali kadrlar tayyorlash, maorifni tubdan yangilash kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot sotsiologiyasi ishlab chiqarish va mehnat jarayonini, taqsimot munosabatlari, moddiy ta'minot, aholining moddiy turmush darajasi va shu kabi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish sohasidagi qonuniyatlarni o'rganadi.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, eng avvalo, uning iqtisodiy asoslari bilan borliq bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy hayotdagi boshqa sohalarining rivojlanish darajasi ham shunga mos ravishda taraqqiy qilib boradi. Masalan, AQSH, YAponiya, Janubiy Koreya, Evropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va aholisi turmush darajasining yuqoriligi, madaniyat, hizmat ko'rsatish sohalarining taraqqiyotini ham belgilab bergan.

Iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda asosiy e'tibor: mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati va taqsimot munosabatlariga qaratiladi.

Jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar ular o'rtasida qanday tarzda va qay miqdorda taqsimlanishidagi farq ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farqni keltirib chiqaradi. Hususiy mulkning qonuniy deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy tarkibidagi tekisxilik asta-sekin o'z o'rnini ijtimoiy mavqei jihatidan va etishtirilayotgan moddiy ne'matlarning taqsimoti jihatidan farq qiluvchi ijtimoiy guruh va sinfiy tabaqalarga bo'linib bormoqda.

Respublikaning asta-sekin bozor munosabatlariga o'tib borish davrida Prezident I.A. Karimov tomonidan belgilangan besh tamoyilga asoslangan tarzda siyosat yurgizilmoqda. Bularning **birinchisi** – iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo'lishi, uni har qanday mafkuraviy tazyiqlardan ozod qilish lozimligi.

**Ikkinchisi** – iqtisodiyotni boshqarishda, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, yangi tuzum barpo etilayotganda davlat boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarmasligi, ya'ni davlat asosiy islohotchi bo'lmori lozimligidir.

**Uchinchisi** – qonunlarga barchaning barobar rioya etishini ta'minlash, ya'ni qonun ustuvorligi.

**To'rtinchisi** – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish.

**Beshinchisi** – bozor iqtisodiyotiga sxoshqaloqlikka yo'l qo'ymay, bosqichma-bosqich o'tish zarurligi. Taqsimot munosabatlari sotsiologiya predmetiga taalluqli bo'lib, uning tarkibiga ishlab chiqarish qurollari taqsimoti, jamiyat a'zolarining ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha joylashuvi va jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish qurollari va iste'mol mollari kiradi. Mohiyat e'tibori bilan taqsimot munosabatlari mavjud ishlab chiqarish munosabatlari harakteriga mos keladi.

Alohida kixilar va ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati mohiyati taqsimot munosabatlarining harakteri bilan belgilanadi. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va alohida olingan kixilarning real daromadlari darajasi, bu daromadlarning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari ularning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalarini belgilaydi.

Sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy guruhlarning moddiy daromadlarini tenglashtirish siyosati yurgizildi. Natijada kixilarning mehnatga munosabati susayib, ijodiylik, omilkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, moddiy manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim stimullari yo'qola borayotgan edi.

Demak, taqsimot munosabatlari jamiyat hayoti, ayniqsa, uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan O'zbekistonda mulkcxilik turli shakllarining joriy qilinishi va ularning davlat himoyasiga olinishi taqsimot munosabatlarida tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga hizmat qilmoqda.

O'zbekiston o'z milliy puliga ega bo'lishi munosabati bilan iqtisodiy va taqsimot munosabatlarida sezilarli o'zgarish sodir bo'la boshladi. O'z navbatida mamlakat ichki bozorini to'ldirish — davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ammo mustaqillikning dastlabki yillarida hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning vaqtincha buzilganligi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy taqcxillik, ayniqsa, halq iste'moli mollari tanqisligi iqtisodiy va taqsimot munosabatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning oqibatida kixilarning turmush darajasi ancha pasaydi. SHunga qaramasdan, O'zbekiston davlatining bu sohadagi

siyosati milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini mustahkamlashni, odamlarga munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni ko'zda tutgan buyuk maqsaddan iborat bo'lmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2010 yil 12 noyabrda Parlamentimiz palatalarining qo'shma majlisida ilgari surilgan kontseptual masalalarning 6-yonalishi "Demokratik bozor iqtisodiyotini va islohotlarni yanada chuqurlashtirish" ga qaratilgan bo'lib, unda "hususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlash, mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkning dahlsizligiga shubha qilmasligini ta'minlashga qaratilgan kafolatlar tizimini yaratish zarurligi, tadbirkorlar o'z biznesiga behavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayo'tgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi lozim" <sup>1</sup>ligiga keng to'htalib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiya fani doirasidagi tadqiqot ob'ekti sifatida muhim o'rin tutadi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibida **ijtimoiy-sinfiy munosabatlar** ham alohida o'rin egallaydi. Sobiq sovet sotsiologiyasida sinfiy munosabatlar, sinfiy kurash masalalariga juda keng o'rin berilib, bu munosabatlar ijtimoiy tarkibdagi boshqa barcha elementlar, munosabatlar ichida eng muhim va belgilovchi hisoblangan. Buning sababi, unda jamiyatning iqtisodiy tarkibi boshqa ijtimoiy guruhlardagiga nisbatan to'laroq va aniqroq aks etadi, deb ko'rsatilgan. Haqiqatan ham sotsializm davrida mavjud ishcxilar va dehqonlar sinfi jamiyatning eng kam ta'minlangan, quyi darajadagi sinflarini tashkil qildi. Intelligentsiya ijtimoiy qatlami esa moddiy ta'minlanganlik jihatidan ulardan unchalik farq qilmagan. O'tgan davrda, asosan, ikki sinf — ishcxilar va dehqonlar sinfi va intelligentsiya qatlami mavjud deb ko'rsatilib, jamiyat ijtimoiy tarkibidagi boshqa guruhlar (masalan, yuqori tabaqa chinovniklari, mafiya guruhlari va shu kabilar)ning ahamiyati mutlaqo tilga olinmas edi.

**Ishcxilar sinfi** ko'p qirrali ijtimoiy birlik hisoblanadi. Uning ichki tarkibi demografik (jinsi va yoshi bilan), professional tayyorgarligi bilan (mehnatning mazmuni va xarakteri bilan), hududiy (ijtimoiy-hududiy birlik bilan), etnik (milliy farqi) va madaniy-ma'lumoti bilan farq qiluvchi tarkibiy tuzilishga ega.

Hozirda O'zbekiston davlati miqyo'sida milliy ishcxilar sinfining tarkib topishi uchun shart-sharoit yaratildi. Jahon talablariga javob bera

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T. "Halq so'zi". 2010 yil. 13 noyabr.



oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda. CHet el firmalari bilan mamlakatimiz qo'shma korhonalari faol ishlamoqda. Endilikda, yuqori texnologiyaga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining malakali ishchi-muhandislar guruhi shakllandi.

Ishcxilar sinfini rivojlanish istiqbollariга ularni miqdoriy jihatdan ko'paytirish bilangina erishib bo'lmaydi. Avvalo mehnatning intellektual mazmunini boyitish, zamonaviy avtomat-texnologiya bilan jihozlangan iqtisodiy shart-sharoitlarni barpo qilish zarur. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan bunday tadbirlar bevosita qishloq ho'jaligi dehqonlari hamda intelligentsiya qatlami uchun ham taalluqlidir.

Iqtisodiyotni intensiv ravishda rivojlantirish ijtimoiy-tarkibiy aloqalarga kuchli ta'sir etadi. SHuningdek, ijtimoiy tarkibdagi iqtisodiy va taqsimot munosabatlarining ijobiy rivojlanishi mamlakat tabiiy resurslari, hududiy o'ziga xos xususiyatlar, siyosiy barqarorlik, millatlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bo'riq bo'ladi.

Mamlakat qishloq ho'jaligi sohasida band bo'lgan, qishloq ho'jaligi mahsulotlarini etishtirayo'tgan **dehqonlar** ham ijtimoiy tarkibda sinf sifatida o'rin tutadi. O'zbekistonda aholining 60 foizdan oshiri qishloq joylarida yashaydi. Milliy daromadning 44 foizdan ko'profi qishloq ho'jaligidan olinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz bo'yicha mehnatga yaroqli kishilarning 39,3 foizi chorvacilik va qishloq ho'jaligining boshqa tarmoqlarida mehnat qilgan. Ba'zi tumanlarda bu ko'rsatkich 80-90 foizni tashkil etdi<sup>1</sup>.

Bulardan ko'rinib turibdiki, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida dehqonlar sinfining o'rni katta. Hozirda mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston hukumati dehqonlar mavqeini ko'tarishga alohida e'tibor bermoqda. 2009 yil – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi bejiz emas. Qishloq aholisi ularning turmush darajasini oshirishda katta ishlar olib borilayapti. Uy-joy qurish uchun bepul er ajratilib, moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Ekinzor erlar ijaraga berilmoqda. Fermerlarning soni ortmoqda. Etishtirilgan qishloq ho'jaligi mahsulotlarini shaharga olib kelib sotish uchun imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda qishloq ho'jaligini lokalizatsiya (mahalliyashtirish) masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Umuman qishloq hayotini obod etishda ularning qiyofasini o'zgartirish, bugun qishloq joylarda yashayotgan odamlarining turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, shahar sharoitiga yaqinlashtirish foyat muhim o'rin tutmoqda. SHu maqsadda 2009 yil yanvar oyida O'zbekiston Prezidentining qishloqlarimizning zamonaviy arhitektura nuqtai nazaridan rejalashtirilishi, qishloq joylarda uy-joy va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 68-bet.

ijtimoiy ob'ektlar qurilishini loyihalashtirish va bunyo'd etish tizimini takomillashtirish, "Qishloqqurilishloyiha" institutini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilindi. Mazkur institut tomonidan 2 honadan 5 honagacha bo'lgan zamonaviy uy-joylar, maishiy xizmat ko'rsatishi ob'ektlari barpo etildi. 2009 yilning o'zida Qoraqalpoviston Respublikasi va viloyatlarda 42 ta er massivi ajratilib, qishloq hududlarida eksperiment tariqasida 840 ta yakka tartibdagi uy-joy barpo etildi: Mamlakatimizning 159 ta, ya'ni barcha qishloq tumanlarida 7 ming 630 ta yangi uy-joy barpo etildi<sup>1</sup>. 2009 yilda mamlakatimizda 940 mingdan zayo'd yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarida tashkil etildi.

Dehqonlarning, fermerlarning oladigan yillik daromadlari bir necha bor ortmoqda.

Dehqonlar sinfi ichida ham tabaqalanish jarayoni tez sur'atlar bilan bormoqda. Ularning tarkibida ishbilarmon, tadbirkor, fermerlar paydo bo'ldi. Ijaraxilar guruhi ham borgan sari qishloq ho'jaligida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi bilan qishloq ishchilar sinfi shakllanishiga moddiy zamin tayyorlandi. Boshqacha aytganda, qishloqqa sanoat kirib bormoqda. Bu esa qishloq ho'jaligida mavjud ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta'minlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirmoqda.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlab yo'zadiki, «O'zbekiston iqtisodiyoti'ning bir tomonlama – homashyo'viy yonalishiga qat'iy barham berish respublika ichki siyosatining eng muhim strategiyasi hisoblanadi. Faqat hom ashyo' etishtiruvchi va sotuvchi o'lka surunkali nochorlikka giriftor bo'ladi»<sup>1</sup>. SHuningdek, yana Prezidentimizning «Dastlabki hisob-kitob shuni ko'rsatadiki, agar biz respublikada bor homashyo' va chala mahsulot ishlab chiqarishni tugal jarayonga etkazib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysak, respublikamizda yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishni ikki barobardan ziyoda, milliy daromadni esa tahminan uch barobar ko'paytirishimiz mumkin»<sup>2</sup>, - degan fikrlari e'tiborga molikdir.

Jamiyat ijtimoiy tarkibida **ziyo'lilar qatlami** ham salmoqli o'rin tutadi. Intelligentsiya aqliy mehnat mutahassislari bo'lib, ijtimoiy-professional guruhlardan tarkib topmoqda. Jamiyat ijtimoiy tarkibida intelligentsiya aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi oqibatida shakllandi. Hozirda fan, ilmiy-tehnika taraqqiyotining jadal

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. -18-jil. -Toshkent: O'zbekiston, 2010. -b. 73-74.

<sup>1</sup> O'sha joyda, 74-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 117-bet.

borishi bilan intelligentsiyaning professional malakasi yanada murakkablashmoqda. Uning tarkibiga ilmiy, ishlab chiqarish-tehnika, madaniyat, ma'rifat, tibbiyot-harbiy va boshqaruv apparati hodimlari kirib keldi.

Ziyo'lilar tarkibini yana shahar va qishloq, ijtimoiy bandlik sohalari bo'yicha (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida) mehnatning ijodiy xarakteri darajasi, malaka va boshqa jihatlari bilan farqlash mumkin.

Sobiq ittifoq davrida ziyo'lilar son jihatidan ortdi-yu, ammo uning sifat darajasi ancha past bo'lib qolaverdi. Chunki ziyo'lilar qatlami, avvalambor mehnat xarakteri bilan belgilanadi. O'tgan davrda oliy ma'lumot olgan qanchadan-qancha kishilar hozirda ishchi bo'lib yoki tijorat va boshqa sohalarda ishlamoqdalar. Ular ziyo'lilar tarkibiga kirmaydi.

### **4.3. Sotsial – demografik munosabatlar**

Sotsiologiyada jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishida ijtimoiy-demografik munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar asosan, aholining jinsiy tuzilishi, yoshi, oilaviy va genetik jihatlari o'z ichiga oladi.

Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub. Ijtimoiy-demografik tarkibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi o'rtasidagi turilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'ydi-chiqdilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilari kiradi.

O'zbekiston ijtimoiy-demografik jihatdan nihoyatda murakkab tuzilishga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar jami 27,5 mln. aholimizning 64 foizini tashkil etmoqda (I.A.Karimov asarlari. T.16.-234-b.). Tub aholining 51 foizi hotin-qizlar, 9,6 mln. nafari 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlardan iborat. Farqona vodiysi aholisining zichligi juda katta. Andijonda har bir kvadrat kilometr maydonga 485 nafar odam turri keladi. Bunday demografik holat jamiyat hayotining boshqa barcha sohalari ham turli muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Aholining yosh jihatdan tarkibiy tuzilishini o'rganish mamlakatning nafaqat mehnat va ishlab chiqarish potentsialini aniqlashga, balki uning rivojlanish dinamikasini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bu jihatdan O'zbekiston ba'zi Evropa va Yaponiya mamlakatlariga nisbatan «yosh» mamlakat hisoblanadi.

Aholi tarkibining jinsiy tuzilishini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakat ishlab chiqarishini tashkil etish, ayo'llar uchun qulay mehnat turlarini tashkil qilish va ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hotin-qizlar ijtimoiy ahvolidan o'ziga xos xususiyatlari ularning mehnat bilan bandligi, mehnat turi, oilaviy, turmush sharoiti va shu kabilarda ko'rinadi. Ularni o'z jismoniy mehnatdan halos etish masalasi hozirda eng muhim masalalardandir. Sobiq sho'ro davrida o'zbek hotin-qizlari qishloq ho'jaligida ayo'vsiz ekspluatatsiya qilindi. Natijada, ularning salomatligi keskin yo'monlashdi. Kasalmand, nimjon onalardan hech qachon soflom farzand dunyoga kelmaydi. O'zbek yoshlarining har uchtadan bittasi, hatto harbiy xizmatga qodir bo'lmay qolgan edi. Prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan ilgari surilayo'tgan «Soflom avlod davlat dasturi»ni hayotga tadbiq etish uchun kurashish millat kelajagini ta'minlashning eng muhim masalasidir.

Aholining oilaviy tarkibi oila soni, moddiy turmush darajasi, daromadi, oilaviy munosabatlarni va shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Oilani oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlash muammolari davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadini ifoda etadi. Oila tarkibini Sotsiologiyaning maxsus sohasi – «Mikrosotsiologiya»da ham chuqur tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Unda uning iqtisodiy, psixologik jihatlarini e'tiborda tutish zarur. Nikoh munosabatlari, yo'lfriz yashovcxilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat hayoti ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Oddiy bir misol: diniy munosabatlarda ilgari nikoh muqaddas sanalar edi. Sobiq sho'ro tuzumi davrida dinning ijtimoiy hayotdagi mavqeyga putur etkazilishi va dahriylikning kuchayishi oqibatida nikoh munosabatlariga muqaddas deb qaralmay qo'yildi. Nikoh shunchaki rasmiy ro'yhatga olishdan iborat bo'lib qoldi. Natijada, oila muqaddasligi yo'qolib, qo'ydi-chiqdilar ko'paydi. Bu esa jamiyatning nafaqat iqtisodiyotiga, balki ma'naviy-ahloqiy, psixologik munosabatlarning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi, o'z navbatida, noahloqiy tendentsiyalarning kuchayishiga olib kelib, yosh avlod tarbiyasiga zarar etkazildi. Jamiyatda tirik etimlar soni ko'paydi. Davlat etimhonalarining soni ortdi. Moddiy va boshqa jihatdan etarlicha ta'minlanganligiga qaramay ularda tarbiya topgan bolalar oilada, o'z otanalari barrida voyaga etgan bolalardan farq qila boshladi.

Sotsiologiyada aholining genetik tarkibini o'rganish borgan sari moddiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Unga aholining tabiiy va migratsiya harakati kiradi. O'zbek millati boshqa millatlarga nisbatan o'z tufilib o'sgan joyiga ko'proq borlangan bo'ladi. Ayniqsa, Farrona vodiysi

aholisida bunday xususiyat kuchli. SHuning uchun ham vodiya aholi zichligi boshqa hududlardagiga nisbatan ancha yuqori darajada.

O'zbekistonda genetik tarkibni o'rganishga hozircha etarli e'tibor berilmagan. Ta'kidlash joizki, bu holatning ijtimoiy-demografik munosabatlardagi ahamiyati juda kattadir.

Ijtimoiy-demografik munosabatlarni aniqlashda mamlakat miqyo'sida o'tkaziladigan aholini ro'yhatga olish muhim o'rin tutadi. Aholining ro'yhatga olinishi, ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida yuzaga kelayotgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy turmush sohalaridagi muammolarni hal etishda juda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, uning shahar muammolarini hal etishdagi ahamiyati katta.

Qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi jamiyat ijtimoiy tarkibining muayyan bo'lagi hisoblanadi. Qishloq aholisi ijtimoiy munosabatlarining muhim belgilari: yagona mehnat, er, mulkiy boshqaruv munosabatlari va boshqa shu kabilar. Hozirda qishloq aholisining tarkibida ham tabaqalashuv jarayoni kuchaymoqda. Ayniqsa, qishloqqa sanoatning kirib kelishi, qishloq hayotining mahalliylik (lokalizatsiyalashuvi), savdo-sotiqning rivojlanishi va boshqa omillar oqibatida qishloq aholisi turli guruhlardan iborat bo'lgan ijtimoiy birlik sifatida rivojlanmoqda.

#### 4.4. Sotsial-etnik munosabatlar

**Millatlar va etnik guruhlarning sotsial-etnik tarkibi.** Insoniyat xilma-xil sotsial etnik birliklardan tashkil topgan. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashamoqda. Ularning so'zlashadigan tillari esa 5 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ammo mana shu tillardan 2 mingtasidan ko'progida yo'zuvlar yo'q.

Jamiyatning sotsial-etnik tarkibini tadqiq qilish sotsiologiyaning maxsus sohasi bo'lib, u etnosotsiologiya deb ataladi. Sotsiologiyaning bu sohasi jamiyatning sotsial tarkibiy tuzilishidagi millatlar, halqlar, elatlar, guruhlarning sotsial rivojlanish masalalarini o'rganadi. Ularning sotsial-iqtisodiy, sotsial-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, madaniy, ta'limiy, diniy va boshqa o'ziga xos qadriyatlarini tadqiq qiladi.

**Etnos tushunchasi** (qadimgi yunoncha so'z bo'lib «halq» ma'nosini anglatadi)- muayyan hududda tarixan tarkib topgan, boshqalardan farqlanuvchi o'z madaniyatiga, ruhiy uyfunlikka va boshqa umumiy xususiyatga ega bo'lgan kishilarning nisbatan barqaror birligini anglatadi. Demak, etnosotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti - eng avvalo halqlar, millatlar, etnik guruhlarning sotsial tarkibini, boshqa etnik birliklardan farq qiluvchi o'ziga xos madaniyati, turmushi, urf-odatlarini, tili

va boshqa shu kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Millat, millatlararo munosabatlar masalasi sotsiologiyadan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar, iqtisodiyot nazariyasi, politologiya, ahloq va nafasatshunoslik, tarix, etnografiya kabilarning ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Etnosotsiologiyada esa millat va milliy munosabatlar, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy-mafkuraviy munosabatlardagi o'zaro uzviy aloqadorligi nazarda tutilgan holda, konkret etnik muhit doirasida, ijtimoiy jamoalardagi, oiladagi, hududiy tartibdagi munosabatlarni etnik xususiyatlari doirasida olib qarab o'rganiladi. SHuningdek, millatlararo munosabatlarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ta'siri va ularning sotsial oqibatlari tadqiq qilinadi. SHu jihatdan etnosotsiologiyaning jamiyatni o'rganishdagi ahamiyati kattadir.

Sobiq sovet tuzimi advrida etnosotsiologiya to'laqonli o'z rivojini topmadi. Turli millatlar, ellatlar, halqlar va etnik guruhlarining ijtimoiy taraqqiyotiga bir tomonlama yondasildi.

Kelajakda ular o'zaro qo'sxilib, yahlit bir sovet halqi etnik birligi vujudga keladi, -degan hayo'lda sohta va noto'ri mafkuraviy siyosat yurgizilishi oqibatida har bir etnik birlikning o'ziga xos boy, go'zal va takrorlanmas qadriyatlarini rivojiga siyosiy tazyiq o'tkazildi. Bunday siyosiy zo'ravonlik oqibatida etnosotsiologiya sotsiologik nazariya sifatida etarlicha qadrlanmadi.

Sovet davrida muayyan iqtisodiy-siyosiy va mafkuraviy rejim asosida ushlab turilgan, boshqarilgan milliy munosabatlar hozirda qaytadan, yangi sotsial munosabatlar asosida tiklanmoqda. SHu jihatdan, O'zbekistonning ko'p millatli davlat ekanligini e'tiborda tutgan holda, uning hududida istiqomat qilayo'tgan millat va halqlarning ijtimoiy turmushi, o'zaro aloqasi hamda shu kabi munosabatlarni sotsiologik tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi uning farqlantiruvchi xususiyatidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining 70% dan ko'profini o'zbeklar tashkil qiladi. Ayni vaqtda, O'zbekiston hududida o'z madaniyati va an'alariga ega bo'lgan yuzdan ziyo'd millat vakillari yashaydi. YAqin o'tmishimizda sodir bo'lgan Farrona, Andijon, O'zgan voqealari qayta takrorlanmasligi uchun, O'zbekistonda bundan keyin ham millatlararo hamdo'stlikni rivojlantirish, o'zaro axil bir oila bo'lib yashash talab etiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov boshcxiligidagi O'zbekiston hukumatining asosiy maqsadi ham Markaziy Osiyo' hududida har qanday milliy nizolarning oldini olish va millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishdan iborat.

Ayniqsa, hozirgi kunda sotsial – etnik munosabatlar atroflicha sotsiologik tahlilga muhtojdir. Yangilangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar ham qaytadan tarkib topmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, etnosotsiologiyada ichki va tashqi tadqiq yonalishi mavjudligini aytish mumkin.

**Ichki tadqiqot yonalishi** – bu ayrim etnik guruh tarkibidagi sotsiologik tadqiqotlardan iborat bo'lib, uning ichki, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendentsiyalari o'rganiladi. **Tashqi tadqiqot yonalishi** esa etnik guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarni, bir etnik guruhga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarni va ularning sotsial oqibatlarini tadqiq qiladi. Ayniqsa, bir mamlakat hududida yashovchi etnik guruhlarining o'zaro munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish juda muhimdir.

Mamlakat tub aholisini tashkil etmaydigan kam sonli etnik guruhlarini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Ularning madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini, ahloqiy - etnik normalari, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarini o'rganish bilan muhim ilmiy bilimga ega bo'lamiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Jahonda katta va kichik millatlar va elatlar yo'q. Ularning har biri asriy barqaror va teng yo'q an'analari, tarixiy merosning boyligi, milliy ruhining umumiyliigi, madaniyatning o'ziga xosligi bilan ahamiyatlidir».

U yoki bu etnik guruh tabiiy tarkib topishining asosiy shart-sharoiti bu hududiy va til birligi hisoblanadi. Muayyan etnik birlik–millatning har jihatdan rivojlanishida uning o'z mustaqil siyosiy davlat tizimiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sotsiol–etnik munosabatlar.** O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan boshlab, o'tgan dastlabki 20 yillik muddat yuz yillar mazmuniga teng bo'ldi. O'zbek halqi millat sifatida o'zligini, or-nomusini, milliy iftiharini, qadr-qimmatini, boy o'tmish madaniy merosini, tilini va shu kabi ko'plab boshqa qadriyatlarni qaytadan tikladi. O'tmishi va kelajagi buyuk bo'lishini bilib, millat sifatida yana jahonga yuz tutdi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek etnosining shakllanishida markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi katta ahamiyat kasb etgan. Shu davrdan boshlab, o'zbek etnik guruhi boshqa turkiy guruhlardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarni ko'proq namoyon qila boshlagan. Bularga asosan, yagona davlat fuqaroligi, yagona til, madaniy, ma'naviy qadriyatlar uyfunligi, hududiy birlik, uyushganlik hamda yagona diniy (islom) e'tiqod birligi kabilar hisoblanadi.

Nisbatan o'troq, asosan suforma dehqoncxilik va shahar hunarmandcxiligi bilan shufullanishi, Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashuvi va hududiy uyushganligi kabi omillar ham o'zbek millatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbek halqining etnik jihatdan tashkil topishi tarixan murakkab, juda katta ichki va tashqi ijtimoiy zarbalar ostida bordi. Amir Temur vafotidan so'ng temurzodalarning o'zaro kurashi, SHayboniyhon tomonidan temurzodalarga qarshi olib borilgan kurash, keyinchalik Movarounnahrning (Hiva honligi) Rus imperiyasi tomonidan istilo qilinishi millatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. CHor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi oqibatida, Turkiston qat'iy yagona hududga birlashtirilgan bo'lsada, buyuk rus shivinizmi zo'ravonligi ta'sirida o'zbek halqi boshqa turkiy halqlar bilan bir qatorda mazlum halq sifatida tahqirlandi, kamsitildi va qaddi bukildi. Uzoq davr ma'naviy-ahloqiy, siyosiy-huquqiy tushkunlikni boshdan kechirdi. Sobiq sovet tuzumi davrida ham bunday siyosat o'ta nozik, baynalminallik niqobi ostida o'ziga xos usullar bilan davom etdi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi munosabati bilan endilikda milliy ko'tarilish, rivojlanish jadal bormoqdaki, mavjud siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy shart-sharoit o'zbek halqini yaqin kelajakda jahonning ilfor, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan millat darajasiga erishtirishi muqarrardir. Zotan, tarix-halq ma'naviyatining asosidadir<sup>1</sup>.

Jamiyat o'zining tarkibiy tuzilishi jihatdan o'zaro chambarchas bo'rlig bo'lgan tomonlar, jabhalar bir butun ijtimoiy tizim tarkibidagi nisbatan katta-kichik tizimlar, ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri o'z taraqqiyoti davomida bir-birlariga muayyan darajada salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekiston davlatining halqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalarda rivojlangan jamiyatga ega bo'lish darajasiga ko'tarilishi, uning ana shu o'zaro funktsional ta'sirida bo'luvchi tomonlari, tarkibiy bo'laklari holatining harakteriga bo'rlig.

Mustaqil O'zbekiston jamiyatning ertangi kun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bugun asos solinar ekan, jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga hizmat qiladi. Har bir ijtimoiy guruh ayrim, olingan shahs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega bo'ladi. SHahs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti mutahassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibiga kiradi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi-

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.:O'zbekiston,1999.-146-b.



ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotidagi o'z mavqey bilan farq qiluvchi tomonlari majmuasidan iboratdir.

Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarining tarkib topib borishi, hususiy va boshqa mulk shakllarining qonuniy deb e'lon qilinishi bilan kishilar ijtimoiy guruhlarining faolligi ortmoqda. Har bir kishi o'zidagi qobiliyat, omilkorligi, tadbirkorligi va ishbilarmonligi bilan ijtimoiy taraqqiyot ko'lamiga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda mobillik (harakatchanlik) kontsepsiyasining jadal amal qilishi uchun sharoit etildi. Demokratik tuzum sharoitida kishilar o'zlarining shahsiy qiziqishlari, tirishqoqliklari bilan jamiyat ijtimoiy tarkibidagi mavqelarini yahsxilab borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Jamiyat taraqqiyotida uning tarkibiy tuzilishi, funksional aloqadorlik o'zining «tabiiy qonunlari», evolyutsion rivojlanishi, ijtimoiy sohalarning bir maromdagi mutanosibliigi asosidagina rivojlanadi. Revolyutsiyalar davri o'tdi. Insoniyat yuqori intellektual taraqqaiyo't bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ijtimoiy tarakqiyotning bu bosqichi yangi, o'ziga xos qonuniyatlar asosida borishi turgan gap. Abu Rayhon Beruniy bobomiz ta'kidlaganidek, aslida ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyo'jlarini qondirish zaruriyatidan paydo bo'ldi. Halq haqqoniy tarixini bilib, o'zilikni anglay boshladi.

**Sotsial tabaqalashuv jarayoni.** Iqtisodiy rivojning zamonaviy, eng ilfor turiga o'tishga intilayo'tgan har bir mamlakat tehnika, biznes sohalarida yuksak professional tayyorgarlikka ega ijtimoiy qatlama tayanishi shart. Mazkur ijtimoiy qatlam vakillari o'z professional-malaka tayyorgarlik saviyalariga mutanosib ijtimoiy o'rin egallashga intilishlari shart.

Tarixiy taraqqiyot shunday shakllandiki, ilmiy bilimlar va ishbilarmonlik xususiyatlari asosan farbiy davlatlar hamda YAponiyada mujassamlashdi. Ularda band aholi tarkibidagi oliy kategoriyali professional ijtimoiy qatlam vakillarining hajmi o'rta va past kategoriya vakillarining ulushidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu jarayon o'z yonalishida yanada rivojlanib, mazkur davlatlarning eng boy va zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy-tehnika taraqqiyotning oldingi qatoridagi halqaro iqtisodiy o'rnini saqlab turishga zamin yaratmoqda.

Asosan halq iste'mol mollari ishlab chiqarishda ihtisoslashgan va iqtisodiy hom ashyo' etkazib berishga qaratilgan mamlakatlarda esa ijtimoiy qatlamlashuv tarkibi, asosan, professional ijtimoiy qatlamlarning o'rta va past kategoriya vakillaridan iboratdir. Buning sababi-mazkur davlatlar o'z taraqqiy etgan tehnologiyasini yaratishga ko'makdosh

firmalar yoki hukumat darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga kumakdosh iqtisodiy raftablarni ta'minlash uchun manbalarga ega emas.

Mazkur o'rnashib qolgan tartibni buzib va rivojlanayo'tgan davlatlar jamiyat sotsial tarkibidagi ijobiy o'zgarishlarga asoslanib qolmasdan, balki yuqori va o'rta kategoriyali sotsial qatlamlarni shakllantirib, ularga shart-sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati hisobiga erishish mumkin. SHunga ko'ra, rivojlanayo'tgan davlatlar mehnat faoliyatining murakkab, ilmiy, ijodiy turlarini rivojlantirish uchun kuchli homiylik siyosatini o'tkazishlari kerak. Fakat shunday yondashuv natijasidagina jamiyat ijtimoiy tarkibida progressiv o'zgarishga erishish, ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda mahalliy iste'mol talab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda Farb davlatlari bilan tenglik ta'minlashi mumkin.

Dunyoning kuplab rivojlanayo'tgan mamlakatlaridan farqli o'laroq , O'zbekistonda bunday sotsial qatlam mavjud. U ilgari yirik ilmiy muassasalar va boshqaruv organlarida ishlagan hamda o'sha davrning sotsial po'onalarida etarli darajada yuqori o'rin egallagan yuksak malakali mutahassislardan tarkib topgan.

Hozirgi paytda mazkur sotsial qatlam vakillarining sezilarli qismi kichik va o'rta biznes bilan shu'ullanadi, texnologik zamini ularning professional malakasiga mutanosib bo'lmagan kichik korxonalar va kooperatorlar negizida faoliyat yuritadi.

Mazkur sotsial qatlam iqtisodda ularning sotsial maqomini qayta tiklashga qodir yangi soha yuzaga chiqishi bilan o'zi jamuljam etgan professional - malaka salohiyatini maksimal darajada ishlatishga tayyor turadi.

**Sotsial tabaqalashuv turlari.** Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi va sotsial tarkibi o'zaro, yaqindan bo'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi sotsial tartib o'zgarishisiz sodir bo'la olmaydi. Iqtisodiy munosabatlarni ayrim ravishda o'zgartirishga urinishlar aholi qarashligiga sabab bo'lmasa ham uning sustligiga duch kelishi mumkin. Jamiyatning sotsial qatlamlashuvi ikki shaklda namoyon bo'ladi: 1. Insonlarning professional-ta'lim saviyasiga asoslangan professional malakali shakl. 2. Daromad darajasiga qarab taqsimlanishiga asoslangan iqtisodiy shakl.

Professional – malakali sotsial tabaqalashuv esa ishchi bajarayo'tgan shu faoliyatning murakkabligi, aqliy salohiyati, jamiyat uchun muhimligi va ahamiyatini e'tiborga olishga asoslanadi.

Sotsial-iqtisodiy tabaqalashuv inson mulk maqomini baholashga hamda jamiyatda ma'naviy qulayliklarga erishuvlarida uning real imkoniyatlarini e'tiborga olishga asoslanadi.

Har bir mamlakatda shakllangan tabaqalar va qatlamlar tomomila turlicha bo'lishi mumkin. Ularning soni tabiiy manbalar, o'lkaning iqtisodiy tarixi, mehnat taqsimoti va iqtisoslashuv jarayonida erisilgan daraja, davlat sektori bajaruvchi vazifalarning nisbiy miqyo'si hamda ro'yhati. Mulkcxilik, shu jumladan o'tmishdan meros mulkcxilik harakteriga ham bo'rliq bo'ladi.

Professional ta'lim va iqtisodiy tabaqalashuv har doim ham mos kelavermaydi. Professional malaka va iqtisodiy-ijitmoiy tabaqalashuv orasidagi mobillikka erishish mamalkat aholisining mehnat faoliyatini yuksaltirishda hal etuvchi omillar.

### **Jamiyatning sotsial tarkibiga ta'sir o'tkazuvchi eng muhim ko'rsatkichlari**

1.	Daromadlar taqsimlanishidagi o'zgarishlar.
2.	Iqtisodiy maqom va professional-ta'lim saviyasi bilan bo'rliq sotsial qatlamlarning jamiyat qatlamlashuv jarayonida joylashish tarkibining o'zgarishi.
3.	Sotsial qatlamlashuvning quyi va yuqori qatlamlarida sotsial harakatchanlik miqyo'slarining o'zgarishi.
4.	O'tish davrining dastlabki boskichida sodir bo'layo'tgan o'zgarishlardan yutib chiqqanlarga nisbatan ma'rulub bo'lganlar ko'proq bo'lib chiqadi. SHuning uchun jamiyatning sotsial tabaqalashuvida sodir bo'luvchi moyillarni tushunish davlatning to'rri ijtimoiy siyosatni ishlab-chiqishining zaruriy shartidir <sup>1</sup> .

«O'zbekistonda, – deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov, – uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan halqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish respublikaning qudrati va yutuqlaridan fahrlanish. Halqimiz qismatiga tushgan qiyincxiliklar uchun qayfurish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».

Respublikamiz jamiyatining sotsial tarkibi nazariyasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Mustaqil O'zbekiston jamitining ertangi kun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bugun asos solindi desak adashmaymiz. SHuning uchun jamiyat ijitmoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat sotsial tarkibini sotsiologiya Fani doirasida o'rganish uning rivojlanish istiqbollarini, o'ziga xos xususiyatlarini, mavjud ijtimoiy muammolarini tadqiq etishda va zarur ilmiy-amaliy tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egadir.

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida hisobot. – T.: "O'zbekiston". 1997. 43-b.

#### 4.5. Begonalashuv va tanazzul, uning ijtimoiy oqibatlari

Hozirgi jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

**1. Iqtisodiy. 2. Siyosiy. 3. Madaniy. 4. Ijtimoiy. 5. Ruhiiy.**

Bu begonalashuv turlari o'zlarining ma'lum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega:

**1. Faoliyatdan begonalashuv. 2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashish. 3. Faoliyat natijalaridan begonalashish. Siyosiy begonalashish** siyosiy hokimiyatdan begonalashishdan; **madaniy begonalashish** muloqatdan; ijtimoiy begonalashish insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashishdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birlariga bo'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, ho'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narhlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohaları tanazzulga uchragan, deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga salbiy ta'sir qilishi, ba'zi tartiblar kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa, tanazzul ham shunchalik, chuqurlashib boraveradi. Masalan, iqtisodiy sohada ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Lekin shu bilan birga ijtimoiy mulkcxilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi - ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnati natijasidan begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shahs uchun mehnat unumining ham qizifi yo'q. Marksizm ta'limoti bo'yicha hususiy mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyo'tda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini davlat mulkiga aylantirdi. Sotsialistik revolyutsiya mantiqiga ko'ra, bu tadbirlar begonalashuv jarayoni ildiziga bolta urushi kerak edi. Lekin 70 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk davlat mulki edi. Bu mulk esa hususiy mulkning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Chunki davlat mulki o'zining real egasiga ega emas. U bir mavhum tushuncha edi. Mehnat kishisi esa yana mulkdan begonalashdi. Davlat mulki esa davlat

apparating hususiy mulkiga aylanib, bu nomenklaturani «yangi» sinfga aylantirdi. Bu salbiy jarayonlar natijasida ishlab chiqarish o'zining haqiqiy egasini topa olmadi.

**Siyosiy jabhada** ham siyosiy hokimiyatdan jamiyatning ko'pgina a'zolari begonalashtirildilar. YA'ni, siyosiy hokimiyat halq hokimiyati, umumhalq hokimiyati, deb e'lon qilingan bo'lsada, aslida u ma'lum bir guruhning - elitaning hususiy mulkiga aylandi. Buning asosida esa butun bir halq davlat siyosiy hokimiyatdan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklatura orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar siyosiy tanazzulga olib keldi va bu tanazzul tufayli tashqi dushman enga olmagan totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

**Madaniy sohadagi** begonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlariga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqardi. Jamiyatda soflom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'zni o'zgacha. CHunki ular individlarning barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari, boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining milliy urf-odatlarini, an'analarini ham inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tarixiga murojaat etsak, ushbu satrlarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz bizlarni atoqli adib CHingiz Aytmatovning ta'biricha, manqurtlarga aylantiray dedi. SHuning natijasida biz o'z halqimiz tarixi, milliy-ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Davlatimiz mustaqillikka erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan **sotsial begonalashish** insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyo'jlar asosida doim insonlar bir-birlari bilan munosabatlarda muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib hizmat qiladi. Lekin iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi. Natijada jamiyat a'zolarining aksariyatida bozor iqtisodi munosabalariga ko'nikish qiyin kechadi. Oqibatda inflyatsiya jarayonlari tufayli ehtiyo'jlar tizimining cheklanishi va normallashtirish holatlari insonlarda agressivlik kayfiyati, joxillashish, fuqarolarda an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadryatlarni yo'qotishga olib keladi. SHu kabi salbiy omillar insonlarning bir-birlaridan

begonalashuvlarini kuchaytiradi va hamma o'z holicha degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

**Ruhiiy begonalashuv** – bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishidir. Ushbu muammoni nemis mutaffakiri Erih Fromm juda yahshi ishlab chiqqan. Uning fikricha, insonning mohiyatan o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial harakter - dunyoparastlik, ekspluatatorlik, retseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «komp'yuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari yordamidagi begonalashuv darajasining bir mahsuli deb ta'riflaydi. Bu jarayonda bozorga yonaltirilgan sotsial harakat paydo bo'lib, unda iste'molga intilish, ikkilanishlar hissiyo'ti, yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyo'tlar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Huddi shu erda psihologik va sotsial begonalashishning bir-biri bilan juda uyfunlashib ketishini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan o'zaro munosabatda, muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan o'zaro begonalashuvlari oqibatida ularda yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida, insonning o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

### **Qisqacha xulosalar**

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyfunlik asosida bartaraf qilinsagina, jamiyat so'rlom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy ijtimoiy hodisalarning o'z vaqtida oldi olinadi. Masalan, mehnatdan begonalashishni bartaraf etish uchun birinchi galda insonlarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning oqibatida esa ularning mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirib, qiziqish va kuch-fayrat bilan ishlashlarini tashkil etish darkor.

Ishlab chiqarishni boshqarishdagi begonalashish muammosini bartaraf etish ham juda muhim ma'no kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur demokratiyalashtirish, korhona, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini demokratik yo'llar bilan takomillashtirish va ishchi, hizmatcxilarga ho'jalik egasining aniq vazifasi, huquqi va mas'uliyatlarini o'rgatish zarur.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir a'zosi ma'naviy qadriyatlardan yahshi habardor bo'lish va madaniy qurilishga etarli mablar ajratilishini ta'minlash zarur.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosida qurish kerakki, shunda har bir inson o'zini boshqalar uchun ham kerak ekanligini chin yurakdan his eta olsin.

Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish choralari sotsial begonalashuvni bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson o'zining kimgadir kerakligini ruhan his qila olsagina hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Yakkalanish, iztirobga tushish havfidan holos bo'ladi, oqibatda, uning o'z-o'zidan, o'z mohiyatidan begonalashuviga hech qanday sabab qolmaydi.

Biz qurayo'tgan bugungi yangi jamiyat o'z oldiga bu begonalashuv jarayonlarini tezroq bartaraf etib, haqiqiy rivojlanishga, erkinlikka, erishish maqsadida hozirgi qiyinciliklarni sobitqadamlik bilan engishga harakat qilmoqda. Endilikda bu harakatlarning natijalari albatta yuzaga chiqadi, deb umid qilishga hamma asoslar mavjuddir. SHu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning II chaqiriq I-sessiyasida ta'kidlaganidek, «Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish, uning izcxilligi va samarasini ta'minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayo'tgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir» (T.8, 332-bet).

## 5-MAVZU. FAN VA TA'LIM SOTSILOGIYASI

### 5.1. Fundamental, nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar

Jamiyat fanlarning rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati ortib borishida uchta muhim **bosqich farq qiladi:**

1. Fanlar jamiyat ishlab chiqarishga oid amaliy-ijtimoiy talabalar va ehtiyo'jlarga javob berish asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu bosqichda astranomiya, geometriya, matematika va mehanika kabi fanlar sust rivojlanadi. VII-XII asrlarda arab SHarqi va O'rta Osiyo'da fanlar eng taraqqiy etgan o'lkalardan biriga aylandi.

2. XIV asr ohiri va XV asrlarda O'rta Osiyo' temuriylar imperiyasi davrida hamda XVII asr ohirlariga kelib Evropada kapitalizmning tez rivojlanishi bilan boshlanadi.

3. Uchunchi bosqich XX asr boshlaridan boshlandi. Bu davrda fan ishlab chiqarish kuchiga aylana bordi. Fan- texnika inqilobi sodir bo'lishiga olib keldi. XX asr ohiriga kelib esa fanlarda an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi o'rniga noan'anaviy davr boshlandi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Fan- jamiyat taraqqiyotini olfa siljitivchi kuch, vositadir".

Fanlar predmetiga ko'ra:

1) tabiatshunoslik (tabiatni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish qonunlarini o'rganadi).

2) jamiyatshunoslik (ijtimoiy munosabatlarni, inson mavqey, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganadi).

3) texnika fanlar (inson tomonidan ihtiro qilingan mashina, mehanizmlar, ular tuzilishi, qurilishi, faoliyati qonunlarini o'rganadi)ga bo'linadi.

Fanlar yana 2 turga bo'linadi.

**1. Fundamental fanlar** (tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fandır).

**2. Amaliy fanlar** (ishlab chiqarish bilan bevosita bo'liq bo'lgan, erisxilgan har bir natijasi ishlab chiqarishga bevosita tadbiiq etilib boradigan fanlardir).

1. Fundamental fanlar amaliy fanlardan oldinroq harakatda bo'lib, ularga nazariy imkon yaratadi. Amaliy va fundamental fanlar borliqning turli sohalari qonuniyatlarini ishlab chiqarishga joriy etib, ijtimoiy- amaliy masalarni hal qilishga harakat qiladi.



O'zbekiston Respublikasi FA olimlari ko'proq fundamental fanlar sohasida ilmiy izlanishlar olib borsalar, amaliy tadqiqot fanlari bilan esa ko'proq respublika oliy o'quv yurti ilmiy potentsialiga ega bo'lgan professor-o'qituvchi olimlar shuflanadilar. Respublikadagi iqtidorli olimlarning katta qismi oliy o'quv yurtlarida ishlaydilar. Oliy maktab ilmiy bo'limlarida respublika ilmiy potentsialining 60 foizidan ko'profini tashkil etadi. Ular halq ho'jaligiga mutahassislar tayyorlash bilan birga ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borishadi.

“Bizning fundamental fanlar bilan shuflanadigan 40 ga yaqin ilmiy-tadqiqot muassasalarimiz bor”, degan edi Prezidentimiz Islom Karimov. 1995 yil 3 aprelda Vazirlar Mahkamasi “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Nizomi to'rrisida”gi qarorini tasdiqladi. Bu Nizomga muvofiq 2000 yillargacha O'zFA haqiqiy a'ziligiga yoshi 65 dan oshmagan muhbir a'zolaridan va fan doktorlaridan saylandi. O'zFA muhbir a'ziligiga esa 60 yoshdan oshmagan fan doktorlari saylandi. Haqiqiy a'zolar va muhbir a'zolari 70 yoshga to'lganda, O'zFA haqiqiy a'zosini saylash uchun ko'shimcha o'rinlar o'cxildi. O'zbekiston FANing 118 a'zosi bor (2006). Akademiya muassasalarida 5300 ga yaqini ilmiy hodim, 360 fan doktori va 860 fan nomzodi ishlaydi (O'zME Davlat ilmiy nashriyo'ti, – T.12. 2006.-387-391-b. ). 2007 yilda O'zbekistonda 63 ta oliy o'quv yurti, shu jamladan 17 universitet, FA, IIA, QHA, MA, 120 dan ziyo'd ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikaning ilmiy tadqiqot majmui akademiya, oliy ta'lim va boshqa tarmoqlardagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo'linmalari, loyha konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va tajriba korhonalari, ahborot – hisoblash markazlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda 34 mingdan ortiq ilmiy hodim fanning turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 2,4 ming kishi fan doktori va 8,4 ming kishi fan nomzodidir (2006).

O'zbekiston o'zining milliy Fanlar akademiyasiga ega bo'lib, uning tarkibida ulkan ilmiy-tehnika salohiyatga ega bo'lgan 43 ta akademik institut muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, issiqlik fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo' va tabiiy birikmalar kimyo'si, seysmologiya yonalishlarida va boshqa ko'plab sohalarda istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda<sup>1</sup>.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday fanning harakterli belgilari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2007. – 27-b.

- fan halqqa xizmat qiladi, keng halq ommasi ishtrokida rivojlanadi;
- fanga davlat rahbarlik qiladi;
- fan ilmiy metodologiya: falsafa bilan qurollangan bo'ladi;
- fan olimlari o'zaro yordam, jamoa rejasi asosida ishlashadi.

Sotsiologiya strukturasi fanlar klassifikatsiyasining ikki yonalish bor:

a) fundamental yonalish;

b) **amaliy yonalish.**

**Tadqiqot sohasida esa:**

1) nazariy tadqiqot.

2) empirik tadqiqotlarga bo'linadi.

Tuzilish sohasi bo'yicha: 1) Maxsus fanlar sohasi.

2) Tarmoq sohalari mavjud.

Bu sohalar bir-birlari bilan juda murakkab, o'zaro dialektik aloqadadirlar. Ayrim hollarda bir-biriga qo'sxilib ketadi, ba'zida bir-birlarni inkor qiladi.

Fundamental sotsiologiya boshqa elementlaridan o'zi hal qilayo'tgan muammolar darajasi, ko'lemi, ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya abstraktsiyaning (mavhumlik) oliy darajasi muammolari bilan shurullanib, sotsial olimning taraqqiyoti va borliqi uchun zarur bo'lgan umumiy qonun va qonuniyatlarini izlash bilan faoliyat ko'rsatadi.

Fundamental sotsiologiya ko'plab maktab va yonalishga ega.

Fanning negizini ijodiy yaratishning 3 ta asosiy aspekti mavjud:

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi – bu sotsial olamning to'liq tasvirini yaratishdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai hamda shakillarini aniqlashdir. Yoki fundamental sotsiologiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Fan-tehnika taraqqiyotining muhim qismi bo'lgan fundamental fan ilmiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida uzviy aloqa bo'lash, fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanishini ta'minlash, fundamental foyalar tajribaga, ishlab chiqarishga qaratilishi lozim.

Fan inson omilini chuqur tadqiq qilib, fan-tehnika taraqqiyotini gumanizatsiyalash va ekologiyazatsiyalash muammolarini o'rganish.

Fan tarmoqlari: akademiya, tarmoq va oliy o'quv yurtlari bo'limlaridan qulay foydalanish.

Ilmiy kadrlar tayyorlash, fandagi yoshlar fayrat-shijoat iste'dodlaridan samarali foydalanish.

Jamiyat sotsial-iqtisodiy va ilmiy-tehnikaviy rivojlanishni prognoz qilib oldindan aytib berish, ilmiy kuchlar va moddiy resurslardan o'rinli foydalanish.

Fundamental sotsiologik tadqiqotlarning halq ho'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-tehnik muammolarini hal etish, kompleks echimlar beradigan, ishlab chiqarish korxonalarini hamda iqtisodiyotning butun tarmoqlarini har tomonlama takomillashtirishni ta'minlash asosida yirik texnologiyalar natijalariga ega bo'lish va kuchaytirishdan iborat.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov "Agar fanni ulkan bir darah deb tasavvur qilsak fundamental tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, darah shunchalik barq urib yashnaydi, ko'rkam xosil beradi", degan edi (T.2,258-b.).

Sub'ektga murojat qilish – fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushuchasidir. Fundamental sotsiologiya bu metonazariyadir, u fanning tuzilishi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. SHu boisdan ham fundamental tadqiqot roli beqiyosdir. Uning quyidagi funktsiyalari bor:

- a) dunyoqarash funktsiyasi;
- b) metodologik funktsiyasi;
- v) integratsiyalashtiruvchi funktsiyasi;
- g) evristik funktsiyasi va boshqa funktsiyalari mavjud.

**2. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar** fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi. Uning xususiyati shundaki, amaliy sotsiologiya orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shakillandi va rivojlandi.

Empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblanadi. Empirik tadqiqotlar o'zgartiruvchanlik xususiyatga ega emas, uning vazifasi: kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish, so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yirishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda, ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotning turli sohalari faoliyatini takomillashtirish uchun tavsiyanomalarga aylantiradi.

SHunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy metodologik bilimlarni ham shakillantiradi.

Amaliy sotsiologiya ilmiy bilimning amaliy effektivligi masalasini hal qilgan muammolarni o'rtaga qo'yadi.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq yonalishini shakllantiradi (xulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya va h.q.)

Sotsiologik tadqiqotlar 1) nazariy hamda 2) empirik bo'lishi mumkin. Chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariyadir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jipslashgan holda va o'zaro aloqada o'tkaziladi. Lekin har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanadi.

**Nazariya** – bu kategoriya, tushunchalar, holatlar va printsiplarning kontseptual birligi bo'lib, u hodisalarning xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyada markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi.

Sotsiologiya maxsus yonalishlar sotsial reallikni sotsiologiya ob'ekti sifatida qabul qilishda nazariy mushohada qilishlik va bir ob'ektning asosiy elementlarini aniqlash asosida vujudga keladi, maxsus yonalishlar fanning markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zida tadqiqotning boshqa barcha yonalishlari: tarmoq, empirik yonalishlarini mujassamlashtirgan bo'ladi.

**Tarmoq yonalishlari:** shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi va h.q. Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilot, korhona, muassasa faoliyati takomillashadi. Tarmoq yonalishi rivoji fundamental sotsiologiya oldida jamiyat yahlit tuzilishda turli xil ijtimoiy tizimlar roli, o'rni, o'zaro harakat turlari, taraqqiyot asoslari masalalarini qo'yadi.

O'rta asrlar davrida fundamental va amaliy fanlar bilan buyuk allomalarimiz bevosita shuflullanishgan va quyidagi akademiya maktablarini barpo etishgan:

1) «Ma'mun akademiyasi» Abul Abbos ibn Ma'mun tomonidan H asr ohiri HI asr boshlarida tashkil topdi, Ibn Miskoviy, Abu Nasr Ibn Iroq kabi buyuk allomalar ta'lim olgan.

2) Samarqandda Ulufbek astronomiyasi maktabi HV asrda tashkil tapgan.

3) Horazm Ma'mun akademiyasini qayta tashkil etish to'frisida 1997 yil 11 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilinib qayta tiklandi. 2006 yil noyabrda Prezident Islom Karimov Hiva shahrida Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga barishlangan tantanali

marosimda «Ilmu ma'rifat ziyo'si hech qachon so'nmaydi» mavzuida nutq so'zlashdi.

1995 yilning aprel' oyida tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasi hamda 1996 yilning may oyida tashkil etilgan Bank-moliya Akademiyasi hokimiyat va boshqaruv organlari hodimlarini, iqtisodiy tuzilmalar mutahassislarini sifat jihatdan yangi darajada tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha bosh muassasalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasidagi jarayon kadrlarni siyosiy, madaniy, ma'naviy hamda kasb jihatdan tayyorlash majmuini o'z ichiga oladi. Akademik ta'lim tinglovchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, keng aql-zakovat, chuqur bilim va mulohaza, tashabbus, muammolarni hal etishga ijodiy yondashuv asosida hozirgi zamon tafakkurini shakllantirishga qaratilgandir.

1995 yil 3 oktyabrda Prezidentimiz Islom Karimov Davlat va jamiyat qurilish akademiyasining o'xilishi marosimida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Akademiya-bu oddiy o'quv yurti, kadrlar, hattoki, rahbar kadrlar tayyorlaydigan bilim dargohigina emas. U yangi tafakkur shakllanadigan, o'zimiz to'plagan va boshqa mamlakatlarda to'plangan ilfor tajribalar o'rganiladigan, tahlil qilinadigan va tahsil beriladigan markaz bo'lib qolishi kerak» (Asarlar: T.4.-42-b.).

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1995 yil 2 noyabr kuni Respublika bir guruh olimlari – mamlakat fanlar akademiyasi vakillari bilan uchrashuvda “Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi” hususidagi nutqida “Ayniqsa fundamental fanlarga alohida e'tibor berish kerak. Chunki fundamental fanlar taraqqiyot asosidir”, degan edi. Mustaqillikning 18 yili davomida davlatimiz asosan respublika uchun ustuvor ilmiy-tehnika yonalishlari bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Buning uchun Fan va texnologiyalar markazida o'tkazilayotgan tanlovlarning natijalariga ko'ra grantlarni amalga oshirish uchun etarli mablag' ajratilmoqda. Iqtidorli yoshlarga nafaqat respublikada, balki rivojlangan xorijiy mamlakatlarda barcha sohalar bo'yicha o'z bilim va tajribalarini oshirib borishlari uchun etarli shart-sharoit yaratib berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 iyuldagi «Fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi 337-son» va 2002 yil 4 martdagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi» 77-son Qarorlariga muvofiq Fan va texnologiyalar markaziga har yili ilmiy tadqiqot institutlari hamda oliy o'quv yurtlarining yosh olimlarini

malaka oshirish hamda ilmiy stajirovka o'tish uchun rivojlangan horijiy davlatlarning ilmiy markazlariga va oliy o'quv yurtlariga yuborish vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston olimlari fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari sohasidagi 25 davlat ilmiy-tehnika dasturi bo'yicha ishlar olib bormoqdalar.

O'tgan davrda O'zFA dan 33 kishi, OO'MV dan 27 kishi, So'liqni saqlash Vazirligidan 12 kishi, Qishloq va suv ho'jaligi Vazirligidan 12 kishi bunday ilmiy safarlarda bo'lib, o'z ilmiy ishlari uchun zarur materiallarni to'plab keldilar va malaka oshirdilar.

2006 yil 7 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'rtisida»gi qarori mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-tehnika taraqqiyoti boshqaruvini erkinlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, texnologik va konstruktorlik ishlanmalari darajasi, sifati va dolzarbligini oshirish, ulardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratish royasini ilgari surdi. («Ma'rifat», 2006 yil 9 avgust).

**«Ilm - ma'rifatga qiziqishi sust  
millatning kelajagi ham bo'lmaydi».**

**I.A.Karimov.**

## **5.2. Ta'lim sotsial bilimning tarmofi va instituti sifatida**

**Ta'lim sotsiologiyasi** – jamiyatning ta'lim tizimi to'rtisidagi maxsus sotsiologik nazariya bo'lib, uni nisbatan mustaqil ijtimoiy institut sifatida jamiyat hayotidagi o'ziga xos funksional va rivojlanish qonuniyatlari, darajasini, uning boshqa ijtimoiy tashkilotlar va munosabatlar bilan o'zaro

aloqadorligini va shu sohadagi davlat siyosatini o'rganadi. Ta'lim tizimining jamiyat rivojiga ta'siri beqiyosdir. U har qanday davlatning jamiyat ma'naviy hayotini, ijtimoiy va kasbiy tarkibini boshqarishdagi muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Ta'lim sotsiologiyasi - maktab, o'quv yurtlari va muassasalari faoliyati, ulardagi pedagogik mutahassislarning sifati, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash vazifalari kabi masalalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Hozirda ta'lim tizimi ijtimoiy siyosat tarzida rivojlanmoqda. Ta'lim sotsiologiyasi esa bu siyosatning o'ziga xos jihatlarni, uning amaliy natijalarini o'rganishga hizmat qiladi.

**Ta'lim sotsiologiyasining asosiy vazifasi** ta'lim tizimining barcha funktsiyalarini jamiyat hayotida keng imkoniyatlar darajasida amal qilishini ta'minlash va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi samarali ta'sirini o'rganishdan iborat. Ta'lim tizimi o'zining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy funktsiyalariga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotining shu sohaları taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning ilmiy-tehnikaiviy qadriyatları yuksalishida va shahs shakllanishida muhim omildir.

Farbda ta'lim sotsiologiyasiga E.Dyurkgeym va M.Veberlar asos solgan. Ular ta'lim tizimining ijtimoiy funktsiyalarini, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan aloqasi, oliy ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni tadqiq qilganlar. E.Fromm, T.Parsons, S.N.Parkinson, T.V.Adorno, R.Kyulevind, V.Frankl, J.Ellyuln, E.Glissan kabilar ta'lim sotsiologiyasi rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar.

T.Parsons o'zining «Sotsiologiyaning umumnazariy muammolari» asarida shunday yo'zadi: «AQSH Oliy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biri - ilmiy tadqiqotlarni o'z ichiga oluvchi ilmiy ish olib boruvchi mutahassisligini berishidadir». Bizda esa oliy ta'lim bitiruvxilarining ilmiy ish olib borish darajasi, layo'qati juda past.

**Hozirda ta'lim tizimining sotsiologik tadqiqot yonalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

1. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ta'lim tizimining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati.
2. Ijtimoiy rivojlanishdagi ta'siri, samaradorligi darajasi va sifati.
3. O'qituvxilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
4. Ta'lim muassasalarida ta'lim berishning sifati darajasi va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning ular faoliyatiga ta'siri.

**Ta'limning sotsial funktsiyalari quyidagilardan iborat:**

1. Madaniyatni tarqatish va avloddan-avlodga ko'rsatish funktsiyasi.

2. Jamiyat madaniyatini saqlovchi va generator funktsiyasi.
3. SHahsni sotsiallashtirish funktsiyasi.
4. Ijtimoiy tanlov, jamiyat a'zolarini differentsiatsiyalash funktsiyasi.
5. Ijtimoiy madaniyat o'zgarishlari funktsiyasi.
6. Ijtimoiy nazorat funktsiyasi va hokazo.

### **5.3. Ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligi va undagi o'zgarishlar**

Ta'limning ijtimoiy samaradorligi ta'lim muassasalarining soni, ularda ta'lim olayotgan o'quvcxilarning miqdori, jamiyat a'zolarining bilim darajasi va sifati bilangina belgilanmaydi, balki uning ijtimoiy faoliyatida, amaliyo'tda hamda mehnat faoliyatida qanday darajada tatbiq qilinishi bilan ham izohlanadi. SHu jihatdan, mustaqillikning dastlabki yillarida yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va bozor iqtisodiyoti siyosatining amalga oshirilib borishi sharoitida, respublikada ko'plab mutahassis kadrlarning o'z mutahassisligi bo'yicha ishlashdan manfaatdor bo'lmay yoki ishlash imkoniyatlariga ega emasliklari sababli, yahshiroq tirikcxilik o'tkazish maqsadida o'z mutahassisliklaridan boshqa sohalarga o'tib ketish tendentsiyasi kuchaygan edi. Sotsiologiya «tili» bilan aytganda jamiyat a'zolarining sotsial mobilligi ham vertikal, ham gorizontal tartibda o'zgarishi keskin ortib bormoqda. Achinarlisi shuki, bu jarayon, ayniqsa, ta'lim tizimining o'zida boshqa sohalarga nisbatan ko'proq sodir bo'lishi kuzatildi. Ta'lim sotsiologiyasining hozirgi sharoitidagi asosiy vazifalaridan biri ham, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni empirik jihatdan tadqiq qilib, ilmiy-amaliy va nazariy xulosalar chiqarishdan iborat. Ko'rinib turibdiki, o'zining mohiyat-e'tibori bilan ushbu masala favqulodda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

**O'zbekistonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar.** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» 41-moddasida ta'kidlanganidek, «har kim bilim olish huquqiga ega»<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yonaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'sxilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq (demokratik) fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1997 yil 29 avgustda Prezident Islom Karimov Oliy Majlis IH sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzuida nutq so'zladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2009, 9-bet.



SHu sessiyada «Ta'lim to'frisida» gi Qonun qabul qilindi. U 5 bo'lim 34 moddadan iboart. SHuningdek, sessiyada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham qabul qilindi.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shahs manfaatlarini ro'yo'bga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mehanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayo'tgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Halqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

«Ta'lim to'frisidagi Qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997) va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturlari (2004) doirasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. Bu qonunlar milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida jahon miqyo'sidagi yutuqlar asosida tayyorlandi. U yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'fri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yonaltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yo'bga chiqarishda har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar ihtisosligini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puhta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: «Ta'lim to'frisidagi Qonunni joriy etishni; yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hayotga joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'limotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni; yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Respublikadagi 6772 ta maktabgacha ta'lim muassasasida 810 mingga yaqin kichkintoylar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bofchalari hamda «Bolalar bofcha-maktab» majmui tarmofi rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillari, horeografiya, tasviriy va musiqa san'ati,

komp'yuter savodhonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan.

Bugungi kunda respublikadagi 9692 ta umumta'lim maktablarida 7 mln.dan ko'proq o'quvchi ta'lim olmoqda. Ana shu ta'lim maktablarida 480 ming nafar oliy (75-80 foiz) va o'rta maxsus (20-25 foiz) ma'lumotli o'qituvchilar ishlamoqda.

YAngi tipdagi maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmoqi rivojlanib bormoqda. 2010 yilga kelib mamlakatimizda umumta'lim maktablarining soni 9980 tani, shu jumladan, alohida maxsus fanlarga ixtisoslashgan o'quv dasturlarini chuqur o'rgatadigan maktablar 3247 tani, gimnaziyalar 205 tani, litseylar 346 tani, umumiy o'quvchilar soni esa 5689,7 ming nafarni tashkil qildi. 2001 yil sentyabrigacha o'quv tizimi 11 yillikka asoslanib, tuzilmaviy jihatdan 3 qismga bo'lingan edi: boshlanich ta'lim – 4 yil; to'liqsiz o'rta ma'lumot olish – 9 yil; to'liq o'rta ma'lumot olish – 11 yil. Endilikda esa 9+3 yillik tizim yo'lga tushdi.

Hozirgi kunda 346 litsey va 205 gimnaziya ishlab turibdi. «Soflom avlod uchun», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Iqtisodiy ta'lim», «Qishloq maktabi», «Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tiklash» va boshqa tarmoq dasturlari ro'yo'bga chiqarilmoqda. Respublika umumta'lim maktablarida 435 mingdan ortiq o'qituvchi ishlamoqda, ularning 78 foizi oliy ma'lumotlidir.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirixildi. Hozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlanich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutahassislar ishlamoqda.

2007 yilga kelib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi mustaqillik yillarida jiddiy isloh qilindi. Hozir oliy ma'lumotli mutahassislar tayyorlovchi 65 ta universitet va institutlar faoliyat ko'rsatmoqda. SHundan, universitet 20 ta, institutlar 43 ta. Oliy o'quv yurtlarining 14 tasi texnik, 3 tasi iqtisodiy, 15 tasi gumanitar, 6 tasi pedagogik, 7 tasi tibbiy, 4 tasi agrar, 12 tasi tarmoq mutahassislarini tayyorlashga ixtisoslashgan<sup>1</sup>. Milliy dasturga muvofiq 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura orqali oliy ma'lumotli mutahassislar tayyorlashning zamonaviy tizimi yaratildi. 2000-2001 o'quv yilida oliy o'quv yurtlarida 166 mingdan ortiq talaba, faqat kunduzgi bo'limlarda esa jami 141 ming 841 nafar talaba tahsil oldi. 2009 yilga

<sup>1</sup> To'xliiev N. va boshq. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: «O'zbekiston milily entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-51-b.

kelib 298 ming 98 talaba bakalavr ixtisosligida ta'lim olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilda 76 ming 100 nafar yoshlar bakalavr mutahassisligini bitirdi. 13 ming 878 magistr ta'lim olmoqda. 2010 yilda 6 ming 877 nafar magistr oliy o'kuv yurtlarini bitirdi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izcxil ilgarilab borayo'tganligi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan hom ashyo' yonalishdan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'lga izcxil o'tayo'tganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayo'tganligi.

3. Davlat ijtimoiy siyosatida shahs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi.

4. Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftihar tuyfusining shakllanayo'tganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va halqimizning intellektual merosiga hurmat.

5. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayo'tganligi.

Mazkur dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan bo'lib, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yo'bga chiqarish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. «Ta'lim to'frisida»gi (1997) O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimi isloh qilinib, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimi yagona o'quv-milliy ishlab chiqarish majmui sifatida izcxil rivojlanishi ta'minlanmoqda.

2. Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi jamiyatda amalga oshirilayo'tgan yangilanish, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlariga moslashib bormoqda.

3. Kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutahassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarmoqda.

4. Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublari ishlab chiqilib joriy etilmoqda.

5. Ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiya qilish sifatida baho berishning holis tizimi joriy qilindi.

6. YAngi ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishning kafolatlari, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-tehnika va ahborot bazasi yaratilmoqda.

7. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablaflar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etilmoqda.

8. Kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli halqaro hamkorlik rivojlanmoqda.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yo'bga chiqarildi.

**Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlanitirishning huquqiy printsiplari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'limning ustuvorligi, uning rivojlanishi birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi.

2. Ta'limning demokratlashuvi, ta'lim va tarbiya uslublarni tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligini kengaytish, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi.

3. Ta'limning insonparvarlashuvi, inson qobiliyatlarining o'xilishi va uning ta'limga nisbatan turli-tuman ehtiyo'jlari qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyfunlashuvi.

4. Ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni xosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish.

5. Ta'limning milliy yonaltirilganligi, milliy tarix, halq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyfunligi, O'zbekiston halqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa halqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash.

6. Ta'lim va tarbiyaning uzviy borliqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yonaltirilganligi.

7. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izcxil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izcxilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi **ta'lim turlarini** o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

**Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:**

- shahs;
- davlat va jamiyat;
- uzluksiz ta'lim;
- fan;
- ishlab chiqarish.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayo'tgan islohotlar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga mavofiq quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

**1. Birinchi bosqich** – o'tish davri bo'lib, u 1997–2001 yillarni, 4 yilni o'z ichiga oladi.

**2. Ikkinchi bosqich** – 2001–2005 yillarni o'z ichiga oldi.

**3. Uchinchi bosqich** – 2005–2009 yillarni o'z ichiga olishi bilan harakterlanadi.

Birgina birinchi bosqichni amalga oshirish jarayonida davlatimiz halq ta'limi tizimiga qo'shimcha 65 mlrd.so'mdan ortiq mablar sarfladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 5 fevraldagi «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini ra'batlantirish choralari to'rtisida»gi Farmoniga asosan aspirantlar va talaba – magistrantlar uchun O'zbekiston Prezidentining Davlat stipendiyalari ta'sis etildi va shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy ra'batlantirish to'rtisida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat Komitetiga, 2002 yildan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar Markaziga Prezident stipendiyalari uchun tanlovlarni o'tkazish va ularni tayinlash vazifasi yuklatilgan. Bu tanlov asosan quyidagi beshta ustuvor yonalish bo'yicha aspirantlar tanlovini amalga oshirmoqda:

- Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyoti'ga mos ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni shakllantirish;

- Agrosanoat majmui;
- Energetika, resurslar, sanoat;
- Sorliqni saqlash va ekologiya;
- Ahborot texnologiyalari va boshqaruv.

Talaba – magistrantlar o'rtasida esa quyidagi 11ta ta'lim yonalishi bo'yicha aniqlanmoqda:

- Qishloq ho'jaligi va irrigatsiya;
- Texnika va informatika;
- Tibbiyot, dorishunoslik va jismoniy tarbiya;
- Ijtimoiy – gumanitar;
- Fizika – matematika va kimyo' – biologiya;
- Iqtisodiyot;
- Pedagogika – psixologiya;
- Madaniyat va san'at;
- CHet tillar;
- Huquq va halqaro munosabatlar;
- Jurnalistika.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari uchun 1993-2009 yillarda o'tkazilgan tanlov natijalarida 75 aspirant va 30 talaba-magistrantlar Prezident Davlat stipendiyalariga sazovor bo'ldilar. 2010 yil 16 mart kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat stipendiantlari seminar – ko'rgazmasi tashkil etildi va o'tkazildi»<sup>1</sup>.

#### 5.4. **Uzluksiz iqtisodiy ta'limning samaradorligi**

Tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish eng avvalo hodimlarning iqtisodiy bilimiga bo'liq.

Bozor munosabatlariga o'rgatadigan iqtisodiy ta'lim tizimlarining halqaro andozalari va modellari mavjud. Ular 1996 yili YUNESKO tomonidan e'lon qilingan «Jahondagi oliy ta'lim tizimlari ma'lumotnomasi»da o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz iqtisodiy ta'limni jahon andozalari darajasiga ko'tarish ham kontseptsianing muhim jihatlaridan hisoblanadi. Bu quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini jahon tizimi bilan bir holga keltirish;
- mutahassislar bilim darajasini halqaro miqyo'sda sinab ko'rish;

<sup>1</sup> Toshpo'latov M. Ilm fanimiz kelajagi yoshlar qo'lida // «Muloqot». 2010. 4-son. 6-8betlar.

- jahon mutahassislari va universitetlari ta'lim texnologiyalarining bilim va tajribalarini qo'llash;

- iqtisodchi mutahassislar diplomlari va darajalarini erkin ayirboshlashishni ta'minlash;

Bu jarayonda bo'lajak mutahassislarni horijiy tillarga, birinchi navbatda ingliz tiliga o'rgatish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimini, balki ta'lim xizmatini tubdan isloh qilish zarurati turilgan.

Uzluksiz iqtisodiy ta'lim deganda, ta'limning davomiyligini tushunish kerak. Bu tizimning mohiyati bugun kollejni tugallagan talaba universitetga kirishi shart, degan ma'noni keltirib chiqarmasligi lozim.

Bu erda gap boshqa maqsad to'risida ketmoqda: bir ta'lim bosqichini tugallab, ma'lum ixtisoslikni egallagan talaba ko'z o'ngida yuqoriroq, o'zi egallagan malaka va darajadan yuqoriroq ta'lim muassasasi turishi kerak.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi masalalarni hal etmoq zarur:

- Oliy maktab ixtisosliklari uchungina taalluqli hisoblangan bilimlar, ko'nikma va malaka mezonlarini aniqlash;

- Amaliy yondashuv va mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan bu bilimlar ko'nikma va malakali klassifikatsiya tamoyillarini belgilash;

- Mavjud ixtisosliklar ro'yhati to'laligini tekshirish;

- Mutahassislilar tayyorlashning aniq darajasini belgilab qo'yish: bakalavr, diplomli mutahassis, magistr, qayta tayyorlash va malaka oshirish, aspirantura, doktorantura.

- O'zbekiston iqtisodiy ta'limining horijiy mamlakatlar iqtisodiy ta'limi bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan kelib chiqib, sohalar va ixtisosliklar ro'yhatiga aniqliklar kiritish va boshqalar.

### «Fan va ta'lim» sotsiologiyasi mavzusiga ilova

Hududlar bo'yicha inson salohiyati rivojlanish indeksi<sup>1</sup>

	Ta'lim darajasi				ISRI			
	2000	2001	2002	2003	2000	2001	2002	2003
O'zbekiston Respublikasi	2,74	2,74	2,74	2,76	0,736	0,740	0,741	0,747
Qoraqalporiston Respublikasi	2,73	2,74	2,73	2,73	0,690	0,684	0,681	0,680
Viloyatlar:								
Andijon	2,74	2,74	2,74	2,75	0,727	0,732	0,730	0,730
Buhoro	2,74	2,72	2,72	2,73	0,748	0,750	0,749	0,753
Jizzah	2,75	2,72	2,72	2,72	0,755	0,754	0,732	0,738
Qashqadaryo'	2,75	2,74	2,74	2,75	0,733	0,740	0,741	0,746
Navoiy	2,77	2,76	2,78	2,79	0,737	0,761	0,771	0,781
Namangan	2,73	2,74	2,73	2,75	0,715	0,718	0,718	0,714

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston- 2005, 106-bet.

Samarqand	2,75	2,75	2,74	2,75	0,720	0,722	0,722	0,725
Surhondaryo'	2,72	2,74	2,74	2,75	0,725	0,736	0,737	0,739
Sirdaryo'	2,68	2,69	2,68	2,69	0,716	0,724	0,718	0,712
Toshkent	2,68	2,68	2,68	2,68	0,732	0,733	0,729	0,734
Farrona	2,76	2,76	2,77	2,78	0,744	0,741	0,742	0,738
Horazm	2,75	2,75	2,74	2,76	0,724	0,723	0,722	0,725
Toshkent shahri	2,86	2,89	2,92	2,96	0,763	0,769	0,770	0,790

O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari va qabul soni	1991	1992	1993	1994	1995	1996
O'rta maxsus ta'lim muassalarida o'qiyotganlar soni (ming)	254,4	251,0	240,1	210,0	194,8	197,2
Hotin qizlar ulushi (%)	50,3	47,5	44,6	46,8	51,8	54,2
Oliy o'quv yurtlarida talabala soni (ming)	337,4	316,2	272,3	230,1	192,1	165,7
Hotin-qizlar ulushi (%).	40,2	39,3	39,3	39,6	38,9	39,4
O'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichi (6-23 yoshdagi aholiga nisbatan % da)	57,2	58,9	50,8	49,6	47,2	
Tugallangan o'rta ma'lumot %.	110,4	104,9	102,8	111,9	111,3	
Tugallangan o'rta texnik ma'lumot (maktab,hunar texnika bilim yurtlari va texnikumlarda o'quvcilar soniga nisbatan) % da		41,1	41,3	38,2	44,0	43,6
O'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirayotgan 19 yoshlilar soni (%)	30,8	26	26,2	24,9	20,8	
Kunduzgi ta'limga oliy o'quv yurtlariga kirish(%)		65,9	79,2	79,2	85,8	86,4
Ta'limga davlat harajatlari (HIMdan% da)		10,2	9,5	8,3	7,4	
Oliy ta'limga harajatlar (barcha darajadagi harajatlarga nisbatan) %		15,8	15,3	15,9	15,9	15,5
Oliy o'quv yurtlariga kirishning umumiy ko'rsatkichi (1000 kishiga)	43,5	28,7	25,0	24,4	22,3	

### O'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlari

	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
7-22 yoshdagi aholiga nisbatan foizda	76,0	76,0	76,0	76,0	76,0	76,0	76,7	77,3	77,3
Ta'limning o'rtacha davomiyligi, jami (yil)	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,4	11,5	11,6	11,6
Ayo'llar	11,0	11,0	11,0	11,0	11,0	11,1	11,2	11,3	11,3
Erkaklar	11,9	12,0	12,1	12,2	12,2	11,6	11,7	11,8	11,8
Tugallangan o'rta ta'lim (ta'limning ushbu darajasiga o'qishga kirganlarning ushbu darajani bitirganlar soniga nisbati, foizda)	111,9	111,3	110,4	108,4	107,9	114,8	113,9	121,0	107,9
O'rta o'quv yurtlari bitiruvchilari (bitiruv yoshidagi aholiga nisbatan)	105,8	107,8	104,6	107,8	116,7	93,7	102,5	-*	71,1
Tugallangan o'rta- texnik	44,0	43,6	43,9	41,5	41,9	41,4	42,9	-*	43,3



ma'lumot (maktab, KHTO'YU va kollej o'quvcilari soniga nisbatan foizda)										
O'quv yurtlarida o'qishni davom ettirayo'tgan 19 yoshlilar soni (foizda)	24,9	20,8	17,6	17,3	18,7	23,4	19,0	18,2	18,5	
OO'YU kunduzgi bo'limiga o'qishga kirish (barcha ta'lim turlariga nisbatan foizda)	85,8	86,4	85,1	84,2	84,8	91,2	89,4	84,0	78,5	
OO'YU bitiruvchilari soni (bitiruv yoshidagi 22 yoshli aholiga nisbatan foizda)	13,0	12,2	10,5	8,7	8,2	7,0	7,7	8,4	9,2	
Ta'limga sarflangan davlat harajati (YAIM foizda)	7,4	7,7	7,3	7,4	7,5	6,7	6,8	6,7	6,4	
Ta'limga sarflangan davlat harajati (umumdavlat harajatidan foizda)	22,8	21,1	22,6	22,3	24,2	23,2	25,5	26,0	26,2	
Davlat byudjeti hisobiga oliy ta'lim harajati (ta'limga harajatlardan foizda)	8,6	8,3	5,4	7,0	6,6	7,0	6,8	6,7	6,5	

\*- Ta'lim islohotlari bilan izohlangan ta'lim darajalaridagi ko'chishlar bilan borliq solishtirib bo'lmaydigan ma'lumotlar.<sup>1</sup>

**Respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayo'tgan talabalar ko'rsatkichi:  
(hudud va yillar bo'yicha 2000-2005 y.y.)  
Bakalavriat bosqichi**

Yillar	Jami	Davlat granti asosida	SHartnoma asosida	Sirtqi ta'lim
1999-2000	41690	23270	18420	-
2000-2001	48707	19776	28931	-
2001-2002	49500	19800	29700	-
2002-2003	54100	19900	31200	3000
2003-2004	56100	19900	31200	5000
2004-2005	56175	19975	31200	5000

**Magistratura bosqichi**

Yillar	Jami	Davlat granti asosida	SHartnoma asosida
1999-2000	2024	1192	832
2000-2001	3187	1405	1782
2001-2002	4200	1400	2800
2002-2003	4500	1400	3100
2003-2004	5400	1400	4000
2004-2005	5400	1400	4000

**Oliy ta'lim muassasalarida tarmoq guruhlarini  
bo'yicha mutahassislar tayyorlash**

	2000-2001	2001-2002	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
			-	-	-	-	-	-	-

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston 2005. 101- bet.

			2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009
Oliy ta'lim muassasalari tayyorlagan mutahassislar	36,0	39,8	45,5	52,8	57,8	60,7	73,2	82,3	71,8
SHu jumladan, ta'lim muassasalari tayyorlagan									
Sanoat va qurilish	5,4	5,7	6,4	7,7	7,7	8,5	10,3	11,6	8,7
Qishloq ho'jaligi	2,7	3,1	3,1	3,4	4,1	3,7	4,2	4	3,2
Transport va aloqa	1,9	2,1	2,5	2,6	2,9	3,5	3,9	4,5	4
Iqtisodiyot va huquq	2,6	3,3	3,1	5,7	6,8	7,2	7,1	8,4	8,6
Sorliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport	2,3	2,5	2,8	3,0	3,5	3,7	4,0	4,4	4,2
Maorif	20,8	22,7	27,2	30,0	32,1	33,4	42,9	49,2	42,3
San'at va kinematografiya	0,3	0,4	0,4	0,4	0,7	0,7	0,8	0,8	0,8
10.000 aholi hisobiga tayyorlangan mutahassislar	14,0	16,0	18,0	20,0	22,0	23,0	27,0	30,4	25,9

**Manba- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.**

**O'rta maxsus ta'lim muassasalari tomonidan tarmoq guruhlariga bo'yicha tayyorlangan mutahassislar (umumiy hajmga nisbatan % da)  
2008 – 2009**

**Maorif – 13%**

**Sorliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport – 15%**

**Iqtisodiyot va huquq – 14%**

**Transport va aloqa – 7%**

**San'at va kinematografiya – 3%**

**Boshqa xizmat ko'rsatish sohasi – 10%**

**Sanoat va qurilish – 20%**

**Qishloq ho'jaligi – 18%**

**Tarmoq guruhlari bo'yicha o'rta-maxsus ta'lim muassasalariga o'quvcilar qabul qilish (ming kishi)**

	2001 - 2002	2002- 2003	2003- 2004	2004- 2005	2005 - 2006	2006- 2007	2007 - 2008	2008- 2009	2009- 2010
<b>O'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul qilingan o'quvcilar</b>	103,6	211,8	227,2	245,9	310,1	332,6	428,6	445,4	520,1
<b>SHu jumladan-</b>									
<b>Sanoat va qurilish</b>	25,3	53,9	54,4	57,6	69	74	87,4	96,4	110,8
<b>Qishloq ho'jaligi</b>	42,5	42,3	45,9	61,6	63,6	80,5	82,6	95,2	106,2
<b>Transport va aloqa</b>	9,8	13,4	15,9	22,4	22,5	30,3	32,8	36,9	42,5
<b>Iqtisodiyot va huquq</b>	24	25,9	26,8	37,3	44,5	56,4	60,6	65,7	74,7
<b>Sorliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport</b>	31,3	36,7	40,8	46,6	47,2	67,2	70,5	66,9	58,8
<b>Maorif</b>	22,7	26,6	30	36,1	39,1	53,3	47,2	47,2	50,9
<b>San'at va kinematografiya</b>	5,5	6,2	6,3	8,1	8,4	10,2	10,1	10,2	10,5
<b>Boshqa (hizmat ko'rsatish sohasi)</b>	22,1	21,7	22,6	29	32,9	43,3	51	58,7	65,7

**Manba- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.**

## Ta'lim yonalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash dinamikasi

Ta'lim yonalishi	Yillar											
	1999-2000		2000-2001		2001-2002		2002-2003		2003-2004		2004-2005	
	Qabul	bitiruv	Qabul	bitiruv	Qabul	bitiruv	Qabul	bitiruv	Qabul	bitiruv	Qabul	bitiruv
Ta'lim	8699	4090	1070 2	4852	11921	5402	13000	6695	14844	6491	15792	8850
Gumanitar fanlar va san'at	3777	2374	4116	2233	4292	2562	446 8	324 0	4706	368 3	4234	3387
Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq.	6893	6294	7407	7532	8370	8089	8462	850 6	8966	874 7	7603	586 3
Fan	2161	1599	2588	1310	2780	1510	2967	200 3	2827	233 2	3050	2062
Muhandis-lik, qayta ishlovchi va quruvchilik tarmoqlari	6234	5688	6822	5961	7053	6004	7560	655 5	8048	751 2	6799	5932
Qishloq va suv ho'jaligi	1752	1434	2253	1334	2582	1291	2613	178 5	3184	176 7	2140	1293
Tibbiyot va sotsial ta'minot	2863	2413	3125	2081	3340	2144	3069	218 7	3445	247 0	3945	173 7
Hizmat ko'rsatish	736	361	890	446	1113	577	1092	698	1211	798	957	370

**Oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar.** Oliy ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni 20,9 ming nafarni tashkil etadi. Ulardan 1696 (8.1%) nafari fan doktori, professorlar, 7454 (35,6%) nafari fan nomzodi, dotsentlardir.

O'zbekiston Respublikasida kadrlarning malakasini oshirish 2 ta maxsus institut, 15 ta markaz va 22 ta malaka oshirish fakul'tetlari orqali amalga oshirilmoqda. Ular 22 ta vazirlik va tegishli muassasalarga qarashli bo'lib, ulardan 4 tasi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlariga, 14 ta markaz va 17 ta fakul'tetlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashlidir. 1998-2002 yillar mobaynida 309,3 ming o'qituvchilar va 30,7 ming rahbar kadrlar (umumiy ta'lim maktablari) va 58,1 ming nafar akademik litsey va kasb hunar kollejlari pedogoglari o'z malakalarini oshirganlar.

1998-2004 yillar mobaynida 4430 nomda darslik va o'quv qo'llanmalari chop etilib, ularning yillar bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagicha: 1998 yili 660, 1999 yili 660, 2000 yili 478, 2001 yili 490, 2002 yili 639, 2003 yili 762 va 2004 yili 741ni tashkil qilgan <sup>1</sup>.

### Qisqacha xulosalar

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston-2005.

Respublikamizda sotsial munosabatlar muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yonalishlari natijalari asosida tadqiq qilinayo'tganligini alohida ta'kidlash joizdir. Bu muammolarni yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joiz. Chunki Sotsiologiya nafaqat bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda, kompleks harakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiq qiladi.

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida bozor infratuzilmasi uchun kadrlar tayyorlash ko'lamini ko'paytirdi (abituriyentlarni qabul qilish 1990 yilgi 2,8 mingdan, 2009 yilga kelib 58 minggacha ko'tarildi), bozor iqtisodiyoti asoslariga qishloq joylardagi yoshlarni o'rgatish niyatida qator biznes maktablar, litseylar va kollejlarni tashkil etildi.

Mehnat bozori tez sur'atlarda iqtisodiy yonalishdagi mutahassislar bilan boyib bormoqda.

Hisoblarga ko'ra, respublika halq ho'jaligida oliy ma'lumotli iqtisodchilar soni hozirgi kunda 80 mingdan ortiqni, ya'ni oliy ma'lumotlilar umumiy soniga nisbatan 9,8% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 1990 yilda 9% ga teng edi.

Mamlakat yoshlar harakatini nosiyosiy va nopartiyaviy asosda muvofiqlashtirish uchun ta'sis etilgan nohukumat tashkilot bo'lib, uning ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

- 1) yoshlarga madad berish.
- 2) bozor iqtisodiga o'tishda ijtimoiylashuv.
- 3) kichik va o'rta biznesga jalb etish.
- 4) huquqiy madaniyatni shakllantirish.
- 5) ta'lim va o'z bilimini hamda madaniy hordifini oshirishni tashkil etish.
- 6) har tomonlama halqaro aloqalarni yo'lga qo'yish.
- 7) «Kamolot» yoshlar fondi faoliyati:
- 8) Mamlakatda «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakatining 238 ta bo'limlarida 11000 yoshlar uyushmalari faoliyat yuritadi.
- 9) Madaniy va ma'naviy tarqqiyo't masalalari «Yoshlar va O'zbekistonning ma'naviy yuksalishi» mavzuidagi YUNESKO bilan hamkorlikdagi 1-seminarda muhokama etilgan.
- 9) «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati va Konrad Adenauer fondi yoshlar va o'spirinlarga turar-joyida bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun sharoitlar yaratib berish sohasida qo'shma bitimni ijro etmoqda.

10) «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati huzuridagi yoshlarni band etish agentligi zamonaviy texnika va texnologiyalarga o'qitish xizmatini ko'rsatmoqda.

11) «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati huzuridagi sport - so'rlomlashtirish lageri 300 yoshni birlashtiradi.

12) «Mamlakatning yosh bunyo'dkorlari» klubida madaniy va ma'naviy tiklanish, jahon hamjamiyatiga ochiqlik borasida munozaralar o'tkazilmoqda.

13) «Amir Temur: shahs, davlat, renesans» mul'timedia qomusini yaratish uchun fond tomonidan kredit berigan.

**CHet ellarda ta'lim olish.** Horijiy davlatlarning obro'-nufuzli oliy o'quv yurtlarida hukumatlararo bitimlarga binoan O'zbekistonning 1500 dan oriq fuqorolari (MDH respublikalarida ta'lim olayo'tganlarni hisoblamaganda) bilim olmoqda. Birgina 1997 yilning o'zida, hukumatning «Umid» fondini tuzish to'rtisidagi qarori natijasida eng nufuzli horijiy oliy o'quv yurtlariga respublikaning 160 ta talabasi tahsil olgani yuborildi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida uzoq va yaqin horijiy mamlakalardan kelgan 5,3 ming kishi bilim olmoqda.

## **6 – MAVZU. MADANIYAT, DIN VA AHLOQ SOTSILOGIYASI**

### **6.1. Madaniyat sotsiologiyasi**

**«Madaniyat»** (arabcha «madaniyat» — madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik) — **kisxilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyo'd etish yo'llari va usullari majmui.** «Madina» so'zi musulmonlarning aziz tutadigan joyi – Madina shahri nomidan kelib chiqqan, chunki ilk musulmonlar ta'lim-tarbiyani asosan Madinada olganlar. Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, ahloq, xulq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, hizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

**Madaniyat tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi.** **Keng ma'noda** – madaniyat tushunchasi insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarining yirindisini aks ettiradi. **Tor ma'noda** – madaniyat tushunchasi jamiyatning ma'naviy-estetik turmush darajasini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlar majmui, biror ijtimoiy guruh yoki halqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyo'lilik va ma'rifatlilik hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyo'jlariga mos keladigan shartlari yirindisini bildiradi. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra 2000 yil «Halqaro tinchlik madaniyati yili» deb e'lon qilinganliga bejiz emas.

Sotsiologiyada «madaniyat» tushunchasi matematikadagi «sonlar», fizikadagi «gravitatsiya», himiyadaga «modda» tushunchalari kabi muhim ahamiyatga ega. Madaniyat — insonlar faoliyat natijalarining majmui o'laroq o'zida ikki holatni, ya'ni madaniy statikani (madaniyatning nisbatan turfun ko'rinishlari) va madaniy dinamikani, ya'ni madaniyatning o'zgaruvchan jihatini mujassamlashtiradi.

Madaniyat hodisasi XX asr boshlaridan e'tiboran sotsiologiyaning alohida yonalishi sifatida tadqiq etila boshlandi. Bugungi kunga kelib, madaniyat keng tasnif doirasiga ega bo'lgan hodisa sifatida moddiy va ma'naviy, ommaviy, me'yoriy (normativ), siyosiy, ahloqiy, huquqiy, an'anaviy, mehnat-kasbiy, ishlab chiqarish va hokazo madaniyat xillariga ajratilgan holda tadqiq etilmoqda.

Madaniyat kishilarning yaratuvchilik faoliyati, maqsadli sa'y-harakatlari natijasida moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shahsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni asosan moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish rasm bo'lgan. Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi — moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bevosita bo'liq. Moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarish bilan bo'liq ijtimoiy faoliyatning barcha sohalari va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muhim elementlari ishlab chiqarish, transport, aloqa vositalaridir. Moddiy madaniyat tushunchasi doirasiga texnika vositalari, uy-joylar, binolar, arhitektura obidalari, kiyim-bosh, uy-ro'zgor buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan narsalar ham kiradi.

Ma'naviy madaniyat ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllariga ta'sir o'tkazish bilan bo'liq bo'lgan faoliyatning barcha sohalarni qamrab oladi. **«Ma'naviyat, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «YUksak ma'naviyat - engilmas kuch» kitobida, - insonni ruhan poklash, qalban ulfayishiga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyrotadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»<sup>1</sup>.** Ma'naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi foyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli shakllari, ya'ni tabiiy va ijtimoiy borlik to'rtinchi xil tasavvurlar va foyalar, nazariyalar, ta'limotlar, ilmiy bilimlar, san'at asarlari, ahloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va h.k. ana shunday faoliyat natijasidir.

Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bo'liq. Birinchidan, har ikkalasi ham madaniyatning uzviy, o'ziga xos udumlari ekanligini unutmazlik kerak, ikkinchidan, inson faoliyatining mahsuli bo'lgan ko'pgina narsalar ham aqliy, ma'naviy, ham jismoniy mehnat natijasi sifatida paydo bo'ladi.

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi vorisiylik an'alariga bo'liq bo'lib, o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi va yangi qadriyatlar yaratish yo'lida tayanch vazifasini o'taydi. Ana shu ikki jarayon — eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ob'ektiv zaruriy bo'lanish vorislik deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga hizmat qiladigan progressiv vorislikni unga to'siq bo'ladigan reaktiv vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobiy (pozitiv)

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.-2008. -19-20-b.



va salbiy (negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud. Madaniyatda an'analar omilining roli beqiyos. Halq ma'naviy merosi, an'ana va urf-odatlar tufayli kishilarning tarixiy, madaniy tajribasi to'planib avloddan-avlodga o'tib boradi. Madaniy an'analar deganda, faqat marosim va urf-odatlarnigina tushunmaslik kerak. Madaniy an'analar ayni vaqtda avloddan-avlodga o'tib boradigan; tarixan qaror topgan va ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylangan foyalar va bilimlar, qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar, xulq va did normalari va h.k. kabi omillarni ham o'z ichiga oladi.

**Madaniyat bevosita qadriyatlar bilan bo'liq bo'lib, uning turlari quyidagilar:**

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bo'liq bo'lgan qadriyatlar.

2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan ahlokiy qadriyatlar.

3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

4. Odamlar o'rtasidagi jamoaviylik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar.

5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bo'liq bo'lgan qadriyatlar.

YUqorida bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida umuminsoniy qadriyatlar, mintaqaviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar turlariga bo'linadi.

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy institutlar deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatlari tashkillanadigan va amalga oshiriladigan muassasalar va ularda ijtimoiy fe'l-atvor, harakatlarning muvofiqlashtirilishi tushuniladi.

**Ijtimoiy institutlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:**

1) Muvofiqlashtiruvchi (relyatsion) institutlar (jins, yosh, kasb turi, qobiliyatlarga oid mezonlarni aniqlab beruvchi ijtimoiy institutlar).

2) Boshqaruv (idora etish) institutlari.

3) Birlashtiruvchi (integrativ, uyfunlashtiruvchi) institutlar.

4) An'analar bilan bo'liq ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiruvchi institutlar (odatlar, marosimlar, qarindosh-urufcxilik munosabatlari-dan iborat faoliyatlarni tashkillovchi).

5) Madaniy ijtimoiy institutlar (din, san'at, adabiyo'tga doir faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi).

Madaniyat sotsiologiyasida odamlarning intellektual, ahloqiy, estetik fazilatlari, amaliy sa'y-harakatlariga intilish, qiziqish hamda ehtiyo'jlari muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat hodisasi taraqqiyot, tsivilizatsiya tushunchalari bilan bevosita bo'liq bo'lib, bu boradagi aloqadorlik hususida ham alohida to'htalish maqsadga muvofiqdir.

«**TSivilizatsiya** (lot. fuqarolik, fuqarolikka oid, davlatga oid degan ma'nolarni bildiradi, ya'ni harbiylar va dindorlar hukmronligisiz). Bu tushunchani shotland tarixchisi va faylasufi A. Ferposson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun ishlatgan bo'lsa, frantsuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyatga xos bo'lgan atama ma'nosida ishlatgan edilar. Har qanday tsivilizatsiya:

- 1) muayyan ijtimoiy ishlab chiqarishning ilfor tehnologiyasiga;
- 2) rivojlanib boruvchi madaniy aloqalar, qadriyatlar, falsafiy qarashlar, odob-ahloq normalariga;
- 3) ijtimoiy hamkorlikning pozitiv shakl va uslublariga ega.

**Demak, tsivilizatsiya** — jamiyat rivojidagi mantiqiy, progressiv bosqich bo'lib, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasi sifatida madaniyat tushunchasi bilan bevosita bo'liqdir.

Madaniyat sotsiologiyasi o'z predmetini oydinlashtirishda, madaniy statika (muvozanat) hamda madaniy dinamika (rivojlanish) iboralarini qo'llaydi.

**Madaniy statika** (muvozanat) elementlariga moddiy madaniyat va nomoddiy (ma'naviy) madaniyatga xos bo'lgan omillar, erisilgan natijalar kiradi.

Madaniyat hodisasi madaniyat majmui omilini ham o'z ichiga olgan.

Madaniyat kompleksi (majmui) madaniy ob'ektlar va hislatlarning yirindisi bo'lib, unga:

- madaniy reallik;
- madaniy meros;
- madaniy msrosning ahamiyati;
- uning ob'ektiv baxosi;
- madaniy universitetlar;
- turmush tarzi tushunchalari kiradi.

Bundan tashqari, madaniyat sotsiologiyasida madaniy yoki ijtimoiy normalar kategoriyasi ham bo'lib, unga odamlardagi ko'nikmalar, did, qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, odatlar, an'analar, bilim va ilm, rasm-rusumlar, jamiyat a'zolarining ahloq kodeksi va boshqalar kiradi.

**Madaniyat shakllari.** Asosan uch turli madaniyat shakli farqlanadi:

## 1.Elitar madaniyat.

## 2.Halq madaniyati.

## Z.Ommaviy madaniyat.

**1. Elitar madaniyat** (frantsuzcha — «eng sara» so'zidan olingan) har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv jihatlarini muvofiqlashtirish hamda rivojlantirish funktsiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyo'zli qatlamdir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Aristotel, Nitsshe va boshqalarning qarashlarida bayon qilingan bo'lib, tizimli ko'rishga XX asr boshlarida V. Pareto, G. Moska, Mihel'slar tomonidan keltirilgan. Hozirgi Farb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita hokimiyatga yonalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyatda eng ko'p obro', maqom, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va ahloqiy ustunlikka ega odamlar (H.Ortega-i-Gasset), jamiyatning noijodiy ko'pxiligidan farq qiluvchi qismi (Toynbi), eng malakali mutahassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy hizmatcxilar (tehnologik determenizm)dir, deb izohlanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasining yirik olimlari Mills, Rismen, Bell asarlarida elita nazariyasi yanada rivojlantirildi.

**Kiborlar (yuqori toifa aholi) madaniyati** esa jamiyatning imtiyo'zli tabaqalariga mo'ljallangandir. «San'at–san'at uchun» qoidasi madaniyatda nafis san'at, mumtoz musiqa, faqat kiborlargina mutoala qiladigan badiiy adabiyot namunalari nazarda tutadi. Bunday madaniyat namunalari murakkab bo'lib, ular maxsus intellektual-estetik maqomga ega bo'lgan, yuksak did vakillari uchun yaratiladi.

**2. Halq madaniyati** aholi orasidan etishib chiqqan, favqulodda iste'dodga ega shahslar tomonidan bunyo'd bo'lgan madaniyat. Halq ijodining mualliflari odatda noma'lumdir. Jumladan, afsonalar, ertaklar, dostonlar («Go'ro'fli», «Alpomish» va h.k.) shular jumlasidan bo'lib, ular yakka (masalan, bahsxilar), guruh (qo'shiq yoki o'yin ijrosi) yo'hud ommaviy (masalan, sayillar, halq bayramlari) ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin.

### Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati

(yil ohiriga)

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Muzeylar soni (filiallari bilan)	88	88	96	96	99	99	100	101	101
SHu jumladan									
Tarixiy muzeylar	16	16	22	22	23	23	26	26	28
YO'dgorlik-hotira muzeylari	23	23	23	23	25	24	23	23	22
O'lkashunoslik muzeylari	27	27	28	28	28	28	28	28	28

Tibbiyo't-ilmiy muzeylari	1	1	1	3	3	3	3	3	3
San'atshunoslik muzeylari	10	10	11	10	10	11	11	12	11
Tarmoq va boshqa turdagi muzeylar	11	11	11	10	10	10	9	9	9
Muzeyga kirganlar soni	3464	3534	3391	3844	3754	4063	3584	4210	669914

Manba- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.

### **Teatrlar faoliyati** (yil ohiriga)

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Teatrlar soni (professional)	41	40	41	41	41	41	41	41	42
SHu jumladan-									
Opera va balet	1	1	1	1	1	1	1	1	2
Drama, komediya va musiqa	26	26	26	26	26	26	26	26	26
Bolalar va yosh tomoshabinlar	14	13	14	14	14	14	14	14	14
Teatrga tushgan tomoshabinlar soni-	2725	2808	3065	2789	2597	2509	3106	2698	2779,9

Manba- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.

**3. Ommaviy madaniyat** — XX asr o'rtalarida ommaviy muloqot va ahborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruhlar uchun etarli bo'lishi natijasida shakllangan va mohiyatan barcha yoshdagi aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari (ommaviy estrada musiqasi, sirk va h.k.). Ommaviy madaniyat odatda kiborlar yoki halq madaniyatiga nisbatan kamroq badiiy qadrga ega va u omma tomonidan o'zlashtirilishiga mo'ljallab yaratiladi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy istiqlol foyasi «Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, foyaviy badiiy jihatdan sayo'z, milliy qadriyatlarimizga yosh asarlarning etakchi o'rnini egallab olishga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyat kasb etadi.

2006 yilda O'zbekistonning poytahti Toshkent shahrining "Islom madaniyati markazi" deb nomlanishi mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning natijasi deb qabul qilish lozimdir.

## **6.2. Din va diniy munosabatlar sotsiologiyasi**

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo'lgan din va diniy e'tiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini o'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir o'tkazuvchi omil – din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Sotsiologiya fanining asoschisi O.Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan, asosiy mezonlaridan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning tasnifida insoniyat o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tadi. Bular quyidagilar; teologik, metafizik va ilmiy bosqichlar. Kont firicha, har uchala bosqichda ham din muayyan rol o'ynaydi<sup>1</sup>.

Dinning ijtimoiy hayotdagi o'rin va rolini tahlil qilish uchun, avvalo, din o'zi nima? degan savolga javob topish kerak. Bu savol jo'ngina tuyulsa ham unga javob berish ancha murakkab. Bu savolga dinshunoslik, sotsiologiya va falsafadagi turli oqimlar turlicha javob beradi. Bu javoblarning aksariyati esa bir-biriga zid va bir-birini inkor qiladi

Sobiq sho'rolar davrida chiqarilgan falsafa va ateizmga oid adabiyotlarda din voqelikning kixilar ongidagi fantastik in'ikosi, deb ta'riflangan va u halq uchun af'yun, deb e'lon qilingandi.

**I. Ibtidoiy davrida paydo bo'lgan diniy tasavvurlarning tarixiy shakllari quyidagilardan iborat:**

1. **Totemizm** (indeetslar tilida uning urufi degan ma'noni bildiradi).
2. **Animizm** (lot. jon, ruh degan ma'noni anglatadi).
3. **Fetishizm** (portugalcha va frantsuzchadan olingan bo'lib, sehrli narsa).
4. **SHomonizm** (tunguzcha so'z bo'lib, o'ta hayajonlangan, jazavali kishi).
5. **Sehrgarlik** (magiya) – odam, hayvon, tabiatga fayritabiy ta'sir o'tkazish.

**II. Halq milliy dinlari quyidagilardan iborat:**

1. **Hinduiylik.**
2. **Jaynizm va sikhizm.**
3. **Daosizm.**
4. **Konfutsiylik.**
5. **Sintoizm.**
6. **Iudaizm.**
7. **Zardushtiylik.**

**III. Dunyoviy (jahon) dinlari quyidagilardan iborat:**

1. **Buddaviylik.**

<sup>1</sup> A. Begmatovning «Din sotsiologiyasi» maqolasidan foydalanildi // Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'AJBNT» markazi, 2002.-75-82-b.

## 2. **Hristianlik.**

## 3. **Islom dini.**

Bu adabiyotlarda dinning asosiy belgilaridan biri ilohiy kuchga, ya'ni hudoga ishonish, deb belgilanardi. Holbuki, dunyoda shunday dinlar borki, ularda hudo tushunchasi umuman yo'q. Sotsiologiya va dinshunoslikka oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ularda ko'plab ta'riflar berilganini ko'rsatadi. Biz bu ta'riflar qatoriga yana bittasini qo'shish bilan **dinning o'ziga xos belgilarini** sanab o'tmoqchimiz. Ular quyidagilar:

**I. Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi.** Har bir din dunyoni o'z nuqtai nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqodni shakllantiradi.

**II. Marosim va rasm-rusumlar.** Har bir din o'ziga xos marosim va rasm-rusumlarga ega.

**III. Diniy marosim, rasm-rusumlar muayyan qismining faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi.** Masalan, yahudiy va hristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan jome masjidlarida o'qiladi. Dinlar sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni marosimlarni muayyan joylarda bajarish bilan farqlanadilar. Sehrgar va shamanlar fayritabiiy harakatlarni individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarning asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar.

Sanab o'tilgan belgilarning uchalasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Dunyoviy dinlarning izohi quyidagicha:

**1. Buddaviylik** milloddan avvalgi VI asrda Nepalda yashagan Sudhart Gautama ta'limotidan boshlanadi. Unga ko'ra, insonlar turilish va qayta turilish doirasidan o'z hohish va ehtirosalaridan voz kechish orqali chiqishlari mumkin. Buddaviylikning asosini nirvana to'frisidagi ta'limot tashkil qiladi. Bu din Tailand, Birma, Nepal, SHri-Lanka, Hitoy, YAponiya, Koreya singari mamlakatlarda tarqalgan.

Kunfutsiylik miloddan avvalgi VI asrda yashagan Kun-Fu-CHI ta'limotiga asoslanadi. U Budda bilan bir vaqtda yashagan bo'lib, insonning tabiat bilan uyfunlashish yo'llarini ahtargan.

**2. Hristianlik** dastlavval sekta sifatida iudaizm tarkibida vujudga keldi va Kichik Osiyo', YUnoniston va Rimda tarqala boshladi. Imperator Konstantin davrida bu din Rim imperiyasining rasmiy dini deb e'lon qilindi. Milodiy era davomida hristeanlik farb mamlakatlarida asosiy din bo'lib kelmoqda. Hristianlikning pravoslavie, katolitsizm, protestantlik kabi bir necha tarmoq va oqimlari mavjud.

**3. Islom dini VII asrda shakllandi.** Bu dinning asosini besh rukn tashkil qiladi. 1. Iymon; 2. Namoz; 3. Ro'za; 4. Zakot; 5. Haj.

**Islomda sunniylik va shia yonalishlari bo'lib,** ular ham o'z navbatida bir qator mazhablarga bo'linadi. Musumon dini dunyoning besh qit'asida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Saudiya Arabistoni, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Jazoir, Pokiston, Eron kabi mamlakatlarda e'tiqod qilinadi. Islom dinida ham mo'tadil va aqidaparast oqimlar mavjud.

Halqaro miqyo'sdagi voqelik dinning jamiyat hayotidagi mavqey masalasiga qayta-qayta, izcxillik va holislik bilan murojaat etish ehtiyo'jini turdirmoqda. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning tabiri bilan aytganda, keng madaniy hudud ma'nosida musulmon olamining ajralmas qismi bo'lgan halqimiz mentalitetining o'q ildizlari ko'p jihatdan aynan islomdan oziqlanib kelayo'tgan O'zbekistonda ham bunday ehtiyo'j etilib keldi. Dinning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish, uning atrofidagi muammolar echimini topish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Din, jumladan, islom dini huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida qanday o'rin tutadi? Mohiyatiga ko'ra taraqqiyparvar bo'lgan islom dini halqning ma'naviy hayotini boyitishda qanday vazifalarni bajaradi? Albatta, bu kabi savollarga javob topish islomshunoslik nuqtai nazaridan aniq tadqiqotlarni talab qiladi.

Jamiyat taraqqiy etgan sari dinga e'tiqod qiluvchilar ko'paymoqda, hususan islom diniga ham. "O'tgan asrning boshida er yuzida musulmonlar 200 mln. nafar bo'lgan bo'lsa, 80 yillarga kelib bu raqam 837 mln.ga etdi. Ayni paytga kelib esa islom diniga e'tiqod qiluvchilar 1 mlrd. 300 mln. kishidan ortiqdir"<sup>1</sup>.

Ma'lumki, 1400 yillik tarixga ega islom madaniyati ilm-fan va taraqqiyotga hissa qo'shib kelmoqda. Mamlakatimizda milliy mustaqillik e'lon qilingan kunlardan oq islom diniga umuminsoniy qadriyat sifatida e'tibor kuchaydi. Islomiy qadriyatlarni o'rganish va uy'otish borasida ulkan ishlar qilindi. "Qur'oni Karim" 8 marta million donalik umumiy tirajda chop etildi. Birinchi bor bu kitob Alouddin Mansur tarjimasida 300 ming nushada chiqarilgan edi. Ayni paytda Toshkentda Islom universiteti, Butunjahon islom tadqiqot markazi, Imom Buhoriy nomidagi jam'farma, Eshon Bobohon nomidagi ayo'llar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasasi hamda boshqa ko'plab muassasalar faoliyat yuritmoqda. Birgina Horazm viloyatida 80 ta masjid va bitta madrasa ishlab turibdi"<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ganiev J. Umumbashariy qadriyat. "Qonun himoyasida". 2004. 9-son. 36 bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

### **Halq milliy – dinlari:**

Uch olamiy dindand tashqari, iudazm, induizm, kunfucxilik, kabi dinlar ham ko'p millionlik tarafdorlariga ega. **Iudaizm** (yahudiy dini) ular ichida eng qadimiysi bo'lib, miloddan tahminan ming yillar oldin shakllangan. Bu din o'sha davrda mavjud bo'lgan boshqa dinlardan farqli o'laroq, yakka hudoni tan olgan.

Milodiy eraning dastlabki asrlarda yahudiylar dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqalib ketganlar, lekin biror mamlakatda iudaizm rasmiy din sifatida tan olinmadi. Ko'p joylarda bu din vakillari ta'qib ostiga olindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida millionlab yahudiylar natsistlarning kontslagerlarida o'ldirib yuborildi. Urush tugagach, Isroil davlati tashkil topdi va unda iudaizm rasmiy milliy din sifatida e'tirof etildi.

**Induizm** milodda avvalgi mingyillikda shakllangan. Bu din tarafdorlari asosan Hindistonda istiqomat qiladi.

Bu din ta'limotiga ko'ra, Erda tufilish, o'lim va qayta tufilish jarayoni abadiy kechadi. YAngi tufilganlar tanasiga avval o'lganlarning ruhi joylashadi. Bu ruhning avvalgi hayotdagi mavqeyga mos ravishda insonlar ijtimoiy hayotda o'z mavqelariga ega bo'ladilar. SHunday qilib, bu din odamlarning kastalarga bo'linishini ilohiy sabablar bilan izohlaydi.

Farbda sotsiologiyaning fanga aylanishi O. Kont nomi bilan boflansada, undan ko'p asrlar avval ham Farb va SHarq olimlari din va jamiyat muammosi ustida ko'p bosh qotirganlar. Bu masalada Markaziy Osiyo'da etishib chiqqan ulkan allomalar YUsuf Xoshojib, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulufbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari o'nlab va yuzlab olimu fuzalolar chuqur hayotiy fikrlar bildirganlar. Kichik bir bobda dinning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni to'frisida Markaziy Osiyo'lik olimlar bildirgan fikrlarning barchasini qamrab olish imkoni yo'q. SHuning uchun Markaziy Osiyo'dan etishib chiqqan olimlar ijodida dinning jamiyatda tutgan o'rniga katta e'tibor berilganini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu olimlar dinning ijtimoiy hayotidagi o'rnini tahlil qilar ekanlar, bir dinni madh etib boshqasini tanqid qilish yo'lidan bormadilar. Ular turli dinlarning jamiyat taraqqiyotiga o'tkazayo'tgan ta'sirini tahlil qilishda kuzatish, qiyo'slash va tarixiylik ususlaridan keng foydalandilar. Hususan, Abu Rayhon Beruniy o'zining qator asarlarida, ayniqsa "Hindiston" kitobida turli qabilalar, elatlar va halqlar hayotida dinlar qanday rolb o'ynaganini chuqur tahlil qilib berdi.

Farb va SHarq olimlari din va diniy oqimlarning odamlar va jamiyat hayotiga o'tkazadigan ta'siri haqida qanchalik chuqur fikr bildirmasalar, din sotsiologiyasi maxsus ilmiy yonalish sifatida XIX asr ohiri va XX asr boshlarida shakllandi.



**Din sotsiologiyasining shakllanishi M. Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bogliq.** Sotsiologiya fanining asoschilaridan biri hisoblangan nemis olimi M. Veber ijodida dini sotsiologik tahlil qilish markaziy o'rinni egallaydi. Barcha dinlarni inkor qilib, ularni halq uchun afʼyun, deb eʼlon qilgan Marks taʼlimotidan farqli oʻlaroq, Maks Veber din va jamiyat munosabatini tahlil qilar ekan, umuman, din toʻʼrisida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim toʻʼrisida fikr yuritadi.

Maks Veberning fandagi eng katta hizmatlaridan biri, uning hristian dinidagi protestantlik mazhabining iqtisodiy taraqqiyotga oʻtkazgan taʼsirini kashf etishida boʻldi. Uning nazariyasiga koʻra, boylikni, boylik ortirishga intilishni uncha hushlamaydigan hristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyotga muayyan darajada toʻsiqlik qilganlar. Boylikni hudoning neʼmati, unga intilishni esa bandalarning burchi deb talqin qiladigan protestantlik esa iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Veber talqinida, protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan biri edi.

Veber izdoshlari uning fandagi hizmatlarini koʻklarga koʻtarib maqtashdi. Uning hizmatlarini eʼtirof etish bilan birga, shuni ham taʼkidlash lozimki, u iqtisodiy taraqqiyotga faqat bir diniy mazhab – protestantlikning oʻtkazgan taʼsirini keng tadqiq qildi. Dinlarni tahlil qilar ekan, M. Veber ular sanoat kapitalizmi rivojlanishiga roʻy boʻlmoqda, degan xulosaga keldi. Moliyaviy munosabatlarga cheklovlar qoʻyish, ijtimoiy hayotga passiv munosabatini tarfiib qilish orqali bu dinlar, M. Veber fikricha, ijtimoiy taraqqiyotga toʻsqinlik qiladi. Uning talqinida hristian dini, ayniqsa protestantlik mazhabi hayotdagi adolatsizlikni passiv kuzatib oʻtirmay, uni bartaraf qilish uchun faol kurashga chaqirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga katta turtki beradi.

**Islom dinidagi oqimlar, mazhablar, yonalishlar turlicha** boʻlib, ularning barchasi faqatgina oʻzlari mansub boʻlgan mazhab yoki yonalish haqiqiy islom dini ekani, boshqalar esa yoʻldan adashganlar, deb daʼvo qilishadi. Boshqa dinlarda boʻlgani kabi islomda ham aqidaparast (fundamentalistik) va moʻʼtadil oqimlar oʻrtasida kurash borgan. Aqidaparast oqimlarning vakillari dini ilk paydo boʻlish davridagi holatga qaytarmoqchi boʻladilar. Aslida esa bu roʻyalar mavjud tuzumdan norozilik alomati boʻlib, ijtimoiy taraqqiyot yonalishini orqaga burish uchun urinish ifodasidir. Markaziy Osiyoʻda aqidaparastlarning keskin hurujlaridan biri XX asr boshlarida yuz berdi. Hijozdan kirib kelgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyoʻda ijtimoiy tanglikni keltirib

chiqardilar. Bid'atga qarshi niqobida ular ijtimoiy hayotda yuz bergan barcha yangiliklarni yo'q qilish uchun kurash boshladilar.

Aqidaparastlarning ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun qilgan harakatlariga qarshi taraqqiyparvar ma'rifatxilar harakati vujudga keldi. Tarixda jadidchilik nomini olgan bu harakat namoyondalari halqni ilmiy ma'rifatli qilish, diniy e'tiqodda mutaassiblikdan mo'tadillik tomon yuz tutish foyalari bilan chiqdilar.

Ma'rifatxilik harakatini vujudga keltirgan asosiy sabablardan biri, diniy fiqh ilmini talqin qilish usuli qadimiy va usuli jadidiya o'rtasidagi munozara va kurashlardan iborat edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, XIX asr ohiri va XX asr boshlarida diniy aqidaparast atamasi muomalada deyarli bo'lmagan. Uning o'rnida "qadimxilar" atamasi keng qo'llanilgan. Qadimxilar dinni "asil" holiga qaytarish, yangiliklarini himoya qilish uchun harakat qilganlar. Usuli jadidiya tarafdorlari, ya'ni ma'rifatxilik me'yorlarni belgilashda jamiyatda yuz bergan va berayo'tgan o'zgarishlarni hisobga olish, yangiliklarini qo'llash tarafdori edilar. Bu ikki yonalish o'rtasida tortishuvlar shaklida yuz berdi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'rifatxilar tortishuvlarni faqat munozara va bahs yo'li bilan echishga intilganlar. Aqidaparast qadimxilar esa ochiq munozarada ma'rifatxilarni engishga ko'zlari etmagach, kuch ishlatish va qon to'kish yo'lga o'tganlar. Bu usul, ya'ni nazariy va ma'naviy masalalar bo'yicha munozaralarni kuch ishlatish yo'li bilan hal qilishga urinish diniy aqidaparastlikka xos bo'lgan ekstremistik usuldir. Ma'naviy va mafkuraviy masalalarni munozara yo'li bilan emas, kuch ishlatish orqali hal qilishga urinish aqidaparastlarning kuchliligidan emas, o'zligidan guvohlik beradi. CHunki ular muammoni madaniy munozara yo'li bilan echishga rozi bo'lishsa, yutqazib qo'yishga aqlari etardi. Ko'hna tarixda doimo shunday bo'lib kelgan. Aqidaparastlar nazariy va mafkuraviy bahslarni har doim hunrezlikka aylantirishga uringanlar.

**Ma'rifatxilik harakati qadimchilik**, ya'ni diniy aqidaparastlikning jaholat yo'li, millat uchun hatarli yo'l ekanini halqqa tushuntirish maqsadida maydonga chiqdi. SHu maqsad yo'lida ular ma'rifat va mafkura sohasida ham nazariy, ham amaliy faoliyat olib bordilar. Qadimxilar, ya'ni diniy aqidaparastlar ham jim turmadilar. Avvaliga ular ma'rifatxilarni nazariy jihatdan engmoqchi bo'ldilar. Lekin ma'rifatli ziyo'lilardan iborat harakatni bu sohada eng olmasliklariga ularning ko'zlari etdi. Dunyoda ko'p marta takrorlangan hodisa, aqidaparastlikning diniy, nazariy tortishuvlarida engilishi va zo'rovonlikka o'tishi Turkistonda ham qaytarildi. Aqidaparastlar endi qarshi terror yo'lga o'tdilar.

1917 yilgi Oktyabr' to'ntarishi arafasi va undan keyingi dastlabki yillar aqidaparastlarning ma'rifatcxilarga qarshi hunrezliklari eng avjga mingan davr edi. 1918 yil fevralida aqidaparast Buhoro qozisi ma'rifatcxilarni kofir deb e'lon qildi va ularni ko'rgan joyda o'ldirish turrisida fatvo chiqardi. Bu o'rinda ma'rifatcxilar hech qachon islom diniga, ayniqsa hanafiylik mazhabiga qarshi faoliyat olib bormaganliklarini eslash lozim. Ular dindor odamlar edilar. Ularning Turkistondagi etakchisi Mahmudho'ja Behbudiy Samarqand muftisi edi. Ular o'zlari yashagan davrga halifalik davri nuqtai nazaridan emas, XX asr ibtidosi nuqtai nazaridan real qarardilar. Huddi shu narsa ularning Buhoro qozisi va boshqa aqidaparast ulamolar tomonidan kofir, deb e'lon qilinishiga sabab bo'ldi.

Qozining fatvosiga ko'ra, "Kimda-kim yo'qali ko'yilgida tugma qadalgan bo'lsa, kostyum kiygan kishilar ham, kimda-kim soqoli qisqa bo'lib, mo'ylovi uzun bo'lsa ham, kim agar o'z bolasini yangi usul maktabiga bergan bo'lsa, kimda-kim gazeta o'qisa, yoki gazeta o'qiydiganlar bilan bordi-keldi qilsa, rus tilini oz-moz biladiganlar ham kofirlardir". Mana shu sanab o'tilgan belgilar asosida odamlarni tutib olib kaltaklab, o'ldirish boshlandi. SHu olata'sirdan foydalanib, ko'pcxilik qadimchi aqidaparastlar o'z muholiflarini, ya'ni yangilikka intilgan, ammo hanafiy mashab doirasida chetga chiqmagan juda ko'p musulmonlarni yo'q qilib yubordilar. To'polonlardan farazli maqsadlari yo'lida foydalanib qolmoqchi bo'lganlar o'z dushmanlari yoki o'ziga yo'qmagan odamlarni ham o'ldirib yuborayo'tganini bilgan amir, 1918 yil 5 martda farmon chiqardi. Unga ko'ra, jadidlikka gumon qilinganlar Arkka olib kelinishi kerak edi.

Bir necha kun ichida Ark mahbuslarga to'lib ketdi. Qadimchi aqidaparast tomonidan o'linga mahkum etilganlar shu darajada ko'p ediki, jallodning qo'li qo'lga tegmasdi. Har qancha tez va chaqqon ishlamasin, u o'z vazifasini to'la bojarishga, ya'ni mahkumlarning boshini tanasidan judo qilishga ulgurmasdi. SHuning uchun u mana shu kunlarda o'ziga shogirdlar olgandi. Havaskor jallodlar ham bir necha ming kishini dorga osishda ustozlariga ko'mak berishgan.

Buhorodagi hunrezlikka o'hshash hodisalar bu ko'lamda bo'lmasa-da, boshqa honliklarda ham o'sha erdagi qadimchi aqidaparastlar ta'sirida sodir etilgan edi.

Ma'rifatcxilarning etakcxilari jon saqlash uchun amirlikdan tashqariga chiqib ketishga majbur bo'ldi. Qolganlari esa aqidaparastlar tomonidan so'yib tashlandilar yoki dorga osildilar. So'yilganlar orasida Turkiston jadidlarining etakchisi Mahmudho'ja Behbudiy ham bor edi. Dinni bayroq

qilib hunrezliklar qilgan qadimchi aqidaparastlar Behbudiyga o'lim oldidan ikki rakaat namoz o'qishga ham ruhsat bermadilar. SHu hodisaning o'zi ham ularning haqiqiy basharasini ko'rsatadi.

Amirlikdan ancha uzoqda – Toshkentda yashagan Abdulla Avloniy ham qadimcxilar tomonidan o'linga hukm qilinadi. Bunday hukmga sabab esa u nashr qilayo'tgan "Turon" gazetasida bosilgan millatni, halqni uyfonishga, taraqqiyotga undovchi maqolalari edi. Faqatgina matbuot orqali tavba-tazarru qilish Avloniy o'limdan saqlab qolda. Bu tavba Avloniy e'tiqodidan voz kechgani sababli emas, taktik maqsadlarda qilingan edi. Bunday misollarni ma'rifatcxilar hayotidan ko'plab keltirish mumkin. Ohir-oqibat diniy aqidaparastlar jadidlar harakatiga katta zarar etkazdilar.

Diniy aqiparastlar qirfindan omon qolgan bo'ldilar. XX asr 20-30-yillarda kommunistik tuzum jadidlarning qadimcxilar qirfinidan tirik qolganlarini qirib bitirdi. SHunday qilib, jadidlar ikki aqidaparast terroristik kuchlar: diniy aqidaparastlar va kommunistik aqidaparastlar tomonidan ta'qib va qirfin qilindilar. CHunki ular tarrib qilgan ma'rifat va istiqlol mafkurasini halifalikni tiklamoqchi bo'lgan diniy aqidaparastlarning ham, kaltani cho'zib, uzunni uzib barchani teng qilmoqchi bo'lgan kommunistik aqidaparastlarning ham mafkurasiga to'firi kelmas edi.

**XX asr boshlari Markaziy Osiyo'da** juda ko'p hunrezliklarga sabab bo'lgan diniy aqidaparastlik asr so'ngida ham ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarishga urindi. Sobiq SHo'rolar tuzumining ohirgi yillarida hokimiyatning bo'shashgani va kixilar ongida maffkuraviy bo'shliq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar o'zlarining mavqelarini mustaqkamlab olishga harakat qildilar. Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillarda ham davom etdi. O'zlarini etarli kuchga ega, deb hisoblagan aqidaparastlar O'zbekistondagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik yo'li bilan ardarishga urindilar. 1999 yil 16 fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan portlatishlar, bundan oldinroq Farrona vodiysida va boshqa ba'zi viloyatlarda bo'lib o'tgan salbiy hodisalar va keyinchalik 2000 yillardagi, hususan, 2005 yil 12-13 mayda Andijon shahrida sodir etilgan hunrezlik voqealari shundan guvohlik beradi. Lekin asr boshida ma'rifatparvar kuchlarga qattiq zarba bergan aqidaparastlar asr so'ngida o'z qilmishlari tufayli halqning qahr- razabiga uchradi. Mana shu hodisa ham diniy oqimlar radikallashib, aqidaparastlikka aylana borgan sari ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'lishi va aksincha, mo'tadil oqimlar ijtimoiy barqarorlikka barakali ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi.

XX asr o'rtalarida sotsiologiya fanida "fuqarolik dinlari" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha ilohiy kuchlar va hodisalarga emas, ijtimoiy turmushdagi narsa-hodisalarga sifinishni anglatadi. Masalan, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda bayroq, madhiyaga cheksiz hurmatni, tahtga o'tirish va innauguratsiya marosimlarini bu tushuncha tarafdorlari diniy marosimlar bilan tenglashtiradilar. Sobiq sovet ittifoqida Marks, Engel's, Lenin shahslari amalda ilohiylashtirilgan edi. Ular sha'niga, ayniqsa, Lenin sha'niga biror tanqidiy gap aytish man qilingan, ularning ishlari va gaplarini faqat madh etishga ijozat berilgan edi. Bu hodisalar XX asr ikkinchi yarimida diniy sotsiologiya yonalishlarida fuqarolik dinlari, deb ataladi.

SHunday qilib, din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bo'liq bo'lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni o'rganadi. Mustaqil O'zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi halq ongida ushbu hodisaga nisbatan to'firi holis munosabatning shakllanishiga zamin bo'ldi. Bu boradagi yoshlar va fikr tarbiyasining asosiy yonalishi ham islom diniga xos bo'lgan insonparvarlik tamoyillarini onnga singdirib borishni taqozo etadi.

### 6.3. Ahloq sotsiologiyasining mohiyati

**Ahloq ijtimoiy ong sifatida muayyan halq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, hatti-harakatlar, his-tuyfu va kixilar o'rtasidagi o'zaro real munosabatlar tizimini ifoda etadi**<sup>1</sup>. Ahloq muayyan halqning atrof muhitga, kixilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy hususiyaga ega bo'lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uyfun muvofiqligini ta'minlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir. Ahloq va ijtimoiy munosabatlar uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki, til hisoblanib, u ijtimoiy ahborotni saqllovchi, ifodalovchi va etkazuvchi muhim vosita bo'lib, kixilar hatti-harakati, fe'l-atvori (ahloqiy ta'sir-tazyiq, ishontirish, tushintirish, ra'batlantirish, jazolash va h.k.) boshqarish omilidir. Til muloqot kaliti-ijtimoiy munosabatlarning tarixiy-tabiiy mahsulidir.

Ahloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bo'liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi va undan keyingi darvlarida namoyon bo'la boshlagan bo'lib, u qabila hamda elatlar maishiy va ijtimoiy ongida o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan.

**Qadimgi sharq falsafasida uch mezon, uch tushuncha muqaddas sanalgan. Bular: ahloq, oila va davlatdir.** Ahloq ilmi yahsxilik va

<sup>1</sup> M.Bekmurodovning maqolasidan foydalanildi // Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.-89-97-b.

yo'monlik tushunchasini qiyosiy o'rganadi. Kishilarning o'zaro munosabatlaridagi nizo va muammolarni bartaraf etishda qanday foyalarni ilgari surish kerakligini sharhlab, qilinishi lozim bo'lgan ezgu ishlarning ahamiyatini yoritadi. Inson, millat, halq va davlat tushunchalarini to'g'ri idrok etishda ham asosiy o'lchov ahloq hisoblanadi. SHu bois olimu fozillar jamiyatning ravnaqi uchun ahloq nihoyatda zarur degan yakdil xulosaga kelganlar.

Aytish mumkinki, ahloq tushunchasi hamisha milliy tarbiyamizning asosini tashkil etib kelgan. SHu o'rinda "halqimiz orasida ko'p qo'llaniladigan "o'zbekxilik" degan iboraga e'tibor qarataylik. Unda odamning nasl-nasabi, oilasi, mahallasi, bilim olgan dargohi, ishlaydigan jamoasiga e'tibor qaratiladi. YA'ni, insonning xulq-atvori, yashash tarzi, odamlar bilan munosabati jamoatchilik nazari ostida bo'ladi. Uning eng maqbul ko'rinishi yahsxilik yo'lidagi o'zaro yordamdir. Bu vazifani mahalla ijtimoiy instituti ta'minlaydi. Bola tarbiyasi haqida gap ketganda, mahalla bilan oilani bir-biridan ayricha tasavvur etib bo'lmaydi".<sup>1</sup>

**Ahloqiy kategoriyalar quyidagilardan iborat:**

- |                 |                    |
|-----------------|--------------------|
| 1. E'tiqod.     | 5. Vijdon.         |
| 2. YAhsxilik.   | 6. Insonparvarlik. |
| 3. Ezgulik.     | 7. Mehr – oqibat.  |
| 4. Qadr-qimmat. | 8. Barrikenglik.   |

**Maishiy hayot doirasida ahloq asosan quyidagi yonalishlarda namoyon bo'lgan:** a) munosabatlar; v) faoliyat. Ahloqiy sifatlar insonning hatti-harakatlarida namoyon bo'lib, uning gnoseologik, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishi, hozirgi mavqei va ahloqiy qarashlariga ishora va guvohlik berib turgan. Ahloqiy sifatlar yoki hatti-harakatlar ilk kishilik tarixi, ya'ni insoniyatning zaminga dastlabki qadamlar qo'yilishidan shakllanish bosqichiga kirgan va shu boisdan har bir halq, u o'ziga xos va betakrordir. Huddi shuningdek, millat va elatlar ijtimoiy ongning muayyan holati hisoblanish jamoatchilik fikri ham o'zining shakllanish manbalarining salmo'i, real kuchga aylanish sur'ati, uyushqoqlik darajasi, hissiy-emotsional potentsiali hamda mantiqiy-intelektual asoslariga ko'ra milliy, iqlimiy, mahalliy hamda regional o'ziga xosliklarga egadir.

Ahloq asrlar davomida odamlarni jamoaga, uyushuvga, boshqalar manfaatini shahsiy manfaatlardan yuqori qo'yib, yondashuvga undab kelgan. Bu hususda uluf donishmandlar ibratli fikr-qarashlarni ilgari surganlar. Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy aytar edilar: "Har kim

<sup>1</sup> Saifnazarova F. Oila – jamiyat tayanchi. "Qonun himoyasida". 2004, 9-son. 17 bet.

o'zgalarni hohlasa, o'zini hohlabdi, kimki o'zgani hohlamabdi, bilsinki, o'zini hohlamabdi"<sup>1</sup>.

SHarq ahloq qoidalari nafaqat shahsni uyushuvga undaydi, balki uyushgan holda ham kishining shahs sifatida bir butun barqaror turmofi, jamoaviy integratsiya doirasida ham ruhiy botiniy yahlitligi saqlanmofi zarurligi, umumiy bir butunlik ko'plab serjilo va mustaqil yahlitliklar yifmasidan iboratligini yorqin ifodalaydi. Jamoada shahs bir butunligi emirilmaydi, umumlashtirishlar negiziga qurbon etilmaydi, balki mantiqiy muvofiqlik mezon doirasida uyfun birlashuv jarayoni tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Ayni cho'fda shuni e'tiborda saqlash kerakki, har qanday uyfunlashuv o'lchovsiz, chegarasiz bo'lmasligi, har bir harakatda mezon hissi va aqliy hushyorlik bo'lishi halqimiz fe'l-atvoriga xos an'anaviy belgidir.

Jamoada o'zlikni anglash, ammo unda gegemonlik huquqini talab etmaslik, maqsadga intilishda kamtar va kamsuqumlik daholarimiz ilgari surgan muqaddas shiorlardan edi. Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy uqtirgan: "Xilvat dar anjuman (anjumanda xilvat yo'hud jamoada o'zlikda qolish), safar dar vatan (vatanda safar, yo'hud o'z o'lkangda mutloq emasliging, bu fano zamonda mehmonligingni doimo his etishing) va zohirda halq bilan, ammo botinda haq bilan bo'lish" hususidagi o'g'itlari fikrimizning isbotidir.

Movarounnahr halqlari ahloq tizimi jamoatchilik fikrining salmorini, uning haq va islom qoidalariga nechofli muvofiq kelishiga bo'fqlik ekanligini alohida qayd etadi. SHu jamoa a'zolarining to'fri va halolligi gunoh ishlardan. Qanchalik o'zlarini forif tuta bilishlari bilan ham o'lchanishiga e'tibor qaratadi. Ayni cho'fda jamoa a'zolari gunoh yo'lga kirusdek bo'lsalar, ularni tarbiyalash ishidan bo'yin tovlamaslik zarurligi ham uqtiriladi. "Bu toifa ahdidan har Kim bir gunoh qilsa, unga chora-bor, biroq undan yuz o'girish ravo emas"<sup>2</sup>.

Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy ayni cho'fda ahloqning buyuk qudrati va salohiyati, uning cheksiz imkoniyatlariga yuksak baho beradi. Halqni ayblash noto'fri va behuda ish ekanligini uqtiradi. Mabodo, el-ulus to'fri ahloq izidan va hatto haq yo'lidan adashgan holda ham unga tushunish ko'zi bilan qaramoq lozimligi, halqni bevosita emas, bilvosita usullarda tarbiyalamoq joizligini tayinlaydi.

Ulu'f hazrat yana bir o'rinda "SHirk (dinga rioya etmaslik) umum, ya'ni oddiy halqdan kechirimlidir, ammo husus (xos bandalardan)

---

<sup>1</sup> Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Bahovuddin Balogardon. T; "YOzuvchi", 1993, 95-bet.

<sup>2</sup> Bahovuddin Balogardon, 80-bet.

kechirimli emas”, deya har bir hatti-harakat uchun shahsiy mas’uliyat hissining oshirilishiga da’vat etadi.

Zero, inson bir umr shakllanadi, tarbiyalanib boradi. Aslida inson o’z hayotini butun umr davomida ma’qulroq tartiblarga tushirish, jamiyat talablariga muvofiqroq yonalishlarga solish tashvishlari bilan yashab o’tadi. SHu boisdan ham jamoatchilik fikri ahloqiy qarashlari, talab va yoriqlariga har jihatdan bo’rliq bo’lib keladi.

Jamiyat jamoatchilik fikri orqali shahs zimmasiga ijtimoiy tuzum, shakllangan ahloqiy qarashlar, an’ana va urf-odatlar mantifidan kelib chiquvchi ko’pgina talablar, sa’y-harakatlar, ish yuritish, turmush tutishda qator majburiyatlarni hisobga olish mas’uliyatini ham yuklaydi. Ahloqiy qarashlarning jamoatchilik fikri xosil etish imkoniyatlari qanchalik katta bo’lsa, uning ommaga ta’sir doirasi shunchalik teran va ta’sirchan bo’ladi. SHu boisdan ham har bir ahloqiy talab va qoida jamiyat tomonidan to’la ma’qullangan va o’zlashtirilgan bo’lishi zarur. SHahsning jamiyat hayotiga bo’lgan ishtiroki qanchalik yuqori bo’lsa, uning ahloq tizimida ijtimoiy mas’uliyati va vazifalari salmo’fi ham shunchalik katta bo’ladi. SHahsning ijtimoiylashuv jarayoni esa mehnat, faoliyat bilan chambarchas bo’rliqdir.

Insoniyatning ongli faoliyati boshlangan ilk davrlarda insonning tashqi dunyo bilan bo’rliqligini anglatuvchi ilk mafkuraviy yonalish totemizm, ya’ni ibtidoiy jamoa kishisining o’z kelib chiqishini turli xil hayvon-qushlarga olib borib taqash nuqtai nazari chuqur ildiz otdi. Bu xususiyat har xil elatlarda turlicha namoyon bo’lib, tegishli hayvonlarda o’z o’tmishini ko’rish, shu hayvonlar bilan bo’rliq tassavvur, ramzlar, odat hamda irimlar tizimini ham yuzaga keltirdi. Masalan, hindlarda sigir, qozoqlarda uchqur ot, inglizlarda burgut, o’zbeklarda afsonaviy humo qushi va h.k. Totemizm halqlarning tashqi dunyo bilan bo’rliq ildizlarini izlash hohish-istaklari, tabiat bilan uyrunlashuv, undan himoya izlash, hamkor topish intilishlaridan guvohlik beradi. Bu hususda kengroq ma’lumotlar maxsus adabiyo’tlarda atroflicha bayon etiladi.

Totemizm halqlar ma’naviyatining shakllanishida muhim bosqich hisoblanib, u ilk mafkuraviy silsila sifatida elatlarning etnik jihatdan o’z-o’zini anglash qobiliyati hamda etnik asoslardagi jamoatchilik fikrini tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu davr ma’naviyatida ahloqiy qoidalar garchi qo’rozlarda ifodalanmagan bo’lsa-da, uruf umumiy qarashlarida muhrlangan o’zaki yo’sinda ifodalanuvchi barcha ahloqiy talablar so’zsiz va bekamu-ko’st bajarilib borishi bilan e’tiborlidir. SHu boisdan ham uruf tarkibida jismonan o’z-o’zini saqlash instinkti va sa’y-harakatlari bilan bir paytda



jamo'a umumiy fikrining mo''tadil saqlanib turishi, turli antagonistik qarashlar avj olib ketmasligining oldini olish uchun ham muayyan mafkuraviy ish doimiy tarzda olib borilgan. Jamo'a tarkibidagi kishilarning ana shunday ahloqiy faoliyati boshqa ijtimoiy tashkiliy mehnat turlaridan ajralib turgan va ahamiyati jihatidan quyi mavqelarda bo'lmagan.

Matriarhat tuzumning patriarhat tuzum bilan almashinuvi jamoatchilik fikridagi ahloq mohiyatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Iste'mol munosabatlaridan ishlab chiqarish munosabatlariga, taqsimotda adolat va tenglik shart-sharoitlaridan ne'matlarni o'zlashtirishdagi tengsizlik holatlariga o'tilishi patriarhat hukmronligi davriga tamomila chek qo'ydi. Ahloqiy qarashlar manzarasi ham tubdan o'zgarib, ota obrazi ilohiylashtirila boshlandi, otaga sifinish, otaga hizmat, izzat-ikrom chegaralari kengaydi. Ko'photinlik, qullar va cho'rilar asrash, erkaklarning ro'zfor tashvishlaridan uzoqlashuvi, uruf tarkibidan erkak boshcxiligida alohida oilalarning ajralib chiqa boshlashi, erning oiladagi hukmron mavqey va boshqalar shular jumlasidandir. Tabiiyki, patriarhat ahloq qoidalarining jamiyat hayotida mustahkam o'rnashuvi uchun yana ming yillab vaqt kerak bo'ldi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim halqlar, hususan, o'zbek halqi o'z ma'naviyati mazmunida patriarhat va patriarhat davrlari asoratlarning eng yahshi an'alarini saqlab qola bilgan. Ayniqsa, millatimiz ma'naviy olami zamirida bir yo'la ikki madaniyat – ayo'llar hamda erkaklar madaniyati alohida-alohida amal qilib kelgani, ularning bir-biriga uzviy bo'rlilikda bo'lgani holda, ayni chorda nisbatan mustaqil saqlanib va rivojlanib kelganligi fikrimizning dalilidir. Ayo'llar madaniyati erkaklarniki bilan bir xil zamon va makon doirasida harakat qilganliklariga qaramay hududiy (ichkari va tashqari hovli), mazmuniy (o'ziga xos ahloqiy nuqtai nazarlar), ramziy (urf-odat, irim-rasm-rusmlar) jihatlariga ko'ra farqli rivojlanib kelganlar. Istiqomat va faoliyat makoni bo'lgan ichkari hovli ayo'llar ma'naviyati to'laqonli namoyon bo'ladigan joy vazifasini, shuningdek, ijtimoiy ehtiyo'j va iste'mol talablariga muvofiq madaniy ishlab chiqarish ko'rinishlarini ham yaqqol ifodalab kelgan. Bu hususda muayyan kamolot darajasida ekanligi e'tirof etilgan o'zbek ayo'llar she'riyati, musiqasi, ayo'llar harakteriga xos chanqovuz, dutor kabi musiqa asboblari, kashtacxilik, gilamdo'zlik, so'zana, zardo'zlik singari **kasanacxilik** san'at turlarining ichkari hovlida ayo'llarimiz qo'llari va qalbidan yaratilganligi fikrimizning guvohidir. SHuningdek, farzand tarbiyasida ichkari hovli kichik yoshli bolalarning hayotga ahloqan benuqson etkazilishida, komil insonlar bo'lib etishuvida mustahkam zamin vazifasini ham o'taganidir. SHu boisdan ham o'zbek halqi yahlit, to'laqonli ma'naviy me'rosining ikki yonalishi – ayo'llar va

erkaklar madaniyati mavzusi alohida va maxsus tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Ayni chorfa o'zbek ayo'llari dunyosida o'ziga xos mustaqil ahloq qoidalari tegishli urf-odatlar, an'ana va marosimlarda yaqqol ifodalanib kelmoqda. Hozirgacha ko'pgina chekka qishloqlarda amal qilinib kelayotgan to'y va ma'rakalarda erkaklardan ayricha o'tkaziluvchi rang-barang urf-odatlar, rasm-rusmlar shunga misoldir.

SHuni ta'kidlash joizki, har qanday ahloqiy qoida va talablar jamiyat tomonidan e'tirof etilib, jamoatchilik fikrida mustahkamlangan holdagina umrboqiylik kasb etadi. SHu boisdan ham ahloq jamoatchilik fikrining asosi va unga bevosita borliq ijtimoiy ong ko'rinishidir.

Har qanday siyosiy tizim birinchi galda ahloq asoslarini o'zgartirishga intiladi. Hozirgi kundagi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bozor iqtisodiyoti unsurlarining tezkor kirib kelishi ahloqiy qarashlar va ularning ifodasi bo'lgan jamoatchilik fikri mazmunida ham katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi shubhasizdir.

O'zbekiston hukumati bozor iqtisodiyoti'ga qadam qo'yishida amalda rasm bo'lgan "SHok terapiya usuli yo'hud total bozor" siyosatini olib bormadi. Donishmand Prezidentimizning oqilona rahnomoligi natijasida bozor iqtisodiyoti'ga tadrijiy o'tib borish siyosati mamlakatimizda ilk da'fa juda ulufvorlik bilan qo'llanildiki, hozirgi paytda bu tajriba maxsus o'rganila boshlandi va dunyo davlatlari tomonidan to'la e'tirof etilmoqda.

Bu jarayonda, avvalo an'anaviy ahloq tizimiga rahna solinmasligi, insoniy qadriyatlar tanazzuliga yo'l qo'ymasligiga, shahs va jamoa manfaatlari o'rtasida shakllangan muvozanat me'yori buzilmasligiga alohida ahamiyat berildi. "Ahloq, - deb ta'kidladi Prezident I.Karimov, - bu avvalo insof va adolat tuyfusi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona ahloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. SHunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga hiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi. Vatani, halqi uchun jonini fido etishda ham o'zini ayamaydi"<sup>1</sup>.

Bunday hayot tarzini jamiyat ahloqi va jamoatchilik fikrigina boshqarib turadi. Abu Nasr Forobiy aytganlaridek, "Mamlakat aholisi husXXulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyo'j turiladi".

Jamoatchilik fikri jamiyat ahloqining ifodasi tarzida namoyon bo'lgani sababli, u ahloqning o'zi bo'lib ham tuyuladi. Frantsuz olimi Berj bu hususda qiziqarli mulohazani o'rtaga tashlaydi: "Jamoatchilik fikri

---

<sup>1</sup> Karimov.I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -T.3.-T.: O'zbekiston, 1996.-39-b.

ahloqqa juda o'g'hab ketadi, chunki har ikkalasi ham jamoani hukm o'tkazib boshqaradi"<sup>3</sup>.

Jamoatchilik fikrining jamoani katta ishonch bilan boshqarishiga asosiy sabab shundan iboratki, u kishilar orasidagi ahloqiy munosabatlar tizimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ahloqiy qarashlar esa kishilarning kundalik turmush tarzi orqali ularning orzu-o'ylari, maqsadlariga erishish yo'lidagi kurash va bahslarda tufiladi va bu hatti-harakatlar mazmunining jamoatchilik fikri tomonidan baholana borishi jarayonida shakllanadi.

Ahloqiy tushunchalar kishilarning oddiy-odatiy turmush tarzida, kundalik hayot jarayonida tarkib topib, uning amaliy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati sifatida kishilarning atrof-muhit munosabatiga va amaliy faoliyat jarayonlariga bevosita ta'sir o'tkazadi. SHu boisdan ham ahloqiy qonunlar el nazdidan ayricha holatlarda amal qila olmaydi, yo'hud jamoatchilik fikri asrlar mobaynida shakllangan ahloqiy negizlarsiz hech qanday ta'sir-tazyiqqa ega bo'la olmaydi. Zero, inson o'tmish hotirasi, ma'naviy meros va qadriyatlarsiz, o'z halqining falaba va marlubiyatlarisiz tarixiy istiqboldan ham mahrum bo'lishi shak-shubhasizdir. SHu boisdan ham har qanday mustabid tuzum eng avvalo halqning tarixi va o'tmishi bilan bevosita borliq bo'lgan ahloqiy qarashlar negizini qo'porishga intiladi.

So'nggi yillarda umuminsoniy qadriyatlar va umumjahon ahloq normalarini ishlab chiqishga bo'lgan sa'y-harakatlar birmuncha quloch yo'zdi. Umuminsoniy ahloq tamoyillari mazmunining jamoatchilik nuqtai nazari, uning jamoaviy baxosi asoslariga qurilishi lozimligi bugungi kunda, ayniqsa, dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqarilmoqda. Hususan, Amerika olimi Archi Bam jahon faylasuflarining XV konferentsiyasida (kongressida) umumjahon ahloq qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati pishib etilganligi hamda mazkur katta tadbirning tarixiy jarayonlarda shakllangan va sinovdan o'tgan insoniy munosabatlar, gumanistik tamoyillar asosidagina tarkib toptirish lozimligini alohida uqtiradi. Buning uchun esa sayyoramizning barcha a'zolari uchun umumiy yagona ahloq qoidalarini tuzib beruvchi qo'mita tashkil etish zarurligini o'rta qo'ydi.

Umumjahon ahloqi asoslarini yaratish foyasi garchi bugungi kunda hech shubha uyrotmasa-da, ko'p yillar mobaynida mazkur ijtimoiy intilishga bir yo'qlama yondashish, yahshidan illat, savobdan qusur izlash tendentsiyasi hukm surib keldi.

---

<sup>3</sup> Plexanov V.G. Izbrannyye filosofskie proizvedeniya v pyati tomax: Tom 3.M., Goskomizdat,1956,s248.

Tabiiyki, halqaro ahloq qoidalari kuch yoki qurol vositasi bilan hayotga joriy etilmaydi. Umuminsoniy tamoyillar negiziga quriluvchi bu ahloqiy qoidalar faqat jamoatchilik fikri orqaligina boshqariladi va nazorat qilib boriladi.

Hulasa sifatida quyidagilarni alohida qayd etib o'tishni zarur deb hisoblaymiz:

1) Ahloq jamoatchilik fikrini uyfonish, shakllanish va amal qilishning uzviy manbalaridan biri sanalgan holda halq ahloqi yahlitligining yuzaga kelishida jamoatchilik fikri ham muhim o'rin tutadi, bu ikki ijtimoiy hodisa hamma holatlarda mustahkam aloqada bo'lib turadi, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi:

2) Jamoatchilik fikri o'zining shakllanish manbalarining salmo'i, kixilarning uyushqoqlik darajasi, aholining hissiy-emotsional potentsiali, mantiqiy-intellektual imkoniyatlariga, shuningdek, milliy, iqlimiy, mahalliy va regional shart-sharoitlariga bo'liqdir.

3) Ahloq va jamoatchilik fikrining o'zaro aloqadorlik me'yorl jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasiga, yalpi taraqqiyot uchun tanlangan rivojlanish dasturiga, mantiqiy yonalishlar o'ziga xosligiga, halq ma'naviyati va milliy o'ziga xosliklar omillariga bo'liqdir.

4) Sobiq sovet tuzumi davrida "avval siyosat, keyin iqtisod" aqidasiining amal qilishi, iqtisod, siyosat "avval materiya so'ng ong" degan moddiyuncxilik shiorlarining foyaviy tazyiqi ostida shakllantirilganligini hisobga olish zarurdir. Ma'naviyatning birlamcxiligi, umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini e'lon qilib, ozod jamiyat qurishga kirishgan O'zbekistonda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ma'naviy bo'hronlar botqo'ridan muvaffaqiyat bilan chiqildi;

5) Jamoatchilik fikri halq an'ana va urf-odatlariga mustahkam tayanadi va ularning jamiyat hayotida amal qilishiga imkoniyat yaratadi. Zero, an'analar qarashlarning progressiv jihatlarini avloddan avlodga etkazuvchi muhim omili halqningo'ziga xos qiyofasini saqlab qolish va himoyalash mezonidir.

6) Ahloq kategoriyasining muayyan uruf, qabila, el-elat va halq miqyo'slaridan halqaro miqyo'slarga o'sib o'tishi, umuminsoniy tamoyillar negizidagi umumplanetar ahloqning tarkib topishida jamoatchilik fikri o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi. Ayni cho'xda jamoatchilik fikri va ahloq jamiyatda umumiy murosa va madoraning turfun maromini ta'minlash yo'lida o'zaro munosabatlikda, tadrijiy takomil jarayonidagi muvofiqlikda rivoj topa boradi, bir-birini to'ldiradi, bir-biriga uyfun tarzda takomillashadi.

## **Qisqacha xulosalar**

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari qatorida o'z o'rniga ega bo'lib borayo'tgan hamda shitob bilan bozor munosabatlariga tortilib, kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini o'rnatishga intilayo'tgan O'zbekiston aholisining madaniy rivojlanishi muhim ahamiyatga egadir. Halqimiz o'zining qadimiy an'analari va milliy qadriyatlariga suyangan holda, dunyo madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lib, kelajak avlodni tarbiyalash ishiga katta ahamiyat bermoqda. Bu o'rinda ahloqiy qadriyatlardan bo'lmish dinning ham salmo'i kattadir. Madaniyat, din va ahloq sotsiologiyasi bu sohada tegishli xulosalar chiqarish va muhim yonalishlarni belgilab olishda izzining nazariy va amaliy jihatdan tegishli vazifasiga egadir.

## **IV BOB. IJTIMOIIY TUZILMALAR SOTSILOGIYASI**

### **7-MAVZU. IJTIMOIIY STRATIFIKATSIYA VA YOSHLAR SOTSILOGIYASI. DEVIANT XULQ-ATVOR SOTSILOGIYASI**

#### **7.1. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va mohiyati**

Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontal hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kisxilarning aynan bir tabaqa ichida harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirish gorizontal harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog Seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikatsiya tizimi sotsial zinaning quyi po'fonasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikatsiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo shu bilan birga u kisxilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga ra'batlantirishning asosiy mehanizmidir. Amerika sotsiologiyasida U.Uortner Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelda oltita sotsial sinfning tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K. Deyvs, U. Mur, V. Koleman, L. Reyuoter, E.SHoyh, T. Gayger, R. Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikatsiya shemalarini ishlab chiqdilar.

**Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy tiplari.** **Stratifikatsiya** (lot stratum - qatlam va fatsio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.

**Sotsial stratifikatsiya** - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi yoki boshqacha aytganda, jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarning ijtimoiy differentsiyasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning

ahamiyatini va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy vazifasi–turli faoliyat xillari uchun raqbatlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni ta'minlashdir.

Sotsial stratifikatsiya: ma'lumot, maishiy sharoit, mashfulot daromad, ruhiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o'rta» va «quyi» sinflar hamda strat (qatlam)larga (2 dan 6 gacha) bo'linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikatsiya tizimida kixsilarning o'z qobiliyatlari va kuch-fayratlariga muvofiq maqomlarni o'zgartirishlari (sotsial mobillik) esa jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo'yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan).

Jamiyatning ijtimoiy, tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

1. Sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik tushunchalari<sup>1</sup>.
2. Iqtisodiy va taqsimot munosabatlari.
3. Ijtimoiy-sinfiy munosabatlar.
4. Ijtimoiy demografik munosabatlar.

Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlar harakteriga va o'zaro aloqadorligiga bo'liq. Uning harakteriga: oila, maktab, davlat partiyalar, iqtisodiyot, fan, madaniyat, matbuot, so'fliqni saqlash kabi sohalarning rivojlanishi o'zaro mos ravishda bo'ladi. Ana shu guruh munosabatlarida qaysilari peshqadam rol o'ynaydi? Qaysilari asosiy rol, bo'ysunuvchi harakterga ega. «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi»<sup>2</sup> deb Konstitutsiyada ko'rsatilgan.

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shahs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. SHahs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutahassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi-ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, Hindistonda jamiyat:

- a) yuqori tabaqa – brahmanlar;
- b) o'rta tabaqa - kshatriylar (jangchi toifasi)

---

<sup>1</sup> YUnusov K. Sotsiologiya. Andijon, 1997, 51-58-betlar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: O'zbekiston, 2010 5-10-b..

v) shudralar (qora halq)dan iborat guruhlarga ajratilgan. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (er.avval. 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:

- a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
- b) harbiy jangcxilar;
- v) qullar - quyi tabaqa.

**1. G'arb sotsilogiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya** tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikatsiya farb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlarga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid bo'lib, jamiyatning sinflarga bo'linishining asosiy sababi mulkiy munosabatlardagi holatni tabiiy-tarixiy qonuniyat sifatida qaraydi. Bu sinflarni ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning ma'lumoti, psihologik jihatlari, turmush sharoiti, ijtimoiy bandlik, daromadi va boshqa xususiyatlar bilan farq qiladi.

AQSHlik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikatsiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatini asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

Farb mamlakatlari sotsiologlari jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» sinf va qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, Farbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvcxilar toifasiga bo'ladi. O'z navbatida boshqaruvcxilar toifasi 2 guruhdan: a) mulkdor boshqaruvcxilar va b) mulkdor bo'lmagan boshqaruvcxilar - ma'muriy byurokrat menedjerlardan iborat, deydi. Boshqariluvcxilar toifasi ham 2 ga: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - malakasi past darajada bo'lgan ishcxilardan iborat bo'lib, boshqaruvcxilar va ishchi aristokratiyasining qo'sxilishidan shakllanmoqda, deb fikr bildiradi.

Jamiyat ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan:

- ijtimoiy-sinfiy, guruhlararo (sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamalar);
- ijtimoiy-demografik (yoshlar, o'rta yoshlar, halqlar);
- ijtimoiy-professional (kasb-korga qarab o'qituvcxilar, injener, tibbiyo't hodimlari va h.k.);
- ijtimoiy-hududiy (mintaqa, shahar, qishloq, tuman, mahalla, aholisi).

**Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi:** Ijtimoiy o'zgaruvchanlik sotsiologik tushuncha bo'lib, demografik va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llaniladi. SHahsning bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy



guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'rnini, o'zgarishini bildiradi.

**SHahs misolida** go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot oladi, hunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rni o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo' student bo'ldi, nafaqaho'r va boshqa.

**Jamiyat misolida.** Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi. Sinflar paydo bo'lishida, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishida, jamiyat sinfiy strukturasi, undagi ishlab chiqarish kuchlari joylashishida, taraqqiyotida, fan, texnika, madaniyat, sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, qul, krestiyon, ishchi, sovhozchi, pomeschik, kapitalist, fermer.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi yoki **sotsial mobillik tushunchasi** bilan bog'liq. Kishilarning ijtimoiy po'ronalardan 2 yonalishi bo'yicha harakat qilishidir:

1) **Vertikal (yonalish) ijtimoiy** o'zgaruvchanlik. Bu bir ijtimoiy tizimda tutgan o'rni, o'zgarishdir. Masalan, shahs misolida: o'quvchi, ishchi, hizmatchi, olim, kolhozchi, fermerchi, hususiy tadbirkor, pensioner va hokazo (YUqori va past darajaga qarab o'zgarib boradi).

2) **Gorizontal (yonalish)** ijtimoiy o'zgaruvchanlik. Bir ijtimoiy guruh doirasidagi o'zgarishlar yoki ijtimoiy darajadagi o'zgarishlar. Masalan, ishchi 1-5 razryad, aspirant, kandidat, fan doktori, akademik.

#### **Ijtimoiy o'zgaruvchanlikning turlari:**

1. Reproduktiv. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - hizmat po'ronasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishlokdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga qo'chish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, tushunchalar, his-tuyfular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Jamiyat ijtimoiy tarkibining yana bir yonalishi – mamlakat halq ho'jaligida band bo'lgan ijtimoiy guruhlar va tarkibini o'rganishdir. Aholining uy-joy bilan bandligi, maishiy hizmat va boshqa. Ta'lim darajasi, mansab darajasi, ijtimoiy-hududiy yonalish va boshqalar.

## 7.2. Ijtimoiy mobillik va ijtimoiy stratifikatsiya<sup>1</sup>

O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mehanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bo'lanishlarni o'rganadigan bo'limdir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiya «Fiziologiya»ning bevosita davomi yoki «Sotsial fizika» deb hisoblangan. Kont ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yonalishda - sotsial statika yonalishida va sotsial dinamika yonalishida ko'rilishi lozim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarning uzviy uyfunligi, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligi jamiyatni yahlit bir butunlik sifatida qarashga imkon beradi. SHuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi, elementlarning o'zaro aloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izcxilligi, birin-ketinligini ochib beradi. SHunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning harakatlarini sotsial dinamikaning sotsial mobillik (lotincha mobilis - harakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar, deb ataladigan ko'rinishlari ifodalaydi. Sotsial mobillik tushunchasi sotsiologik tadqiqotlar doirasiga P. Sorokin kiritgan edi. Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashfultlarning o'zaro almashtirishini anglatadi. Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiqligi» yoki «yo'piqligi»ni tavsiflash uchun ishlatiladi. U intrageneratsion (avlodlar orasidagi) va generatsion (avlod ichidagi) sotsial mobillik turlariga ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'rfliga (kamdan-kam hollarda onadan qizga) o'tishi **generatsion sotsial mobillikka**, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bo'liq individual belgilar esa intrageneratsion sotsial mobillikka misol bo'la oladi. O'zgarishlar yonalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizontaal sotsial mobillik bo'yicha farqlanadi. Sotsial mobillikning

---

<sup>1</sup> A.X.Haydarov maqolasidan foydalanildi // Umumiy sotsiologiya. Darslik. –T.: ToshDU, 1999.-86-96-b.

emperik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik, barqarorlik-stabillik indeksi hizmat qiladi. Bu indeks tekshirilayo'tgan guruhdagi mobil va stabil shahslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari mobil (o'zgaruvchan) shahslarning jinsi, ma'lumot darajasi, «aqli rasolik koeffitsenti», millati, irqi, turar-joyi, sof-salomatligiga qarab ham sotsial mobil shahslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korelyatsiya (mos keluvchi) koeffitsientlari hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillik o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokazolarga bo'linadi.

Sotsial differentsiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial differentsiatsiya tushunchasi birinchi bo'lib G. Spenser tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyutsiya bir vaqtning o'zida differentsiatsiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va integratsiya (organlarining bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tish, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammalashuvidan iboratdir.

E.Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differentsiatsiyani aholi zichligining oshishi va shahslararo hamda guruhlararo muloqatlar sur'atiga bo'lab tushuntirgan. Odatda, differentsiatsiya tushunchasi «tafovut» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikatsiya qilishga yordam beradi.

Strukturaviy funktsionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Ettsoni va b.) sotsial differentsiatsiya bilan sotsial sistemaning o'z-o'zini saqlashini shart deb qaraydilar. Bunda sotsial differentsiatsiyaning yahlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularnig fikricha, quyidagi hayotiy muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ihtiloflarni bartaraf etish (integratsiya) va hokazolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi maxsuslashgan institutlar tomonidangina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differentsiatsiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differentsiatsiya o'sishi bilan faoliyatlar ham maxsuslashib boradi, shahsiy va oilaviy aloqalar o'z o'rnini borgan sari odamlar o'rtasidagi shahssiz norasmiy munosabatlarga bo'shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy

vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi asosan - pul).

**Sotsial integratsiya** (lot. Integratio - to'ldirilish, tiklanish; integer yahlit, butun) - sotsial differentsiatsiyaga nisbatdosh tushunchadir. Hozirgi zamon sotsiologiyasida tizimlar nazariyasidagi integratsiya tushunchasidan foydalaniladi. Unga ko'ra, integratsiyada alohida differentsiatsiyalashgan qismlarni bir butun qilib turuvchi aloqa va shu holatga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Integratsiya turli xil sotsial sub'ektlar: individlar, tashkilotlar, davlatlar va hokazolar o'rtasida ihtilofsiz munosabatlar bo'lishini ko'zda tutadi. Sotsial tizimlar integratsiyasining darajasi va mehanizmi to'rtinchi darajadagi qarashlar tarixan o'zgarib kelgan.

Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– **Reproduktiv dinamika.** Sotsial dinamikaning bu turi turilish, ishlab chiqarish, ekologiyaning sotsial jihatlarini o'z ichiga oladi. Aholi sonining o'sishi, turilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial sub'ektlar reproduktiv o'rnashmalarga aloqador bo'ladi.

– **Maqom (status) sotsial dinamika.** U o'z ichiga hizmat lavozimlarida ko'tarilish yoki pasayishni, turmush darajasi va sifati kabilarni qamrab oladi.

– **Hududiy sotsial dinamika.** Aholi ko'chishlari sur'ati va miqdorlarining sotsial jihatlarini, katta shahar vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi, uning sotsial oqibatlarini hududiy (territorial) sotsial dinamika ob'ektlaridir.

– **Ma'naviy hayot dinamikasi** manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o'zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo'ladi.

– **Siyosiy dinamika** jamiyat sotsial-sinfiiy tarkibi, hokimiyat shakllari o'zgarishini anglatadi.

– **Fan-tehnika dinamikasi.** Fan-tehnika taraqqiyotining sotsial jihatlarini, ishlab chiqarish vositalari o'zgarishlarining ijtimoiy sub'ektlar hayotiga ta'siri, ahborot va kommunikatsiya bilan bog'liq sotsiodinamik o'zgarishlar fan-tehnika dinamikasiga kiradi.

Sotsial dinamika abstrakt, mavhum qonuniyat ifodasi emas. Har bir mintaqa, ijtimoiy tuzumda o'ziga xos sotsiodinamikani ko'rishimiz mumkin.

Sotsial dinamika vertikal (yuqori va pastga) va gorizontaal (ya'ni, parallel tomonga) yonalishda ro'y berishi mumkin. YUqorida keltirilgan barcha sotsial dinamika turlarini vertikal va gorizontaal yonalishda

tekshirish joiz. Jumladan, sotsial-sinfiy struktura elementlari harakati sotsial stratifikatsiya yondashuvi asosida qaralganda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sotsial stratifikatsiya (lot. strath - tuzilma, qatlam) sotsiologik tushuncha bo'lib, bu tushuncha, umuman, jamiyatning, ayrim sotsial guruhlarning tarkibini, ularning turli-tuman belgilariga: daromadi, malakasi, ma'lumoti va boshqa darajalariga qarab, odatda, ierarhiya (yuqori va quyi) tarzda joylashgan ijtimoiy qatlamlarga bo'linishini tavsiflaydi. Funktsionalizm nuqtai nazaridan, sotsial stratifikatsiya tizimi jamiyatdagi sotsial rol va mavqelarning differentsiatsiyasi bo'lib, u har qanday jamiyatning ob'ektiv ehtiyo'jidir. Jamiyatning turli sohalarida stratalardan stratalarga harakatni ko'rish mumkin. Masalan, iqtisodiyot sohasida har bir odam milloner bo'lishi mumkin; siyosatda yirik siyosiy mansabga erishish mumkin; armiyada har bir askar general bo'lishi mumkin; diniy faoliyat sohasida - oliy diniy martabaga erishish mumkin; fan – bu, faoliyatning nisbatan zoe ketadigan sohasi bo'lib, biroq bunda ilgarilash mumkin; nikoh orqali foydali nikoh vositasida jamiyatning eng yuqori poʻfonalariga foyat tez ko'tarilish mumkin. Kisxilarning sotsial zinapoyadagi yuqoriga qarab siljishga intilishi - ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Odam bir vaqtning o'zida bir necha strataga kirishi mumkin. Bu stratalar institutsional, madaniy, norasmiy mezonlar asosida ajratib ko'rsatilishi mumkin va ularga mos bo'lgan sotsiodinamika ham mavjud.

### **7.3. Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari**

**«Farzandlarimiz, yoshlarimiz  
bizning nafaqat ishonchimiz va  
kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va  
ertangi kunimizning hal qiluvchi**

Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Germaniyada, AQSHda va Frantsiyada shakllandi. 1928 yilda K.Mangeymning «Avlod muammosi» asari bosilib chiqdi. Bu asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o'rganilgan dastlabki asarlardan biri edi.

XX asrning 60-yillaridan yoshlar muammolarini tahlil qilishga va echishga qaratilgan asarlar ko'plab chop etila boshlandi. Germaniyada yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha G.SHel'skiyning «Skeptik avlod» (1957), F.Tenbrukning «Yoshlar va jamiyat» (1962); Venadagi sotsiologik institut direktori L.Rozenmayrning «Empirik sotsial tadqiqot bo'yicha qo'llanma» (1969), Amerika sotsiologi D.Kempbellning «Sotsializatsiya bo'yicha spravochnik» (1969), Amerika sotsiologi S.Eyzenshtadtning «Avloddan avlodga» (1966) asarlari yoshlar sotsiologiyasining keng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirga davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

**1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondashish lozimligi.** Yoshlarning ijtimoiy qarashlariga, xulqiga, qiziqishiga va boshqa jihatlarini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baho berish talab qilinadi. Masalan, hozirda, shakllangan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayo'tgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

**2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish.** Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

**3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish.** Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. SHu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasida o'zaro ziddiyat vujudga keladi. Ko'pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e'tiroz tufdiradi.

**4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashish.** Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganishni bildiradi. Bozor munosabatlarining tarkib topa borishi bilan yoshlar o'rtasida ham tabaqalanish yanada kuchayishi tabiiydir. Hozirdanoq ularning turli ijtimoiy tabaqaga ajralish jarayoni ro'y bermoqda. Bir

tomondan, jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlari: talabalar, yosh olimlar, ishxilar, fermerlar, ishbilarmon yoshlar, san'atkorlar, savdogar yoshlar kabi guruhlar salmori ortib borayo'tgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa yoshlar, bekorchi-sayo'q, giyo'hvand, jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat hayotida salbiy, disfunktsional ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hozirda O'zbekiston miqyo'sida jinoyatcxilikning 85 foizga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayo'tganligini e'tiborga olsak, yoshlar sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so'ng ulg'ayish davrigacha bir necha bosqichlarga ajratilib ko'rsatiladi. Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yoshlarni o'z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan borliq vazifalarni qamrab oladi.

2500 yil muqaddam amal qila boshlagan – har 12 yilda bir aylanib keladigan muchal kalendariga ko'ra inson:

- 13 yohgacha bolalik;
- 25 yoshgacha balorat;
- 37 yoshgacha o'smirlik va o'spirinlik;
- 49 yoshgacha yoshlik;
- 61 yoshgacha etuklik;
- 73 yoshgacha qat'iylik va barqarorlik;
- 85 yoshgacha keksalik davrida bo'ladi;

- 85 yoshdan keyingi umri esa qariyalik. Mo'ysafidlik, chevarayu evaralik davriga kiradi.

Butunjahon so'fliqni saqlash tashkiloti belgilagan me'yorga ko'ra esa, **INSON:**

- 15 yoshgacha bolalik;
- 18 yoshgacha o'smirlik;
- 45 yoshgacha yoshlik;
- 50 yoshgacha etuklik;

- 75 yoshgacha keksalik davrida bo'ladi. Keyingi umri esa qariyalik yillaridir<sup>1</sup>.

Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatniig barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan borliq muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; halq ho'jaligi, fan va madaniyatning yosh mutahassis kadrlarga bo'lgan ehtiyo'ji; ta'lim

---

<sup>1</sup> «Adolat», 2008 yil 11 iyulь.

tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash; yoshlarning ma'lumot olishi va kasb tanlashi muammosi; yoshlarning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarni kasb tanlashida milliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognozlash; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasi kabi masalalar shular jumlasidandir. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha empirik va nazariy jihatdan sotsiologik tadqiqot olib borish, ularning statik va dinamik xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos qiyin, murakkabligi ham, uning ko'p qirraligidadir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masalalardan biridir. Bu muammoning hal etib borilishi yoshlar bilan bo'liq bo'lgan ko'plab masalalarning echimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida «Usta va shogird» tizimi asosida ko'plab ishlar qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad, yoshlarni milliy hunarmadcxilikka, qadriyatlarga, an'analarga hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash hamda ularni moddiy jihatdan ta'minlashni yaxsilashdan iboratdir.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yasamoqda. SHuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Bu jihatdan yoshlar oila sotsiologiyasi bilan uzviy bo'liq bo'ladi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo'lishi, ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuv jarayonida ko'p jihatdan ta'lim tizimining sifatiga ham bo'liq. Bu jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi ta'lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan yaqin aloqadadir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining qator asarlarida, so'zlagan nutqlarida hozirgi davrda mamlakatimizda yoshlar hayoti va faoliyatiga doir qator muammolarni ko'rsatib o'tgan.

**O'zbekistonda yoshlar hayoti va faoliyatining ijtimoiy masalalari.** O'zbekiston yoshlar mamlakati. Yurtimizda istiqomat qiladigan jami aholining 60 foizidan oshirini 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.



«Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining tahminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa – 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etadi»<sup>1</sup>. Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori suratlarda o'sishi yaqin chorak asrda ham davom etadi. 2015 yilga kelib O'zbekiston aholisi 1,5 barobarga ortib, jami 36 million 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. SHu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholi soni ham ikki barobarga oshadi va 2015 yilda qariyb 20 million nafar kishini tashkil etadi.

Bu raqamlar faqat yurtimiz aholisining son jihatdan o'sishinigina ko'rsatib qolmay, u navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlarga ega ekanini ham namoyon etadi. Ana shu bois ham mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov istiqloqlning ilk yillaridayo'q «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan ro'yni ilgari surdi.

Milliy mafkuramizning muhtasar shioriga aylangan ushbu so'zlar nafaqat ruhlantiruvchi da'vat, balki amaliy natijaga aylanish uchun davlat jamiyatning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarga asosiy e'tiborni qaratmokda. «Soglom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Kamolot», «Umid», «Mirzo Ulurbek» jam'armalarining tuzilishi, yoshlar muammolari instituti faoliyatining yo'lga qo'yilishi, «O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'frisidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturlarining qabul qilinishi va hayotga jadal joriy etilayo'tganligi, televidenie va radioda yoshlar kanalining tashkil etilishi, 2008 yilning «Yoshlar yili» deb nomlanib, bu haqda «Yoshlar yili» Davlat dasturining qabul qilinishi, 2010 yilning esa «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi kabi jarayonlar yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotidir. O'zbekistonning o'z istiqbolini yoshlarda ko'rishi sotsiologlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yadiki, bu sharaflı yumush jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy qatlamning sotsial qiyofasi, tavsifini, o'rganish, orzu-niyatlari haqida doimo bohabarlikni ta'minlashdan tashqari ular faoliyatini optimallashtirish, ezgulikka yonaltirib turish, ohir-oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga ham hissa qo'shishdan iboratdir. SHu boisdan ham yurtboshimizning «Biz iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak» degan fikrlari juda muhimdir.

2011 yilning «Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik» yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan kollejlari va akademik litseylarni bitirib chiqqan yoshlarga, hamda oliy o'quv yurtlarini bitirayo'tgan bakalavrlarga biznes

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida.– T.:16.-T. «O'zbekiston», 2008. – 163-b.

va tadbirkorlik bilan shurullanish imkoniyatlarining berilishi ham hozirgi davrda yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Ta'kidlash joizki, yoshlarning intellektual-ruhiy kamoloti, ularning ma'naviy o'z-o'zini anglash jarayonlari bilan bevosita borliqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar harakterida ijtimoiy ideallarning susayib ketishiga yo'l qo'yilmaslik muhimdir.

Yoshlarning milliy o'zligini anglash sharoitida ular ijtimoiy manfaatlarini o'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

- fikrlar xilma-xilligi nuqtai nazaridan mustaqillik sharoitida ijtimoiy manfaatlar mavjud kontseptsiyalar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo'lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;

- ijtimoiy manfaatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan o'zaro uyfun tarzda o'rganiladi;

- ijtimoiy manfaatlar mohiyati, mazmuni hamda jamiyat rivojidagi o'rni masalalarini sotsiologik jihatdan tahlil etadi;

- jamiyatda etnosiyosiy jarayonlarni tahlil etib, ularning millatlararo munosabatlarga ta'sirini hamda milliy manfaatlardagi o'rnini ko'rsatadi;

- etnik masalalarning ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat rivojidagi voqea-hodisalarga o'zaro aloqadorlik dialektikasini o'rganib, ushbu jarayonning jamiyat taraqqiyoti bilan borliq xususiyatlarini tahlil etadi;

- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning ijtimoiy manfaatlariga ta'sirini o'tkazadi;

- hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga xos jarayonlar rivojida etnik manfaatlarining uslubi, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etish xususiyatlarini nazariy tadqiq etadi.

Sotsiologiya fani yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy va ruhiy o'ziga xos holatga ega bo'lgan yirik ijtimoiy guruh sifatida o'rganadi. Bu ijtimoiy va ruhiy holatda ularning nafaqat yoshdagi tafovutlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy mavqey ham o'z ifodasini topadi. Yoshlar deganda, ma'naviy dunyosi shakllanish jarayonida bo'lgan, asosan 16-30 yoshlardagi insonlar tushuniladi.

Biroq, yoshlarning ijtimoiy jihatdan bir-biridan farqlanishi ayrim mutahassislarni yoshning yuqori chegarasini turli guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sifatlari shakllanishi davomiyligiga qarab aniqlashga undamoqda. Jumladan, yosh ishchining bir kasb boshini qat'iy tutishi asosan 25 yoshlarda amalga ohsa, yosh olim 35 yoshida shakllanib ulfayadi. Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita borliqdir. Masalan, bolalar va o'smirlar

mehnatini keng qo'llash yoshlar deb ataladigan qatlamning pastki chegarasini ancha quyi yoshdan aniqlashni taqozo etadi.

Ko'pgina mamlakatlarda yoshlikning quyi chegarasi tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlarda yo'zib qo'yilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shufullanish huquqi va imkoniyatlari, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashish huquqi, o'z hatti-harakatlari uchun fuqaro sifatida javob berish qobiliyati, nikohga kirish huquqi mana shu quyi chegarani aniqlashni taqozo etadi. Hozircha bu jahon tajribasida 14-16 yoshni tashkil etadi.

Yoshlar tarkibiga kiruvchi o'quvcxilar, talabalar, yosh ishxilar va boshqalar ijtimoiy-ruhiy yaqinligi, qiziqishlarining umumiyliги nafaqat bir mamlakat hududida, balki butun jahon uzra ularning ommaviy chiqishlari, birgalikda harakatiga sabab bo'ladi. Etimlarning mustaqil hayotga qadam qo'yish jarayonidagi murakkabliklar va qarama-qarsxiliklar gohida ularning turli shakldagi, jumladan, aksil ijtimoiy (jinoyatcxilik, giyo'hvandlik kabi) noroziliklarini, shuningdek, o'ziga xos yoshlar «madaniyati»ni keltirib chiqaradi. Jamiyatni sinflarga bo'lishni odat qilgan sobiq sho'rolar zamonida ayrim mutahassislar yoshlarni alohida sinf deb qarashga moyil bo'lgan paytlar ham bo'lgan. Biroq kommunistik mafkura mutahassislari ham yoshlarni jamiyatdagi bir qatlam ekanini e'tirof etishga majbur bo'lgan edilar.

Yoshlik - bu ilohiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo'yayo'tgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishgina emas, balki bu faoliyat shahsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar to'laroq ko'maklashishi ham foyat muhimdir.

Istiqlolning ilk kunlaridanoq jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shahsni shakllantirish vazifasini qo'ydi. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. SHundagina ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Prezident I.Karimov aytganidek, «SHuncha odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyo'j sezib emas, aksincha aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli bo'lib yashaydi. Bunda odamlar uyushgan jamiyatini, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni sohta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo tuzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalfitib ham bo'lmaydi».

Horijdagi ayrim siyosiy kuchlar jamiyatimizning istiqboli bo'lgan yoshlarimizni o'z ta'siriga olishga urinayo'tgan ayni zamonda ta'lim-

tarbiya tizimimizni, jumladan, sotsiologiya fani nazariyasini yoshlarga qaratishimiz, ular muammolari, o'y-tashvishlarini bilib, yoshlar siyosatini ilmiy negizga ko'chirishimiz asosida yuqorida ta'kidlangan ijobiy natijalarni qo'lga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda yoshlarning o'z kelajagini qurishi uchun keng imkoniyatlar o'cxildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarning mehnat qilish, kasb tanlash va ma'lumot olish huquqi kafolatlangan. O'zbekistan hukumati yoshlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Yosh mutahassislar davlat boshqaruvining ma'suliyatli ishlariga ko'proq jalb etilmoqda. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor berilib, ularning faoliyati mavjud iqtisodiy qiyinciliklarga qaramasdan, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

“2001 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis quriltoyi bo'lib o'tdi. Bugungi kunda harakatning Qoraqalpoviston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 201 ta tuman (shahar) – bo'limlari Kengashlari, 20 mingga yaqin boshlanfich tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. 7 mln. 200 mingdan ortiq 14 dan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 4 mln. 700 ming nafari yoki 65,3% harakat a'zolaridir. Harakat tizimlarida 872 nafar yoshlar hizmat qilmoqda, 2068 yirik boshlanfich tashkilotlarning 2435 nafar etakcxilariga hrakat tomonidan ish haqi to'lanmoqda, jami 3307 nafar faollar to'liq yoki qisman ish haqiga egadir”<sup>1</sup>.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvcxilarni birlashtiruvchi bolalar tashkiloti tuzilgan. 2001 yil 21 may kuni bolalar tashkilotining ta'sis yirilishi bo'lib o'tdi, Nizomi qabul qilindi.”<sup>2</sup>

Ammo, yoshlar bilan borlik muammolarni hal etish bo'yicha olib borilayo'tgan ishlarni etarli darajada, deb bo'lmaydi. Bu borada faylasuflar, siyosatcxilar, ruhshunoslar, ahloqshunos olimlar va birinchi galda sotsiologlarning ilfor foyalari hamda amalga oshiradigan aniq sotsiologik tadqiqotlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **7.4. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati**

Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqqan holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O'zbekistonda istiqlool sharofati bilan o'rganila boshlandi. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot ob'ektlari doirasida

---

<sup>1</sup> Ubaydullaev B. «Kamolot» kecha, bugun, ertaga // “Ijtimoiy fikr”. 2004. 3-son. 13-bet

<sup>2</sup> O'sha matn

o'rganganlar. Respublika faylasuflari H.SHayhova, Q.Nazarov, M.Holmatova, N.Komilov (shahs tarbiyasida ma'naviy-ahloqiy tarbiya ta'siri masalalari), sotsiolog M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari), huquqshunoslar A.Qulahmetov, Y.Karakterov, M.Usmonaliev (jinoyatcxilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatcxiligi masalalari), psiholog olimlar F.B.SHoumarov, N.A.Sog'inov, S.A.Ahunjanova, Z.R.Qodirova, E.SH.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatcxilik muammolarining ruhiy-psihologik asoslari), pedagog-olimlar O.Musurmonova, D.J.SHaripovalarning (oilada barkamol shahsni tarbiyalash hamda giyo'hvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin<sup>1</sup>.

Jamiyatda insonlar faoliyati, hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shahs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, ahloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shahslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. YAngi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir. Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shahs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

---

<sup>1</sup> A.YUnusov maqolasidan foydalanildi // Sotsiologiya. O'quv qo'llanmasi.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.-115-120-b.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu—oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda soʻlom oila muhitining oʻrni kattadir.

«Bola tufilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos anʼanalar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angʻlaydi, his etadi.

Afsuski, oramizda shunday insonlar ham uchraydiki, ular jamiyat taraqqiyotiga hizmat qilmasdan, balki unga toʻsiq boʻluvchi meʼyordan oʻrinish holatlarini yuzaga keltiradilar. **Jamiyatda oʻrnatilgan ijtimoiy meʼyorlardan chetga chiqish holatlari sotsiologiyada «deviantlik holatlari», undan tufiluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.**

Deviant xulq-atvor — jamiyatda oʻrnatilgan ahloq meʼyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa boʻlib, **yolgʻoncxilik, dangasalik, oʻgʻrilik, ichkilikbozlik, giyoʻhvandlik, oʻz joniga qasd qilish va boshqa koʻplab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.**

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan koʻrinishlaridan hisoblanadi:

**a) Jinoyatcxilik.** Muayyan davlatda oʻrnatilgan qonun va meʼyorlarga nisbatan ayrim shahslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shahs esa jinoyatchi hisoblanadi.

**b) Ichkilikbozlik.** Bu borada ilmiy adabiyoʻtlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har-har zamonda isteʼmol kilish. 2) Alkogolni koʻp isteʼmol qilish — spirtli ichimliklarni muntazam, yaʼni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga oʻrtada tanaffus bilan koʻp mikdorda (200 mlndan oshiq). Bu koʻpincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) oʻrganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

**v) Giyoʻhvandlik.** Giyoʻhvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qoʻyish va tibbiy koʻrsatmalarsiz isteʼmol qilish.

**g) Fohishabozlik.** Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga boʻlib oʻrganiladi: 1. Konkubinat - nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik- pul uchun oʻz tanasini sotish.

Gʻarbda asosan ikkinchisi qoralansada, SHarkda ikkala holatga ham meʼyordan ogʻish sifatida qaraladi.

**d) Byurokratiya.** «Byurokratiya» termini aslida «hokimiyatga ega boʻlgan hodim» degan maʼnoni angʻlatadi. Biroq davrlar oʻtishi bilan

«byurokratiya» mahalliyxilik, qoʻzbozlik, toʻracilik, mansabni suisteʼmol qilish kabi salbiy maʼnolarda qoʻllanila boshladi. Hozirgi kunda koʻplab davlatlarda «byurokratiya» termini asil maʼnosini yoʻqotib, boshqaruvdagi oʻziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi.

YUqoridagilardan tashqari mahalliyxilik, urugʻ-aymoqcxilik, boqimandacxilik kabi salbiy holatlar ham ijtimoiy meʼyordan chekinishning diqqattalab koʻrinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus oʻrgangan boʻlsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi halqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, hususan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi ahloqiy meʼyorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham oʻz asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib berganlar.

Oʻrta asrlarda ahloq meʼyorlari diniy qarashlar taʼsiri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Evropada hristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan boʻlsa, SHarq dunyosida ahloqiy-huquqiy meʼyorlar va ular haqidagi taʼlimotlar islom falsafasi taʼsirida rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarga kelib, Evropada jamiyat rivojining kuchayishi ahloq meʼyorlarining hristiancha talablari doirasiga sirmay qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy meʼyor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. SH.L.Monteskʼe, J.J.Russo, CH.Bekkaria, Gelʼvetsiy, D.Didro, P.Golʼbah, Morelli va SH.Furʼelar oʻz ilmiy izlanishlarida ijtimoiy meʼyorlar, qadriyatlar uchun umumiy boʻlgan qonuniyatlarni topishga intilganlar.

XIX asr ohirlarida tabiiy fanlarda erisxilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Hususan, sotsiologiyada ijtimoiy meʼyordan oʻrinish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki taʼlimot — E.Dyurkgeymning «anomiya» foyasi yaratildi. Maʼlumki, sotsiologiyaning fan boʻlib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga eʼtibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E.Dyurkgeymning toʻrtta asari chop etilgan boʻlib, shulardan biri «Oʻz joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga barishlangan edi.

Amerika sotsiologiyasida muhim oʻrin tutuvchi taʼlimotlardan biri E.Saterlendning differentsial aloqalar taʼlimotidir. Bunga koʻra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham oʻrganiladi, yaʼni mavjud jamiyat aʼzolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga oʻrgatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada etakchi o'rin tutadi. EDyurkgeymning anomiya foyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: **«Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».**

SHahslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular **shahs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari.** Aynan mana shu omillar shahsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

SHahs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) irsiy omillar; 2) psiho-fiziologik omillar; 3) shahsning bilim darajasi.

SHuningdek, ijtimoiy o'rishlarning yuz berishiga shahsning qat'iyatli yoki qat'iyatsizligi, printsiptalligi yoki printsipsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psihofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'ektdan echimini talab qiladi, uning echimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shahslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. SHu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba'zan shahs xususiyatlari sabab bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar ham sabab bo'ladi.

Jamiyatda shahs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo'q holat, holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsa-da, uning echimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat; 3) mavjud muammoni sub'ekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech



qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni sub'ektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayo'tgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek, ijtimoiy me'yor talablari va shahs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Jamiyat a'zolari shahsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shahslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. «Ba'zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas», «hozir yahshi, ertaga yo'mon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yonalishida amal qilishiga izn berish juda havflidir. SHu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shahslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyacxilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyo'hvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bo'rliq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

**Birinchi farq**, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovcxiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, quydagi tushunmovcxiliklar va hokazolar—bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamcxiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rolb o'ynaydi.

Bularning **ikkinchi farqli** jihati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyincxiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'fri echimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurbon» bera oladimi: hotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyo'hvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning **keyingi farqi shundaki**, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'fri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'fri hayo'liy

yo'llari, ichkilik, giyo'hvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistondagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2002 yili 49173 shahsga nisbatan jinoyat ishi ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2163 tasi voyaga etmaganlardir, bu esa 4,3%ni tashkil etadi. Bulardan 613 tasi (28%) maktab o'quvcxilari, 644 tasi (29%) litsey va kollej o'quvcxilari ekanligi aniqlangan. 2003 yilning 9 oyida 49584 shahsga nisbatan jinoiy ish ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2049 tasini (4,1%) voyaga etmaganlar tashkil etadi. Ularining 613 tasi (29%) maktab o'quvcxilari, 160tasi (7,8%) litsey va kollej o'quvcxilaridir. Lekin keyingi yillarda sotsiologik tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, olimlarimiz deviant xulq-atvor sotsiologiyasida-jinoyatcxilik ichkilikbozlik, giyo'hvandlik, fohishabozlik, byurokratiya kabi illatlar, ahloq-me'yorlari normalariga zid bo'lgan salbiy holatlardan tashqari ayrim iste'dodli yoshlarda uning ijobiy tomonlari borligini ham aniqlaganlar. Masalan, hayotda katta obro'-etiborga ega bo'lgan ayrim buyuk shahslar, davlat arboblari, yo'zuvchi, shoirlar, artistlar va boshqalar ilk bolalik davridagi deviant xulq-atvorida injiqlik, qo'pollik, qaysarlik singari salbiy illatlarga ham ega bo'lganlar. SHu boisdan bunda ta'lim-tarbiya shahs faoliyatida muhim o'rin tutadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Mamlakatimizda voyaga etmaganlar sodir etayotgan jinoyatlar kamayib bormoqda. Ayniqsa, maktab, litsey va kollejlarda ta'lim olayotganlar orasida jinoyatcxilik kamligi o'quvcxilarining bo'sh vaqtini behuda o'tkazmayotganligidan darak beradi. Bu borada respublikada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilayo'tgan tadbirlar o'z samaralarini berayotganligini ta'kidlash joizdir.

## V BOB. IJTIMOIIY - IQTISODIIY VA SIYOSIIY HAYOT SOTSIIOLOGIIYASI

### 8 – MAVZU. SHAHS, JAMIYAT VA IJTIMOIIY BOSHQARUV SOTSIIOLOGIIYASI

#### 8.1.Sotsiologiyada shahs tushunchasi va uning shakllanish asoslari

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kirishligi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shahs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. SHunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murkkab tuzilmali tizimda aks etadi. **Sotsiologiya shahsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yirindisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi.** «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishiga, shahs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan»<sup>1</sup>.

SHahs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi. SHu jihatdan qaraganda **shahsning o'zi nima?** Bu savolga javob berish uchun, avvalo, «odam», «inson», «individ», «shahs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. **1. Odam tushunchasi.** Odam – barcha jonzodlarning eng yuqori po'fonasida turadigan mavjudot, ijtimoiy jarayonlar sub'ekti. Odam ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo'lishi, mehnat qurollarini yasash va atrof-

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 352–353-betlar.

muhitga faol ta'sir ko'rsata olish bilan boshqa tirik mavjudodlardan farq qiladi. Boshqacha aytganda, odam - fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma mahluqotdan ustun turuvchi jonli zot, kishi, inson. Odam ota, Odam alayhissalom diniy afsonalarga ko'ra er yuzida birinchi yaratilgan erkak. Moma Havoning jufti... Odam – Erdagi tirik organizimlar taraqqiyotining oliy bosqichi, ijtimoiy-tarixiy faoliyat va madaniyat sub'ekti. Odamni antropologiya fani o'rganadi. Odam o'zini-o'zi anglab, insonga aylanishning quyidagi shakllari mavjud:

1) O'z-o'zini his etish, sezish.

2) Idrok etish (fahmlash).

3) Odam muayyan madaniyat va ijtimoiy guruhga o'zi mansubligini anglashi.

4) Odam o'z «men» iga ega bo'lishi («men» uchun namuna kerak).

**2. «Inson» tushunchasi: Inson - o'zini anglagan, jamiyatda yashash qobiliyatiga ega bo'lgan uluf zotdir. Inson atamasi umumiy, hamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo'llaniladi.** Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan, tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayo'tgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi. Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o'ziga o'hshash bo'lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Inson tushunchasi bioijtimoiy-ruhiy mavjudlikni ifodalaydigan tushuncha. Unda insonning **zohiriy va botiniy sifatlari** o'z aksini topadi. Insonning umumiy sifatlari uning konkret holat va murakkab hayot sharoitlari namoyon bo'ladigan xilma-xil kayfiyat, ruhiyat va munosabatlarning yirindisidir. Har bir insondagi alohida bu xususiyatlar betakror, o'ziga xos holatlarda namayon bo'lishi mumkin.

Inson ongi ijodiy xususiyatini aniqlash mezoni quyidagilar tashkil etadi:

1) Ongning muayyan ijtimoiy yonalishi.

2) Voqelikni anglab olish darajasi.

3) Mustaqil fikrlash qobiliyatining holati.

4) Inson tabiatda noyo'b va universaldir (noyo'b qobiliyat sohibi, nozik did, ulufvorlik, yaratuvchi).

5) Inson ichki va tashqi olam mujassamlashgan zot (mehnat, muloqat, badiiy ijod, xulq-atvor).

6) Inson juda ko'p qismlardan tashkil topgan yahlit birlik (tabiiylik, ijtimoiylik, aqillilik, hissiy, ahloqiylik mujassam).

7) Inson tarixiy mavjudot (kelajagini yaratadi, ertangi kunga tashvish bilan qaraydi, chunki inqirozlar, omadsizliklar, ta'qiblar mavjud).

8) Inson mas'uliyat hissidan qochib qutilmaydi (u gumanistik pozitsiya va individuallikni uyfunlashtirish orqali shunday vaziyatdan chiqadi).

Demak, **insoniyat o'ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo, insoniyat o'z holicha mustaqil mavjud bo'lmaydi.**

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. **Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo'lishi «individ» tushunchasi bilan ifodalanadi.**

**3) Individ** (lot. yagona, bo'linmas) - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyo'jlari, manfaatlari va hokazolarning sohibi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, alohida insonning o'ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyo'jlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hokazolar yifindisi ekanligi nazarda tutilib, «individ» tushunchasi qo'llaniladi. Individ «mohir odam» turiga mansub yahlitlikni o'zida gavdalanitirgan alohida insondir. **«Individ» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi.**

«Individ» tushunchasini ayrim olimlar insonning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to'g'ri kelishini bayon etgan. Ikkinchi xil fikrga ko'ra, individ sifatida inson o'zining jismoniy mavjudligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Masalaning bunday qo'yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlari, jinsiy mijozlarining o'ziga xos tomonlari), shuningdek, **inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlardagi tafovutlar belgilamaydi.**

Har qanday inson individi o'ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hamma gap bu salohiyatni qay tarzda ruyo'bgga chiqarishdan iboratdir. Inson rivojlanishining individ bosqichi eng uzoq davom etadigan, izcxillikni taqozo qiladigan davrdir. Bu bosqichda uning asta-sekin shahsga aylanish jarayoni boshlanadi. Individning shahsga aylanishida, boshqacha aytganda, insonning individ bosqichidan shahs bosqichiga o'tish jarayonida sotsiumning u yoki bu darajasida olingan jamoa a'zosi sifatida uning imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari kat'iy tizim shaklida qaror topadi. YA'ni fe'l-atvori shakllandi.

**4. Individuallik tushunchasi. Individuallik** – «Individ» atamasidan yasalgan bo'lib, insonning noyo'b xususiyatlarini ifodalaydigan tushuncha.

**Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda «individ» tushunchasi bilan bir qatorda «shahs» tushunchasi ham qo'llaniladi. «SHahs» bir qator**

**gumanitar fanlarning falsafa, ruhshunoslik, pedagogika va sotsiologiyani o'rganish ob'ekti hisoblanadi.**

5. «SHahs» – odamning ijtimoiy xususiyatlarining yahlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol hatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'sxilishining mahsuli hisoblanadi.

**Falsafa shahsni** faoliyat sub'ekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'rni, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. **Ruhshunoslik - shahsni** ruhiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatleri va boshqa jihatlardan barqaror yahlit holda o'rganadi.

**Sotsiologik yondashuv shahsning sotsial-tipik** jihatini ajratadi. SHahs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shahsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyo'jlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shahs aloqalari, shahs va guruhlar, shahsning sotsial fe'l-atvorini, tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish bilan chambarchas bo'langan. Bu erda, sotsiologiyada shahsni o'rganishga ayrim umumiy tamoyillar nuqtai-nazaridan yondashuv ifodalangan.

**Sotsiologiya shahsga oid ko'pgina nazariyalarni** o'z ichiga olgan bo'lib, ular bir-birlaridan qat'iy metodologik ko'rsatmalar orqali farq qiladilar.

Insonning qaysi jihati shahs tushunchasida nomoyon bo'ladi?

**Insonning ikki xil ehtiyo'ji mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy** - bu barcha biologik ehtiyo'jlar. **Ijtimoiy** - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqalar. SHahs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. SHahs ehtiyo'jlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlar esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shahs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shahs faoliyati motivining oliy darajasidir.

Sotsiologiya tarixida o'zining metodologik qurilmasi jihatidan farq qiluvchi shahs to'frisidagi **nazariyalar** ishlab chiqilgan.

Karl Marks va F. Engel's tomonidan asos solingan **shahs ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'ekti va ob'ekti to'frisidagi nazariyasi**, CH.Kuli, R.Darendorf, R.Milton, R.Mertonlarning **shahs roli nazariyasi** va boshqa shu kabilar.

1. SHahs ijtimoiy faoliyat, munosabat sub'ekti va ob'ekti to'frisidagi **marksistik nazariyada asosiy e'tibor shahs va jamiyatning o'zaro munosabatiga qaratilgan.** Marksistik sotsiologiyada shahsning moddiy

faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi va ongining muayyan xususiyatlarini aks ettiruvchi sub'ektiv jihatlari ko'proq tadqiq qilingan.

2. Amerika sotsiologlari: T.Znanetskiy va CH.Tomaslar asos solgan **shahs ijtimoiy xulqini o'z-o'zini boshqarishining dispozitsion nazariyasida** shahs hayotidagi dunyoqarashlik va qadryatli - normativ omillarga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, shahs ongi uning hayotiy o'rnini belgilaydi. SHahs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, foyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Ko'rinib turibdiki, shahs to'rtinchi dardagi bu nazariyada shahsning sotsiologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

3. Sotsiologiyada Amerikalik D.J.Mid va G.R.Mintonlar tomonidan asos solingan **shahsning roli nazariyasi ham diqqatga** sazovordir. Keyinchalik bu nazariya G.Merton va T.Parsons, Farbiy Germaniya sotsiologi G.Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shahsning ijtimoiy mavqeyi va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko'ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha o'rinni egallashi mumkin. Har bir egallangan o'rin **ijtimoiy mavqe deb ataladi**. SHahs o'z hayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega bo'lishi mumkin. Binobarin, bu o'rinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeyni belgilaydi. Bosh mavqe shahsning egallab turgan mansabi (masalan, direktor, rais, professor kabi) bilan belgilanadi. SHahs ijtimoiy mavqeyi uning tashqi xulqida, tashqi qiyofasida, yurish-turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

SHahsning **ijtimoiy rolb** nazariyasida **belgilangan** va **erisxilgan ijtimoiy mavqelari** o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe – bu shahs hizmati va hatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. SHahsning etnik kelib chiqishi, tufilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar shular jumlasidandir.

**Erisxilgan mavqe deganda**, shahsning o'z hatti-harakati, qabiliyati bilan erishgan mavqeyi tushuniladi. Masalan, yo'zuvchi, firma boshlari, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shahsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqeyi ham o'rganiladi. SHahsning erkak va ayo'l, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqey shahsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - tehnik holati (muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar)ni bildiradi.

**Ijtimoiy mavqe** shahsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. **Ijtimoiy rolb** esa shahsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan sobiq sovet tizimi buyruqboz shahslar tipini shakllantirib qo'ydi. Bunday shahs tipiga «yuqori»ga ko'r-

ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shahs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. SHahs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham ba'zan jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

**SHahs faoliyati deganda**, uning ichki va tashqi tendentsiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shahs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyo'jlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shahsning muhim sifatidir.

**SHahs faolligi deb**, uning hayotini boshqarish bilan, borliq bo'lgan va qadriyatlarining nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shahsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatdagi ehtiyo'jlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. SHu jihatdan shahs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. SHahsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

SHu boisdan ham shahs sotsiologiyasini o'rganish Vatan, halq farzandi, haqiqiy chin insonga xos bo'lgan shahs darajasiga etishini anglab olishimizga yordam beradi. Vatanni sevish, Vatan farzandi bo'lish fururini o'stiradi. Vatan uchun, halqi uchun kerak bo'lsa jonini fido qilishga shay turish – buyuk insoniy fazilatdir. SHahs sotsiologiyasi ana shunday etuk shahslarni etishtirib berishga hizmat qiladi.

**«SHahs» - odamning ijtimoiy xususiyatlarining yahlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol hatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'sxilishining mahsuli hisoblanadi.** SHahs tushunchasi ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatidagi individni ham ifodalaydi.

**«SHahs» tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatini bildiradigan ijtimoiy-ruhiy sifatlarining ichki muayyan yahlitligi ifodalanadi.** SHahs bo'lish degani, birinchi navbatda, o'zining ichki qadriyatlar dunyosini shakllantirishni, tevarak-atrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarni anglash, uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatli-tanqidiy munosabatga ega bo'lishni bildiradi.

Insonning shahs sifatidagi qadriyati uning o'zligidan, fiziologik mavjudligidan ajratib olingan tarzda mavjud emas. SHu bilan birga, aytish mumkinki, istagan inson shahs bo'lolmaydi, lekin har qanday shahs - insondir. U tashqi muhitga faqat biologik moslashuv natijasi sifatida



shakllana olmaydi. Balki sotsiumda, aniqrofi, uning turli darajalarida qaror topadi va unga ma'lum darajada bo'riq bo'ladi. YA'ni shahsning kelib chiqishi va uning imkoniyatlarining ro'yo'nga chiqishi kixilik jamiyati tomonidan ta'minlanadi. Demak, shahsda insonning jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. SHunga ko'ra, sotsiumning turli darajalarini o'rganadigan barcha fanlar doirasiga shahs masalasi ham kiradi. Hususan, inson tanasi tuzilishi va faoliyatini o'rganadigan biologiya va boshqa fanlardan farqli o'laroq, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik, ta'limshunoslik kabi qator fanlar shahs masalasini o'rganishga ehtiyo'j sezadi.

Muayyan ma'noda shahs yahlit sotsiumning ajralmas bo'lagidir. Unda dastavval kixilar o'rtasidagi mavjud munosabatlar jamuljam bo'ladi. Lekin bu o'inda shahs bilan sotsium aynanligi to'risida gapirishga asos yo'q. Ibtidoiy tuzumning sodda jamoacxiligi inqirozga yuz tutishi tufayli kixilar bir-biridan «ichki» dunyosi va manfaatlari bilan o'zaro farqlanib, shahs bosqichiga ko'tarilib boradilar. Buning natijasida esa shahs bilan sotsium manfaatlari nisbati masalasi kun tartibiga qo'yiladi.

SHahsning sotsium bilan munosabatlari o'ziga xos jihatlariga ega. SHahsning o'zligi, dastavval, uning muayyan darajadagi mustaqilligidir. U shu holati bilan sotsium hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi. Albatta, gap bu borada ko'proq etuk shahs to'risida boradi. Lekin yangi tufilgan insonning shahs bo'lish imkoniyati faqat sotsiumda vujudga keladi. Demak, shahsni sotsiumning turli darajalaridagi tashkiliy sifatlari voyaga etkazadi<sup>1</sup>.

Inson bilan sotsium aloqadorligi jihatidan uning shahs sifatlari shakllanishini aniqlab olish muhim. SHahs shakllanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi va konkret shahs boshqa oddiy insondan nimasi bilan farqlanadi,- degan savol qo'yilsa, unga javob berish hiyla qiyin. Negaki, shahs shakllanishida juda ko'p omillar ishtirok etadi. Ularning ichida ijtimoiy muhit katta mavqega ega.

Individ sifatida namoyon bo'lgan mavjudot ijtimoiy muhit ta'sirida shahs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o'zaro munosabati uni ma'lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlardir. Bu munosabatni amalga oshirishda muloqat asosiy ro'ly o'ynaydi, sotsial guruhlar orqali amalga oshadi. CHunki muloqat shahsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashida uning shu sistemadagi o'zining maqomiga ega bo'lishida, faoliyat jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida hizmat qiladi,<sup>2</sup> SHu bilan birga

<sup>1</sup> Jo'raev N., Azizov SH. Ijtimoiyat asoslari. -T.: «Ma'rifat-madadkor», 2003. -62-63-b.

<sup>2</sup> Umumiy sotsiologiya. Toshkent: ToshDU, 1999, 42-bet.

shahs muloqot orqali o'zining shahs sifatida shakllanganligini va boshqa shahslarning ijtimoiy muhitining haqiqiy sub'ekti yoki uning ijrochisi sifatida shakllangani to'g'risida tushunchaga ega bulishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHu sababli shahs jamiyatdagi barcha munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik harakterini belgilashda asos bo'lib hizmat qiladi.

Demak, shahs kishining hayot kechirish sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta'sirida faoliyat jarayonida shakllanadi. SHahsning shakllanishida guruhlar va jamoalar etakchi rolb o'ynaydi.

Umuman, shahs - **o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shahsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan sub'ekt**. Bu belgi va sifatl muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. SHahs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. **«SHahs – barcha ijtimoiy munosabatlarning yirindisidir»**. Jamiyatdan tashqaridagi shahs norealdir. **SHahsning shakllanishida:**

1) SHahsning rivojlanish davri va uning natijasi.

2) SHahsni maqsadga yonaltirilgan tarzda tarbiyalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

SHahsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyo'jlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko'rsatayo'gan ta'sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

**Birinchi**, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali ahborot almashinuvi.

**Ikkinchi**, mamalakat va mintaqa miqyo'sidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi.

**Uchinchi**, insonni avval boshidan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko'cha va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, **inson shahsning shakllanishidagi birinchi bosqich – oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo'rinidir**. Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oshirib boradi. **Maktab, turli ijtimoiy guruhlar** (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) **bilan muloqat davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shahs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi**.

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda Erda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Ho'mo sapiyns) vakilini ifodolovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yiriq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'biri bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zini-o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshqalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat, moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini huddi predmetdek hisoblashi – oddiy o'zini o'zi anglashdan farq qilib, u haqiqatda narsa (buyuk) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi»<sup>1</sup>.

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shahs bo'la oladigan kishini tarbiya qilib etishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligi shahs sotsiologiyasida o'rganiladi.

**Hozirgi davrda jamiyatimizda shahsning quyidagi belgilari mavjud:**

**1. Birinchi grupp shahs belgisi:** jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bo'liq (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi ho'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsad sari intilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, aktiv hayotiy pozitsiya va boshqa).

**2. Ikkiichi grupp shahs belgisi:** uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan harakterlanadi (Mehnat qilish, so'z bilan ish birligi, bilim olishga intilish, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqa).

**3. Uchinchi grupp shahs belgisi:** uning boshqa kishilarga bo'lgan munosabati bilan bo'liq (Kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, tufrilik, ahloqiylik).

**SHahsning asosiy hislatlari, bular:**

- onglilik;
- ma'naviy boylik;
- ijtimoiy munosabatlar;
- jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik;
- javobgarlik.

**Insonning ijtimoiy sifatlarini belgilovchi omillar:**

---

<sup>1</sup> Gegel G.V. Filosofiya prava. Moskva, «Мысль», 1990, s.113.

### **1) ijtimoiy maqsadi:**

- a) egallab turgan maqomi;
- b) bajarayo'tan ijtimoiy roli;
- v) normalar va qadriyatlar:
  - madaniyat;
  - inson foydalanadigan belgilar tizimi;
  - bilimlar;
  - bilim va maxsus tayyorgarlik darajasi;
  - ijtimoiy-psihologik o'ziga xosliklar;
  - echimni qabul qiladigan mustaqillik;
  - faollik.

Bugungi kunda, ayniqsa Prezidentimiz Islom Karimov 2000 yil Oliy Majlis 2-chaqiriq 1-sessiyasining 2-yirilishida (11 fevraldagi) rahbar kadrlar quyidagi hislatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlagan edi<sup>1</sup>:

#### **1. SHahsiy hislatlar:**

- 1) ijtimoiy manfatlarni o'z shahsiy manfaatidan yuqori qo'yishi;
- 2) adolatlilik;
- 3) o'z qo'l ostidagilarga hurmat bilan qarash;
- 4) mehnat jamoasida qulay psihologik munosabatni vujudga keltirish;
- 5) odamlar bilan osonlikcha til topisha bilish;
- 6) umumiy madaniyat saviyasining yuksakligi;
- 7) bosiq bo'lish;
- 8) o'ziga ishonch va hokazo.

#### **2. Amaliy hislati:**

- 1) fikrining tiniqligi;
- 2) yangilikni qabul qila bilish;
- 3) tashabbuskorlik qobiliyati;
- 4) tashkilotcxiligi;
- 5) o'z so'zi ustidan chiqa bilish;
- 6) puhtaligi va hokazo.

#### **3. Professional hislati:**

- 1) ishlab chiqarishni bilish;
- 2) kadrlarga e'tibor;
- 3) o'z malakasini oshirish;
- 4) ishbilarmonlik va hokazo;

Jamiyat va individning integratsiyalashuv jarayoni va ijtimoiy birliklarining turli tiplari ham mavjud bo'lib, bular:

- 1) guruh;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: «O'zbekiston», 2000, 358–361-betlar.

- 2) ijtimoiy institutlar;
- 3) ijtimoiy tashkilotlar va boshqalardan iborat.

SHahsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. SHu sababli **shahsning sotsial sifatlari 3 ta kichik tizimdan iboratdir:**

1. SHahsning individualligi.
2. SHahslararo munosabatlari.
3. Munosabatlar sub'ekti.

1. **SHahsning individualligi** undagi harakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

2. **SHahsning shahslararo munosabati**, avvalo shu munosabatlar sistemasi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. SHahslararo munosabat shahs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida hizmat qiladi, shu sababli shahsning shahslararo munosabatlar shahsda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylik kabi hislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

3. **Munosabatlar sub'ekti**. SHahsning ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlardagi sub'ekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

SHahs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababi hamdir. Har bir shahsning sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va harakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofdagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shahsning ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqelikka shahsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. SHahsnig sotsial xususiyati kishining faoliyati, hatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rinadi. SHahsning sotsial sifatlarini tashkil etuvchi elementlarga (shahs sotsial maqsadi):

- o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- foydalanadigan belgilar tizimi;
- o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

SHahs sotsiologiyasida shahs manfaati alohida o'ringa ega. **SHahs manfaati** – bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyo'jini qondirish bilan bo'liq yonalganligidir. Manfaatlar asosida kishilarning ehtiyo'jlari yo'tadi.

Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyo'jini anglashda muhim rol o'ynaydi. Manfaatning 4 turi mavjud:

1. **Munosabat manfaati:** - shahs faoliyatida u yoki bu ob'ektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaati 2 ko'rinishda kechadi: a) asosiy munosabat manfaati - bu shahsning hayotida maqsad va vazifasini, harakatlarini o'z ichiga oladi; b) yordamchi yoki ikkinchi darajali munosabat manfaatdir. Bu shahs faoliyatining maqsad va vazifalaridan tashqari uning boshqa voqelikka qiziqishini bildiradi.

2. **Harakat manfaati:** - shahsning u yoki bu faoliyatida qatnashishida ko'rinadi. Aktiv yo' passivligini bildiradi. Harakat manfaati: a) maqsadli va b) maqsadsiz bo'lishi mumkin (boshlanmish faoliyati bilan cheklanib qolgan, tor doiradagi harakat).

3. **Tayanch manfati:** - shahsning boshqa shahslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuvda shakllangan va turli vaziyatlarda o'z yonalishini saqlab qolgan manfaatdir. SHahslararo va guruhlararo munosabatlarda shakllanadi.

4. **Yonalish manfaati:** - bu yonalish manfaatlar ichida juda murakkab bo'lib, u shahs manfaatlaridan birini tanlashi bilan bogliq.

Demak, shahsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bogliq. SHahsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ijtimoiy siyosiy tuzum.
- 2) Tarbiya va maorif tizimi.
- 3) Turmush.
- 4) Mehnat faoliyati.
- 5) Ijtimoiy faoliyat.
- 6) Oila va boshqalardir.

## **8.2. SHahs ijtimoiylashuvining ikki fazasi, ijtimoiy faoliyat hamda o'z-o'zini anglash holati**

SHahs shakllanishida uni o'rab turgan muhit va u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar hamda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning ham ahamiyati kattadir. Bunday hodisani fanda insonning ijtimoiylashuvi yoki sotsializatsiya yo'li bilan shahsga o'tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko'pgina qarashlar mavjud.

**Ijtimoiylashuv umumiy ma'noda insonning bio va ruhiy ehtiyo'jlariga maqsadga muvofiq, oqilona ta'sir o'tkazishdir. Buning**

**oqibatida inson shahsi qaror topishining ikkinchi tomoni – uning sub’ektiv «MEN»i ham shakllanadi. SHahsning «MEN»i ota-onalari, qarindosh-urufalar, tanish-bilishlar, mahalla-ko’y va boshqalardan o’zlashtiradigan sifatlardir.** Bu sifatlar aniq olingan joyi va vaqtiga ko’ra ijobiy yoki salbiy shahsiy xususiyatlar tarzida shakllanishi mumkin. Ijobiy holatda shahsda o’zi to’rarisida odillik, epcxillik, qobiliyatlilik, uddaburonlik kabi tasavvurlar turilsa, salbiy holatda uning layo’qatsizligi, noshudligi, zaifligi kabi xususiyatlari qaror topishi mumkin. Albatta, bu xususiyatlar inson sub’ektivning o’z «MEN»i to’rarisidagi fikrlaridir. Ularning voqelikka muvofiq kelishi, ya’ni haqiqiymi yoki yo’qligi masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Sub’ektiv «MEN» yuzaga kelishi bilan nisbiy mustaqillik tarzini oladi va shahs sifatida o’zini ko’rsata boshlaydi. SHu bilan birga shahs «MEN»i doirasida uning ikkinchi jihati-boshqalarning bu «MEN»ga bo’lgan munosabatiga javoblari masalasi ko’zga tashlanadi. «MEN»ning bu jihati o’zga harakatlari, fikr-o’y, siyosiy mavqey, turmush tamoyillari va hokazolar to’rarisida jamoatchilik fikrlarini hisobga olish yoki olmaslik bilan bo’liq holatlar ifodalanadi.

**O’zga «MEN» quyidagi holatlardan tashkil topadi. Bular-boshqalarning aynan shu shahs to’rarisidagi qarashlari asosidagi fikrlar. Ayni shu shahsning hatti-harakati va faoliyatini boshqalar tomonidan baholash bilan bo’liq omillar; boshqalarning qarashlari va bergan baholariga javoban qoniqish, furur, o’ziga ishonchining kuchayishi, o’zini bekamu ko’st deb hisoblash, uyalish, afsuslanish, ehtiyo’tkorlikka moyillik kabi holatlardir.** SHahsning ob’ektiv «MEN»i bilan uning to’g’risidagi «o’zga MEN» bir-birini to’ldirgandagina insonning ijtimoiy tabiati haqidagi fikrlar ham to’laroq bo’ladi.

- Jamiyat va shahs maqsadlari orasidagi bo’lovchi u yoki bu sotsial tizim bo’lishi mumkin. Demak:

**SHahsning ijtimoiylashuvi deb,** shahsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarini o’zlashtirish orqali sodir bo’ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi)ga aytiladi. SHahsning (individning) sotsial tashkilot elementi bo’lishi 2 muhim jihatga bo’liq: 1) sotsial tashkilotning shahsga ta’sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shahsning boshqa odamlar ta’siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bo’liq.

**SHahs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:**

1. **Sotsial adaptatsiya (moslashish).** Bunda individning sotsial sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya’ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya

jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shahsning ijtimoiylashuvida o'z aksini topadi. SHu boisdan individning shahs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

**2. Sotsial interiorizatsiya**, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarining individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. SHahs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, Ko'pgina nazariyalarda shahsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shahsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o'zi va ham ijtimoiy hayotining hamda sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. SHahs sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'ektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat kursatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Individ faoliyat qiluvchi mavjudotdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham inson sifatidagi o'zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarni anglaydi va anglash asosida o'zining sotsial faoliyatini belgilaydi. SHahs tomonidan o'z faoliyatini boshqarish faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

SHahslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlanish nuqtasi ma'lum ehtiyo'j va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'p, lekin eng muhimi ularning barchasi shahsning moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyo'jlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyo'jlar shahsning tashqi muhitga ob'ektiv bo'rligini bildiradi. SHu sababli shahsning amaliy faoliyat ehtiyo'jlarni qondirish shakli sifatida qaralishi ob'ektiv sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

**Ehtiyo'jlarning 2 ko'rinishi mavjud:** 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyo'jlar.

**1) Tabiiy ehtiyo'jlar** sifatida kishilarning kundalik ehtiyo'jlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

**2) Sotsial ehtiyo'jlar** esa odamning mehnat qilish ehtiyo'ji, sotsial aktivligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayot mahsuli shunga bo'lgan ehtiyo'jdir. Tabiiy ehtiyo'jlar asos bo'lib, ularda sotsial ehtiyo'jlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.



SHahsning ijtimoiylashuv davri quyidagilar asosida kechadi:

**1) Bolalik:**

- agentlar va ijtimoiylashuv turlari.

**2) Ota-onalik:**

- otalar va bolalar: ikki dunyo;

- «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibliği.

**3) O'spirinlik:**

- qadriyatlar parallel tizimi.

**4) Balorat yoshi:**

- voyaga etgan inson maqomining asosiy mezoilari;

- voyaga etganlar - shahs ijtimoiylashuvining faol payti.

**5) Keksalik:**

- ijtimoiylashuv ushbu davri maqomi va muammolar.

Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy fe'l-atvor mehanizmlari:

1) Faoliyat turlari.

2) Ehtiyo'jlar:

- tabiiy ehtiyo'jlar;

- biologik ehtiyo'jlar;

- ijtimoiy ehtiyo'jlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mehanizmlar:

- ehtiyo'jlar;

- qadriyatlar;

- manfaatlar va ularning o'zaro ta'siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanktsiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O'z-o'zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo'lmagan) fe'l-atvor.

11) Delinkvent (jinoiy) fe'l-atvor.

12) SHahsning muhim ijtimoiy-psihologik hislati - o'z-o'zini anglash kabilardir.

Umuman, ijtimoiy muhit ta'siri ostida shahsning shakllanish jarayonini tasvirlash uchun «ijtimoiylashuv» tushunchasi XIX asr ohirida - paydo bo'ldi. Ijtimoiylashuv deganda, shahsning o'z hayoti mobaynida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. «Ijtimoiylashuv» tushunchasi «shahsni tarbiyalash», «shahsni shakllantirish» tushunchalari

bilan chambas boʻliq, biroq u kengpoʻq tushuncha boʻlib, insonga barcha mumkin boʻlgan taʼsirlarni qamrab olishga imkon beradi.

Siyosiy ijtimoiylashuv individ tomonidan oʻzining siyosatga qoʻsxiluvini taʼminlovchi siyosiy bilimlarni, qadriyatlarni, meʼyorlarni, qoidalarni, hatti-harakat odobini oʻzlashtirish jarayonidan iboratdir.

XX asr 90-yillarning boshlarida siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga hokimiyat muassasalariga ishonchning yoʻqolishi, ularni siyosatda shahsan qatnashishni istamaslik, buzfuncxilik, siyosiy norozilikning qoʻporuvcxilik usullari katta taʼsir koʻrsatib keldi. Rasmiy siyosat koʻpincha koʻpcxilik kishilar uchun maʼnaviy tayanch boʻlmay qolgan edi.

Turmush tarzidagi, ijtimoiy muhitdagi oʻzgarishlar shahs mavqeyni ancha murakkablashtirdi. Iqtisodiy jarayon harakterida jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi. YAngi texnologiyalarning joriy qilinishi jiddiy oʻzgarishlarga olib kela boshladi. Oʻtmishda siyosiy ijtimoiylashuv ikki tamoyil qarama-qarsxiligi asosida kechdi:

1) SHahsning ijtimoiy rivojlanishiga, uning siyosatda faol qatnashishiga jiddiy ijtimoiy ehtiyoʻj borligi maʼlum boʻldi.

2) Ikkinchi tomondan inson hokimiyatdan, uning tashkilotlaridan siyosiy begonalashuvga olib kelgan edi.

#### **Begonalashuv turlari:**

**1. Iqtisodiy begonalashuv:** a) faoliyatdan begonalashuv; b) faoliyat boshqaruvdan begonlashuv; v) faoliyat natijalaridan begonlashuv.

**2. Siyosiy begonalashuv:** siyosiy hokimiyatdan begonlashuv.

**3. Madaniy begonalashuv:** maʼnaviyatdan, madaniyatdan begonlashuv.

**4. Ijtimoiy begonalashuv:** muloqotdan, insonlarning bir-biridan begonlashuvi.

**5. Ruhiy begonalashuv:** oʻz-oʻzidan begonlashuv, oʻz mohiyatidan uzoqlashuv.

SHahsni siyosatga tortish mehanizmi murakkab va koʻp bosqichlidir. Siyosiy ijtimoiylashuv davrida shahsga ham anglasxilgan, ham tashqi muhitning tabiiy taʼsiri boʻladi.

SHahsning dastlabki ijtimoiylashuvi uning kelib chiqishi bilan boʻliq. Inson ongiga oila katta taʼsir koʻrsatadi. Mashfulot turi, turmush darajasi, maʼlumoti, siyosiy yonalishi kabi omillar taʼsir qiladi.

Siyosiy ongni qayta qurish koʻpincha ilgari qoidalarni oʻzgartirish natijasida yuz beradi. Siyosiy ong shakllanishida:

Siyosiy madaniyat oʻsishi:

- turli, siyosiy tashkilotlar faoliyati;
- ommaviy ahborot voistalari;

- norasmiy guruhlar;
- korhona jamoatlari;
- uyda yashovchilar;
- siyosiy partiyalar;
- kasaba uyushmalari;
- yoshlar tashkilotlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy ijtimoiylashuvda mafkura katta rol o'ynaydi. SHahs siyosiy ijtimoiylashuvda siyosiy ong tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ehtiyojlar va ijtimoiy kuzatishlar tizimini shakllantirish;
- o'z ijtimoiy guruhini tenglashtirish;
- o'z manfaatlarini anglash;
- siyosiy faoliyat imkoniyatlariga baho berish;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va dasturlar tizimini qabul kiladi.

**O'z-o'zini anglash:** o'z-o'zini anglashda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahloqiy va madaniy muhitning ta'siri katta. O'z-o'zini anglash millatlar uchun siyosiy onglilikning oshishigina emas, shu millat birga milliy mustaqillik va milliy ozodlik hamdir. O'z-o'zini anglash jahon tarixida ozodlik harakatlarining kuchayishiga, sotsializm va imperializning emirilishiga, parchalanishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Frantsiya, sobiq SSSR kabi imperiya davlatlari o'z mustamlakalaridan mahrum bo'ldi. O'zbek millatining o'z-o'zini anglashi moddiy kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tibori, ornomusi tiklanishiga olib keldi. O'z-o'zini anglash millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdir. Mustaqillik sharoitida o'zbek halqning o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida shahsning huquq va erkinliklari (24-31 -modda) o'z ifodasini topdi: 1) siyosiy huquqlar; 2) iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; 3) inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanishi; 4) fuqarolar burchlari o'z ifodasini topgan.

### 8.3. Jamiyat va davlatning sotsial mohiyati

**Jamiyat** - kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimiz sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funktsional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

CHunki o'z vaqtida keyingi oqibati o'ylanmagan, oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlar qoldiradi.

Sotsiologiya tarixda **jamiyat** – o'z ijtimoiy ehtiyo'jlarini qondiruvchi kixilar birligi sifatida tushunilgan. SHu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birligina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya jamiyat to'frisidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi va funktsional qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni o'rganuvchi fan hamdir. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shahs kixilarning ijtimoiy xulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. **Jamiyat – bu kixilar birgalikdagi faoliyatining tashkiliy shakllari turli darajalaridan iboratdir.** Bu faoliyat doirasida turli-tuman jamiyat va uning a'zolari, ularga mansub bo'lgan birliklarning har biri uchun umumiy bo'lgan ehtiyo'jlari qondiriladi. Aniqroq qilib aytganda, **jamiyat – bu o'z-o'zicha etarlilik bo'lib, o'z a'zolari turmush sharoiti uchun barcha zarur jarayonlarni yo'lga qo'yadi, amalga oshiradi.** Bu «o'z-o'zicha etarlilik»ni jamiyat bilan uning bir qismi bo'lgan siyosiy partiya nisbatini aniqlash misolida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, Hitoy Halq Respublikasidagi hukumron partiyaning a'zolari soni allaqchon 100 million kishidan oshib ketgan. Lekin bu partiya jamiyat ichida mavjud. Umumiy soni mingdan ham ko'p bo'lmagan yo'vvoyilar qabilasi haqiqiy, to'laqonli jamiyat bo'la oladi. Gap shundaki, etnos tarixan birinchi o'z-o'zicha etarli ishtimoiy guruh bo'lgan. Etnos a'zolari birgalikdagi hatti-harakatlari bilan zarur hayot sharoitlarini yaratadilar.

So'z turkumlaridan ot bo'lgan «sotsium» va «jamiyat» so'zdaridan «sotsial» va «ijtimoiy» sifatlari yasaladi. Binobarin ularni sinonim sifatida ishlatish to'fri bo'lmaydi. CHunki bu tushunchalar anglatadigan ma'nolar, garchand yaqin bo'lsada, lekin aynan emas. «Sotsium» tushunchasi «jamiyat» tushunchasidan keng. «Jamiyat» tushunchasi «sotsium» ifodalaydigan voqelikni konkretlashtirib aks ettiradi, uning mavjudlik usulini ko'rsatadi. YUqorida aytilganidek, «jamiyat» tushunchasida sotsiumni tashkil etgan birliklarning turli darajalardagi ifodasi aks etadi. Ushbu hol ot va sifati ko'rinishidagi «jamiyat», «ijtimoiy» so'zlarni aniq ishlatish, o'rnida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

«**Jamoa**» va «**jamiyat**» atamallari anglatgan ma'nolariga ko'ra yaqindir. Har ikki so'z arabcha «jam'a»dan yasalgan bo'lib, kixilarning turli darajada va maqomda olingan umumiyligini anglatadi. Agar «jamiyat» deyilganda keng ma'noda oldingi paragraflarda ko'rsatib o'tilganidek, kixilarning birgalikdagi manfaatlari va kelishuvi asosida,

maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilgan, birgalikdagi faoliyati ifodasi tushunilsa, «**jamo**a» tushunchasida umumiy kelib chiqish, til, taqdir va qarashlar bilan boshqilik o'z aksini topadi. Oila, halq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Har qanday jamoa ham jamiyat bo'lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat murakkab jamoa bo'lib, o'z-o'zidan mavjudlik va rivojlanish xususiyatlariga egadir.

Hozircha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish, asosan, ikki yonalishda rivojlanib keldi. Birinchi yonalish O.Kontdan frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan amerikalik sotsiolog T.Parsonslarning sotsiologik ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu yonalishda ijtimoiy tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan. Ikkinchi yonalish: marksistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi rolga asosiy e'tibor qaratilgan. Har ikki ta'limot ham jamiyat hayotida muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirib keldi. Sotsiologik amaliyo't funktsional o'zgarishlarsiz, evolyutsiyasiz, revolyutsiya tushunchasi bilan, funktsional munosabatlar tahlilisiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi bu ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelganligini davr ko'rsatmoqda.

Burjua sotsiologiyasi nomi bilan atalgan xarab sotsiologik ta'limotida ham o'ziga xos ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarni hisobga olmaslik ham jamiyatni bir tomonlama tushuntirishni bildiradi. «Jamiyat hayotining industrlashuvi ob'ektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizimlar bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy ierarhiyaning bir xil (yagona) tipiga olib boradi» - degan amerika sotsiologlarining fikri hozircha tarixiy rivojlanish amaliyo'tida tasdiqlanmoqda. **Ijtimoiy tizim** - o'zaro bo'langan individlar, ijtimoiy guruhlar va institutlarni o'z ichiga oluvchi, murakkab tashkil bo'lgan va tartiblangan ijtimoiy yahlitlik. Alohida shahs ham uning tashqi dunyo bilan munosabatlarining serqirraligi va o'z-o'ini tashkil qilishining yahlitligi nuqtai nazaridan ijtimoiy tizim hisoblanishi mumkin. Ijtimoiy tizim - murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim tarkibiy tizimlar, masalan, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va boshqa shu kabi sohalarida to alohida olingan insongacha bo'lgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Avvallo, biz jamiyatni sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha o'rganamiz:

1. Jamiyat tuzulishi va tarkibi o'rganiladi. (Jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansub).

2. Jamiyatda yashayotgan kishilarning hatti-harakatlari nimalardan iborat (ularning o'zaro munosabatlaridagi harakterlari).

3. Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tishi bilan o'zgaradi.

Jamiyatni to'liq tushinish uchun faqat uning tuzilishi va rivojlanishini o'rganishgina emas, balki uning o'tmishini, tarixini ham sinchiklab o'rganish, bu jamiyatning qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilmoq jamiyatni to'liq tushunishga imkon yaratadi. Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Jamiyat elementlari:

- ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega;
- o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettiradi;
- individual sifatlarga (shahs ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlari yonalishi, shahs motivlari) shulardandir.

Jamiyat har bir sohasi ishlab chiqarish tarakqiyotida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy munosabatlar - moddiy ishlab chiqarish funktsiyasi;
- ijtimoiy munosabatlar - ijtimoilashuvini – sotsializatsiya;
- siyosiy munosabatlar - ijtimoiy boshqaruvni (eleientar nazorati);
- mafkuraviy munosabatlar - ma'naviy ishlab chiqarish funktsiyasi va boshqalardir.

Ijtimoiy struktura - jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar ikki xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal' munosabatlar.
2. Ijtimoiy munosabatlar.

1. **Sotsietal' munosabatlar** sistemasiga: jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsietal' sistemasida ierarhik qaramlik mavjud. YA'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, sotsietal' munosabatlar sistemasi tuzilishi:

1) **iqtisodiy:** (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har birin individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

2) **ijtimoiy:** a) ijtimoiy munosabatlar asosiy elementi ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar, professional, demografik,

hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi (kisxilar jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

3) **siyosiy**;

4) **mafkuraviy**.

2. **Ijtimoiy munosabatlar**: («ijtimoiy» sistema elementi –kisxilar).

**Ijtimoiy munosabatlar** - kisxilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kisxilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm qilib bo'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvacxilik paydo bo'lishi, dehkonzilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bo'liq. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik. Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatlari bilan jamiyat tarakqiyotiga ijobiy ham salbiy ta'sir etadi.

**Ijobiy munosabatlar ta'siri**: hamfikrlilik, kooperatsiya, kurash.

**Salbiy ta'sirli munosabatlar**: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar sistemasida plyuralizm katta ahamiyatga ega. Plyuralizm kontseptsiyasiga ko'ra borliq asosini bir necha yoki juda ko'p bir-biri bilan bo'flanmagan substantsiyalar tashkil etadi. Plyuralizm nemis filosofi Volf tomonidan kiritilgan.

**Substantsiya** (lot. mohiyat) narsa va hodisalarning asosini tashkil etuvchi omil. Substantsiyaning ham materialistik ham idealistik qarashlari bor.

Ijtimoiy munosabatlar ikki turga bo'linadi:

1. **Moddiy munosabatlar**.

2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

**Moddiy munosabatlar** – inson hayoti moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyo'jini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turar-joy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyo'jini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Huddi shuningdek, oila ham, guruhlar ham, holi davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

**Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar** - siyosiy, huquqiy, ahloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

**Madaniy munosabatlar** ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bo'liqlik:

- 1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bo'liqlik;
- 2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalr o'rtasidagi hayotiy bo'liqlik;
- 3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bo'liqligi mavjud.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisodiy institutlar;
- 2) siyosiy institutlar;
- 3) nikoh oila va qon-qarindoshlik;
- 4) tarbiya institutlari;
- 5) madaniyat sohasi institutlari.

**Ijtimoiy mavqe** (status) tushunchasi biz oldin bayon etganimizdek, alohida olingan inson yoki ijtimoiy guruhlarining jamiyatda, mavjud ijtimoiy tizimda tutgan, egallab turgan mavqeyni ifodalaydi. Bu tushuncha orqali kixilar ijtimoiy kelib chiqishi, irqi yoki o'zining harakati (ma'lumoti, ko'rsatgan hizmati) orqali erishgan darajasi o'rganiladi.

**Ijtimoiy sanksiya** (sanksiya - lot. qat'iy qaror ma'nosini bil.) - deb ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy normadan ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga nisbatan reaksiyasi tushuniladi. Ijtimoiy sanksiya jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, shahsning ijobiy hatti-harakati uchun ra'batlantirish yoki yo'mon salbiy hatti-harakati uchun jazo belgilash bilan ijtimoiy nazorat vositasi bo'lib hizmat qiladi. Ijtimoiy sanksiya turlari:

- 1) Jismoniy sanksiya: kaltaklash, ozodlikdan mahrum etish, o'lim jazosi yoki umrbod qamoq va boshqalar.
- 2) Iqtisodiy sanksiya: mukofotlash, moddiy ra'batlantirish, jarima solish va boshqalar.
- 3) Ramziy sanksiya: hurmat bildirish, izza qilish, hayfsan berish.

Ijtimoiy munosabatlar asosini yana ijtimoiy ro'lb tashkil etadi.

**Ijtimoiy ro'lb:** jamiyat ijtimoiy tarkibida bo'lovchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy ro'lb, oldingi masalada ta'kidlaganimizdek, jamiyat ijtimoiy tarkibida-psihologik jihatlarni o'zida mujassam etgan.

**Sotsiologiyada** jamiyatning quyidagi **yonalishlari** mavjud:

1. **Mehanik yonalish** (maktabi) - (XIX asrda paydo bo'ldi, sotsial harakatni biologik harakat shaklida tushunadi, olamni mehanik talqin qiladi).

2. **Organik yonalish** (maktabi) - (XIX asr ohiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan, jamiyatni organizmga tenglashtirgan va ijtimoiy hayotni



biologik qonuniyatlar bilan tushuntirishga urinadi, jamiyat organizm bilan bir, deydi).

3. **Kulbturologik yonalish** (maktabi) - qadriyatlar madaniyatni vujudga keltiradi, deb talqin qiladi.

**Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:**

1. **Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati** – (Ko'proq Farbda: Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. **Iste'mol qilish jamiyati** (AKSHda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan harakterlanadi).

3. **Ochiq va yo'piq jamiyat. Ochiq jamiyat** - demokratik jamiyat bo'lib tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. **YO'piq jamiyat** – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehri (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan harakterlanadi.

Bugungi kunda tsivilizatsion nuqtai nazaridan jamiyatlarni qo'yidagi turlarga ajratish mumkin:

1. **An'anaviy jamiyatda** erga bo'lgan mulkcxilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvcxilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. CHunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ihtisoslashuvi, shahslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urufcxilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan borliqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyo'zsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shahsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

2. **Industrial (sanoat) jamiyati.** (XX asr 50-60-yillarida yuzaga keldi. Bu kontseptsiyaga o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'frisidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

Industrial jamiyat ta'limotiga ko'ra jamiyat turi: tehnikaviy, industrial-rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat tipini sinfiy strukturadan ajratib olib qaraydi. «Industrial» jamiyat ikki bosqichda kechadi:

1) «Industrial» sanoat jamiyati.

2) «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi.

**Industrial jamiyatda** mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati

o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutahassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Ho'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real bo'liq iqtisodga qaratilgan bo'ladi. Natijada erkin halqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'sxila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

**3. Postindustrial jamiyat.** U uch bosqichda yuzaga keladi:

- 1) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr;
- 2) industrial sanoat jamiyati davri;
- 3) postindustrial jamiyat davri.

**Postindustrial jamiyati ta'limotiga ko'ra** davlat - monopolistik kapitalizm o'rnini bosadi. Hizmat ko'rsatish sohasida fan va maorifga e'tibor beradi. Olim, mutahassis roliga yuksak baho ko'rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Jamiyatni boshqarish olimlar va mutahassislari qo'lga o'tishi tarafdori. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e'tirof etadi.

**Postindustrial jamiyatda** intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqadi. XX asr o'rtalaridan qator Farb davlatlari jamiyatning uchinchi bosqich – postindustrial jamiyatga o'ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan «informatsion» jamiyat, inson bilimi va informatsiya zahiralari ko'ra jamiyatning asosiy manbai bo'lib qoladi. Zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bular ommaviy ahborotlarni vujudga keltiradi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida ho'jalik tizimi tubdan o'zgaradi. Tabiat manbalaridan, ishlab chiqarish, metallurgiya, qishloq ho'jaligi qisqaradi, mashina ko'lami kengayadi, aholi deyarli 50 foiz shu sohani tashkil etadi. Postindustrial jamiyat-maishiy hizmat qilish jamiyati deb yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sururta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida hizmatlar (fan, ta'lim va boshqa) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi. Qishloqqa sanoat kirib boradi va vokalizatsiyalanadi.

Teylor fikriga ko'ra, intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini bilim va iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **an'anaviy jamiyatda** iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qilingan bo'lsa, **industrial jamiyatda inson** tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi. SHu boisdan **bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir**. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. Hozirgi iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda. Intellektual salohiyat asosiy o'ringa chiqa boradi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. U jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chukurlashuvi – uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarni qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirish rasmiy tizimining yaratilishi, dinning davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ladi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kisxilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Fuqarolik jamiyati foyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayo'llarni bir-biri bilan bo'rlab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu foya XX asr 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilindi.

Fuqarolik jamiyati shahs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shahs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulufvorligini yuksaklikka ko'taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to'frisidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda **fuqarolik jamiyati** bu:

**birinchidan**, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ihtiyoriy ravishda shakllangan, boshlanfich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

**ikkinchidan**, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, ahloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shahsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

**uchinchidan**, erkin individlar, ihtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari tazyiqlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

SHu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

**Iqtisodiy sohada:** nodavlat tashkilotlar; kooperativ shirkatlar; ijara jamoalari; aktsiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporatsiyalarning mavjudligi.

**Ijtimoiy sohada:** oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy ahborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy shakllari, ijtimoiy ihtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyo'tining mavjudligi.

**Ma'naviy sohada:** So'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrlar erkin aytish; o'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

SHuningdek, fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat kursata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham takozo qilinadi<sup>1</sup>.

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun shahsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlangan bo'lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga, ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilar ekan.

---

<sup>1</sup> Qirgizboev.M. Fuqarolik jamiyati. «YOshlik» jurnali, 1996. 6-son, 3-4 –betlar.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida uz vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilagan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yo'hud chetga chiqib ketish ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyo'ti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqorolari siyosiy, ahloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosi jamoat tashkilotlari hisoblanadi va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri—bu nodavlat tizimdagi barcha jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, **birinchidan**, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, **ikkinchidan**, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlari va ehtiyo'jlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch xosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

#### **Jamiyatning tuzilishi quyidagicha:**

1. **Totalitar jamiyat:** (lot. umumiy, butun, jamiki) – Avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.

2. **Avtoritar jamiyat:** (lot. boshlovchi, asoschi, ijodkor, avtor) – demokratik bo'lmagan, siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o'ta reaksion davlat tizimi. SHahsning diktatorlik elementlari bilan uyrunlashib ketadi.

3. **Demokratik jamiyat:** (yunon. halq hokimiyati) – halqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi. Ijtimoiy tuzilma - jamiyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi.

#### **Ijtimoiy (sotsial) harakatlar:**

**Falsafada:** ijtimoiy faoliyat ma'nosini bildiradi.

**Sotsiologiyada:** - ijtimoiy faoliyatning eng oddiy birligi, (ongli harakat) mazmuniga ega.

---

<sup>1</sup> Kirgizboev M. Fuqarolik jamiyati. «YOshlik» jurnali, 1996, 6-son, 3-4 betlar.

Umuman, **ijtimoiy harakatning to'rt xili, tipi mavjud:**

1. Maqsadli-oqilona harakat (oqilon vosita).
2. Qadriyatli oqilona harakat (etik, estetik, diniy).
3. Affektiv harakat tipi (emotsional holatlari).
4. An'anaviy harakat (madaniy, taqlid bilan)<sup>1</sup>.

SHahsning huquqlari va burchlari:

- 1) Mas'uliyat.
- 2) Statuslar.
- 3) Bosh status.
- 4) SHahsiy status.
- 5) Ijtimoiy status.
- 6) Qayd qilingan status.
- 7) Aralash status
- 8) Erisxilgan status.

**Statusning elementlari:** (Status: - lat. fuqaro yoki yuridik shahsning huquqiy holati – huquq va majburiyatlari majmui). Statusni identifikatsiya qilish birov bilan yoki bir narsa bilan solishtirish:

- status roli;
- status huquqlari;
- status diapazoni;
- status ramzlari;
- status burchlari;
- status obrazi (imidj).

Status orqali olamni ko'rish.

Rollar yirindisi...

Qadimgi davrdan boshlab to o'rta asrlargacha bo'lgan zamonda davlat keng talqin qilingan, lekin u o'zi tashkil qiladigan va ifodalaydigan jamiyatdan alohida emas edi. Birincxilardan bo'lib Nikolo Makiavelli «davlat» terminini keng va tor ma'nodagi ahamiyatlarini talqin etadi. Bu paytgacha bo'lgan davrda davlat turli va ancha aniq tushunchalarni anglatgan. N.Makiavelli adabiyotlarga «Stato'» degan maxsus termini kirgazib, u davlatni uning qandaydir aniq shaklidan qat'iy nazar jamiyatning alohida siyosiy tashkiloti sifatida talqin etdi.

Davlat, jamiyat va individlarning o'zaro bir-biridan chegaralanish foyasi mazkur ijtimoiy institutlarning muayyan murosaviy muhitda amal qilishni taqozo etadi. Bu foyani Gobbs, Lokk, Russo va boshqalar davlatlarning **shartnoma nazariyalari** tarzida amalga oshirdilar. Bu nazariyaga binoan uchta tushuncha (individ, davlat, jamiyat) tarixan bir-biridan bo'lingandir. Dastavval erkin va yarim yo'vvoyi yashagan

---

<sup>1</sup> Umumiy sotsiologiya. T: ToshDU, 1999, 70 -bet

individlar iqtisodiy va boshqa sohalarda o'zaro harakatlarda bo'lish oqibatida jamiyatni tashkil etdilar va keyinchalik o'zlarining havfsizliklarini tabiiy huquqlarini shartnomalar tuzish yo'li bilan himoya qilish maqsadlarida maxsus organ-davlatni tuzdilar.

«**Davlat**» tushunchasi odatda ma'lum bir hududda oliy hokimiyatga ega tashkilotni anglatadi. Davlatning mohiyatini yanada chuqurroq va har tomonlama anglash uchun uning muhim belgilarini bilish lozim. Minglab yillar jamiyatning rivojlanishi bilan birga davlat ham uning bir qismi sifatida rivojlanib keldi. Davlat bilan shahsning o'zaro munosabati xususiyatlari, davlat tuzumida ratsional erkinlik va inson erkinligi printsiplarining tatbiq etilishiga qarab **davlatning rivojlanishini ikkita muhim etapga bo'lish mumkin: an'anaviy va konstitutsiyaviy.** SHuningdek, an'anaviy va konstitutsiyaviy davlatning belgilari namoyon bo'lishiga qarab oraliq bosqichlarga ham bo'linadi. Masalan, totalitar davlatcxilik. **An'anaviy davlatlar** tarhiy meros bo'lgan urf-odat, me'yorlar asosida stihiyali ravishda rivojlanadi. Bu davlatlarda halq ustida institutlashgan va cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, kisxilarning teng huquqli ekanligi inkor etilib, erkin inson davlat hokimiyatining manbai ekanligi tan olinmagan. Bunday davlatlarga tipik misol sifatida monarhiyani ko'rsatish mumkin.

**Konstitutsiyaviy va nokonstitutsiyaviy davlatlar** o'rtasidagi chegaralar erkinlikka nisbatan munosabat, shuningdek inson huquqlarini saqlash amaliyo'ti, shahs, jamiyat va o'zaro munosabatlaridagi ustuvor yonalishlar asosida belgilanadi. Davlat rivojlanishining konstitutsiyaviy bosqichi davlatning jamiyatga va fuqarolarga bo'ysunish, davlatning aralashuv vakolati va yonalishlarining konstitutsiyaviy belgilab qo'yilishi, davlat faoliyati va inson huquqlari kafolatlarining huquqiy reglamentatsiya qilinishi bilan borliqdir. Konstitutsiyaviy davlatlar an'anaviy davlatlari shakllanishi, ichki tuzilishi va funktsiyalari bilan keskin farqlanadi.

Siyosiy hokimiyat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u davlat hokimiyati va boshqa siyosiy tashkilotlardan tarkib topadi.

**Davlat** – ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyatning harakatlanishida muhim roľ o'ynovchi alohida bir tashkilotdir. U har qanday jamiyat siyosiy tizimining bir qismi (element), hokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning hamma sohasiga ta'sir qiladi. U vakolatni halqdan oladi va o'ziga tegishli vakolatni o'zining maxsus tuzilmalari davlat organlari orqali amalga oshiradi. Davlat halq manfaatini ko'zlasa, unga ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida, ho'jalik yuritishda erkinlik bersa, tinchlik siyosati yurgizsa, davlat demokratik hisoblanadi va taraqqiyotga sabab bo'ladi. Aksincha, halqning erkinligini cheklasa, taraqqiyotga

to'sqinlik qilsa, zo'ravonlik bilan ish olib borsa-reaktsion davlat hisoblanadi. «Davlat» so'zi ko'pincha «mamalkat» so'zi o'rnida ham ishlatiladi. Masalan, ayri hollarda «mamlakatimiz» degan so'z o'rnida «davlatimiz» degan so'zni uchratishimiz mumkin. Davlatning ko'rsatmasi jamiyatning hamma a'zolari – fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shahslar, chet el fuqarolari, mansabdor shahslar, nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari uchun majburiydir. Davlat qonun yaratadi va o'zi ham qonunlarga bo'ysunadi<sup>1</sup>.

Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Negaki, u hokimiyatni o'ziga eng ko'p mujassamlashtirgan siyosiy tashkilot bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni echishning eng ko'p imkoniyatlariga ham egadir. SHu tufayli jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi boshqa institut va tashkilotlar ham aynan davlat atrofida birlashadilar. «Davlat» keng ma'noli tushunchadir. Davlatning mohiyatini tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: **ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy**.

Davlat mohiyatini tushunishdagi **1-yondashuvga ko'ra**, davlat-umumiy muammolar va ishlarni hal etishning vositasi, u hukmdorlar va halqning o'zaro munosabatini tartibga soladi. **2-yondashuvning mohiyati shundaki**, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib hizmat qiladi. **3-yondashuvning asosi quyidagicha**: davlat jamiyatning va davlatning o'z hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir. Albatta, uchala yondoshuvda ham muayyan asos bor. YAnglishuv bir nazariy qarash boshqalaridan ustun qo'yilib, mutlaqlashtirganda boshlanadi. Demak, davlatni quyidagicha izlhlash mumkin.

**Davlat** – suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini hoimoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkilotidir.

**Davlat** – butun mamlakat miqyo'sidagi hokimiyatning muhsus boshqaruv va majburlov apparatiga, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilotdir.

**Davlat** – hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi. «Hokimiyat», «davlat» va «siyosat» tushunchalari o'zaro juda yaqin bo'lib, bir-birlarini belgilab beradi.

**1. Demokratik davlat tushunchasi** – bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari turli-tuman yo'llari orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va

---

<sup>1</sup> Qarang: Konstitutsiyaviy huquq. Izohli lugat. T.: «Akademiya» 2001, 27-bet.



ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratadi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti, soʻliri har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarining huquq-erkinliklarini taʼminlash choralarini doimiy ravishda koʻrib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida va ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat oʻzini-oʻzi boshqarish, koʻppartiyaviylik, ommaviy ahborot vositalarining erkin boʻlishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi.

**2. Huquqiy davlat tushunchasi<sup>1</sup>** - davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi. Bunda huquqning hukmronligi qonun ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi taʼminlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining boʻlinish printsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat.

Demak, huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) Halq hokimiyatining amalga oshishi.
- 2) Huquqning hukmronligi. YAʼni, shahs huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan hech qanday holda buzilmasligi.
- 3) Konstitutsiya va qonun ustuvorligi.
- 4) Hokimiyat vakolatlarining boʻlinish tamoyili.
- 5) Sud mustaqilligi.
- 6) Inson huquqlariga rioya etish, ularni himoya qilish va taʼminlash.
- 7) Davlat va fuqarolarning oʻzaro masʼuliyati.
- 8) Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning samarali ishlashi.
- 9) Huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligi.
- 10) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Huquqiy davlatning barcha uchun umumiy boʻlgan andozasi yoʻq. Uni har bir davlat milliy davlatxilik borasida tajribalariga tayanib, halqning zehniyati, qadriyatlari va anʼanalarni hisobga olib, oʻz strategik maqsadlariga mos holda shakllantiradi. Lekin huquqiy davlatxilikning dunyo tan olgan va umumbashariy qoida – talablariga javob beradigan, biz yuqorida, oʻnta tamoyillarni bayon etdik. Bu tamoyillar huquqiy davlatning konstitutsiyaviy asosi. Ular bizning Konstitutsiyamizda toʻliq aks etgan.

Oʻzbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni qaror toptirish uchun jamiyatni demokratlashtirish zarur. Bunda Prezident Islom Karimov taʼkidlaganidek: 1) Anʼanaviy mezonga eʼtibor berish va u bilan hisoblashish lozim. 2) Avval mamlakat aholisi turmushini yuksaltirish darkor. Chunki turmush ongni belgilaydi. 3) Fuqarolar ongi, tafakkurini oʻzgartirish kerak. Turmushning yuksalishi oʻz navbatida odamlar ongi va

<sup>1</sup> Qarang: Azizxoʻjaev A, Husanov.O, Azizov X. Konstitutsiyaviy huquq Izohli lugat. T.: «Akademiya», 2001, 37-38, 140 bet; Saidov A, Tojixonov U. Davlat va hukuq asoslari T.: OʻzR IIVA, 1999, 20- bet.

tafakkur tarzini o'zgartirishga olib keladi. 4) Huquqiy demokratik jamiyatga tabiiy yo'sinda, hech zo'riqish va talofatsiz erishishimiz mumkin<sup>1</sup>. «Odamlar siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur».

**3. Fuqarolik jamiyati tushunchasi** – insoning yalpi huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan jamiyat tuzulishi. Bunda har bir fuqaro, jumladan, O'zbekiston fuqarosi o'z ihtiyori bilan fuqarolikdan chiqishi mumkin. Fuqarolikdan chiqamoqchi bo'lganlar oldiga ma'lum shartlar qo'yiladi, ya'ni ular davlat, jamoa, fuqarolar oldida hech qanday majburiyati qarzdor yoki davlat va harbiy sirlardan voqif bulmasligi kerak. Agar fuqarolikdan chiqishni iltimos qiluvchi shahs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, u fuqarolikdan vaqtincha chiqarilmaydi. Quyidagi hollarda O'zbekiston fuqarosi fuqaroligini yo'qotadi:

1) CHet davlatda harbiy xizmatga, havfsizlik idoralari xizmatiga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati idoralariga ishga kirsa.

2) CHet elda yashovchi O'zbekiston fuqarosi 5 yil davomida uzrli sababsiz konsullik hisobida turmasa.

3) Fuqarolikni sohta hujjatlar taqdim etib olgan bo'lsa.

Fuqarolikdan chiqarish O'zbekiston Prezidenti vakolatiga kiradi.

**Fuqarolik jamiyati** – demak, haqiqiy fuqarolardan uzviy bo'liqlikda bo'lgan hamda ahloqiy madaniyatga tayanadigan, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyat. O'zbekiston «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini ishlab chiqdi va uni izcxillik bilan amalga oshirmoqda. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning quyi organi bo'lgan mahallaning avvalo hukuqiy asoslari yaratilmoqda. Bu asosiy qomusimizning 105-moddasida o'z ifodasini topgan. 1993 yil 2 sentayabrda «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'rrisida qonun, 1999 yil 14 apreldan «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari to'rrisida»gi qonunning yangi tahriri, 2001 yil 9 aprelda Oliy Majlis Kengashining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'rrisida»gi qarori qabul qilindi. «Fuqarolar yifini rasi (oqsoqol) va uning maslahatcxilari saylovi to'rrisida»gi (2004 yil 29 aprelda) qonun qabul qilindi. O'zR Oliy Majlisi Senati Kengashining 2008 yil 30 sentiyabrdagi «Fuqarolar

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farvon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000, 333 bet.

yifinlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatcxilari saylovi to'frisida»gi qaroriga binoan 2008 yil noyabr-dekabrida saylov o'tkazildi. 2009 yilga kelib O'zbekistonda 10 ming 118 tadan ortiq, Toshkent shahrida esa 474 tadan ko'proq mahalla sub'ektlari faoliyat yuritmoqda (2009).

### **Davlat va nodavlat tashkilotlari, ularning munosabati qo'yidagicha:**

#### **Davlat hokimiyati:**

Parlament (Oliy Majlis: quyi Qonuncxilik palatasi va Senati).

Prezidentlik instituti.

3) Vazirlar Mahkamasi (8 ta VM a'zolari, vazirlik 14 ta, davlat qo'mitalari 9 ta, jami 31 ta).

4) Sud hokimiyati va h.k.

#### **Nodavlat tashkilotlari:**

- 1) Siyosiy partiyalar.
- 2) Mahallalar (shahar, qishloq, ovullari kengashlari).
- 3) Jamoat tashkilotlari va birlashmalari.
- 4) Hotin-qizlar tashkilotlari.
- 5) «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va h.k.

Huquqiy davlat konstitutsiyaviy davlatcxilikning real amalga oshishidir. Uning asosida insonni davlat terrori, uning e'tiqodi ustidan kuch ishlatilishi, hokimiyat organlari tomonidan mayda homiylik qilishidan himoya qilishga intilish yo'tadi. Huquqiy davlat-suveren halq irodasiga bo'ysinuvchi, insonning erkinligi va boshqa huquqlarini himoya qiluvchi, o'z faoliyatini qonunlar doirasida amalga oshiruvchi davlatdir. Bunday davlatda shahs bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyada belgilab qo'yiladi, shuningdek, bu halq bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar «Ijtimoiy bitimlar» asosida ro'y beradi. Davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda ustuvorlik inson huquqlariga qaratiladi, qonular davlat va uning hatti-harakati bilan buzulmaydi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o'ratsida qat'iy chegara o'tkazish qiyin masala. Turli huquqiy davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tajribasini e'tiborga olib, huquqiy davlatning quyidagi belgilarini keltirish mumkin.

- rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
- shahsning erkinligi, huquq va jamoatchilik tinchligini himoya qilish, ho'jalik faoliyati uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratib bergan holda davlat faoliyati sohasini cheklash;
- har kimning o'z shahsiy farovonligi uchun mas'ulligini oshirish;
- barcha fuqarolarning huquqiy tengligi;

- huquqning umumiyligi, uning barcha fuqarolar, tashkilotlar, muassasalar, jumladan, davlat hokimiyati uchun ham teng taalluqli bo'lishi;

- halq va davlat suverinitetining konstitutsiyaviy huquq jihatlaridan muvofiqlashganligi;

- qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining bo'linishi, ular faoliyatining hamkorlikdagi birligi;

- davlatning fuqarolik munosabatlarini muvofiqlashtirishda taqiqlash metodining chegaradan chiqish metodiga nisbatan ustuvorligi. Buning ma'nosi shuki huquqiy davlatda «qonun bilan taqiqlanmagan barcha narsalarga ruhsat etiladi» tamoyiliga amal qilinadi. Bunda chegaradan chiqish metodi faqat davlatga nisbatan qo'llanilib, davlat faqat rasmiy qabul qilingan vakolatlar doirasidan chetga chiqmasligi lozim;

- individ erkinligini cheklash faqat barcha kishilar erkinligi va huquqlarini himoya qilish bilan bo'liq bo'lishi mumkin. Huquqiy davlat shahsning mutloq erkinligini bildirmaydi. Har bir shahsning erkinligi boshqa kishining erkinligiga zid kela boshlasa, huddi shu erda uning erkinligi tugaydi.

#### **8.4. Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi tushunchasi hamda boshqaruvning tarkibiy tizimi va tasnifi**

Ijtimoiy munosabatlarning umumli tarzda kechishini har xil mezonlar yordamida o'rganadigan fan sotsiologik boshqaruv deb nomlanadi.

Bu fan umumsotsiologiya fanining ajralmas qismi bo'lib, uning barcha nazariya va amaliyo'laridan to'la foydalanadi. Inson iqtisodiy faoliyati ma'lum bir uslublar, nazariyalar, amaliyo'lar, institut, tashkilotlar orqali boshqarilib kelinsa, ijtimoiy jarayon, hodisalar va munosabatlar esa endi shakillanmoqda. Ijtimoiy boshqaruv faniga XX asr boshlarida Teylor, M.Vebr, A.Fayola kabi olimlar asos soldilar. XX asr o'rtalaridan boshlab sistemali yondashuv usuli qo'llanilib kelinmoqda.

Hozirgi davrda tashkilot va korhonalarni (davlatniki yoki hususiy bo'lishidan qat'iy nazar) umumli boshqarish davr talabidan kelib chiqib, samarali boshqaruv mehanizmlarini yaratishni va joriy etishni taqozo qiladi. Zero, kuchayib borayo'tgan intergratsion jarayonlar va ahborotlar tizimining halqaro darajaga etib borishi, raqobatning kuchayishi va boshqalar ijtimoiy boshqaruvga bo'lgan munosabatni foydali tomonga keskin o'zgartiradi va boshqaruv tizimida ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan moslashuvni tezlashtiradi.

Ijtimoiy boshqaruvning takomillashuv istiqbollari O'zbekistonda barcha islohotlarni yanada tezroq va samaraliroq amalga oshirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, o'z-o'zini boshqarish tizimlarini takomillashtirish va ohir-oqibatda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi.

Ahborotlarning inson tomonidan tez o'zlashtirilishi va uning yangi sharoitlarga moyillik qobiliyatlarini oshirib borishi har qanday boshqaruv tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, «inson omili»ni doimo va aniq hisobga olishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:

1) Istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona etishishning samarali vositalarini belgilash.

2) Me'yorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash.

3) Tahdidlarni tahminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks ta'sir etish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

#### **Ijtimoiy bashorat turlari:**

1. **Istiqboldagi holatlarni bashorat qilish:** o'tgan, hozirgi va kelgusi zamon hamda istiqbol an'alarini bashorat etish.

2. **Me'yoriy bashorat** - ijtimoiy hayotga mos me'yorlarni topish, aniqlash.

3. **Tahdidlar bashorati** - ijtimoiy taraqqiyot izdan chiqish holatining tahliliga asoslaniladi.

Ijtimoiy bashorat 4 o'zaro mantiqiy bo'langan bosqichlarda amalga oshiriladi :

1. **Birinchi bosqich** - bashorat ob'ekti bo'yicha ma'lumotlar manbaini va ko'rsatkichlarini aniqlash, bashorat dasturini ishlab chiqish, bashorat maqsadi masalalarini belgilab olishdan iborat bo'ladi.

2. **Ikkinchi bosqich** - bashorat qilinuvchi ob'ektning dinamik modelini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

3. **Uchinchi bosqich** - bashorat qilinuvchi jarayon modeliga kiruvchi boshqaruv ko'rsatkichlarini belgilash, ularning o'zgarish tendentsiyalarini va chegaralarini aniqlab olish, turli tahminiy variantlarini aniqlash.

4. **Ohirgi bosqich** - ko'p variantli bashoratni amalga oshirishni asoslash va tahliliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy bashorat masalasini echishda matematik modellashtirish va ekspertiza usullardan foydalaniladi.

Ahborot jamiyat faoliyatining ijtimoiy jihatdan o'ziga xos tamoyillarini ifodalaydi va uning yordamida ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladi. **Ijtimoiy ahborotning o'zi guruhlariga ajratiladi.**

1. **Birinchi guruhga** ijtimoiy guruhlar tuzilmasi va holati haqidagi ahborotlar kiradi.

2. **Ikkinchi guruhga** odamlarning mehnat va turmush sharoiti haqidagi ahborotlardan tashkil topadi.

3. **Uchinchi guruhi** odamlarning hayot faoliyati, turmush tarzi va boshqa ahborotlardan iborat.

Boshqaruv nuqtai nazaridan ijtimoiy ahborot:

– tashkiliy;

– nazorat – hisobga olish;

– natijaviy ahborotlardan iborat.

1. **Tashkiliy ahborotlar** ijtimoiy boshqaruv ob'ekti va sub'ekti o'zaro bo'lanishi, boshqaruv jarayoni, boshqaruv qarorlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi.

2. **Nazorat–hisobga olish**, ahborotlar, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning borishi va uning boshqaruv qarorlariga mosligi haqidagi ma'lumotlardir.

3. **Natijaviy ahborotlar** – belgilangan boshqaruv tadbirlari, talablari, qoida va normalari haqidagi ahborotlarni o'z ichiga oladi.

**Ijtimoiy boshqaruv: sifat va miqdor ko'rsatkichlari** orqali amalga oshiriladi.

**Sifat ko'rsatkichlari** - ijtimoiy hodisa va jarayonning ta'rifiy xususiyatlari va tarkibiy tuzilishining ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlardir.

**Miqdor ko'rsatkichli ahborotlar** – ijtimoiy hodisa va jarayonning miqdoriy o'lchov shaklida aniqlangan kattaliklaridan iborat. Bu ahborotlar EHMga asoslangan holda matematik modellashtirishni va u orqali ijtimoiy bashorat qilishni, tahlil qilish va baholashni amalga oshirishga imkon beradi.

## 8.5. Ijtimoiy-hududiy birliklarni boshqarish idoralari

**Ijtimoiy – hududiy birliklar** halq deputatlari kengashi orqali boshqariladi. Halq deputatlari davlat va fuqarolar mafaatlariidan kelib chiqqan holda jamiyat muammolarini hal qiladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 100-moddasiga ko'ra mahalliy hokimiyat organlar ihtiyoriga quyidagilar kiradi:

– qonuniylikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;

– hududlarni iqtisodi, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

– mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yifimlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamfarmalarni xosil qilish;

– mahalliy kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish;

– fuqarolik holati aktlarini qayd etish.

– normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

**Ijtimoiy** – hududiy birliklarning hokimiyat idoralari O'zR qonunlari, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hayotga tatbiq etadilar. SHuningdek, o'zlariga bo'ysunuvchi quyi halq deputatlari kengashlarini boshqaradi.

Ushbu birliklarni viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

**Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:**

1. Demokratiya, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi tamoyili.

2. Vorislik tamoyili.

3. Ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish.

4. YUksak ma'naviyat tamoyili.

5. Mahalla havfsizligini ta'minlash tamoyili.

6. Fuqaro yifini rasi (oqsoqoli) va maslahatcxilarining mas'uliyatini his qilish tamoyili.

7. Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat tamoyili (jamoatchilik va o'zaro yordam).

8. Kengash, mashvarat (maslahatlashish) tamoyili.

9. Insonparvarlik.

10. Mustakillik va h.k.

Bu boshqaruvlar sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.

SHuningdek, ijtimoiy-siyosiy boshqarishning boshqacha asosiy tamoyillari mavjud:

1. Ob'ektivlik va sub'ektivlik tamoyili (ob'ektiv qonunlarni hisobga olish va sub'ektiv faollik).

2. Asosiy zveno tamoyili (dolzarb vazifalar orasidan asosiy birinchisi saralab olinadi).

3. Hududiy tarmoq tamoyili (ijtimoiy boshqarish hudud hamda vazirliklar va ularning joylardagi bo'limlari).

4. Mas'uliyatni his qilish tamoyili.

5. Vorislik tamoyili (uzviyligi).

**Sobiq sho'ro davridan ma'muriy-buyruqbozlik tamoyili quyidagi tamoyillarga asoslangan edi:**

1. Byurokratlarcha markazlashuv.

2. Nomenklatura (yuqoridan ro'yhat asosida tayinlash) boshqaruvi.

3. O'ziga –o'zi xizmat qilish, shahsiy manfaatlarni ustun qo'yish.

4. Buyruqbozlik (majburlash, dahshatli qarorlar chiqarish).

5. Demokratiyani tan olmaslik.

6. Rasmiyatcxilik (qo'rozbozlik).

7. Mahdudlik (mahfiy ma'lumotlar asosida boshqarish).

8. Konservatizm va h.k.

### **Qisqacha xulosalar**

**Huquqiy davlat** sharoitida erkin raqobat natijasida mulkdorlar qatlami vujudga kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Davlatlar rivojlanish tajribasi ko'rsatadiki, faqat shahslarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan umumiy farovonlikka erishib bo'lmaydi. Chunki jamiyatdagi har bir shahsda mulkdor bo'lish, tashabbuskorlik ko'rsatish qobiliyati bo'lavermaydi. Bari bir, ijtimoiy tengsizlik davom etaveradi. SHuning uchun ham hayotda ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyo'ti (umumiy farovonlik davlati) paydo bo'ldi.

**Ijtimoiy davlat** - har bir fuqaro uchun munosib hayot tarzi, ijtimoiy himoya, ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etishi, shahsning o'z-o'zini realizatsiya qilishi, hamma uchun teng hayotiy imkoniyatlar yaratish uchun intiladigan davlatdir.

Bunday davlatning faoliyati umumiy farovonlik, jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatishga qaratilgan bo'ladi. Davlat mulkiy va boshqa ijtimoiy tengsizliklarni tekislashga harakat qiladi, kuchsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga yordam beradi, har bir fuqaroni ish yoki boshqa hayot kechirish manbai bilan ta'minlashga harakat qiladi, jamiyatda tinchlikni saqlaydi, inson uchun qulay hayot muhitini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasida milliy istiqlol sharofati bilan bozor munosabatlariga o'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohatlar tobora chuqurlashib bormoqda. Davlat va hukumat milliy mustaqillikning dastlabki davridan boshlab kuchli ijtimoiy siyosat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayo'tgan islohatlarning pirovard maqsadi ham huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdir. Hozirgi davrda bunday davlat va jamiyat



barpo etishning konstitutsiyaviy va qonuniy asoslari yaratildi. Demokratik tipdagi milliy davlatcxilik shakllandi. Fuqarolik jamiyatining belgisi sifatida ko'p partiyaviylik va o'z-o'zini boshqarish organlari-jamoat birlashmalari tizimi rivojlanmoqda.

## **9-MAVZU. IQTISOD VA MEHNAT SOTSILOGIYASI**

### **9.1. Iqtisod sotsiologiyasining predmeti va ob'ekti.**

#### **Iqtisodiy jarayonlardagi sotsial munosabatlar**

XIX asr ohiri va XX asr boshlariga kelib, iqtisodiy hayot sotsiologiyaning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Huddi shu davrda ishlab chiqarishda inson omilining etakcxilik roli anglab etildi va bu boradagi tafakkur shakllanib bordi. Hozirgi davrda iqtisodiy hayotni ma'lum bir kontseptsiyalarsiz, mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. SHunga ko'ra Prezident Islom Karimovning bozor iqtisodiyo'tiga o'tish davri tamoyillaridan biri bo'lgan «iqtisodiyo'tning siyosatdan ustunligi» tamoyili iqtisodiy hayotning ma'muriy

buyruqbozlik mafkurasidan holi bo'lishini, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy hayot inson ma'naviy hayoti bilan uzviy bo'liqdir.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yo'qlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi».

Iqtisodiy hayot sotuvchi va haridor o'rtasida madaniy, ma'naviy munosabatlarsiz mavjud bo'lmaydi. Agar ishchining mafaatlari, ehtiyojlarini inobatga olinmasa, ularning maqsadi va intilishlariga sharoit yaratilmasa, hech qanday texnik va texnologiya muammolarini hal qilishga imkoniyat bermaydi.

Farb davlatlarida XX asr 60-yillarida iqtisodiy sotsiologiya fanining ijtimoiylashuvi tendentsiyasi kuchaydi. Iqtisodiy sotsiologiyani bugungi kunda global va hususiy masalalarni hal qiluvchi fan sifatida tasavvur qilish mumkin.

Iqtisodiy hayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor Farbda F.Teylor e'tibor berdi. U ishcxilarning mehnatga bo'lgan qiziqishini o'rgandi va 1894 yili mehnatga haq to'lash tizimiga asoslangan nazariyani ishlab chiqdi. Bu roya «iqtisodiy odam» kontseptsiyasi asosida shu narsalarga e'tibor berildi:

1. Eng qisqa vaqtda ishchi qancha ko'p hajmda ish bajarsa, unga shuncha haq to'lash.

2. Ishning hajmini emas, balki samaradorligi va yahsxiligini ra'batlantirish.

3. Ishcxilarga kam ish haqi berish va ko'p berish baravar zararlidir.

4. Ishlovchida yuksak haq oluvchi bo'lishga intilish hissini uy'otish, yuksaklikka intilib yashash.

Teylor kontseptsiyasi Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tadbiiq etildi, konveyer ishlab chiqarishi sharoitida mehnatning samaradorligi ra'batlantirildi. Sobiq SSSRda iqtisod moddiy ra'batlantirish o'rniga tenglik tushunchasini maydonga tashladi. Natijada mulkning davlat va kooperativ shakli mutloqlashtirildi. Bu esa ishchini mehnatdan, mulkdan begonlashuvga olib keldi. Kam ish haqi oluvcxilarning ish haqi yuqori malakali mutahassislarni ra'batlantirmasdi.

Hozirgi sotsiologlar va iqtisodcxilar jamiyatning quyidagi ko'rinishlarini tadqiq etmoqdalar:

1. **An'anaviy jamiyat.**

## **2. Industrial jamiyat.**

## **3. Post industrial jamiyat.**

Iqtisodiy jamiyatda iqtisodiy munosabatlar jamiyatdagi konkret guruhning mavqey hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimlari orqali belgilanadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimi va bir-birlari bilan o'zaro harakat qiluvchi guruhlarni iqtisodiy sotsiologiya o'rganadi.

Hozirgi davr iqtisodiyoti ijtimoiylashtirilgan deyish mumkin. Chunki bu erda insonning o'zi, uning intellektual salohiyati asosiy o'ringa chiqadi, bu esa inson qadriyatlarining ro'yo'bga chiqishini tobora ijtimoiylashib borishiga olib keladi. Zero, XXI asr butun ijtimoiy hayotning insoniylashtirilganligi bilan karakterlidir.

Umuman, O'zbekistonda qabul qilingan, amalga oshirilayotgan o'ziga xos islohatlar va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, «shok terapeyasi» deb atalgan usullarni biz chetlab turib, joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini – o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik. Ma'muriy-buyriqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohatlarni izcxil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik<sup>1</sup>. Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olish zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik.

### **9.2. Hozirgi davr iqtisodiyotining ijtimoiylashib borayotganligi**

XX asr ohiriga kelib, dunyo mamlakatlarining aksariyat katta qismi shitob bilan bozor munosabatlariga tortildi. Bu jarayonlarda asosiy rol ni jamiyatdagi mavjud insonlarning turli jabhalarda ko'rsatadigan faoliyati o'ynashi shubhasizdir. Bozor munosabatlari o'z domiga butun dunyo aholisini tortar ekan, bu jarayonda iqtisod sohasining muhim rolini va uning tobora ijtimoiylashib borishini sotsial jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon jamiyatlari iqtisodiy tizimining eng muhim karakterli jihatlaridan biri – ulardagi haddan tashqari murakkab va xilma-xil mehnat taqsimotining rivojlanishidir. Bu ihtisoslashuv jarayonining tobora chuqurlashib borayotganligi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sanoat

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: «O'zbekiston», 2009. -7-b.

ishlab chiqarishining paydo bo'lishi bilan juda ko'p an'anaviy kasb-hunar sohalari amaliy jihatdan yo'qolib, qolganlari esa keng ko'lamlilik ishlab chiqarishning tarkibiy qismlariga aylana boshladi.

An'anaviy va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotida qarama-qarsilik juda katta. Hozirgi sanoatlashgan tizimda minglab turli-tuman mutahassisliklar mavjuddir. Masalan, "Birlashgan Qirollik ro'yhatida Britaniya iqtisodini tashkil etuvchi 30000 turli ko'rinishlardagi kasblar mavjud"<sup>1</sup>. An'anaviy jamiyatlarda aholining ko'pchilik qismi iqtisodiy jihatdan o'zlarini etarli darajada to'liq ta'minlaydilar. Aksincha, hozirgi jamiyatlarning bosh xususiyatlaridan biri – iqtisodiy jihatdan birbirlariga bo'riqligining o'sib borayo'tganligidir. Biz hammamiz har xil mahsulotlarga va hizmatlarga ehtiyojmand bo'lib, bu jihatdan boshqa ko'p kishilarga tobemiz, hozirgi zamon jamiyatlarida ko'plab kishilar o'zlari uchun oziq-ovqat ishlab chiqarmaydilar, lekin eydilar, o'zlari uy qurmaydi, lekin shunday uylarda yashaydilar, moddiy boyliklar yaratmaydilar, lekin ularni iste'mol qiladilar.

Sanoatlashgan iqtisodiyotda ishni uch sektorga bo'lish mumkin: birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlar. Bu uch sektorda band bo'lgan ishchi kuchining proporsional tarkibi, sanoatlashishning turli bosqichlarida turlicha bo'ladi. Birlamchi sohada tabiiy resurslarni yirish va xosil qilish bilan shurullanadilar. Iqtisodiyotda birlamchi sektor qishloq ho'jaligini, qazilma boyliklar va o'rmon sanoatini, baliqchilik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning sanoatlashish davrining birinchi bosqichida ishchilarning ko'pchiligi birlamchi sektorda band bo'ladilar. Industriyaning rivojlana borishi bilan ish kuchining ko'p qismi ikkilamchi sektorga, ya'ni hom ashyoni sanoat tovarlariga aylantiruvchi sohaga o'ta boshlaydi. Uchlamchi sektor esa sanoatdagi har xil hizmat turlari hisoblanib, ular o'zlari moddiy boyliklar ishlab chiqarmasdan, qolganlarga o'zlarining u yoki bu hizmatlarini taklif qilishadi. Masalan, o'qituvchilar, shifokorlar, boshqaruvchilar va idora hodimlarining faoliyat turlari odatda aynan hizmat ko'rsatish sohasiga tegishlidir.

Ko'pchilik uchinchi dunyo mamlakatlarida ishchi kuchlarining 3\4 qismi qishloq ho'jaligida band bo'lib, qolgan bir qismi ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohalarida taqsimlangandirlar. Sanoat jihatidan taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining juda oz qismi qishloq ho'jalik sohasida band. Aynan, rivojlangan mamlakatlarning muhim xususiyatlari ham shundan iboratki – bu hizmat ko'rsatish sektorining kengayib borayo'tganligidir. Masalan, "Britaniyada 1911 yilda ishchi kuchining

---

<sup>1</sup> Giddens E. Sotsiologiya. T. "SHarq". 2002. 536 bet.

11%i uchlamchi sektorda band bo'lgan bo'lsa, bugun uning miqdori 50 % dan ortib ketgan"<sup>1</sup>.

2007 yil yakunlari bo'yicha respublikaning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 9,5 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,1 foizga, qishloq ho'jalik mahsulotlari etishtirish – 6,1 foizga, pulli hizmatlar ko'rsatish – 20,6 foizga, pudrat qurilish ishlari hajmi 15,7 foizga o'sdi. Eksportning yuqori darajasi (40,7 foizga) o'sishi hisobiga to'lov balansining barqarorligi va mamlakat oltin-valyuta zahirasining o'sishi ta'minlandi. Davlat byudjeti profitsit bilan ijro etildi, inflyatsiya darajasi 6,8 foizni tashkil etdi va prognoz ko'rsatkichidan oshmadi. 2007 yilda YAIM da hususiy sektorning ulushi 85 foizga etdi.

2007 yilda pahta homashyo'si etishtirish 6 million 650 ming tonnadan, yalpi falla xosili esa 6 million 250 ming tonnadan oshib ketdi. Mamlakat bo'yicha tayyorlangan yalpi pahta xosilining 99 foizi, fallaning 82 foizi fermer ho'jaliklari tomonidan etishtirildi.

YUrtimizda 2007 yili eksport hajmining o'sish sur'ati 40,7 foizga ortib, importga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bu o'z navbatida yil yakunlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasida 3,5 milliard dollardan ortiq miqdorda ijobiy salbdoga erishish va oltin-valyuta zahiralarimizning 1,5 barobar ko'paytirish imkonini berdi.

2007 yilda iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 23 foizga ortdi va 4,3 milliard dollardan ziyo'd miqdordagi mablarni tashkil etdi<sup>2</sup>.

2008 yilda yalpi mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, hizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi<sup>3</sup>.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlarda rivojlandi: qurilish - 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi-10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foizga o'sdi. Qishloq ho'jaligida 4,5 foiz o'sishga erisilib, 3 million 410 ming tonna pahta hom ashyo'si tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna falla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna burday etishtirildi.

Davlat byudjeti ortiri bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitsitga erisildi. Puhta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini izcxil olib borish tufayli inflyatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foizda darajasida saqlab qolindi.

<sup>1</sup> O'sha manba, 537 bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2008.-8-b.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: «O'zbekiston», 2009.-15-b.

Mamlakatimizda inflyatsiya darajasi 7,4 foizni tashkil etib, 2009 yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlaridan oshmadi. SHu aytish keakki, davlatimiz byudjeti o'tgan yili yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz miqdorda profitsit bilan bajarildi<sup>3</sup>.

Bu ko'rsatkichlar mamlakatda so'nggi yillarda qat'iy olib borilayo'tgan soliq-byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, milliy valyuta konvertatsiyasining joriy qilinishi, tashqi savdoda erisxilgan ijobiy ko'rsatkichlar, yaratilayo'tgan qulay investitsiyaviy muhit, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish va real daromadlarni oshirishga qaratilgan choralar, mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish uchun qilinayo'tgan harakatlar va aholi talabiga mos keladigan mustaqil iqtisodiy siyosat yuritilayo'tganligidan dalolat beradi. Bugungi kunga kelib "aholining real pul daromadlari bir yilda 27 % ga ko'payib, keyin ikki yilda ularning ish haqi miqdori tegishli ravishda 2,8 va 2,7 barobar oshirildi<sup>1</sup>. Aholining real pul daromadlari bir yilda 27 foizdan ziyo'd ko'paydi.

Umuman, Prezidentimiz Islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda Oliy Majlis Qonuncxilik palatasi va Senatining Qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganlardek, "2008-2010 yillarda, ya'ni dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008 yilda 9 foizni, 2009 yilda 8,1 foizni tashkil etgani, 2010 yilda bu ko'rsatkich 8,5 foizga etishi kutilayo'tgani, kelgusi 2011 yilda esa 8,3 foiz darajasida bo'lish belgilab berilayo'tgani ko'pgina halqaro tuzilmalari, ekspert va mutahassislarda katta qiziqish uyfootmoqda.

Dunyoda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzlari ko'payib borayo'tgani jiddiy havotir turdirayo'tgan bir paytda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi, davlat byudjeti esa so'nggi besh yilda profitsit bilan bajarilmoqda"<sup>1</sup>.

2007 yilning dekabrda o'rtacha oylik ish haqi, ho'jalik sub'ektlari va byudjet sohalarini hisobga olganda, 210 AQSH dollari miqdoriga teng bo'ldi.

2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyo'd, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada

<sup>3</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: «O'zbekiston», 2009.-172-b.

<sup>1</sup> "Xalq so'zi", 2008 yil 9 fevralb.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010. -b. 5.

o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSH dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foizga ko'paydi.

2009 yilning oladigan bo'lsak, o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida – va shunga mos ravishda ho'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham – 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflyatsiyaning o'sish ko'rsatkichlari 7-9 foiz darajasida saqlab qolish mo'ljallanmoqda<sup>1</sup>.

### **9.3. Mehnat sotsiologiyasining mohiyati va asosiy xususiyatlari. Mehnat sotsiologiyasining asosiy tushunchalari**

Hozirgi kunda ijtimoiy fanlar qatorida, hususan, “Sotsiologiya” fani oldida shakllanib kelayotgan yangi ijtimoiy munosabatlar va ularning xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni hamda uning kelgusidagi ijtimoiy oqibatlarini, mehnat munosabatlarining yangi sharoitdagi o'ziga xos jihatlarini o'rganish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Sotsiologiya va uning maxsus nazariyasi - mehnat sotsiologiyasi doirasida bu muammolarning ham nazariy, ham amaliy tomonlari o'zaro dialektik bo'liq holda olib qaralishi lozim. Mehnat faoliyati bilan bo'liq bo'lgan jamiyat hayotining barcha jihatlarini, jarayonlari konkret sotsiologik tadqiqot asosida o'rganiladi.

O'zbekiston davlati iqtisodiy asoslarini, ularning tarkibiy funktsional qatlamini mehnat sotsiologiyasi doirasida o'rganish muammosi hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biridir. Chunki hozirda mehnatning mazmuni, karakteri va unga bo'lgan munosabat o'zgarmoqda. Boshlanayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy davr talablaridan biri “Ishlab chiqaruvchilarning ham, iste'molchilarning ham ruhiyatini o'zgartirishi lozim” bo'lgan vazifa turadi.

**Mehnat sotsiologiyasining vazifasi** uning predmeti bilan bo'liq bo'lgan kishilarning ijtimoiy hayot qonuniyatlari, mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati jarayonlarini o'rganishdan iborat. Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi mehnat sohasidagi tadqiqotlarning hususiy printsiplari, kategoriyalari va usullaridan foydalanadi. Mehnat sotsiologiyasining tarkib topishi va rivojlanishi farb sotsiologiyasi bilan marksistik sotsiologiyada deyarli bir davrda – XX asrning 20-yillaridan boshlandi. AQSHda mehnat sotsiologiyasi F.Teylor, E.Meyo, K.Levin, Dj.Moreno, F.Hertsberglarning sotsiologik kontseptsiyalari asosida shakllanib, o'zining yuksak ilmiy darajasiga erishdi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: «O'zbekiston», 2009.-16-b.

Rossiyada esa shu davrdan boshlab akademik S. G. Strumilin, akademik V. M. Behterev, A. K. Gastev, P. M. Korjentsev, O. A. Ermanskiy, N. A. Veyke, V. V. Dobrinin, E. K. Drezin kabi yirik olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan marksistik asosdagi mehnat sotsiologiyasi rivojlandi.

AQSHda va Farbiy Evropada mehnat sotsiologiyasiga e'tiborning ortishiga, asosan Rossiya va bir qator Evropa mamlakatlarida ro'y bergan sotsial inqiloblarning sodir bo'lishi, mehnatkashlarning mavjud siyosiy-iqtisodiy tuzumga qarshi bosh ko'tarib chiqishi va sinfiy kurash ko'lamining ortishi sabab bo'ldi. XX asrning 20-yillarida bir qator kapitalistik mamlakatlarda bir necha bor takrorlangan iqtisodiy inqirozlar esa siyosiy vaziyatni yanada keskinlashtirib qo'ygan edi.

Qanday bo'lmasin siyosiy vaziyatni yumshatish va iqtisodiy tanglikdan chiqish muammosi mavjud kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning hayot - mamot masalasiga aylanib qoldi.

«Bugungi kunning eng dolzarb muammosi, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayo'tgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat. Bu inqiroz Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyo'si kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aktsiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan borliq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»<sup>1</sup>.

SHu boisdan ham "2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iborat"<sup>1</sup> bo'ldi.

O'zbekistonda, ko'plab davlatlardan farqli ravishda, tashqi qarz masalasidagi puhta o'ylanmagan siyosat tufayli iqtisodiyotni zaif, tashqi

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: «O'zbekiston», 2009. -4-5-b.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. –18-jild. –T.: O'zbekiston, 2010. –b. 177



omillarga qaram, hatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo'yish holati yuzaga kelmaganligining sababi nimada? O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyo'zli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doim amal qilib kelmoqda. SHu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarining maqsadi va mazmun mohiyati bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning O'zbekistonga ta'siri va salbiy oqibatlarini yumshatishga sabab bo'ladigan omillar (1-qism), yuzaga kelish mumkin bo'lgan qiyin vaziyatning oldini olish yo'llari va choralari izlashdan (2-qism) iborat.

2009 yilning 1 yanvarigacha O'zbekistonning jami tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 13,3 foizini tashkil etdi va bu ko'rsatkich, halqaro mezonlar bo'yicha, «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi.

Bularning barchasi eski ishlab chiqarish munosabatlarini isloh qilish yo'li bilan tadrijiy suratda yangilanib borish, ya'ni zamonaviy mehnat munosabatlarining tarkib topishiga olib keldi. Mehnat sotsiologiyasi huddi shu tarixiy missiyani bajarishga hizmat qildi. AQSHda mehnat sotsiologiyasi asosan boshqaruv sotsiologiyasi doirasida o'rganib kelindi. Farbiy Evro'pa mamlakatlarida esa alohida fan sifatida o'rganilib kelinmoqda.

XX asrning 70-yillaridan boshlab farb mehnat sotsiologiyasi doirasida mehnatni gumanizatsiyalash tendentsiyasi o'rganila boshlandi. Mehnat sharoitini yaxsilashga ko'proq e'tibor berildi. Farb sotsiologlarining fikricha, mehnat insonga azob-uqubat emas, balki, huzur bafishlashi kerak. Bu tamoyil ayniqsa bizda, kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida yanada muhim ahamiyat kasb etmo'ri lozim. O'tish davrining hozirgi bosqichida asosiy vazifalardan biri "... sermahsul mehnat qilish uchun yahshiroq rafb bilan imkoniyatlar yaratishdan, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan kafolatli huquqni qaror toptirishdan, aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan ham iboratdir”

Bu yo'lda, **mehnat sotsiologiyasining muhim vazifalaridan biri mehnat unumdorligini oshiruvchi sotsiologik omillarni va zahiralarni tahlil qilib o'rganishdir.** Uning asosiy ijtimoiy vazifalaridan yana biri, jamiyat hayotida, halq ho'jaligidagi iqtisodiy munosabatlarni, mehnat sohasi bilan bo'liq bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

**Mehnat sotsiologiyasi quyidagi asosiy ijtimoiy munosabatlar jarayonini o'rganadi:** ishlab chiqarish vositalariga va mulkka bo'lgan munosabatlar, mehnat kooperatsiyasi va taqsimoti, bajarilayo'tgan mehnatning sharoiti va mazmuni, mehnat turlarining o'zgarishi, mehnatga qarab taqsimlash, jamiyat a'zolarining ijtimoiy foydali mehnatga bo'lgan ehtiyo'jlarining o'sib borishi, ishchi va hizmatcxilarning mehnat sharoiti va turmush tarziga qarab, turli ijtimoiy shart-sharoit va omillar ta'sirida mehnat xulqining o'zgarib borishi, mehnat xulqi motivlari va tiplari, shahsiy daromadlarning miqdori va uni olish yo'llari, mehnat kadriyatlarini va boshqalardir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bozorga o'tish dasturini ro'yo'bga chiqarishdagi ijtimoiy tayanchlardan biri, birinchi navbatda, jamiyatning ijtimoiy faol qatlamlaridir. SHu bois islohotlar ikkinchi bosqichining eng muhim vazifasi har bir kishi mehnatining qadrini oshirish, uning ijodiy faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini nomoyon etishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Har bir kishining iqtisodiy erkinligini uning o'z muvaffaqiyati hamda o'z oilasining farovonligi uchun iqtisodiy mas'ulligi bilan qovushtirib borishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish kerak. O'z ijodiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga tayanishni nazarda tutgan munosabatlar har bir kishi farovonligining muhim va yagona manbaidir".

Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bo'yicha barcha ijtimoiy ahborotlarni to'plashga, ishlab chiqarish zahiralardan to'la foydalanish hamda mehnatni boshqarishning optimal strategiyasi va taktikasini belgilashga hizmat qiladi.

Mazkur sotsiologiya darsligining mehnat sotsiologiyasi qismi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayo'tgan talabalarga mo'ljallangan bilimlarning umumiy yonalishlarinigina beradi. Bu qismda mehnat sotsiologiyasi predmeti va uslubiyotlari bayon qilingan. Bu uslub va uslubiyotlar sotsiologlar va boshqa soha mutahassislari uchun mehnat va mehnatga bo'lgan munosabatning ijtimoiy va iqtisodiy omillarini tahlil qilish mehnat va mehnat zahiralarni tadqiq qilish hamda mehnat jarayonlarini ilmiy asosda boshqarishning samarali tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu fanning kelish chiqish tarixini o'rganish esa uning taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun bu bobda qisqacha bo'lsa ham mehnat sotsiologiyasining shakllanish tarixi bayon qilindi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasining halq ho'jaligidagi joriysi katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatda huquqiy va demokratik

tizimni rivojlantirishga, ijtimoiy adolat o'rnatishga, mehnat unumdorligining oshib borishiga yordam beradi.

Mehnat sotsiologiyasi bozor munosabatlari sharoitida mehnat muammolarini to'la-to'kis echib berish va uning istiqbollarini belgilashni nazariy hamda amaliy jihatdan o'z oldiga qo'ymoqda.

Bugungi kunda mehnatni boshqarishning barcha turkum omillarini hisobga oluvchi ahborotlar bazasini yaratish va uning sotsiologik monitoringini yaratish maqsadga muvofiqdir.

SHubhasiz, nisbatan bir kichik bobning o'zida qo'yilgan muammolarning barcha aspektlarini ko'rib chiqish mumkin emas. Ulardan ba'zi eng muhimlariga to'htalib o'tamiz.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'rtidan-to'rti ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida iste'mol baxosi, moddiy va ma'naviy manfaat paydo bo'ladi. Olimlarning fikricha, bu shunday jarayonki, unda inson o'z hususiy faoliyati bilan tabiat va o'zi o'rtasidagi modda almashuvini vositalaydi, boshqaradi va nazorat qiladi. Mehnat, asosan, inson faoliyatining shakli, turmushining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi.

Mehnat jarayoni o'z ichiga uch holatni oladi: 1) Insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yonaltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson mehnat mavzuiga ta'sir ko'rsatadi.

Insonning rivojlanishi boskichlaridagi mehnat davri ijtimoiy munosabatlar rivojlanish ko'rsatkichlarining turli shakllarida ko'rinadi.

Sotsiologiyada «mehnat sharoitlari» kategoriyasi muhim ahamiyatga ega. U mehnat sharoitining inson uchun normal yoki zararli bo'lishi mumkinligi mezonidan kelib chiqadi. Normal mehnat sharoitlari inson salomatligiga zarar keltirmaydi. Zararli mehnat sharoitlari (shahtalarda, domna va marten pechlarida, kimyo'viy ishlab chiqarishning ba'zi tsehlarida va boshqa joylarda ishlash) inson salomatligi uchun havflidir va ko'pincha inson hayotiga tahdid soladi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlari sotsiologlar tomonidan ekstremal, nisbatan normal va qulay sharoitlarga bo'linadi. Ko'p hollarda ular mehnat mazmuni va uning tashkil qilinishiga bo'liqdir. Mehnatni tashkil qilish deganda, odatda ish tashkil qilishning tartibi, usullari va shakli tushuniladi, ya'ni «inson – jihozlar, mashinalar, asboblari» tizimida muvofiqlikning bo'lishi, ishga ijobiy samara berishi nazarda tutiladi. Mehnatni tashkil qilish ish joylari va mehnatdagi kooperatsiya, ishning oqilona taqsimlanishi va nazorati kabi muhim elementlarga asoslanadi. So'nggi element ijtimoiy sanksiyalar va huquqiy normalar asosida amalga oshiriladi.

Mehnat mazmuni uning texnik funktsional tomonlarini hamda ijtimoiy-psixologik tuzilishini ifodalaydi. Agar mehnat jaryoni shahsiy reja asosida tashkil etilgan bo'lsa, mehnat mazmunliroq va ijodiy elementlarga boy bo'ladi. O'zgalarning irodasiga bo'ysunish, psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan ishchini ish mazmunidan biroz bo'lsa-da, yiroqlashtiradi. Mana shuning uchun rahbar qo'l ostidagi ishxilar va hodimlarga maqsad va vazifani qo'yishdan oldin bu maqsadga erishish yo'llarini o'zi aniq tasavvur qilishi zarur.

Ishlab chiqarishni boshqarishda, biznesda, huquqiy idoralarda mehnatni ra'batlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. **Ra'batlantirish** – mehnatning samarasiga ko'ra ishchi-hodimlarni moddiy va ma'naviy mukofotlash tizimidir.

Mehnat faoliyati yuqorida qayd qilinganidek, yakka tartibda va guruhli bo'lishi mumkin. Mehnat jamoasi – bu shahs uchun ahamiyatli va ijtimoiy nuqtai nazardan qimmatli bo'lgan, aniq maqsadlarga yonaltirilgan odamlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyati amalga oshadigan uyushmasidir. SHuning uchun mehnat jamoasi – bu o'zaro hamfikir bo'lgan, foyaviy mushtaraklik ustun bo'lgan odamlarning manfaatli birlashuvidir. Unda doim munosabatlarning rasmiy va norasmiy tizimi mavjud bo'ladi: 1. Ma'muriy-huquqiy tizim. 2. O'zaro shahsiy aloqalar.

Ma'muriy tashkilot rasmiy munosabatlar va mansabdorlik ierarhiyasiga (quyi mansabdan yuqori mansabgacha) suyanadi.

### **Mehnat tashkilotlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi:**

1. **Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari:** sanoat, qurilish, qishloq va o'rmon ho'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha yuk transporti, moddiy-texnik ta'minlash va boshqalar.

2. **Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari:** so'fliqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, halq ta'limi, san'at, ilm va ilmga xizmat qilish, davlat-ma'muriy organlari apparati, boshqaruv organlari, jamoatchilik tashkilotlari, sururta qilish, kreditlash va hokazo.

Albatta, bunday taqsimlash ko'p hollarda shartli ravishdadir. Hozirgi kunda bir turdagi mahsulot chiqaruvchi va aralash harakterga ega bo'lgan ko'pgina mehnat tashkilotlari mavjud. Masalan, agar 1992 yilda birinchi guruhda barcha mehnatkashlarning 70% gacha bo'lgani ishlagan bo'lsa, u holda 1997 yili sanoat ishlab chiqarishdagi strukturaviy qayta qurilishlar hisobiga, sanoatning asosiy tarmoqlarida ishchi kuchi va kapitalning biznesga, savdoga va hokazolarga nisbati tahminan 52 va 48% ni tashkil qildi.

Mamlakatda mehnat tashkilotlari hayotida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ya'ni hususiy mulkcxilikka o'tish jarayoni jadal sur'atda

ketmoqda. Quyida mehnat jamoalaridan eng ko'p uchraydiganlarini keltiramiz:

- kooperativ, hissadorlik mulkcxiligi negizidagi mehnat tashkilotlari, umumhalq, davlat mulkcxiligi asosida faoliyat yurituvchi jamoalar;
- hususiy sektorda mehnat bilan band bo'lgan jamoalar;
- chet el firmalari bilan birgalikda tuzilgan qo'shma korxonalarining mehnat jamoalari;
- kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining mulkidan foydalanuvchi mehnat tashkilotlari;
- sanoat va boshqa noqishloq ho'jalik korxonalarida tomorqa bilan shuullanuvchi jamoalar.

Hozirda ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tehnika, ijodiy ittifoqlar va boshqa sub'ektlarda shartnoma asosida tuzilgan jamoalar tashkil qilinmoqda. Halqaro integratsiyaning iqtisodiy, ilmiy, moliyaviy kabi yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Ular halqaro kapitalarning qo'sxilishi negizida tashkil qilingan. Umumiy halqaro ho'jalik majmui paydo bo'lmoqda. Ularni tashkil etuvchi qismlar (aktsiyalar ulushi bo'yicha) alohida bir davlat firmasining hususiy mulki bo'lishi mumkin. Ammo, faoliyatning umumiylashuvi natijasida halqaro miqyo'slarda yahlit ish yurituvchi majmualar yuzaga kelmoqda. Masalan, halqaro energetizimlar, mashinasozlik va kimyo'viy majmualar neft', oltin qazib olish, olmosni qazib olish, qayta ishlash bo'yicha va hokazo.

So'nggi yillarda mayda savdo korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlik va mayda guruhli mehnat korxonalari kengaymoqda, ular faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Qishloq joylarida qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha sanoat korxonalari ham borgan sari ko'paymoqda. Agrar ishlash bo'yicha sanoat korxonalari borgan sari ko'paymoqda. Agrar ishlab chiqarish bilan bo'liq bo'lmagan korxonalar qurilmoqda (yo'fichni qayta ishlash, kulolcxilik. Tikuv ustahonalari, uy-ro'zfor buyumlari, loydan va fayansdan ishlangan o'yinchoqlar tayyorlash bo'yicha tseklar), ya'ni agrosanoat majmui tuzilishi o'zgarmoqda.

Rejali taqsimot tizimidagi ho'jalikni boshqarishning korhona jamoasi uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish, uning faoliyatidagi shartlarning jiddiy o'zgarishlari bilan bo'liqdir, chunki u mehnat bozorida, tovar va kapitalda mustaqil sub'ekt bo'la oladi. Korhona, tashkilot jamoasi yangi sharoitlarga ko'nikma xosil qilishi uchun tegishli vaqt zarur, aks holda, salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

SHahsning shakllanishi jarayonida jamoaning va unda tashkil etilgan mehnatning ahamiyati katta. Mehnat shahsning barcha muhim sifatlariga

ta'sir ko'rsatadi. U inson psixologik ehtiyo'larini yonaltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida rol o'ynaydi.

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin yillarda mamlakat iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Foyda keltirmaydigan korxonalarining yo'pilishi, hususiy lashtirish ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan texnologiyalarning joriy etilishi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyo'jni oshirmoqda. Yangi va rekonstruktsiya qilinayotgan korxonalar loyihalariga shunday chora-tadbirlarni ko'rish kerakki, ular ishchilar mehnatini mazmunan boyitsin. Mehnat jamoalarining istiqbol rejalarida ijtimoiy ko'rsatkichlar nafaqat ma'lumot vazifasining, balki boshqaruv masalalarining oqilona omili bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat jamoalarida va tashkilotlarda ko'pincha ihtiloflar, nizolar ham ro'y beradi. Ularning sababi juda xilma-xildir. **Nizo** – vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf qilishning samarasiz yo'lidir, chunki nizo paytida odamda hissiyotlar ustun kelgani sababli fikrlash susayadi, o'z xulqini nazorat qilish qobiliyati pastlaydi. Agar nizo o'zaro kelishmovchilikni tartibga solishning yagona chorasini bo'lib qolsa, u holda jamoaning rahbari uni boshqarish, tashabbusni o'z qo'lga olib unda qatnashish kerak.

Ihtilofning sababini aniqlash uchun quyidagi savollarga javob topish kerak:

1. Ziddiyatni bartaraf qilishning umuman imkoni bormidi? Unda nima qilish mumkin?
2. Agar ziddiyatni bartaraf qilish zarur bo'lsa, u holda qanday vositalar o'zini oqlaydi?
3. Nizoning natijalari qanday bo'lishi mumkin?

Mamlakatda mehnat jamoalari bozor munosabatlarining tarkib topishi asosida ko'p hollarda o'z hodimlarining ahloqiy sifatleri va dunyoqarashlarini o'rganishlari zarur bo'lib bormoqda. Bunda rahbarning o'z qo'l ostidagi hodimlari bilan munosabatlari har kimning qobiliyatiga ko'ra hizmat vazifalariga qo'yilishi, mutahassislarining malakalarini muttasil oshirib borish, jamoada normal insoniy munosabatlar iqlimining bo'lishiga e'tibor berish katta ahloqiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki normal bozor munosabatlarining shakllanishi normal ahloqiy-psixologik muhitni, soflom raqobatni, shahsiy manfaatning jamiyat manfaati bilan uyrunlashuvini talab qiladi.

## 9.4. Mehnatning sotsial shakllari va shart-sharoitlari

Umumiy mehnat o'zida murakkab tuzilishni ifodalaydi. Buning natijasida u to'la fanlar qatorida o'rganish mavzusi bo'lib hisoblanadi. Mehnat sotsiologiyasini tahlil qilishning bir necha yonalishlari mavjud: biznes, ishlab chiqarish va hokazolarni boshqarishning tuzilishi va ierarhiyasini o'rganuvchi tashkilotlar sotsiologiyasi; u yoki bu faoliyatning afzalliklarini o'rganuvchi kasblar sotsiologiyasi, qimmatbaho orientatsiyalar, kasbga layo'qatlilik va boshqalar; mehnat faoliyati ijtimoiy jarayon sifatida; mehnat unumdorligini oshiruvchi ijtimoiy omillar; texnologik va ijtimoiy sharoitlarning mehnat munosabatlariga ta'siri va hokazo.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'ridan-to'ri ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida iste'mol baxosi, moddiy va ma'naviy manfaat paydo bo'ladi. Marks va Engelsning fikricha, bu «shunday jarayonki, unda inson o'z hususiy faoliyati bilan tabiat va o'zi o'rtasidagi modda almashuvni vositalaydi, boshqaradi va nazrat qiladi». Ushbu mualliflarning asralaridan yana bir fikrni keltirishimiz joiz, ya'ni mehnat butun inson hayotida birinchi va asosiy shart-sharoitdir, chunonchi shu darajadagi, biz aytishimiz kerak: mehnat insonning o'zini yaratadi.

**Mehnat jarayoni o'z ichiga uch lahzani kiritadi:** 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yonaltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning turli rivojlanish bosqichlarida mehnat davr ijtimoiy munosabtlarining rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblangan turli shakllarda ko'rinadi.

Hozirgi paytda biz doimo eshitib turadigan ikkita o'hshash tushunchalarni taqsimlashimiz zarurdir: yakka tartibdagi mehnat va yakka tartibdagi mehnat faoliyati. Birinchi toifa shahsiy ish joyini, ya'ni o'z sub'ekti, majburiyat va funktsiyalar doirasiga ega bo'lgan mehnat zonasini bildiradi - bu mehnatning texnologik taqsimoti tarkibiy qismidir. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati - mehnatning iqtisodiy taqsimoti tarkibiy qismidir. Bu fuqarolarning ijtimoiy - foydali faoliyati bo'lib, u alohida bir shahs va uning oila a'zolari shahsiy mehnatiga asolangan. Bunday faoliyat asosini shahsiy mulkka bo'lgan mehnat vositasi, uy-joy binosi va qurilmalari, er, ishlab chiqarish mahsulotlari, transport vositalari

va hokazolar tashkil etadi. YAkka tartibdagi mehnat faoliyati jamiyat ichidagi mehnatning taqsimlanishida element bo'lib qatnashadi.

Mehnat mazmuni uning texnik funksional tomonlarini, mehnatning mazmundorligi esa, sotsial-psihologik tuzilishini ifodalaydi. Agar hususiy reja bo'yicha tuzilgan bo'lsa, mehnat mazmunli va ijodiy sub'ekt sifatida ko'riladi. Begona hokimlikni irodaga bo'ysundirish - psihologik va ijtimoiy yiroqlashishga yo'ldir. Mana shuning uchun ishcxilar, hodimlar oldiga maqsad- vazifani qo'yish va bu maqsadga erishish yo'llarini tanlashda, shubhasiz, uning faoliyatini noziklik bilan nazorat qilish orqali ular fantaziyasiga keng yo'l ochib berishga intilish muhimdir.

Ishlab chiqarishda mehnatni tashkil qilish, uni boshqarishda, biznesda, huquqshunoslik idorasida mehnatni ra'batlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. Ra'batlantirish – bu, to'g'ri va qisman shaklda ifodalangan mehnatni kuchaytirishning moddiy va ma'naviy mukofatlash tizimidir. **Ra'batlantirish** – majburiy mehnatdan ixtiyoriyga qadamdir. Mehnat asoslari - ixtiyoriy mehnatga boshqacha, yanada kengroq qadam, muhim inson ehtiyo'jlarini qondirishga asoslangan faol mehnat faoliyatiga mayillik (kuchli shahslarga, faol biznesmenlarga va boshqalarga mansublik mavqeyni aniqlab olish). Asoslar qadriyatlar va yo'l-yoriqlar bilan uzviy borliqdir. Asoslar u yoki bu holatni, dalilni sub'ektiv baholashga mo'ljallangan, ular nisbiydir. Qadriyatlar asosida jamiyat tomonidan nimanidir shak-shubhasiz normalar sifatida ob'ektiv tan olinishi yo'tadi, qadriyatlar ahloqiy talab bo'lib, ular mutlaqdir.

«Mehnat sotsiologiyasi» darsligi mualliflarining haqqoniy ta'kidlashlaricha, mehnat mazmundorligining asosiy elementlari bo'lib, agar uni mehnat faoliyatining ijtimoiy-psihologik tuzilishi sifatida tushunilsa, quyidagilar hisoblanadi:

– maqsad - oldindan seziladigan natijalar tan olingan obrazi bo'lib, ta'sir qilishning ideal rejasi;

– mehnatga munosabat - uning asosida mehnatning ongliligini va maqsadga tegishlilikni o'zinikidek sezish, atrof olamni, shahsiy reja bo'yicha qayta rivojlantirish;

– mehnatni ra'batlantiruvchi omillar - mehnat faolligiga undovchi tashqi omillar;

– mehnat asoslari - muhim bir narsadek tan olinuvchi ehtiyo'j, ichki ra'batlantiruvchi omillar;

– qadriyatlar va ularga qarab mo'ljallash - mehnat faoliyatining ahloqiy talabi.

## 9.5. Mehnat jamoalarining sotsial harakteri va



## asosiy funktsiyalari

Mehnat jamoalari ijtimoiy hayotning noyo' b hodisasidir, ular hozirgi jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. SHu munosabat bilan besh jihatni ta'kidlab o'tamiz:

**Birinchidan**, mehnat jamoalari barcha asosiy moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilardir.

**Ikkinchidan**, ish bilan band aholining hamma asosiy kategoriyalari – barcha millatlarga mansub ishchilar, dehqonlar, ziyo'lilar, hizmatchilar mehnat jamoalarida jamlangan.

**Uchinchidan**, mehnat jamoalari – umuminsoniy va sinfiy, shuningdek, bizning sharoitdagi milliy jihatlar dialektikasining, ularning demokratik negizidagi o'zaro hamkorligining, garchi, yagona bo'lmasada timsolidir.

**To'rtinchidan**, mehnat jamoalari jamiyatimiz sotsial strukturasi alohida «qavat»ini tashkil etuvchi sotsial sub'ektlar bo'lib, burjua davlatlarida ularni sotsiallashtirish sari bo'lgan barcha harakatlarga qaramay, bunga o'hshash «qavat» umuman mavjud emas. Ana shu «qavat» sub'ektlari o'zaro mehnat taqsimoti hamda boshqa aloqalarning yahlit sistemasi bilan birlashtirilgan. Mehnat jamoalarining o'z a'zolari-jonli kishilar bilan aloqalari ham juda katta ahamiyatga ega, zero ularning qiziqishlari va hatti-harakatlari ana shu jamoalarning o'z faoliyatiga qaraganda xilma-xilroq, boyroqdir, chunki u «o'rtachalashtirilgan» sifatida maydonga chiqadi.

Mehnat jamosi ishlab chiqarish korxonasi, muassasa va hokazolar bazasida faoliyat ko'rsatuvchi sotsial guruhdir.

**Beshinchidan**, bozor munosabatlariga o'tish muammosi sababli, mehnat jamoalarining ahamiyati haqidagi masala alohida faollik kasb etmoqda.

So'l-o'ng yonalishi, biz allaqachon ko'rayo'tganimizdek, hususiy tadbirkorlik negizlarini hukmron negizlariga aylantirishga, ya'ni sinfni-tadbirkorlar sinfi asosida shakllantirishga, iqtisodiyotda mulkchilikning turli xil shakllarini ko'rishga intilmoqda.

O'ng-so'l yonalish iqtisodiyotning bozorga dahlsiz shakllari ustun turishini ko'zlaydi, tadbirkorlikka ikkinchi darajali o'rin ajratadi, mehnat jamoalarining rolini bo'rttiradi, lekin shu bilan birga ular kuch-harakatlarining samaradorligini keskin oshirishga qodir bo'lgan mehanizimlarni olfa surmaydi.

Agar biz mehnat jamoalarini rivojlantirish asosiy harakatlantiruvchi kuch deb e'tirof etsak, sobiq totalitar tuzum uchun ana shunday mehanizmlarni shakllantirishdan muhimroq yumush bo'lmaydi.

Ana shu muammoga to'htashdan oldin shuni eslatish kerakki, jamiyatda har doim olfa qarab harakat qilish uchun ham, bir joyda deysinib turush uchun ham manba bo'lishi mumkin bo'ladigan bir talay ziddiyatlar mavjud. Depsinishda ziddiyatlar ko'pincha, ayniqsa jamiyat rivojlanishining teng davrlarida illatli doira shaklida maydonga chiqadi. Juda murakkab muammolarni ohirigacha hal etish uchun tehnologik to'ntarishni amalga oshirish talab qilinadi, lekin buning uchun iqtisodiy maqbul sharoitlar zarur. Yoki qishloqqa sanoat tomonidan yordam ko'rsatmasdan turib, oziq-ovqat muamosi mavjudligi mushkullashib boradi va hokazo.

Mehnat jamoalarining harakatlarini uyushtirish orqali butun jamiyatimiz uchun foydali bo'lgan **bir qator maqsad va vazifalarni** ro'yo'bga chiqarish zarur:

1. Mehnat jamoalarining kuch-fayrati eng yirik tehnik-iqtisodiy, sotsial, siyosiy, madaniy muammolarni hal etishga yonaltiriladi. Ho'jalik yuritish shakllarini tanlashda jamoalarning mustaqilligi, mehnatdagi intizom, uyushqoqlik, mas'uliyatlilik, jonkuyarlik bilan tadbirkorlikni birlashtirish ta'minlanadi. SHu jumladan, o'z-o'zini samarali boshqarish negizida tadbirkor-rahbarlar bilan ishlash mehnat jamoalari o'rtasida yaqindan o'zaro hamkorlik o'rnatilishiga erisxiladi.

2. «Samarali, konstruktiv ish yo'lida plyuralizm» shiori ostida mehnat jamoalarini integratsiyalash potentsiali ko'paytiriladi.

3. Mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va bajarishda mehnat jamoalarining kuch-harakatlari birlashtiriladi.

4. Guruhiy hudbinlik, millatcxilik va boshqa salbiy tendentsiyalarga qarshi turiladi.

Mehnat sohasida ijtimoiy birlikning asosiy ko'rinishi mehnat jamoasi hisoblanadi. Mehnat jamoalaridagi mehnatkashlarning o'zaro munosabatlari, mehnat jarayonidagi ijtimoiy vaziyatlar va mehnat munosabatlari shular jumlasidandir. Mehnat munosabatlari mehnat jarayonidagi ishtirokcxilar o'rtasida yuzaga kelib, iste'mol qiymatini yaratish va mehnat kooperatsiyasi hamda mehnat taqsimoti asosida sodir bo'ladi.

Mehnatning huquqiy munosabatlari mehnat jamoasi kasaba uyushmalarining korhona, tashkilot ma'muriyati, hususiy tadbirkorlar bilan bo'ladigan o'zaro huquqiy aloqalarini ham o'z ichiga oladi.

Mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, mehnatni muhofaza qilish, mehnat va davlat intizomi, ishchi va hizmatcxilarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bilan bo'liq takliflar, mehnat jamoasi kengashi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasining birlashgan kengashida, korhona ma'muriyati ishtirokida muhoqama qilinadi. SHundan so'ng tushgan qo'shimchalar va takliflar bilan qayta ko'rib chiqilgan jamoa shartnomasi korhona mehnat jamoasining umumiy yirilishiga muhokama va qabul qilish uchun tavsiya etiladi. Jamoa shartnomasi tarkibiy qismlari va mazmunini mehnat jamoasi, korhona ma'muriyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi mustaqil ravishda belgilaydi.

Jamoa shartnomasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadigan halq ho'jaligi tarmoqlarining mustaqil balansga ega bo'lgan va yuridik shahs hisoblanadigan korhona va tashkilotlarida tuziladi.

Mehnat sotsiologiyasida o'zaro aloqadorlik tushunchasi qo'llanilib, u ikki asosiy munosabatni o'z ichiga oladi. Bular o'zaro hamkorlik va raqobatdir. O'zaro hamkorlikda turlicha ijtimoiy qiziqishlar, manfaatlar o'zaro mos tushadi. Raqobatda esa, aksincha, o'zaro manfaatlar zid keladi. Bu tendentsiyalarni o'rganish ayniqsa, hozirda respublikamizda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik mulkcxiligi shakllanayo'tganligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

1996 yil 1 aprelda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi» bozor munosabatlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tarkib topishida muhim o'rin tutdi. Kodeksda mehnat munosabatlarini yangi sharoitda tartibga solishga qaratilgan qonun qoidalar 294 moddani tashkil etadi. Bu qonun - qoidalar mehnat bozorining samarali amal qilishiga xizmat qilmoqda.

## **9.6. Ishsizlikning sotsial qiyofasi**

U yoki bu sabablarga ko'ra ishsiz qolgan kishining jamiyatdagi mavqeyni qanday sotsial, iqtisodiy, psixologik, omillar belgilaydi? Bozor iqtisodiyo'tiga o'tish davrining hozirgi bosqichida yuzaga kelgan o'rtacha ishsizlikning qiyofasi qanday?

Avvalo, u mehnatga layo'qatli yoshdagi kishi, buning ustiga ko'p hollarda foyatda faol yoshda. CHunonchi, so'rab chiqilganlarning 70,3%i 20-40 yoshda, 39,6%i 20-29 yoshda va 30,7%i 30-39 yoshda. Agar qolgan kixilar orasida 40-54 yoshdagilarning hissasi kattaligini hisobga olsak, ma'lum bo'ladiki, asosan aholining iqtisodiy faol qismiga mansub kixilar ishsiz qolganlar.

Buning ustiga respublikada «hotin-qizlar ishsizligi» ustun turadi: so'ralganlarning 54%ini ular tashkil etadi.

Mehnat birjalariga jami murojaat qilganlarning 26,4%i oliy va tugallanmagan oliy ma'lumotga, 35,2% o'rta, 31,2% o'rta maxsus, 7%i to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

Nihoyat, quyidagi ma'lumotlar milliy tarkibni harakterlaydi: o'zbeklar—42,7%, boshqa tub erli halq vakillari 9,7%, ruslar 31,6%, boshqalar 16% .

SHunday qilib, bugungi kundagi ishsizlar foyatda faol mehnatga layo'qatli yoshdagi, odatda, etarlicha yuqori darajada ma'lumotli kixxilar. Bu toifadagi aholi asosan o'zbek va rus millatlariga mansub kixxilar hisobiga ko'payib bormoqda. Biroq, shuni oldindan aytish lozimki, so'ralganlarning chorak qismi o'z hohshi bilan ishdan bo'shagan va hozir o'zlari uchun to'firi keladigan ishni qidirmoqdalar.

Mehnat birjasiga murojaat qilganlarning katta qismi shtat qisqarib yoki ular ilgari mehnat qilgan korhona tugatilishi oqibatida ishsiz qolishgan.

SHunday qilib, ishsizlarning aksariyatini (58%) mehnat birjasiga davlat korhonalari va tashkilotlari etkazib bermoqda, bunda kooperativlar «hissasi» 7,2%, ijara korhonalari esa – 2,6%dir. Ilgari hech qaerda ishlamagan kixxilar – o'quv yurtlari bitiruvxixxilar, uy bekalari va hokazolarning hissasi ham kattagina.

Bugungi kunda kixxilarning ishni yo'qotishlari mumkunligi va yangi ishni izlash, qayta o'qitish, kasbni o'zgartirish zarurligiga ruhan tayyorligi, qisqasi, bozor sharoitida yashashga to'firi kelishini batamom anglash bilan borliq muammolar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bozor munosabatlari shakllanishining boshlanfich davrida kixxilar yangi iqtisodiy reallikni idrok etishga ruhan tayyor emasligi va kutilmagan zarbani yumshatish uchun zarur bilim hamda ko'nikmalarga ega emasligini qayd etmoq lozim. SHuning uchun aholini, ayniqsa, uning kam daromadli guruhlarini sotsial himoyalash tizimi va mehanizmlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Bizning respublikamizda bunday tizim amalda barpo etilgan, bu narsa tegishli huquqiy hujjatlarda va avvalo «O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan ta'minlash to'frisida»gi qonunda, shuningdek, iqtisodiyo't strukturasi qayta qurish, narhlarni erkinlashtirish, hususiyashtirish, pulning qadrsizlanishini va hokazolarni yumshatuvchi choralarda o'z aksini topadi.

Bunday natijalar, shak-shubhasiz, ish bilan ta'minlash sohasida davlat yanada faolroq siyosat olib borishi zarurligini ko'rsatuvchi muhim hollardan biridir. Bunda u nafaqat ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab-

quvvatlashgagina emas, balki ularni faol mehnat faoliyatiga jalb etishga yordam beradigan shart-sharoitni har tomonlama rafbirlantirishga ham karatishi kerak. Kixsilarning yangidan kasb o'rganishga, yangi iqtisodiy strukturalarga kirishga tayyorligini oshirish zarur. Bu esa bozor munosabatlariga o'tish chorida shahs o'zining potentsialini ro'yo'nga chiqarishi uchun hizmat qiladi.

### Viloyatlar bo'yicha rasman qayd etilgan ishsizlik (%)<sup>1</sup>

	1993 yil			1994 yil		
	Jami ishsizlar	shahar	Qishloq	Jami ishsizlar	SHahar	Qishloq
O'zbekiston (jami)	0,3	0,1	0,2	0,3	0,1	0,2
Qoraqalpoq. Respublikasi	1	0,6	0,4	1,4	1,0	0,4
Andijon	0,5	0,2	0,3	0,3	0,1	0,2
Buhoro	0,2	0,1	0,1	0,1	....	0,1
Jizzah	0,2	....	0,2	0,2	....	0,2
Qashqadaryo'	0,3	0,1	0,2	0,2	0,1	0,1
Navoiy	0,4	0,2	0,2	0,8	0,2	0,6
Namangan	0,2	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1
Samarqand	0,2	....	0,2	0,3	0,1	0,2
Surhondaryo'	0,3	0,1	0,2	0,1	....	0,1
Sirdaryo'	0,3	0,1	0,2	0,2	....	0,2
Toshkent	0,2	0,2	....	0,1	0,1	....
Farrona	0,2	0,1	0,1	0,1	....	0,1
Horazim	0,8	0,3	0,5	0,3	0,1	0,2
Toshkent shahri	0,3	0,3	....	0,1	0,1	....
1995 yil						
	Jami ishsizlar		shahar		qishloq	
O'zbekiston (jami)	0,4		0,2		0,2	
Qoraqalporiston Res.	1,8		1,2		0,6	
Andijon	0,2		....		0,2	
Buhoro	0,1		....		0,1	
Jizzah	0,3		....		0,3	
Qashqadaryo'	0,3		....		0,3	
Navoiy	1,8		0,8		1,0	
Namangan	0,4		0,2		0,2	
Samarqand	0,3		0,1		0,2	
Surhondaryo'	0,2		0,1		0,1	
Sirdaryo'	0,6		0,1		0,5	
Toshkent	0,2		0,1		0,1	
Farrona	0,1		....		0,1	

<sup>1</sup> «Inson taraqqiyoti to'grisida hisobot». T.: «O'zbekiston», 1997, 117-bet.

Horazim	0,3	0,1	0,2
Toshkent shahri	0,2	0,1	....

Respublikada 2000 yil 1 iyulga qadar aholining ish bilan bandligi va ishsizlar soni quyidagicha bo'lgan.<sup>1</sup>

Hududlar	Iqt. Bandlik (1000 kishi)	O'zbekiston bo'yicha iqtisod. band	Ishsizlar (1000 kishi)	O'zbekiston bo'yicha ishsizlar	Rasmiy qayd etilgan	O'zbekiston bo'yicha rasmiy qayd etilgan ishsizlar
O'zbekiston Respublikasi	8798,5	100%	45,2	100	33,3	100%
Qoraqalporiston	484	5,5	7,4	16,4	6,8	20,4
Toshkent shahri	996	11,32	3,5	7,7	1,5	4,5
Andijon viloyati	825,5	9,38	3,0	6,6	2,2	6,6
Buhoro viloyati	587	6,67	1,6	3,5	1,1	3,3
Jizzah viloyati	287	3,26	1,3	2,9	0,7	2,1
Qashqadaryo' viloyati	707	8,03	1,9	4,2	1,5	4,5
Navoiy viloyati	307	3,49	10,1	22,4	9,3	28,0
Namangan viloyati	579	6,58	3,5	7,7	2,2	6,6
Toshkent viloyati	860,5	9,78	1,6	2,2	0,9	2,7
Farg'ona viloyati	1018	11,57	2,1	4,7	1,2	3,6
Horazm viloyati	458	5,2	2,5	5,5	1,6	4,8
Samarqand viloyati	886	10,07	49	10,9	2,9	8,7
Surhondaryo' viloyati	571	6,49	0,8	1,8	0,6	1,8

Bu ma'lumotlarga ko'ra aholi sonining tabiiy o'sishi jarayonida ishchi kuchlari ham o'sadi. Yangi ish joylari yaratilishiga qaramay ishsizlar soni ham ko'payib boraveradi. Shu zaylda yo'llanma ishchilar soni ham ko'payib bormoqda. Ammo, 2000 yilga kelib kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hisobidan 193 ming yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu 1999 yilga nisbatan 1,5 baravar ko'p edi.<sup>2</sup> Respublika bo'yicha 2001 yil 1 yanvarga qadar ro'yhatga olingan ishsizlarning 21,9% ayollar, 13,5% esa erkaklar bo'lgan<sup>3</sup>.

Kichik va o'rta biznes korxonalarida aholining ish bilan bandligi ko'rsatkichlari 2001-2002 yillarda quyidagicha bo'lgan<sup>4</sup>.

Hududlar	Iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonidan kichik va o'rta biznesda band bo'lganlar miqdori %	Aholining mehnat samaradorligi va ishga layo'qatliligi (1000 kishi)	Yangida tashkil etilgan ish o'rinlari KUBda	Ishsizlarni ish bilan band qilish

<sup>1</sup> O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. 2000 y. yanvar-iyun.

<sup>2</sup> O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2002. №3. 12-bet.

<sup>3</sup> Jenuini i mujchini Uzbekistana. Stat. sbornik. T.,2002. str-96.

<sup>4</sup> Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2004. №1. 71-bet.

					(birlik)		
	2001 I-IX	2002 I-IX	2001. 01.09	2002. 01.09.	2002. 01.09	2001. 10.10	2002. 10.10
Respublika bo'yicha jami	52,8		12391,8	12820,0	292140	50603	45626
Andijon	56,6	56,4	1127,6	1172,0	20944	2959	2631
Buhoro	53,9	57,1	743,2	771,1	20,272	1512	1236
Jizzah	57,5	66,0	470,7	487,2	14381	1609	1241
Qashqadaryo'	51,2	55,5	1031,2	1079,7	25554	3226	2462

Qishloq hududlarida kichik va o'rta biznes, tadbirkorlik, ijtimoiy sohada yangi ish o'rinlari yaratishni o'z ichiga olgan 2000-2005 yillarga mo'ljallangan aholini ish bilan ta'minlash dasturi katta ahamiyatga egaligi bilan muhimdir<sup>1</sup>.

2004 yilning boshidan Toshkent shahri bo'yicha 32989 ta yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Ulardan 736 tasi davlat sanoat korxonalarida, 29869 tasi kichik biznes va tadbirkorlik hisobiga, shu jumladan ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jam'armasi hisobiga 1145 ta va yuridik shahs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlik bilan shu'ullanayo'tganlar 8958 ta, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobiga 2342 ta, bozor infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga 42 ta.<sup>2</sup>

Bugungi kunda (2009) mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 46 foizdan ko'profi aynan kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilayo'tganlardir. Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lgan bu masalani echishda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, hizmat ko'rsatish sohasi va kasanacxilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvaxilikni rivojlantirishni ra'batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. 2008 yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida – 374 mingta, hizmat ko'rsatish va servis sohasida - qariyb 220 mingta, kasanacxilik hisobidan esa – 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi.<sup>3</sup>

### Sohalar bo'yicha bandlik ko'rsatkichlari

	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Ishchi kuchi (jami aholiga nisbatan foizda) jami	37,4	37,1	37,0	36,9	36,7	36,6	36,7	37,1	37,6

<sup>1</sup> Ishsizlar soni o'saveradimi? // Jamiyat va boshqaruv.2001.No4. 13-bet.

<sup>2</sup> Aholini ish bilan ta'minlash bosh vazifamiz // Sahovat.2004. No6. 9-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: «O'zbekiston», 2009.-24-25-b.

SHahar	17,3	17,8	17,7	17,6	17,9	17,0	16,4	16,6	16,8
Qishloq	20,1	19,3	19,3	19,3	18,8	19,6	20,3	20,5	20,8
Bandlar (bandlar umumiy sonidan foizda)									
qishloq va o'rmon ho'jaligida jami	41,2	40,9	40,7	39,4	36,2	34,4	33,5	32,6	31,9
SHahar	1,4	1,5	1,5	1,5	1,4	1,5	1,2	1,1	1,2
Qishloq	39,8	39,4	39,2	37,9	34,8	32,9	32,3	31,5	30,7
Sanoatda Jami	12,9	12,9	12,8	12,7	12,6	12,7	12,7	12,7	12,8
SHahar	11,4	11,5	11,4	11,3	11,3	10,7	10,2	10,2	10,3
Qishloq	1,5	1,4	1,4	1,4	1,3	2,0	2,5	2,5	2,5
Noishlab chiqarish sohasida Jami	26,1	26,6	26,9	26,9	29,1	30,4	30,7	31,3	31,8
SHahar	18,8	19,9	20,2	20,1	20,4	18,5	18,5	18,7	18,9
Qishloq	7,3	6,7	6,7	6,8	8,7	11,9	12,2	12,6	12,9
Ishchi kuchining almashinuv indeksi (foizda) jami	237	234	229	223	215	206	197	188	180
SHahar	189	186	183	179	173	166	159	152	146
Qishloq	271	267	261	253	243	233	222	211	201
Kasaba uyushmalarida qatnashuvchi ishchilar foizi	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Haftasiga ish soati soni (ishlab chiqarishda)	40	40	40	40	40	40	40	40	40

### Ishsizlikning sotsial qiyofasi<sup>1</sup>

	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Rasmiy maqomga ega bo'lgan ishsizlar (ming kishi) jami	25,4	27,5	28,8	33,3	39,1	35,4	37,5	34,8	32,2
SHahar	10,3	12,1	8,5	11,4	14,3	14,0	11,5	11,9	9,5
Qishloq	15,1	15,4	20,3	21,9	24,8	21,4	26,0	22,9	22,7
Ishsizlik darajasi, jami (foizda) Jami	0,3	0,3	0,3	0,4	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3
SHahar	0,3	0,3	0,2	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,2
Qishloq	0,3	0,3	0,4	0,5	0,5	0,4	0,5	0,4	0,4
Ishsizlikning hududlar bo'yicha har xilligi (eng yo'mon 25 foizni eng yahshi 25 foiz bilan qiyo'slaganda)	11,2	7,0	9,4	9,8	8,0	5,7	5,7	5,2	7,5
Ishsizlarning joriy yilda o'rta va oliy o'quv yurtlarini bitirganlar soniga nisbati	1,8	2,0	2,2	1,9	2,5	2,4	1,8	4,0	2,3
SHu jumladan: ayo'llar	2,9	3,7	3,6	3,4	4,5	3,1	2,8	6,8	2,6
Erkaklar	1,1	1,1	1,4	1,2	1,2	1,7	1,1	2,5	2,0
Uzoq muddatli ishsizlik holati (jamiga nisbatan)	9,2	19,3	5,7	10,4	8,8	8,2	12,3	11,4	5,7

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston -2005. 102-bet.



foizda) 6-12 oy									
12 oydan ortiq	4,9	3,3	2,2	2,8	3,5	3,1	1,6	3,0	2,8

### Respublika miqyo'sida mehnat resurslari dinamikasi (ming kishi)

Yillar	Doimiy aholi soni Yil u-n o'rta hisobda	Mehnatga layo'qatlilar soni	Turilganlar soni	Mehnat bilan band aholi soni	Rasman ishsiz deb e'tirof etilganlar
1991	20857,0	10237,7	723,4	8255,0	0,0
1995	22684,0	10601,6	678,0	8449,2	25,4
2000	24650,4	12941,5	527,6	8983,0	35,4
2001	24964,4	13353,4	513,0	9136,0	37,5
2002	25271,8	13777,6	532,5	9333,0	34,8
2003	25567,7	14212,4	508,5	9589,0	32,2
2004	25864,4	14646,4	540,4	9910,6	34,9
2005	26167,0	15050,3	533,5	10196,3	27,7
2006	26488,2	15452,7	555,9	10467,0	25,5
2007	26868,0	15882,9	608,9	10735,4	23,2
2008	27302,7	16321,9	646,1	11035,4	22,9
2009	27767,3	16775,3	649,7	11328,1	20,1

Manba- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi

### Iqtisod sotsiologiyasiga ilova<sup>1</sup> Iqtisodiy rivojlanish tamoyillari

	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
<b>YAIM yillik o'sishi (foizda)</b>	-0,9	1,7	5,2	4,3	4,3	3,8	4,2	4,2	4,4
<b>Aholi jon boshiga YAIM (foizda yillik o'sish)</b>	-2,7	-0,2	3,3	2,6	2,8	2,4	2,9	2,7	3,2
<b>Soliqlardan daromadlar (YAIM foizida)</b>	27,3	27,7	26,0	27,9	25,9	23,3	21,0	22,5	22,5
<b>To'rtidan-to'rti soliqlar (barcha sohalarga nisbatan foizda)</b>	42,0	44,7	43,2	35,2	34,7	33,4	34,9	30,1	28,4
<b>Umumiy byudjet kamomadi (YAIM foizda)</b>	2,7	1,9	0,7	0,5	0,6	0,7	0,3	0,2	0,4
<b>Eksport (YAIM foizda)</b>	31,6	34,2	29,8	25,0	21,8	26,5	30,8	31,6	37,4

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston -2005. 103-bet.

## YAAlpi ichki mahsulot tuzilishi (foizda)<sup>1</sup>

	2000	2001	2002	2003
<b>YAIM jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Qo'shimcha qiymat</b>	<b>87,5</b>	<b>88,1</b>	<b>87,9</b>	<b>86,6</b>
<b>SHu jumladan:</b>				
<b>Sanoat,</b>	<b>14,2</b>	<b>14,1</b>	<b>14,5</b>	<b>15,0</b>
<b>Qishloq ho'jaligi</b>	<b>30,1</b>	<b>30,0</b>	<b>30,1</b>	<b>28,8</b>
<b>Qurilish</b>	<b>6,0</b>	<b>5,8</b>	<b>4,9</b>	<b>4,5</b>
<b>Hizmatlar</b>	<b>37,0</b>	<b>38,0</b>	<b>38,2</b>	<b>38,1</b>
<b>Ulardan:</b>				
<b>Savdo</b>	<b>9,7</b>	<b>10,4</b>	<b>9,9</b>	<b>9,4</b>
<b>Traesport va aloqa</b>	<b>7,7</b>	<b>7,5</b>	<b>8,2</b>	<b>8,5</b>
<b>Boshqa tarmoqlar</b>	<b>19,8</b>	<b>20,3</b>	<b>20,3</b>	<b>20,4</b>
<b>Sof soliqlar, shu jumladan, importga soliqni ham qo'shgan holda</b>	<b>12,5</b>	<b>11, YU9</b>	<b>12,1</b>	<b>13,4</b>
<b>Tashqi savdo oborotining YAIM nisbati</b>	<b>45,4</b>	<b>57,0</b>	<b>59,3</b>	<b>67,4</b>
<b>SHu jumladan:</b>				
<b>Eksport</b>	<b>24,0</b>	<b>29,9</b>	<b>31,2</b>	<b>37,6</b>
<b>Import</b>	<b>21,4</b>	<b>27,1</b>	<b>28,1</b>	<b>29,8</b>

### Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi bir qator mustaqillikka erishgan davlatlar qatori ishlab chiqarish munosabatlarining bozor iqtisodiyoti'ga asoslangan shakliga o'tishni tanladi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti'ni o'zining ob'ektiv qonuniyatlari asosida rivojlanadi. Bu qonunlarning hayotga tatbiqini ta'minlash uchun esa ma'lum bir o'tish davri talab etiladi.

YUqorida biz ana shu o'tish davrida amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar hususida hamda shu davrdagi ijtimoiy boshqaruvning o'ziga xos shakllari haqida fikr yuritdik.

O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun qonuniy ravishda va uning kundalik hayotida mulkka ega bo'lish, iqtisodiy faoliyatda to'la erkin bo'lish, o'zi mehnat qiladigan sohani va ish shaklini tanlashda erkin bo'lish huquqi ta'minlanishi darkor. Mehnat qilish huquqi, tadbirkorlik bilan shu'ullanish imkoniyati hamda o'z mehnatidan daromad olish huquqi, mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligi muammosini hal etish bilan chambarchas borliq. Mavjud muammoni hal etishda mehnat sotsiologiyasining roli kattadir.

YUqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytganda, mehnat sotsiologiyasi jamiyat iqtisodiy hayotining yuksalishida muhim

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston -2005. 109-bet.

ahamiyatga ega. SHu jihatdan mehnat sotsiologiyasi iqtisodiyot sotsiologiyasi bilan chambarchas bogʻliq. Iqtisodiy munosabatlar tarkibini oʻrganishda mehnat sotsiologiyasining ahamiyati beqiyos.

## **10-MAVZU. MAHALLA VA BOSHQA OʻZ-OʻZINI BOSHQARUV SOTSILOGIYASI**

### **10.1. Mahalla va boshqa oʻz-oʻzini boshqaruv sotsiologiyasi tushunchalari**

**Mahalla** – (arabcha «mahalla» - joy, oʻrin, makon) – Oʻzbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat koʻrsatayoʻtgan, aholi yashaydigan maʼmuriy-hududiy birlik, uyushma. Mahalla oʻzini-oʻzi boshqaruv tizimining muhim milliy ijtimoiy organi boʻlib, u Oʻzbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy koʻrinishdagi shakli hamdir.

Mahallalar 1917 yilgacha boʻlgan davrda juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma boʻlib kelgan. Mahalla oʻzbek halqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda izlab topgan va asrlar davomida takomillashtirib kelgan hayotiy amalidir. Ammo shunga qaramasdan, sobiq shoʻrolar davrida

hukmron tuzum va mafkura mahallalarni rasman tan olmadi. Biroq aholining chuqur noroziligiga sabab bo'lmaslik uchun mahallalarni taqiqlab ham qo'ya olmadi, uni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmadi. Mahalla o'z mohiyati, faoliyati mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, ish ko'rish tarzi kabi halqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi. Mahallalar aholini axil-totuv yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishni engillashtirishga chaqiradi.

Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasida ikkita ta muhim masalaga e'tibor bermoq lozim. Bular:

1. Mahalliy hokimiyat organlari.
2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

**1. Mahalliy hokimiyat organlariga** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ning 99-104-moddalariga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hamkorlik, boshcxilik qiladigan halq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. 1993 yil 2 sentyabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'frisida» qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 100-moddasiga binoan mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoriga qo'yidagilar kiradi:

- qonuncxilikni, huquq-tartibotni va fuqarolarning havfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yifimlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamfarmalarni xosil qilish;
- mahalliy kommunal ho'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etish;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

**2. Fuqarolarning o'zini-o'zi (mahalliy) boshqarish organlari.** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ning 105-moddasiga binoan «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yifinlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatcxilarini saylaydi».

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tarkibini fuqarolar yifinlari, hususan, mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim organi bo'lgan mahalla – bu, hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va

irodasini o'zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ta'kidlaganidek, «Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeilarini oshirish darkor. «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday yondashuv fuqarolarning o'zlariga-o'zlari hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va teng tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi»<sup>1</sup>.

SHu boisdan ham mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi aynan ana shu fuqarolarning o'zini-o'zi mahalliy boshqarish organlari faoliyatini va uning ijtimoiy jihatini tahlil qiladi.

Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning mahalliy kuyi organi bo'lgan mahallaning avvalo huquqiy asoslari quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» (aynan 21 – bob, 105 – moddada u o'z ifodasini topgan).

2. 1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'frisida»gi Qonuni.

3. 1999 yil 14 – 15 aprelda Oliy Majlis tomonidan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'frisida»gi Qonunning yangi tahriri, uning asosiy maqsad va vazifalarini, ijtimoiy mohiyatini ifoda qilib bergan.

2002 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessissida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, hayotimizni erkinlashtirish yo'llardan yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruvi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishini ta'minlaydi.

4. 2004 yil 29 aprelda «Fuqarolar yirini raisi (oqsoqol) va uning maslahatcxilari saylovi to'frisida»gi qonun qabul qilingan.

5. 2008 yil 30 sentyabrda O'zR Oliy Majlisi Senati Kengashining «Fuqarolar yirinlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatcxilari saylovi to'frisida»gi qarori qabul qilindi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 389-bet.

Mustaqillik yillarida mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. 1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika «Mahalla» hayriya jam'arnasini tuzish to'rtisida»gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'sha yili 17 oktyabrda «Respublika «Mahalla» hayriya jam'arnasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'rtisida»gi 480-sonli qarori qabul qilindi. 1992 yili Respublikamizda 8 mingga yaqin, Toshkentda 279 mahalla mavjud edi. 1993-1994 yillarda mamlakatimizda 12 mingdan ortiq mahalla qo'mitalari tuzildi. 2009 yilga kelib O'zbekistonda 10 ming 118 tadan ortiq, Toshkent shahrida esa 474 dan ko'proq mahalla faoliyat yurita boshladi. «Oila-mahalla-maktab» kontseptsiyasi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. Bu boshqa davlatlarda uchramaydigan noyo'b dasturdir.

1999 yil 14 apreldagi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'rtisida»gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga muvofiq:

- 1) bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalar faoliyati erkinlashtirildi;
- 2) mahallalar hokimiyat tizimidan chiqarildi;
- 3) qator imtiyozlar berildi;
- 4) boqimandalik kayfiyatidan ozod etildi;
- 5) «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari» qadam tashlanadi.

Natijada mahallalar adolatli, demokratik jamiyatning negiziga aylanib bormoqda.

Demak, mahallalar o'zini-o'zi boshqaruv tizimida quyidagi ijtimoiy vazifalarni bajarib kelmoqda:

1. Mahalla – ona maskan. Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir. Vatan – eng oliy qadriyatdir.

2. Mahalla – avvalo soflom ijtimoiy muhitdir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarni adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma'noda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, haqiqiy demokratik darshonadir.

3. Mahalla – tayanch markazi. Kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yo'lriz keksalar va h.k. tayanchi hisoblanib kelmoqda.

4. Mahalla – ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, an'analar maskani.

5. Mahalla yoshlarni kasb-korga yonaltiruvchi, ishsizlarni mehnat bilan ta'minlovchi ijtimoiy himoya hamdir.

6. Mahalla – tarbiya maskani. Bir bolaga etti qo'shni ota-ona ....

7. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan joy. Otang – mahalla, onang – mahalla, deb bejiz aytilmagan.

Umuman, mahallalar o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning

bir qismini mahalladagi ehtiyo'jmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi paytda mahalla qo'mitalari, bozor iqtisodi qonunlari asosida, o'z ishlarini tashkil qilishlari uchun barcha imkoniyatlar ochib berilgan. Ular oldi-sotdi, to'y-maraka marosimlari o'tkazish, hasharlar uyushtirish, mahalladagi oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan habar olish ishlari bilan shugullanadilar. Ko'pchilik mahallalarning o'z masjidi bor, turli ma'rakalar uchun kerakli ashyo'lar (doshqozon, palos, idish-tovoq, choynak-piyo'la, tobut va boshqalar) mavjud. Endilikda har bir mahalla o'z madaniy markazini qurib, shu erda choyhona, novvoyhona, sut-qatiq do'koni, turli o'yinlar maskaniga ega bo'lmoqda. Mahalla qo'mitasi - tashabbuskor jamiyat tashkilotidir. Mahallada ho'jalik va madaniy qurilish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar ho'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etishda, omma kuch-fayratini bunyo'dkorlikka yonalitirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallalarning ish faoliyati horijiy mamlakatlarning diqqat - e'tiboriga tushmoqda.<sup>1</sup>

Mahalla sub'ekti va uning ko'rinishlari. Mahalla boshqaruv tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan sub'ekt tushunchasiga e'tibor qaratish ilmiy mazmun kasb etadi. Mahalla sub'ketining o'ziga xos xususiyatini undagi boshqaruv funktsiyasi bajaradi. Chunki aynan shu funktsiya orqali mahallaning samarali ish faoliyati namoyon bo'ladi.

O'zbekiston hududida **mahallalarni quyidagi 4 ta asosiy qismga** ajratish mumkin:

- 1) shaharlardagi an'anaviy mahallalar;
- 2) shaharlardagi kavrtal mahallalar;
- 3) shaharchalardagi mahallalar;
- 4) qishloq mahallalari.

**Mahallalar ijtimoiy hayotida quyidagi vazfalarni bajaradi:**

- 1) oila muhofazasi;
- 2) obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va tozalik;
- 3) ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish;
- 4) ma'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish;
- 5) siyosiy faollikni oshirish va hokazo.

Sotsiolog P.A.Sorokin fikricha, «Inson ijtimoiy organizm bo'lib, tabiatdagi barcha tirik organizm singari yashash uchun muhim bo'lgan barcha sharoitlarga ehtiyo'j sezadi», hukumatimiz tomonidan mahalla masalasiga e'tibor qaratilayo'tganligining sabablaridan biri - unda ijtimoiy

<sup>1</sup> Abdullaev M. va bosh. «Mustaqillik». Izohli ilmiy-ommabop lugat. Toshkent: «SHarq», 1998, 113-114-betlar.

aloqadorlikni shakllantiruvchi va kishilarni ijtimoiy guruh sifatida boʻlovchi jarayonlarning mavjudligidir. Bu jarayonlar:

a) ildizlar;

b) munosabatlar;

v) tashabbuskorlik. Bu holatlar kishilarni yanada jipslashtiradi.

Qadimgi yunonlar «demokratiya» atamasini ishlab chiqqanlarida tabiiy-ijtimoiy jarayonga eʼtiborni qaratgan edilar. YAʼni, kishilar oʻzlari yashayotgan joyga xos boʻlgan imkoniyatlarni yaratadilar. Demak, demokratiya – bu, halq hokimiyati yoki halq boshqaruvchi sifatida ommani turli tabaqalari ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Oʻz-oʻzidan ravshanki, halq ishtirok etadigan va oʻz ijtimoiy mohiyatini mumkin qadar toʻla namoyon eta oladigan halqcxil tizim – bu, oʻzini oʻzi boshqaruv tizimidir. Halq boshqaruv tizimida faol ishtirok etar ekan, u oʻzining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini oshirib boradi, demak, u jamiyatning maʼnaviy va ijtimoiy hayotiga kirib boradi hamda uni tobora jamiyat taraqqiyoti va ravnaqiga yonaltirib qoʻyadi.

SHahsning ijtimoiy munosabatlariga kirishishi yirilib qolgan muammolar hamda har xil voqeliklar va tafsilotlar toʻrʼrisida fikr yuritish yoki xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Bu holat, oʻz navbatida, fuqarolarning siyosiy faollik roli ortib borishi uchun zamin hizmatini bajaradi. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, mahalla munosabatlarida barcha qatlamlardagi kishilarning ishtirok etishi bir tekis holatda kechadi. Bu esa jamiyatda oʻrta qatlam munosabatlariga kirishish oqibatida mahallaning odamlar hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyfunligi koʻp jihatdan jamiyatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish imkoniyatlarini yanada tezlashtiradi.

Odamlarning hatti-harakati, voqelikka va har qanday yangilikka nisbatan munosabati, eng avvalo yuksak ahloq-odob, sharqona vazminlik, ota-bobolarimizga xos mulohazamandlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda shahsiy manfaatlardan umumdavlat va umumhalq manfaatlarini ustun qoʻyish, jamoa uchun yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan. Bu va shunga oʻhshagan fazilatlar milliy qadriyatlar darajasiga koʻtarilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi «Fuqarolarning oʻzini - oʻzi boshqarish organlari toʻrʼrisida» (1999)gi yangi tahrirdagi qonunning 6-moddasida aytilgandek, «Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari faoliyatining asosiy printsiplari demokratizm, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni echishda mustaqillik, jamoatchilik asosida oʻzaro yordam»<sup>1</sup>, deb belgilangan. Aytish mumiknki, Oʻzbekistonda amalga oshirilayoʻtgan mahalla

<sup>1</sup> Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari toʻrʼgrisida. Oʻzbekiston Respublikasi qonuni // «Postda» gazetasi. 1999 yil 22 yanvar.



demokratiyasi, uning halq hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyfunligi sababli kundalik hayot tarzimizda qaytadan qaror topayo'tgan boshqaruv tizimi sifatida o'z ifodasini topmoqda.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyo'tlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoitlar, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmovi lozim. Iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari avj olgan sari odamlarning ma'rifatga intilishi ham kuchayib borishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining asosiy kuch-qudrati manbai—bu, haqlimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolganligidir. O'zbekistondagi ana shunday umuminsoniy qadriyatlar sarchashmalaridan biri - mahalla tizimiga yuqorida to'htalib o'tgan edik. Prezidentimiz I.Karimov «Turkiston» gazetasi muhbiri bergan savollariga javoblarida – «Mahalla, ta'bir joiz bo'lsa, kixilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir, deyish mumkin. Bu noyo'b tajriba - aholining mahalla bo'lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. SHuning uchun ham insonni jamiyati bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi beqiyos makon – bu mahalladir», deb bergan javobni ushbu tizimni ommabop jarayonga aylantirish ayni muddao ekanligi to'frisidagi foya deb ifodalasa bo'ladi.

Hozirgi davrda mahallalarga bo'lgan qiziqish asosida dunyoda quyidagi institutlar amal qiladi:

1. Jamoalarning halqaro ittifoqi (shtab- kvartirasi Gaagada).

2. Viloyatlar va shaharlarni boshqarish bo'yicha Halqaro assotsiatsiya.

3. Jamoalarning Evropa ittifoqi (markazi Parijda).

4. Evropaning mintaqaviy va mahalliy hukumatlari kongressi.

1985 yil Evropa Kengashining tashabbusi bilan “Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning Evropa hartiyasi” qabul qilindi. Bu hujjat Evropa davlatlari munitsipial huquqining bosh manbai bo'lib, uning vositasida o'zini-o'zi boshqarishning keyingi rivojiga yo'l ocxildi (Qarang: Evropeyskaya hartiya mestnogo samoupravleniya. - M, 1998).

Ayni paytda jahon miqyo'sida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tizimining 3 ta asosiy modeli ajratib ko'rsatiladi.

1. SHimoliy Amerika.

2. Janubiy Evropa.

3. SHimoliy Evropa (yoki Skandinaviya).

**SHimoliy Amerika** modelida munitsipalitetning faoliyat doirasi nisbatdan tor, fragmentar shaklda bo'lib, u asosan biznes maqsadlariga xizmat ko'rsatishga qaratilgan.

**Janubiy Evropa modeli** (Frantsiya va Italiya uchun xarakterli bo'lgan). Bunda munitsipal faollik nisbatan yuqori bo'lmasada, shunga qaramasdan mahalliy siyosiy manfaatlar siyosatga millat darajasida ta'sir ko'rsata oladi.

**SHimoliy Evropa modeli.** Bu model asosan Daniya, Finlyandiya, SHvetsiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda amal qiladi. Bu mamlakatlarda munitsipalitetlar ancha faol bo'lib, ular mahalliy va umumdavlat ahamiyatida bo'lgan keng doiradagi vazifalarni hal qiladilar.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish modellariga davlat sektoridagi bandlikka nisbatan ularga to'g'ri keladigan bandlik darajasi bo'yicha ham baho berish mumkin. Hususan, bu ko'rsatkich 1991 yil Daniyada 70 %, Norvegiyada 60%, SHvetsiyada 54%, AQSH da 50%, Buyuk Britaniyada 38%, Germaniyada 15%, Italiyada 12%, Frantsiyada 11%ni tashkil etgan.

YAAlpi milliy mahsulotni iste'mol qilish bo'yicha ham bu mahalliy jamoalarning o'ziga xos ulushi mavjud. Masalan, bu ko'rsatkich SHvetsiyada 18,7%, Daniyada 17,7%, Finlyandiyada 13,5%, Norvegiyada 13%, Buyuk Britaniyada 8,2%, Italiyada 7,4%, Niderlandiyada 7,5%, Frantsiyada 4,4% ni tashkil etadi (Qarang: Polis. 1999, №2, 158 - bet).

O'zbekistonda mustaqillik yillarida mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan e'tibor foyat kuchaytirildi. SHuning natijasida o'ziga xos bo'lgan bu boshqarish organlarining huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekistonda 2008 yilning noyabr – dekabr oylarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lib o'tgan saylovlar jamiyatimiz hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy voqea sifatida baholandi. Saylovlarda 11 mln. saylovchi (katta yoshli aholining 85 foizi) qatnashdi. Saylov natijasida 10 ming 118 oqsoqollar hamda 80 mingga yaqin ularning maslahatxilari saylandi.

**Mahalliyxilik haqida. Mahalliyxilik** – bu, uruf-aymoqcxilik feodal jamiyatlarga xos bo'lib, bu qon-qarindoshlik aloqalari bilan bo'rlangan odamlarning birligidir. Uruf jamoasi o'z boshligining nomi bilan ataladi. Boshliq esa a'zolari uchun obro'li odam hisoblanadi, Uruf-aymoqcxilik doirasida o'z a'zolarini himoya etar, ularga homiylik qilar va yordam berardi.

**Mahalliyxilik** – milliy davlatxilikning zididir... Bir yaponshunos olim «YAponlar orasida ham o'zaro raqobat kuchli. Bir-birlari bilan

kelishmovcxiliklar bo'lib turadi. Ammo masala YAponiya manfaatlariga borib taqalgudek bo'lsa, hozirgina bir-birlariga qarama-qarshi bo'lib turgan ikki yapon kishisi birlashib, davlat, millat manfaatlarini uchun mustahkam himoyaviy birlikni namoyish etadilar», deb yo'zgan edi.

Demak, xulosa qilib aytganda **mahalliycxilik tahdidi quyidagilardan iborat:**

1) Respublika miqyo'sida – viloyatlararo bo'linishga olib kelish mumkin.

2) Viloyatlarda – tumanlararo bo'linishga yo'l ochadi.

3) SHahar, tuman darajasida – mahallalar, jamoa ho'jaliklari orasida bo'linishga olib keladi.

4) Mahalliy darajada: qishloqlararo bo'linish yuz berishi mumkin.

5) Jamoa ho'jaligi bo'yicha – uruflararo bo'linish.

6) Qarindoshlik belgilariga qarab bo'linish.

7) «MEN»ning (shahsiy) manfaatidan kelib chiqib bo'linish kabilar.

8) Mahalliycxilik–milliy davlat vujudiga kirib olishi mumkin bo'lgan rak hujayrasiga o'hshaydi. CHunki: davlat iqtisodiy qudratining bir nechta guruh kixilari tomonidan so'rib, o'firlanishi, talon-taroj qilinishini himoya qiladi<sup>1</sup>.

9) O'zbek halqi ichida o'zaro begonalik uruflarini ko'kartiradi.

10) Buyuk ishlarning o'rtamiyona kadrlarga topshirilishiga, iste'dodli kadrlarning mayda-chuyda ishlar bilan o'ralashtirib qo'yilishiga olib keladi.

11) Organizm – davlat kuchsizlashadi, islohot susayadi.

SHu boisdan ham Prezidentimiz Islom Karimov mahalliycxilikka qarshi kurash masalasiga har doim e'tibor qaratib kelmoqda. «Lekin, - degan edi u, - qarindosh-uruvcxilik, hududiy yoki etnik printsiplar asosida davlat tuzilmalarida tor guruhcxilik manfaatlarini bilan ish ko'radigan, aynan shu manfaatlarini birinchi o'rniga qo'yadigan uyushmalar (ko'pincha norasmiy uyushmalar) umumiy ishga, umumdavlat, umumhalq manfaatlariga zarar keltiradigan holda shakllanib, o'z maqsadlariga erishish uchun a'zolarini mavjud davlat, hokimiyat va boshqa po'fonalarda yuqori ko'tarishga harakat qilar ekan, bu hol havfli bo'lib qoladi. Ana shunda jamiyatning barqarorligi va havfsizligiga real tahdid soluvchi mahalliycxilik va uruf-aymoqcxilik haqida gapirishga to'firi keladi»<sup>1</sup>.

## **10.2. Bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish va undan foydalanishning sotsial muammolari**

<sup>1</sup> «Hurriyat». 1998 yil 4 fevral

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1998 y. 98-bet

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida har bir kishining madaniy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ahloqiy va jismoniy o'sishiga e'tibor berish, ularning bo'sh vaqtlarini oqilona uyushtirish katta ahamiyatga ega. Zero, bo'sh vaqtni oqilona uyushtirish kishilarning so'zligini saqlash va mustahkamlashning, madaniy saviyasi va dunyoqarashi o'sishining, ahloqiy va estetik tarbiyalashning muhim shartlaridir. Chunki bo'sh vaqt kishilarning tobora o'sib borayo'tgan ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, badiiy havaskorlik ijodi uchun zarur imkoniyatlar yaratishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, badiiy va estetik didni tarbiyalashga xizmat qiladi. Binobarin, barkamollik, etuklik mezonini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ahloqiy ko'nikmalarga mos kelishi va mehnat natijalari bilan hamohangligidir. Ma'naviy ehtiyoj har doim moddiy talab yoki imkoniyatlarga mos kelavermasligi mumkin. Ko'ngil nimalarni tusamaydi. Ammo ko'ngil maylini oqilona jilovlash ma'naviy ehtiyojni qondirishga yo'l ochadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari va ilmiy-tehnika taraqqiyoti natijasida mehnat jarayonlari to'htovsiz marakkablashib bormoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlarni aqliy rivojlantirishni, kasb, bilim va malakalarini oshirishni, ma'naviy ehtiyojlarini qondirib berishni taqozo etadi. Bu muammolarni hal qilish, o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilashga, mehnatni to'g'ri uyushtirishga, dam olishni yaxshi tashkil etishga bo'liq. Chunki o'qish, mehnat qilish bilan dam olish o'zaro bo'liqdir, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Hattaki, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ular bo'sh vaqti va madaniy dam olishlarini uyushtirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy hodisadir.

Hozirgi davrda kishilar bo'sh vaqtini oqilona uyushtirish, uni to'g'ri tashkil qilish madaniy-ma'rifiy muassasalar oldidagi dolzarb vazifadir. Shu boisdan bu sohadagi ishlarni davr talablari asosida ko'rib chiqish, ularning ish usullari, shakllari hususida fikr yuritish, amaliy tajribalarni umumlashtirish maqsadga muvofiq. Bo'sh vaqt sharoitida dam olishni uyushtirish hususida so'zlashdan avval, «Bo'sh vaqt» tushunchasini izohlash lozim. Bo'sh vaqtning vazifasi nimadan iborat? «Bo'sh vaqt» tushunchasi qanday tushunilib kelindi?

Bo'sh vaqt jamiyatning ijtimoiy boyligidir. CHinakam boylik shunday vaqtdirki, u bevosita sarflanib ketmay, balki ishdan holi kezlarda huzur-halovat uchun ajratiladigan o'ziga xos vaqtdir. Buning natijasida erkin faoliyat yurgizish va rivojlanish uchun keng imkoniyat tuziladi.

Qachonki, bo'sh vaqt bilim olish, o'z idrokini rivojlantirish, ijtimoiy vazifalarni bajarish, jismoniy va aqliy kuchlardan erkin suratda foydalanish uchun sarflansagina u haqiqiy ijtimoiy boylikka aylanadi.

Inson uchun eng katta, eng asosiy boylik ish vaqti emas, balki bo'sh vaqtdir. Bo'sh vaqt har bir kishiga dam olish, bilim olish, o'zini kamol toptirish, oila a'zosi va fuqaro sifatida o'z huquqlaridan foydalanish uchun zarur. Bo'sh vaqt har qanday jamiyatda halqning bilim va dam olishiga, umumiy madaniyatini oshirishga, jismoniy kamol topishiga hizmat qiladi.

**Bo'sh vaqt** – kishining majburiy ijtimoiy mehnatdan tashqari vaqtining bir qismi. Ijtimoiy hayotda mehnatkashlarning umumiy vaqtini ikki qismga – ish vaqti va ishdan tashqari vaqtga bo'lish mumkin. Ishdan tashqari vaqt asosan uy ishlariga, o'ziga qarash, uhlash va ovqatlanish uchun sarflanadigan vaqt va bo'sh vaqtga bo'linadi. Bo'sh vaqt shahsning har tomonlama takomillashuvi, bilim darajasini oshirish, ijtimoiy – siyosiy hayotga qatnashish, dam olishi uchun kerak bo'ladigan ishdan tashqari vaqtdir.

**«Bo'sh vaqt» va «ishdan holi vaqt»** degan tushunchalar ba'zi tadqiqotlarda bunday ta'riflangan: **«Bo'sh vaqt– bu pul to'lanadigan ishdan holi, uy ishlaridan va o'qishdan holi, ixtiyoriy foydalanadigan dam olish, ko'ngil ochishdir. U insonni ijtimoiy, badiiy, texnik jihatdan rivojlanishi uchun ajratilgan vaqtdir».**

**«Bo'sh vaqt** – bu insonning jamiyat a'zosi sifatida bajarib bo'lgan ishlaridan, ishlab chiqarishda, oilada va boshqa sohalarda bajarib bo'lingan ishdan so'nggi vaqtdir».

**«Bo'sh vaqt** – bu ishdan holi bo'lgan mehnatkashlarning intellektual rivojlanishi uchun sarflanadigan, insonning o'z hohishiga ko'ra foydalanadigan vaqtdir».

**Ilmiy tadqiqotlarda bo'sh vaqt uch turga ajratilib o'rganilmoqda:**

1. **Ijtimoiy- foydali faoliyatga sarflanadigan bo'sh vaqt** – ratsionalizatorlik va ixtirocxilik, havaskorlik ijodiyoti turlari, o'qish va malakani oshirish bilan shugullanish.

2. **Ma'naviy - madaniy boyliklardan foydalanishga sarflanadigan bo'sh vaqt** – kitob, gazeta o'qish, radio va televidenie ko'rsatuvlarini ko'rish, muzey, teatr, kino, kontsertlarga borish.

3. **Jismoniy sport va soflomlashtirish, sayo'hat-ekskursiya, sanatoriya va kurort sharoitidagi bo'sh vaqt.**

Bo'sh vaqtni yakka, guruh, va jamoa bo'lib, faol va nafaol holatda o'tkazish mumkin. Umumiy holatlarda bo'sh vaqtning asosiy qismi sayr qilishga, sportga va mehmonga borishga, kitob o'qishga, kino, teatr

ko'rishga, radio eshitish, televidenie ko'rish, badiiy havaskorlik bilan shufullanishga sarflanadi. Jamiyatda bo'sh vaqt ko'payishining ikki manbai mavjud:

1) Ish vaqtining qisqarishi.

2) Ishdan so'nggi vaqtni qayta taqsimlash hisobiga bo'sh vaqtni ko'payishi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, insonning jismoniy va ma'naviy kamolotida dam olishni tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Dam olish inson jismining shunday faoliyatiki, u charchoqni qondiradi va ish qobiliyatini tiklaydi. Dam olish yo'qotilgan kuchlarni qayta tiklashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dam olish masalalari faqatgina alohida shahslarning ishi bo'lmay, balki ijtimoiy - iqtisodiy siyosatning asosiy masalasidir. Hozirgi davrda dunyoning hamma mamlakatlarida sotsiologlar, faylasuflar, iqtisodchilar, demograflar, ruhshunoslar, huquqshunoslar va boshqa fan tadqiqotchilari bo'sh vaqt va dam olish masalalari bilan jiddiy shufullanmoqdalar.

Iqtisodiy va madaniy siyosatda odamlarning qobiliyatini namoyon qilish uchun foyat keng imkoniyatlar yaratib berish, ularning hayotini ma'naviy jihatdan boy, ko'p qirrali qilish uchun olib borilayo'tgan madaniy-tarbiyaviy ishlar odamlarning ehtiyo'jlarini tobora to'laroq qondirish, ularning manfaatlariga mos bo'lishi haqida muntazam da'vatlar aytilib turilsa-da, amalda bu ishlar orqaga ketaverishi mumkin. Natijada bo'sh vaqt ijtimoiy boylik sifatida amaliy mazmun kasb etmadi.

Bo'sh vaqt insonni ma'naviy kamol topishiga, uning qobiliyatini rivojlantirishga, shu tariqa butun jamiyatning moddiy va ma'naviy kuch-quvvatini yanada oshirishga xizmat qilsagina, u jamiyat haqiqiy ijtimoiy boyligining mezoni bo'lishi mumkin bo'ladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalangandagina turmush go'zallashadi. Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan mehnatkashlar o'z bo'sh vaqtini o'qish, o'rganish, sayr qilish, aqliy va jismoniy jihatdan o'sish, ilmiy-tehnika, badiiy ijod, sport bilan ko'proq shufullanishga sarf qilganlaridagina, ular o'zlarini shunchalik ko'p tarbiya eta oladilar. Fan va tehnika mo''jizalarini o'rganish, bilish, san'at, madaniyat masalalari bilan mash'ul bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar va jamiyat uchun ko'proq foyda keltiradilar.

Bo'sh vaqtni uyushtirishda madaniy dam olish ishlarining mazmunli va rang-barang bo'lishi, dam olish shakllarining aholi talablariga muvofiq kelishi hamda jamoa bo'lib dam olish shakllarini rivojlantirish orqali yoshlarning ijodiy havaskorligini o'stirish madaniy-ma'rifiy muassasalar faolligiga borliq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar dam olishini tashkil etish borasidagi faoliyati yoshlarda mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning, ular ijodiy tashabbuskorligini kuchaytirishning muhim omilidir. Inson omili mazmunli dam olishni uyushtirishga yangicha yondashishni taqozo etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish kishilarning mehnat fayrati va ijtimoiy faolligi zamiridagi jamiki ijodiy kuchlarni to'la safarbar etishga to'rri keladi. Zotan, insonga e'tiborli bo'lish, mehnat ahlining manfaatlari hamma narsadan ustuvor bo'lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida har bir kishining qobiliyati, kasb-kor malakasi, ongi va xulq-atvori har qachongidan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlari har bir shahsni ishlab chiqarishning sohibi va fuqarosi sifatida tashabbuskorligini rivojlantiradi, imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir kishi bo'sh vaqtini o'ziga ma'naviy jihatdan yaqin bo'lgan odamlar bilan o'tkazadi. SHu boisdan ma'naviy jihatdan yaqin odamlarning didlari, talablari va ehtiyo'jlari ham bir-biriga mos bo'lib tushadi.

Inson bo'sh vaqtini asosan oilada o'tkazadi. Lekin ijtimoiy hayotning muhim masalalari hususida odamlar bir-birlari bilan bahslashishlari, fikr almashishlari va bir-birlarining javoblarini diqqat bilan tinglashlari, suhbatlashish uchun qandaydir bir joyga to'planishlari lozim bo'ladi. Odamlarning bunday ehtiyo'jlarini qondiradigan joy bizda choyhona, evropaliklarda esa klub deb ataladi.

Bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish masalalari jamiyat hayotining ko'p tomonlarini qamrab oladi. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi, madaniy-tarbiyaviy ishlarning kuchaytirilishi kabi masalalar bilan bevosita borliqdir. Kishilar madaniy dam olishlarini uyushtirish va ular bo'sh vaqtdan unumli foydalanish uchun shart-sharoit yaratishda klub muassasalari katta imkoniyatga egadir. Yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, millati, qiziqishlari har xil bo'lgan kishilarning turli-tuman madaniy talablarini qondirish va dam olishni uyushtirish nihoyatda qiyin. Bu ish madaniyat hodimlaridan tashabbuskorlikni, topqirlikni, tajriba va malakani, ijodiy izlanishni, aholining istak va talablarini o'rganishni, turli tadbirlarni uyushtirish yo'llarini bilishni talab qiladi. Ayniqsa, madaniyat hodimlari qishloq mehnatkashlarining madaniy dam olishlarini uyushtirish hamda undan unumli foydalanish yo'llarini bilishlari zarur. Mehnat jarayonining texnikalashuvi natijasida ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining oshishi bo'sh vaqtning ko'payishini, mehnatkashlarning

tehnika bilimlariga bo'lgan qiziqishlari kuchayishini, madaniy talablarning oshishini, talant va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, odamlar hayoti va turmushida radio, televidenie, kino, vaqtli matbuot, badiiy adabiyot keng o'rin olgan. Bu vositalar orqali kishilarning bilim doiralari yanada boyib, ular dunyo voqealaridan, madaniyat yangiliklaridan muntazam habardor bo'lib bormoqdalar. Kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini uyushtirishda **birinchidan**, madaniy-ma'rifiy muassasalar ma'rifiy-tarbiyaviy, ommaviy-badiiy ishlar bilan dam olishni qo'shib olib borishlari; **ikkinchidan**, dam olishning turli usul va shakllaridan foydalanish bilan birga dam oluvchilarning istagan ish shakllarini uyushtirishlari; **uchinchidan**, dam olishning turli shakllarini tayyorlash, uyushtirish va o'tkazishda dam oluvchilarning tashabbusi hamda tashkilotchiligidan keng foydalanishlari lozim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar hodimlari shanba, yakshanba yoki ishdan bo'sh kunlari jamoa bo'lib dam olishni uyushtiradilar. Jamoa bo'lib dam olish tadbirlari mahalliy shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga qarab uyushtiriladi. Jamoa bo'lib dam olishning viloyat, tuman hududidagi tarixiy joylarga, uzoq shaharlarga, tof-toshlarga sayo'hatlar uyushtirish, turli sport musobaqalari tashkil etish, kontsertlar, kinofilmlar namoyishi, spektakllar ko'rish, muzeylarga tashrif, masXXur kishilar bilan uchrashuvlar kabi shakllari mavjud.

Bo'sh vaqtni uyushtirishda dam olish kechalari alohida ahamiyatga ega. Dam olish kechalarining rejasida ham u yoki bu guruhning qiziqishlari, talablari va ular nima bilan shufullanishlarini hisobga olish zarur. Dam olish kechalari badiiy havaskorlik jamoalari hamda malakali artistlarning kontsertlari, badiiy va hujjatli filmlarni namoyish qilish, tehnika sohalari, adabiyot va musiqaga oid ko'rgazmalar, ommaviy-atraktsion o'yinlar, kulgu, savol-javob kechalari shaklida bo'lishi mumkin.

Bo'sh vaqt sharoitida dam olishni tashkil qilishda mushoira, bahs-munozara, «Maqom», «Kulgi kechalari», «Navro'z bayrami», «Xosil bayrami», «Gul bayrami», «Lola sayili», «Qovun sayili» kabi halq bayramlari va boshqa ommaviy tadbirlarni uyushtirish katta ahamiyatga ega. Yoshlarning bo'sh vaqtidagi madaniy dam olishga barishlangan har bir tadbir ta'sirchan, qiziqarli, his-tuyfuga kuchli ta'sir qila oladigan, madaniy saviyani, bilimlarni o'stiradigan, ilhomlantiradigan, mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat tuyfularini uyrotadigan bo'lishi zarur.

Madaniy-ma'rifiy vositalar orqali aholi bo'sh vaqti va dam olishini uyushtirishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:



– bo'sh vaqtni uyushtirish insonga ramho'rlikni kuchaytirish maqsadlariga bo'ysundirilishi, uning ma'naviy ehtiyo'j va qiziqishlariga mos kelmo'ri darkor. «Munozara», ijodiy hodimlar bilan uchrashuvlar, halq sayillari, teatrlashtirilgan tamoshalar har bir madaniyat muassasasi faoliyatidan mustahkam o'rin olishi kerak;

– madaniyat muassasalari faoliyatida aholi talab va istaklari, ularning yosh, kasb-hunar, ma'lumot darajalarini hisobga olish asosiy mezon bo'lishi zarur;

– halq havaskorlik san'atini yanada rivojlantirish qo'shiq va raqs, musiqa bayramlarini, ijodiy konkurs va ko'riklarni muntazam o'tkazib turish lozim;

– kutubxonalar eng yahshi kitobni tarfiib-tashviq qilib, odamlar orasida bilim ziyo'sini tarqatishi kerak. Kutubhonada qancha kitob borligini fahr va sharaf deb bilmasdan, balki kitoblarning halq o'rtasida qanchalik ko'p o'qilishini, qancha yangi o'quvcxilar jalb qilinganligini, kitobga bo'lgan har qanday talab qanchalik tez qondirilishini, unga qancha kitob berilganligini, kitob o'qishga va kutubhonadan foydalanishga bolalardan qanchasi tortilganligini fahr va sharaf deb bilish, har bir kitobning zavq-shavq bilan o'qilishiga erishish darkor.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim kutubhonalarning hodimlari maslahatgo'y, adabiyot bilimdoni bo'lish o'rniga, shunchaki kitob tarqatuvcxilarga aylanib qolgan. Fan-tehnika taraqqiyoti jadallashib, ahborotlar oqimi tobora ortib borayo'tgan bir sharoitda ular odamlarga kitoblar olamiga darfa bo'lib yo'l ko'rsatishi, kutubhonacxilik ishini bugungi kun talablari darajasida tashkil etishga erishishi kerak.

Sport inshootlari so'rlomlashtirish va ommaviy sport ishlarining chinakam markazi bo'lib qolishi lozim. Madaniyat va sportning mavjud barcha moddiy bazasidan bo'sh vaqtni tashkil etishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish hamda jismoniy chiniqish yo'lida foydalanish darajasini oshirish zarur.

Har qanday ishning muvaffaqiyatini odamlar hal etadi. Afsuski, ayrim madaniyat muassasalarining hodimlari etarli kasb malakasi va bilimga ega emas. Befarqlik, tepsa-tebranmaslik, omma o'rtasida ishni tashkil etishda uquvsizlik ishni barbod qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga nisbatan iste'molcxilik kayfiyatlarining har qanday ko'rinishlariga butunlay barham berish zarur. Madaniyat muassasalari kadrlari haqida ramho'rlikni yanada kuchaytirish zarur. SHu bilan birga madaniyat va sport hodimlarini moddiy va ma'naviy rafbatlantirish, ularning uy-joy, maishiy turmush sharoitlarini yahsxilash lozim.

Bolalar va o'smirlarning ham dam olishini tashkil etishni takomillashtirish, bolalar oromgohlarida tarbiya ishlarini isloh qilish, yuqori sinf o'quvcilarini hunarga jalb etish zarur.

Oilaviy dam olish uchun ko'proq imkon yaratilishiga erishish, shaharlar atrofida dam olish maskanlari barpo etib, so'lim tabiat qo'ynida hordiq chiqarishni yo'lga qo'yish, sayo'hat va jismoniy chiniqishni rivojlantirish, mahallalarda, qishloqlarda harbiy vatanparvarlik harakatini yanada jonlashtirish kerak.

Ma'lumki, har bir kishining kunlik vaqt byudjeti 24 soat, haftada 168 soatdan iborat. Undan unumli, maqsadli foydalanish lozim. Ayniqsa, yoshlik davrida vaqt byudjetidan bilim olish uchun, ma'rifatli, ziyo'li bo'lish uchun, Prezident I.A.Karimov aytganlaridek, elim, yurtim deb jon kuydiruvchi mutahassis bo'lish uchun unumli foydalanish eng muhim, dolzarb masaladir. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha moddiy, tabiiy zahiralarni cheklangan va kamyo'b bo'lganidek, talabalarning vaqt byudjeti ham chegaralangan, kamyo'bdir.

Dunyoga mashhur «DEU» korporatsiyasi asoschisi Kim U Jung shunday deydi: «Vaqtning behuda sarflash, pulni behuda sarflashdan yo'mondur». Haqiqatan ham pulni topish mumkin, ammo vaqtning qaytarib bo'lmaydi. Talabalarning bo'sh vaqti byudjetidan qanday foydalanishini o'rganish maqsadida prof. N.Soatov rahbarligida Toshkent Davlat iqtisodiyoti universitetida maxsus tanlanma statistik kuzatish o'tkazildi. Tanlanma qilib 36 o'qish haftalaridan eng tipik bir hafta ajratib olindi (oktyabrning 2-haftasi) va u har jihatdan ob'ektiv ma'lumotlar olish uchun juda qulay vaqt edi. EKT-83, EKT-84, EKM-85, EKP-86 guruh talabalari har kuni o'z vaqtlarini nimalarga, qanday ishlarga sarflayotganligi qayd qilib borildi. Kuzatish natijalari har taraflama tekshirildi.

Ro'yhatdagi 120 ta tekshirish varaqasidan 59 tasi umumlashtirish uchun yaroqli deb topildi. Umumlashtirish esa yagona dasturda amalga oshirildi. Talabalar o'z vaqt byudjetining 37,5 foizini yoki 9 soatini uyquga sarflar ekan. Ikkinchi o'rinni darslarga qatnashish egallagan (umumiy vaqt byudjetidan 14,7 foiz), ya'ni talabalar kuniga 6 akademik soat o'rniga 5,3 akademik soat darslarga qatnashgan yoki bir kishi kuniga 0,7 akademik dars soatini yo'qotgan. Darsdan tashqari o'z ustida mustaqil ishlash uchun umumiy vaqt byudjetidan 8,5 foizi sarflangan yoki har bir talaba o'rtacha 2 kalendar soat sarflagan. Ovqatlanish uchun butun vaqt byudjetidan 7,3 foizi yoki har bir talaba kuniga o'rtacha chorakam 2 soat ovqatlanishga sarflagan. Televizor ko'rish va radio eshitish byudjet vaqtidan 6,9 foizni tashkil etgan. Demak, har bir talab o'rtacha bir sutkada 1,40 daqiqaga televizor qarshisida o'tirgan. Ammo ayrim talabalar kuniga 4

soatdan ortiq televizor tamosha qilgan. Dam olish uchun umumiy byudjetdan 6,4 foiz yoki har bir kishi 1,5 soat sarflagan. Ayrim talabalar 4 soatdan ortiq dam olishgan.

Tekshirish natijalariga binoan umumiy vaqt byudjetidan uhlash, yuvinish, uy yumushlari, darslarga qatnashish, yo'lda yurish kabi zaruriy masalalar uchun 72,3 foiz sarflangan, boshqa vaqt qismi mustaqil ishlash, ilmiy izlanish, madaniy-ma'rifiy kabi ishlarga harj qilingan. Ayrim akademik guruh talabalarida bu ko'rsatkichlarning tebranish chegarasi juda keng doirada bo'lgan. SHuning uchun ham talabalar vaqt byudjetidan foydalanishining optimal rejalarini ishlab chiqish va tavsiya etish dolzarb masala hisoblanadi. Tibbiy fiziologik tekshirishlarga binoan, har bir o'smir yoshidan o'tgan yosh yir-it-qiz bir sutkada 7-8 soat uhlashi kerak. O'rtacha 7,5 soat deb hisoblasak, haftada bir talaba uhlashga 52,5 soat sarflashi mumkin. YUvinish, taranish, o'zini tartibga keltirish uchun bir kunda 45 daqiqa, bir haftada 5 soat sarflashi mumkin. Uy yumushlariga urtacha bir haftada 7 soat ajratish mumkin. Dars jadvallarida o'rtacha kuniga 6 akademik soat ko'zlansa, u holda ular uchun haftada 36 akademik soat sarflanadi. Yo'lda yurishga o'rtacha haftasiga 6 soat ajratish mumkin. SHunday qilib, jami bo'lib zaruriy ishlar uchun umumiy vaqt sarfi 1 haftada 107 soat yoki umumiy byudjetdan 62,7 foizni tashkil etadi. Bo'sh vaqt byudjeti esa 61 soat yoki 36,3 foiz bo'ladi. Har kuni mustaqil tayyorlanish va o'z ustida ishlash uchun kamida 3,5 soat sarflash ko'zlansa, haftada 24,5 soat zarur bo'ladi. Ilmiy izlanish uchun haftada 2 soat, sport va badiiy to'garaklarda qatnashish uchun kuniga 1 soat yoki haftada 7 soat talab qiladi. Badiiy kitob o'qish, jamoat ishlari uchun har biriga o'rtacha bir kunda 0,5 soatdan sarflansa, haftada 3,5 soatdan 7 soat kerak bo'ladi. Dam olish, televizor ko'rish va radio eshitish uchun kuniga 2,5 soatdan ortiq sarflash vaqtini isrof qilish bilan barobardir. SHuning uchun bu ishga haftada 12,5 soat ajratish mumkin. Boshqa favqulotda bo'ladigan hodisalarga haftada 3 soat sarflansa, vaqtdan optimal darajada foydalanilgan bo'ladi.


Xulosa qilib aytganda, bo'sh vaqtning tashkil qilish va undan samarali foydalanish muhim ijtimoiy masala bo'lib, uni to'g'ri hal qilish asosida shahs o'zining ongli faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi va ma'naviy barkamolligi uchun tegishli imkoniyatlar yaratadi.

### **10.3. Jamoatchilik fikri monitoringi**

**Siz respublikadagi hozirgi ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatni umuman olganda qanday baholaysiz (so'rab chiqilganlarning foizi).**


1998-2004 yillarda “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan o’tkazilgan jamoatchilik fikri so’rovining qiyo’siy natijalari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga fuqarolar tomonidan ijobiy baho berishning dinamikasi o’sganligidan dalolat beradi.

O’zbekiston aholisi o’rtasida mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatidan qoniqishning etarlicha yuqori darajasi islohotlarning asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, «Falaj qilib davolash» modelidan voz kecxilganligi va mamlakatning milliy, demografik xususiyatlari hisobga olingan holda aniq yonaltirilgan ijtimoiy siyosat amalga oshirilayo’tganligi bilan izohlanadi.



Yillar	YAhshi, barqaror	Barqaror	Nobarqaror	Javob berishga qiynalaman
1998	48,6	33	8,4	10
2000	55,2	31,5	7,1	6,2
2002	56,2	33,1	7,6	3,1
2003	58,1	31,3	8	2,5
2004	59,4	31,3	6,7	2,6


**O’zbekistonda amalga oshirilayo’tgan iqtisodiy islohotlar Sizing farovonligingizda va Sizing oilangizning moddiy holatida qanday aks etmoqda? (so’rab chiqilganlarning foizi)**



Yillar	Oshdi	O'zgaradi	O'zgaradi, biroq ko'proq ishlash zarur	Pasaydi
1998	20,5	42	25,7	11,8
2000	25,7	33,2	30,3	10,8
2002	27,5	35,4	26,5	9,7
2003	26,5	42,3	25,8	5,4
2004	27,5	41,3	24	5,4

Moddiy farovonlik yo'monlashganligini qayd etgan respondentlar ulushining qisqarishi o'z oilasining farovonligi yahsxilandi, deb hisoblovchilarning ulushi ko'payishi bilan amalda to'liq kompensatsiya qilinadi. SHu bilan birga tadqiqotning butun davrida o'z mavqeyning barqarorligini qayd etganlar soni muayyan tebranishlar bilan birgalikda kam o'zgaradi. O'zbekistonliklarning barqarorlashtiruvchi salohiyati jiddiy ravishda mustahkamlandi, deb aytish mumkin. Bu qulay shart-sharoitlarda o'rta sinfnig o'sishi uchun asos bo'ldi.

### YAqin 12 oyda Sizning oilangizning moddiy holati farovonligi qanday o'zgaradi deb hisoblaysiz (so'ralganlar %)



Yillar	YAhshi bo'ladi	Qanday bo'lsa, shunday bo'ladi	YO'mon bo'ladi	Javob berishga qiynalaman
2008	39	37,7	14,4	8,9
2009	36,4	36,2	14,4	13
2010	43,5	35,2	7,9	13,3

Ijtimoiy-iqtisodiy holat tufayli turmush sharoitlaridagi o'zgarishlar hayotiy vaziyatlarga baho berishdagina emas, balki odamlarning kutishlarida ham aks etdi. Mamlakatning har bir uch fuqarosidan ortiri (43,5%) 12 oy ichida o'z oilasining moddiy holati va farovonligi

yahsxilanadi, deb hisoblaydi (2008 yilda ushbu ko'rsatkich 39,0% ni tashkil etgan edi).

**Mahalla sotsiologiyasi mavzusiga ilovalar:  
O'zini -o'zi boshqarish organlari Sizning va oilangizning hayotida  
qanday rol o'ynaydi?**

Yillar	Katta va ahamiyatli	Unchalik katta bo'lmagan, unchalik ahamiyatsiz	Hech qanday rol o'ynamaydi	Javob berishga qiynalaman
1998	52,4	24,8	22,8	0
1999	66,9	14,8	14,5	3,8
2002	58,8	19,3	13,8	8,1
2004	59,3	21,8	13,1	5,8
2006	60,6	27,7	8,2	3,5
2008	64,3	24,9	6,0	4,8

**Sizningcha, mahallaning asosiy vazifasi nimada?**

Mahallaning asosiy vazifalari	So'ralganlar % hisobida
Kam ta'minlanganlarga moddiy yordam ko'rsatish.	34,5
Hamjihatlikni qaror toptirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.	17,6
Tuman ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan bo'lgan munosabatda mahallaning manfaatini ko'tarib chiqadi va himoya qiladi.	16,2
Issiqlik,gaz,elektroenergiya va boshqa shu kabilar Bilan ta'minlaydi.	13,0
YO'lriz, keksaygan fuqarolarga yordam ko'rsatadi.	6,8
Oilaviy tantanalarni o'tkazishda yordam ko'rsatadi.	3,2
Ekologik toza muhitni ta'minlaydi (ahlat va chiqindilarni olib ketishni tashkil qiladi).	2,0
Yo'llarning yahshi holatda bo'lishini ta'minlaydi.	1,3
Boshqa.	3,3
Javob berishga qiynalaman.	2,1

**Mahallaga Siz aynan qanday muammo bilan murojaat qilgansiz?**

Javob variantlari	Mahallaga murojaat qilganlar soni % hisobida
Moddiy yordam so'rab.	48,5
To'y tadbirlarini, dafn marosimlarini o'tkazishda ko'maklashishni, oilaviy muammolarni hal qilishda yordam berishni so'rab.	24,6
Kerakli ahborot olish uchun.	5,3
Uy - joy muammosi bo'yicha, er ajratishni so'rab.	5,2
Gaz muammosi, suv masalasida.	5,0
Mahallani obodonlashtirish masalasida.	3,6
Ishga joylashish bo'yicha.	2,3

Jinoyatcxilik masalasida.	1,1
Javob berishga qiynalaman.	4,4

**Siz mahalla qo'mitasi raisi faoliyatiga qanday baho berasiz?<sup>1</sup>**  
(so'ralganlar foizda)

Viloyat	Juda yahshi	YAhshi	O'rtac ha	Past	Juda past	Javob berishga qiynalaman
Andijon	6,2	56,5	31,1	2,3	0	3,9
Buhoro	0	46,5	39,4	3,0	1,0	10,2
Jizzah	3,0	23,8	64,4	3,0	1,0	5,0
Qashqadaryo'	2,5	31,3	50,6	10,0	1,9	3,7
Navoiy	1,9	28,9	50,0	3,3	0	16,6
Namangan	2,8	44,8	40,7	4,1	0	7,6
Samarqand	14,5	30,0	43,5	3,0	0,5	8,5
Surhondaryo'	5,1	13,6	51,7	15,3	1,7	12,7
Sirdaryo'	7,1	35,4	50,5	2,0	0	5,0
Toshkent	9,6	29,5	35,6	1,4	0,7	23,3
Farg'ona	11,3	46,2	37,1	4,3	0	1,1
Xorazm	35,3	50,4	13,4	0,8	0	0
Qoraqalpog'iston	32,5	28,1	37,7	1,8	0	0
Toshkent shahri.	1,0	7,8	52,4	18,4	6,8	13,6

(so'ralganlar foizda)

Javoblari	Jinsi		Aholi	
	erkaklar	Ayo'llar	shahar	qishloq
Juda yuqori	9,7	9,7	10,5	9,3
YUqori	35,8	34,3	36,3	34,5
O'rta	41,8	41,8	38,1	43,6
Past	4,6	5,4	6,0	4,5
Juda past	0,9	0,8	1,5	0,6
Qiynalaman	7,1	8,0	7,7	7,6

**Mahalla qo'mitasi Sizing muammoingizni hal qilishda yordam ko'rsatganmi?<sup>2</sup>**

Viloyatlar	Ha. Yordam ko'rsatgan	Qisman yordam bergan	Yo'q. Yordam bermagan	Javob berishdan bosh tortgan	Javob berishga qiynalaman
Andijon	75,0	20,0	1,7	1,7	1,7
Buhoro	72,2	15,2	9,1	3,0	0
Jizzah	55,2	31,0	6,9	0	6,9
Qashqadaryo'	86,1	5,6	8,3	0	0
Navoiy	62,5	29,2	4,2	0	4,2
Namangan	83,6	10,4	3,0	1,5	1,5
Samarqand	72,2	5,6	22,2	0	0
Surhodaryo'	60,0	10,0	26,0	2,0	2,0

<sup>1</sup> SHarifxodjaev M., Axunova G. Maxallya kak institut mestnogo samoupravleniya. Toshkent-2005. str-139-140.

<sup>2</sup> SHarifxodjaev M., Axunova G. Maxallya kak institut mestnogo samoupravleniya. Toshkent-2005. str-143.

Sirdaryo'	85,1	6,4	8,5	0	0
Toshkent	54,1	16,2	24,3	2,7	2,7
Farg'ona	67,9	19,6	7,1	3,6	1,8
Xorazm	60,7	28,6	10,7	0	0
Qoraqalpog'iston	42,9	38,1	19,0	0	0
Toshkent shahri	40,0	20,0	35,0	2,5	2,5

### **Qisqacha xulosalar**

Biz adolatli, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurmoqchi ekanmiz, jamoatchilikning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishimiz, loqaydlikni bartaraf qilishimiz zarur.

Sobiq Ittifoq davrida hamma sohalarning markazlashgan tarzda davlat tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalar orqali boshqarilishi jamiyatda beparvolik, mas'uliyatsizlik kabi salbiy illatlar shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu kabi salbiy illatlarni yo'qotmay, o'z fikriga ega bo'lgan, erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalamay turib maqsadga va taraqqiyotga erisha olmaymiz. SHu sababli hozirgi kunda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda.

Bo'libo'tgan saylovlarda, hususan, 1999 yil 5 dekabrda Oliy Majlisga va 2000 yil 9 yanvarda O'zbekiston Prezidentini saylashda, shuningdek, 2002 yil 27 yanvarda o'takilgan referendumda ikki palatali parlament tuzish ro'yasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini 7 yillik qilib belgilash jarayonida, 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi Qonuncxilik palatasiga va mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan salovlarda, 2007 yil 23 dekabrda muqobilik asosida o'tgan Prezident saylovlarida keng jamoatchilikning faol ishtirok etishi, mamlakatning kelajagi kimlarning qo'lga topshirilishini anglagan holda o'z nomzodlarini ko'rsatishlari, mustaqil O'zbekistonning bo'lfusidagi taraqqiyoti, jamiyat a'zolari manfaatlarining nechoflik qondirilishi, huquqiy davlatcxilik asoslarining yaratilishi ana shunga va yana bir bor jamoatchilikning ongli ishtirokiga borliq.

## **11- MAVZU. JAMOATCHILIK FIKRI SOTSILOGIYASI**

### **11.1. Jamoatchilik fikri tushunchasi va uning mohiyati. Jamoatchilik fikrining funktsiyalari**



Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi - ijtimoiy guruhlarining mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda 1999 yildan boshlab «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida sotsiologik tadqiqot markazlari va hizmatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatini ta'minladi.

«Jamoatchilik fikri» atamasi inglizcha publik fikrning so'z birikmalaridan olingan bo'lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo'llanilgan, keyinchalik boshqa mamlakatlarga o'tib, XVIII asr ohiridan boshlab keng tarqalgan.

Jamoatchilik fikri o'zi nima? Jamoatchilik fikri - halq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir (Gegel'), jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishib ketganda, u har bir davrda katta kuchga ega bo'lib kelgan.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, aytaylik, fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki fikrning o'zida u yoki bu holatga nisbatan tahminiy, ehtimolli bo'lgani uchun ham ko'pincha insonlar ongida mavjudga keladigan o'tkinchi, o'zgaruvchan fikr, mulohaza, his - tuygular yirindisidir. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hisoblashmaslik kerak, degan gap emas. Jamoatchilik fikrini chuqur o'rgangan ispan mutafakkiri Ortega-I-Gasset shunday yo'zgan edi: «Dunyoni jamoatchilik fikri boshqaradi, bu shunday asosiy kuchki, unda kishilar hamjamiyatidagi hukmronlik kelib chiqadi»<sup>1</sup>.

Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etish predmeti – bu, jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal qilishi mexanizmlari masalalaridir. Jamoatchilik fikri - kishilar ongi va hatti-harakatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari (ahloq, huquq, din, fan va h.k.) bilan bo'liq kundalik va nazariy ong birikmasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri doimo kishilar tomonidan u yoki bu hodisa jarayonini baholashlari bilan bo'liq. Bunday ijtimoiy baholash ijtimoiy guruh va qatlamlarning ijtimoiy vaziyati, jamiyatda tutgan o'rnini o'zida aks ettiradi. Demak, jamoatchilik fikri ijtimoiy xususiyatga ega, shu jihatdan jamoatchilik fikri kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuygulari va hatti-harakatlarini jamlashga, jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy reallikning tegishli tomonini o'zgartirishga (yoki saqlashga) ta'sir ko'rsatadi. Umuman

---

<sup>1</sup> Qarang: Umumiy sotsiologiya. T.: ToshDU, 1999, 104-bet.

olganda, tub ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishidan oldin aynan jamoatchilik fikrida ulkan siljish, o'zgarishlar yuz bermofi kerak.

Jamoatchilik fikri bilan bevosita shufulanuvchi mutahassislar bu ijtimoiy hodisaning murakkabligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash mushkul, uni o'lchab bo'lmaydi. Lekin u hamma joyda mavjud, uning ta'sirini alohida shahs hatti-harakatida ham, omma xulq-atvor faoliyatida ham ko'rsa bo'ladi.

Jamoatchilik fikrining strukturasi tahlil qilshda birinchi navbatda uning ob'ekti va sub'ekti masalalariga e'tiborni qaratish zarur. Jamoatchilik fikrining ob'ektini aniqlashda, dastavval ikkita muammo e'tiborga molikdir.

1) Jamoatchilik fikrini unda aks ettirayo'tgan voqelikning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan tahlil etish. Boshqacha qilib aytganda, jamoatchilik fikri dunyodagi hamma narsa to'rrisida fikr qila olishi mumkinmi yoki uning mulohaza doirasi chegaralanganmi?

2) U yoki bu hodisa, jamoatchilik fikrining ob'ektiga aylanishining mezolarini aniqlash, boshqacha aytganda, jamoatchilik fikrini uyrotadigan ob'ekt qanday sifatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi?

Birinchi savolga javob tariqasida avvalo shuni qayd etish kerakki, jamoatchilik fikrining ob'ekti ham, ob'ektiv voqelik ham sub'ektiv reallik faktlari hisoblanishi mumkin. SHu bilan birga jamoatchilik fikri ma'lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlargina jamoatchilik mulohazalarining ob'ekti bo'la oladi. Bular: a) voqea va hodisalarning haqqoniy mavjudligi; b) voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar; v) voqea-hodisalarning kixilar ongida aks etishi. Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sotsiologiyasida «aniqlik chegarasi» deyiladi. Bu «chegaradan» tashqarida bo'lgan narsalar to'rrisida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo'la olmaydi.

Endi jamoatchilik fikrining ob'ektiv tanlash mezonlariga to'htalamiz. Duch kelgan har bir narsa, hodisa, voqea, jarayon, yoki fakt ham birvarakayiga jamoatchilik fikri ob'ekti bo'lavermaydi. Jamoatchilik fikrini uyrotishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo'lib, bevosita manfaat turdiradigan dolzarb hodisa yoki narsalargina mulohazaga sabab bo'ladi. CHunki bunday holatlar kixilardan baholovchi munosabatni bildirishini talab etadi. Omma fikrining shakllanishi asosida «umumiy ish» yo'tadi.

Jamoatchilik fikriga sabab bo'ladigan ikkinchi omil, bu – munozaralilikdir. Boshqacha qilib aytganda, u yoki bu darajada munozarali, bahsli holatga ega bo'lgan hodisalargina jamoatchilik fikri predmetiga aylanishi mumkin. Jamoatchilik fikri doimo hali hal

bo'lmagan masalalar bo'yicha shakllanadi va hech qachon so'zsiz, aniq masalalar bo'yicha turlanmaydi.

Nihoyat, jamoatchilik fikrini uyƒotadigan uchunchi omil - malakalilikdir. Bu shuni anglatadiki, jamoatchilik bilishi va tushunishi mumkin bo'lgan hodisalargina jamoatchilikning ob'ekti bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikri sub'ekti deganda, avvalo jamoatchilik doirasida fikr uyƒota olish qobiliyatiga ega bo'lgan fikr egasi va ifodalovchisi tushuniladi. SHu o'rinda sub'ekt sifatida alohida individ, kichik guruhlar, jamoa, millat, sinf va hatto jamiyat hisoblanishi mumkin.

Jamoatchilik fikrining bilish imkoniyati muayyan tarixiy xususiyatga ega, ya'ni u jamiyatda mavjud madaniyat, teknik imkoniyatlar, muloqot vositalarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillarga bo'liq. SHu bilan birga jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari (fan, mafkura, din, san'at, ahloq, huquq, siyosat va b.), darajalari (individual, jamoa, milliy, sinfiy ong) va sohalari bilan bo'liq holda rivojlanadi. Aytish mumkinki, jamoatchilik fikri - ijtimoiy ongning tez o'zgaruvchan, dinamik holatidir.

Jamoatchilik fikri turli darajaga ham ega bo'lib, bu individual, jamoa fikri va ijtimoiy fikr ko'rinishida bo'ladi hamda ular o'rtasida doimiy, mustahkam bo'liqlik mavjud.

Jamoatchilik fikri ko'p jihatli hodisadir. Uning ratsional - aqliy (bilimlar), psihologik (ijtimoiy-ruhiy) kechinmalar, aksiologik (qadriyatlar) va boshqa jihatlari bo'lib, birgalikda jamoatchilik fikrining tez tarqaluvchanlik va ekstensiv xususiyatini ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikrining real ijtimoiy hayotda amal qilishi uning ifodalanishi va u bajaradigan vazifalar bilan harakterlanadi.

Avvalo, jamoatchilik fikrining uch xil ifodalanishini kuzatsa bo'ladi:

1. jamoatchilik fikrining stihiyali ifodalanishi;
2. siyosiy institutlar tashabbusiga ko'ra biror bir qonunni muhokama qilish yoki chora-tadbir (referendum, umumhalq muhokamasi va b.) o'tkazish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;
3. maxsus sotsiologik tatqiqotlar, ya'ni so'rovlar paytida jamoatchilik fikrining aniqlanishi.

Jamoatchilik fikrining tadrijiy shakllanish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshadi: **Birinchi bosqichda:** ijtimoiy hayot, fakt, hodisa ta'sirida alohida shahslar ongida individual fikr-tasavvurlarning yuzaga kelishi. **Ikkinchi bosqichda:** alohida shahslar fikrlarining suhbat, bahs, muhokama, yifin va mitinglar vositasida jamoa fikriga aylanishi. **Uchinchi bosqichda** esa, jamoalar fikrining aylanishini ifodalovchi nuqtai nazarlar uyƒunlashuvi va birlashuvi jarayonlaridir.

Bozor munosabatiga o'tish sharoitida jamoatchilik fikrining eski tuzum muammolaridan yangi masalalarga ko'chishi yuz beromoqda. Ammo jamoatchilik fikrining qayta yonalishi murukkab jarayon bo'lib, u oldin shakllangan xulq-atvor jabhalarining, tafakkur va hatti-harakat qoliplarining (stereotiplarning), ba'zi an'alarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Gap shundaki, aytib o'tilgan ko'pgina elementlar (eskicha tafakkur qoliplari, odatlar va h.k.)ni jamoatchilik fikri o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, bu uning konservativ tomonidir. SHuning uchun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layo'tgan, ammo kixilar ongida chuqur o'rnashgan, aynan jamoatchilik fikrining qaysi jihatini o'zgartirish mumkinligini aniq tasavvur eta bilish zarur. Ammo odamlar fikrini o'zgartirishdan ko'ra, ularda yangi muammolarga nisbatan munosabat, fikr-mulohazani shakllantirish osonroq. Demak, masala jamoatchilik fikrining kuchini oshirish, uni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish omiliga aylantirish uchun tabiiy tarzda, ammo zarur yonalishda, ongli ravishda shakllantira bilishdadir. Bu jamiyat hayotida jamoatchilik fikri ahamiyatining oshib borishi bilan borliq bo'lib, u quyidagi shart - sharoitlarni talab etadi: a) davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy markazlar tomonidan jamoatchilik fikrining muntazam o'rganib turilishi; b) barcha fuqorolarning turli shakllarda (referendumlar, manifestatsiyalar, so'rovlar va h.k.) jamiyat hayotining har xil muammolari yuzasidan o'z fikrlari, baholari, nuqtai nazarlarini erkin bildirishlari; v) fuqorolarning jamoaviy (kollektiv) fikrlarini bildirishlari vositalari va shakllarini kengaytirish, oshkoralik; g) davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan jamoatchilik fikridan doimiy foydalanish.

Jamoatchilik fikriga maqsadli ta'sir qilish ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- 1) haspo'shlash (manipulyatsiya qilish);
- 2) ilmiy, erkin shakllantirish.

**Jamoatchilik fikrini haspo'shlash** – bu, dolzarb muammollar bo'yicha aholi ongiga nisbatan biror-bir fikrni zo'rlab singdirish. Haspo'shlash yo'lfiz hukimron siyosiy guruh, toifa, elitaning manfaatlarini ifodalaydi va uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hukmronligini saqlab qolishiga qaratilgan bo'ladi. Haspo'shlashning asosiy vositasi dezinformatsiya (sohta ahborot) hisoblanadi. Haspo'shlash asosan totalitar jamiyatga xosdir.

**Jamoatchilik fikrini erkin shakllantirish** – jamoatchilik fikrini erkin shakllantirish jarayoniga maqsadli ta'sir ko'rsatishdir. Bunda ko'rsatilgan asosiy maqsad jamiyatda ahborot maydonini tabiiy ravishda xosil qilish bo'ladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda stihiyali va ongli

omillar, uning shakllanishining ob'ektiv jarayonlari bilan bo'liq bo'lgan ichki va boshqaruv organlari tomonidan kixsilar ongiga chetdan ongli ravishda ta'sir qilishda ifodalanadigan tashqi mehanizmlar birligini ham ta'minlash zarur. Jamoatchilik fikri muhim institut bo'lib, faol amal qilish uning funktsiyalari (vazifalari) bilan bo'liq. Bu funktsiyalar jamoatchilik fikri jamiyat hayotining turli sohalarida (aytaylik, taqsimot munosabatlarida) «qo'llanishiga» qarab turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikri funktsiyalari uning u yoki bu ijtimoiy institutlarga ta'siriga qarab, bildirilayo'tgan fikrning mazmuniga ko'ra va bu fikrning shakliga qarab belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»da fikr erkinligi qonun yo'li bilan asoslangan. Jamiyat mamlakatda bo'layo'tgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarga nisbatan o'z fikrini erkin ifoda etishi va ularda faol ishtirok etishi zarur. Aks holda taraqqiyot bir joyda to'htab qolishi, hatto orqaga ketishi ham mumkin.

Demokratiya deganda, eng avvalo har bir fuqaro o'z fikrini erkin bayon eta olishi, matbuot erkinligi, e'tiqod erkinligi va shu kabilar tushuniladi. Har qanday jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi asosiy uchta me'zon bor. Bular 1) halqning qarorlar qabul qilish jarayonidan qanchalik habardorligi; 2) hukumat qarorlari - halq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi; 3) oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

Mana shu printsiplar hayotimizdan mustahkam o'rin olgan taqdirdagina har xil suiste'molliklarga qarshi samarali va izcxil kurash olib borish mumkin.

Hozirda jamiyatimizda shakllangan ko'ppartiyaviylik muhitidan tezroq ob'ektiv ravishda foydalanish zarur. Chunki bular keng jamoatchilikning ijtimoiy hayotidagi ta'sirini, o'rni va vakolatini, huquqini kuchaytirish, uning chinakam mustahkamligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tepadan turib, maxsus farmon yoki direktivlik bilan jamiyatda adolat va demokratiya o'rnatib bo'lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, peshqadam ziyo'lilar, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari namoyondalarining, ma'sul hizmatcxilarimizning fayrati, aql-zakovati bilan ro'yo'bga chiqadigan murakkab ishdir.

Jamiyat a'zolari o'z fikrini erkin ifoda eta bilishi, so'z erkinligini himoya qilish, shu huquqlarning amalda ta'minlanishi uchun kafolat yaratish bugungi eng muhim vazifamiz bo'lishi zarur. Odamlarning erkin fikrini ifoda etuvchi ommaviy ahborot vositalari jamiyatda o'zining mustahkam o'rni va mavqeyni egallashi lozim.

O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodlarga bo'liq. Ular qanchalik erkin fikrlovchi, mustahkam irodali, keng dunyoqarashli va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faol bo'lsa, O'zbekistonning kelajagi shunchalik porloq bo'ladi. Ularni amalga oshirish uchun, butun halqimiz jamoatchilikning kuch va sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur.

Birinchi galda so'flom fikrlovchi, shu aziz Vatan qismatini o'z shahsiy qismati deb biladigan, mamlakatning ertasi uchun bor ma'suliyatini zimmasiga olishga qodir, jafokash halqimiz uchun, demokratiya va adolat uchun o'zini bahshida etadigan, fidoyi, izlanuvchan yosh avlodning boshini qovushtirish, uning maqsad va intilishlariga qanot berish zarur.

Jamiyatni rivojlantirishda keng jamoatchilik fikriga suyanish katta tarixiy tajribaga suyanishni talab etadi.

**Qadim davlatcxilik tarixidan kelib chiqib, halqimiz jamoatchilik fikri quyidagi funktsiyalarni bajarib kelganligining** shohidi bo'lishgan.

**Direktiv**, ya'ni qarorlar qabul qilishda jamoatchilikning keng ishtiroki.

**Konsul'tativ** - qarorlarni hayotga tatbiq etishda, hukm chiqarishda keng jamoatchilik bilan maslahatlashishi.

Turli davlatlar va nodavlat tashkilotlar ishi ustidan **nazorat o'rnatishda**.

**Ekspressiv (nazorat)** - ya'ni favqulodda hodisalarning oldini olish va ularni bartaraf etishda va hokazo funktsiyalarni bajaradi.

**Konstruktiv funktsiyasi**. Bu sub'ektlarning ijtimoiy munosabatlari va jarayonlarni o'ziga xos dasturlashtirishdir.

**Regulyativ (boshqaruv) funktsiyasi**.

**Baholash funktsiyasi**.

**Pozitiv (ijobiy) funktsiya**.

**Negativ (salbiy) funktsiyalarni** bajaradi.

## 11.2. Jamoatchilik fikrining hozirgi kontseptsiyalari

Mamlakatning rivojlanishi, dunyoda o'z o'rni va mavqeyga ega bo'lishi uchun jamoatchilik fikrining islohotlarga munosabati, ularning boshqaruvdagi ishtiroki, hukumat qarorlarini nazorat qilib borishi juda muhimdir.

Biz davlat idoralari ustidan jamoatchilikning nazoratini o'rnatishga erisha olmasak, poraho'rlik, qonunbuzarlik, o'z mansabini suiiste'mol qilish kabi illatlarni tag-tomiri bilan tugatishning imkoni bo'lmaydi. Bunga erishish uchun eng avvalo jamoatchilik vakillarining siyosiy,

ijtimoiy saviyasini o'stirish kerak. Har bir fuqaro o'z huquqini yahshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki, jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va ma'suliyatini puhta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyo'j sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha sa'y-harakatlarimiz besamar ketaveradi.

Hayotimizda qonun talablari buzilishiga asosiy sabab - ijtimoiy tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, mahalla, ayo'llar, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalarining hayotimizga ta'siri va o'rni etarli darajada shakllanmagani bilan izohlash mumkin.

Huquqiy, nodavlat tashkilotlari ustidan nazorat o'rnatishda, jamoatchilik va ijtimoiy tashkilotlar bilan birga, avvalambor fuqarolar va jamoatchilik erkin fikrini ifoda etuvchi ommaviy ahborot vositalari ish olib borishi, haqiqat va adolat uchun kurashga qattiq bel bo'lashi lozim.

Jamoatchilik nazoratining tub mohiyati shundaki, jamoatchilik amalga oshirayo'tgan islohotlar sur'atini, ularning sifatini, islohotlar boshida turgan rahbarlarning fayratini, layo'qatini holisona o'rganib, yutuqlarini e'tirof qilib, kamcxiligini ro'y-rost ochib tashlashimiz kerak.

Hozirdanoq davlat organlarining ayrim vakolatlarini bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan nodavlat tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berib borilayo'tganligini hayotning o'zi yaqqol isbotlamoqda.

Bevosita jamoatchilik fikri asosida amalga oshadigan jarayonlardan biri **saylovlardir**. Halq saylovda ilfor, etuk va o'zida taassurot qoldirgan rahbarni, liderni tanlab olishiga imkon turiladi. Saylovlar halqni boshqara olmaydigan, loqayd rahbarlardan voz kechishga, har tomonlama etuk, ilfor foyalarni olfa suruvchi, jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shuvchi rahbarlarni qo'llab-kuvvatlashga katta yordam beradi. Iqtisodiyo'tning rivojlanishida, jamiyatda adolat va demokratiya qaror topishida turli xil jamoatchilik tashkilotlarining o'rni juda katta. Agar nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalarining hayotimizga ta'siri qanchalik kuchli bo'lsa va ular o'z o'rniga ega bo'lsa, demokratik, har tomonlama rivojlangan davlatning qaror topishi shunchalik tezlashadi. Masalan, sobiq SSSRning tarqalishi yoki uni saqlab qolish masalasi keng jamoatchilik fikri asosida - referendum natijalariga binoan hal qilindi.

Huddi shuningdek, O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Prezidentlik vakolat muddati Oliy Majlis deputatlari ishi bilan

muvofiglashtirish masalasi ham referendum orqali jamoatchilik fikrini o'rgangan holda hal etildi.

Konstitutsiya va boshqa qonunlarning qabul qilinish jarayonlari ham jamoatchilik muhokamasidan so'ng o'zgartirishlar kiritilgan holda amalga oshirilmoqda.

Sud jarayonlarida ham hamisha jamoatchilik vakili sud maslahatchisi sifatida ishtirok etib kelmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Umuman, jamoatchilik fikri funktsiyalarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Jamoatchilik fikrining mohiyati va mazmunini ifoda etuvchi funktsiyalar: a) gneseologik; b) baholash.

2. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini ifoda etuvchi funktsiyalar: a) tarbiyalash; b) ra'batlantirish; v) nazorat qilish; g) maslahat.

3. Jamoatchilik fikrining kixilarga ta'sirini ifoda etuvchi funktsiyalar.

Nihoyat, ifodalanish shakliga ko'ra, jamoatchilik fikri ikki xil - pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) funktsiyalarni bajaradi.

Darhaqiqat, jamoatchilik o'z fikrini doimo qo'llab-quvvatlash va aksincha, inkor etish, qoralash ko'rinishida bildirishi mumkin. Sub'ekt ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etishga tayyorligini bildirgan taqdirda jamoatchilik fikri pozitiv, agar sub'ekt norozilik bildirib, hech bir harakatni sodir qilmagan taqdirda negativ vazifani bajaradi.

## **12-MAVZU. SIYOSIY HAYOT SOTSILOGIYASI**

### **12.1. Siyosiy hayot sotsiologiyasining predmeti, ob'ekti va uning tarkibiy tuzilishi**

**Siyosat** – insoniyat jamiyatining muhim sohasi bo'lib, u ko'pgina murakkab hodisalar, institutlar, munosabatlar, davlat, huquq, partiyalar, saylov jarayonlari, qarorlar qabul qilish mehanizmlari, uning tuzilmaviy va tizimiy qismlarini o'z ichiga oladi.

**Jamiyatning siyosiy hayoti siyosiy falsafa, politologiya, siyosiy tarix, halqaro siyosiy nazariya kabi bir qancha siyosiy fanlar qatori, Sotsiologiya fani tomonidan ham o'rganiladi. Faqat sotsiologiya boshqa fanlardan farqli ravishda jamiyat, alohida ijtimoiy institutlar va jamiyat tuzilmalari hamda ularda yuz beradigan ijtimoiy**



**jarayonlarni yahlit, bir butun tizim sifatida o'rganadi. Sotsiologiyaning bahs mavzusini tashkil etuvchi bu sohasi siyosat sotsiologiyasi deb ataladi.**

Siyosat sotsiologiyasini siyosatning mohiyati, unga xos xususiyatlarni o'zaro muloqot tuzilmalarini, siyosiy institutlar mehanizmlari va elementlarini hisobga olmasdan tushunish qiyin. Chunki ular muayyan darajada ijtimoiy-siyosiy ong, ijtimoiy – madaniy va siyosiy hayot sohalari bilan bo'liq bo'libgina qolmasdan, siyosat bilan ham uzviy bo'liq bo'lib, jamiyatdagi dunyoqarash, mafkura turli xil foyaviy siyosiy ta'limotlar, siyosatning sub'ektiv tuzilmalaridir.

Siyosiy voqelik dinamik o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun doimo u to'ridagi qarashlarga barham berish mezonlari, yondashuv va uslublari ham doimo o'zgarib turadi. Siyosatga nazariy va sotsial falsafiy jihatdan yondashganda, u siyosiy ta'limotlar tarixi, an'alarini, siyosiy tizim va foyaviy paradigmalarni (yunoncha, namuna, ilmiy nazariya) hamda oqimlarni ham qamrab oladi.

Jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy qarashlar va ta'limotlarni siyosat sotsiologiyasi nuqtai nazaridan o'rganish ibtidosi antik davrga borib taqaladi. «Avesto» va «Veda»larda, «Tavrot» va «Injil»dayo'q siyosat sotsiologiyasining ildizi bor. Aflotun, Aristotel, TSitseron singari mutafakkirlarning asarlarida «siyosat», «davlat», «hokimiyat», «tenglik» kabi tushunchalar zaminida qadimgi davr ijtimoiy turmushining o'ziga xos siyosiy munosabatlardagi sabab - oqibatli bo'lanishlari bayon qilib berilgan<sup>1</sup>.

O'rta asrlar davriga kelib, Markaziy Osiyo' mutafakkirlari Harazmiy, Forobiy, Beruniy. Motrudiy ijodida siyosat sotsiologiyasi adolatli jamiyat barpo etish to'risidagi yangi qarashlar bilan boyitildi.

Uyfonish va yangi davrga kelib N.Makiavellining **davlat hokimiyati**, T.Gobbs, J.Lokk va B.Spinozalarning **tabiiy huquq** nazariyasi, J.Lokk va SH.Monteskьening **hokimiyatning bo'linishi**, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat to'risidagi ta'limotlari paydo bo'ldi. **Siyosiy mafkurada esa liberalizm** (SH.Monteskьe), **konservatizm** (E.Berk), **totalitarizm** (J.J.Russo) kabi oqimlar kelib chiqdi.

Nemis klassik falsafasi namoyandalari huquq va davlatning ahloqiy mezonlarini (I.Kant), huquq falsafasi tamoyillarini (G.Gegel') tadqiq etdilar. Marksistik siyosat sotsiologiyasida proletarcha siyosiy qarashlarning mutlaqlashtirilishi, jamiyat hayotining barcha sohalari mazmuniga kommunistik siyosat «ko'z oynagi» bilan qarash tushunchasi shakllantirildi.

---

<sup>1</sup> Nazarov.Q. va boshq. Falsafa asoslari.-T.: «O'zbekiston» NMIU, 2005. – 308-311 betlar

Hozirgi zamon siyosat sotsiologiyasining rivojlanish bosqichlarini ham uch bosqichda o'rganish an'anasi mavjud: **Birinchi bosqich** XIX asr ohiridan XX asr 40-yillarigacha bo'lgan davr-siyosat sotsiologiyasining qaror topish davridir. **Ikkinchi bosqich** XX asr 40-yillari ohiridan 70-yillarning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. **Uchinchi bosqich** XX asr 70-yillari o'rtalaridan hozirgi davrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Agar **birinchi bosqichda** asosiy e'tibor siyosiy hokimiyat va uning sotsial asoslari bilan bo'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, **ikkinchi bosqichda** siyosiy hayotni liberallashtirish, demokratiya, davlatning sotsial hayotga tomon qarab burilish davri bo'lganligini ko'ramiz. **Uchinchi bosqich** esa ko'proq Farb jamiyatlari rivojlanish modellariga to'g'ri keladigan kontseptsiyalarning yaratilishi bilan bo'liq.

Hozirgi davrga kelib jamiyatning siyosiy hayoti bir qator yangi xususiyatlarga ega bo'lib bormoqda. Demokratik jarayonlarning kuchayishi umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlashyo'tganligi, davlat boshqaruvining takomillashayotganligi, aholi siyosiy faolligining ortib borayo'tganligi bunga misol bo'la oladi. **Siyosiy hayot sotsiologiyasi sinonim sifatida siyosat sotsiologiyasi deb ham yuritiladi** (Bundan keyin siyosat sotsiologiyasi deb ataymiz).

**Ma'lumki, Siyosat sotsiologiyasining tadqiqot predmeti** siyosiy foyaning ma'no-mazmunini tushunishga, davlat, umuman, hokimiyat foyasini anglash tamoyiliga tayanadi. Siyosat sotsiologiyasi siyosiy voqelikni bilish nazariyasi, siyosat to'g'risidagi ta'limotlar sifatida namoyon bo'ladi. SHunga asoslangan holda, siyosat sotsiologiyasining quyidagi ta'rifini keltirish mumkin.

**Siyosat sotsiologiyasi** – siyosat va jamiyat, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar hamda jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik to'g'risidagi fan. U jamiyatning siyosiy bo'lmagan qismini va bugungi ijtimoiy tizimning siyosatga ta'sirini, shuningdek, siyosatning atrof-muhitga qayta ta'sirini o'rganadi.

Siyosat sotsiologiyasi **bir tomondan** siyosatning ma'naviy va dunyoqarash jihatlarini o'rganuvchi fan sifatida o'zida siyosiy ontologiya, aksiologiya, epistemologiya masalalarini qamrab oladi. **Ikkinchidan, u** insonlarning ma'naviy faoliyat sohasi sifatida ularning dunyoqarashi, siyosatning asosiy qadriyatlari va normalarini shakllantiradi, siyosiy foya, davlat va hokimiyat to'g'risidagi foyalar sifatida shakllanib hamda rivojlanib boradi. SHuningdek, **siyosat sotsiologiyasi predmeti** inson hayot tarzining konkret jihatlarini, odamlarning fe'l-atvori, jamiyatdagi o'rni va intilishlaridan, turli hayotiy vaziyatlardagi takroriy harakatlardan iborat.

Siyosat sotsiologiyasida bir vaqtning o'zida ham sotsiologiya, ham siyosat bilan bo'liq o'zaro tutash nuqtalar mavjud. Bir tomondan, siyosat sotsiologiyasi umumpolitologiyaning bir qismidir. SHu bilan birga, u mustaqil fan sohasi sifatida sotsiologiya doirasidan chiqadi. Ikkinchi tomondan, siyosiy fanlar (siyosat falsafasi, siyosiy institutlar to'rtisidagi ta'limot, halqaro siyosat nazariyasi, siyosiy tarix, siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya, siyosiy geografiya, siyosiy ekologiya, siyosiy astrologiya kabi) bilan uzviy bo'liq holda bo'lib, ularning tarkibiga ham kiradi. SHu nuqtai nazardan yondashganda uning rivoji va taraqqiyoti sotsiologiya hamda siyosiy fanlarning jamiyatdagi o'rni, holati bilan uzviy bog'liqdir.<sup>1</sup>

Bu fan politologiya va sotsiologiya o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi, har ikkalasining ichiga kiradi hamda siyosiy fanlar turkumidan joy olgan. Boshqa fanlardan, u avvalo, o'z predmetini o'rganishda sotsiologik yondashuv mavjudligi bilan ajralib turadi.

**Siyosat sotsiologiyasining** ma'no va mohiyatini ochish uchun sotsiologiyaning ma'no va mohiyatini bilish, hisobga olish muhim. Sotsiologiyada inson, jamiyat, davlatning ijtimoiy mavqey, ijtimoiy rol, ijtimoiy normalar orqali bajariladi. SHu ma'noda, siyosat sotsiologiyasi siyosiy fanlar va sotsiologiya o'rtasida tutash nuqtalar bilan shurullanadi, siyosatning ko'p qirraligini hisobga oladi. U asosiy e'tiborini siyosiy voqea va hodisalarning tabiati, ularning mavjudligini ifodalovchi mohiyatga jalb etadi. SHuning uchun ham davlat va hokimiyatning mohiyati, ularning o'rni va maqsadlari, inson, jamiyat, davlat tabiatiga munosabat to'rtisidagi masalalar siyosat sotsiologiyasining diqqat markazida turadi. Masalan, siyosat sotsiologiyasi davlat va hokimiyatni sotsial fenomen, jamiyatni siyosiy tashkil etish instituti sifatida tahlil qilishga e'tibor qaratadi. SHu ma'noda, davlatning maqsadi va uning qanday tizimga asoslanishi yoki asoslanayo'tganligini siyosiy ijtimoiy jihatdan o'rganadi, tahlil etadi hamda baholaydi. Ularning manfaat doirasini ifoda etish sub'ektlarini aniqlaydi. SHu nuqtai nazaridan siyosat sotsiologiyasi hokimiyatning tabiati hamda maqsadlari nuqtai nazaridan unga yondashadi va aniqlaydi.

Siyosat sotsiologiyasida **makrosotsiologik yondashuvdan** hokimiyatning ijtimoiy asoslarini aniqlash, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ihtiloflarning siyosiy jarayonlarga ta'sirini o'rganish va hokazolarni hamda **mikrosotsiologik usuldan** muayyan siyosiy institutlarni ijtimoiy tashkilot

---

<sup>1</sup> Ergashev.I. Siyosat falsafasi.-T.: Akademiya, 2004 – 25-39 bet.

sifatida o'rganish, ularning rasmiy va norasmiy tarkibini, boshqaruv usullarini tahlil qilish uchun foydalaniladi<sup>1</sup>.

Umuman, **siyosatning markazida «davlat», «hokimiyat», «hokimiyatcxilik munosabatlari» turadi.** Ular siyosat sotsiologiyasi, siyosat fanlarining muhim tushunchalari bo'lib, siyosat siyosiy institutlar, siyosiy voqelikning yoki siyosat sotsiologiyasining mohiyatini tushunishga kalit bo'lib xizmat qiladi. Hokimiyat va davlat tabiatini o'rganish orqali siyosatning barcha ijtimoiy tizimlar va ijtimoiy munosabatlar majmuida tutgan o'rnini to'g'ri tushunish mumkin. (Ergashev.I. Siyosat falsafasi. T.: «Akademiya», 2004 25-26 betlar).

Siyosat mavjud joyda davlat mavjud bo'lgan. Ayni paytda, davlatdan tashqarida ham siyosat mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, turli xil xalqaro tashkilotlar siyosatida davlat hamma vaqt ham rasmiy tarzda belgilovchi rol o'ynamaydi. SHunday bo'lsada, «davlat» va «siyosat» tushunchalarining uzviy aloqadorligi hisobga olinadi. SHu ma'noda, davlat tushunchasi siyosat tushunchasi bilan bo'liq bo'ladi. Davlat u yoki bu xalqning siyosiy maqomini ham bildiradi. Uning tashkiliy va territorial jihatlarini ifodalaydi. Unga kengroq qaralsa, siyosatga bevosita dahldor bo'ladi.

Siyosiy voqelik mustaqil ikki sohada tashkil topadi. Bular: **1) kundalik** amaliy siyosat bilan bo'liq bo'lgan siyosatni turli xil darajada amalga oshirishda ishtirok etadigan mansabdor shahslar, amaliyo'tcxilar, davlat xizmatcxilari, partiyalar, tashkilotlar, birlashmalar, korporatsiyalar va dunyo hamjamiyati bilan bo'liq institutlarni yoki xalqaro siyosiy tizimlar, institutlarni o'z ichiga oladi. 2) Siyosiy dasturlar, foyalar kontseptsiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish yo'llari, shakllari va vositalari bilan bo'liq bo'ladi. Birinchi yonalishning asosiy vazifasi qabul qilingan siyosiy qarorlarni so'zsiz bajarishdan iborat bo'lib, siyosiy qarorlarning yonalishi va mazmuni uchun bevosita javobgarlik hissining kamligi bilan xarakterlanadi. Unda mas'uliyat va javobgarlik ko'proq siyosatcxilarning zimmasiga tushadi. Uning birinchi qismini davlatning kundalik hayoti bilan bo'liq bo'lgan soha, ikkinchi qismini esa siyosat sohasi deb qarash mumkin. Ingliz tilida siyosat tushunchasini ifodalash uchun ikkita tushuncha ishlatiladi: «po'licy» va «po'litics». «**Siyosat**» deganda birinchi ma'noda, insonlar yoki muayyan guruhlar tomonidan u yoki bu muammoga nisbatan uni hal etishga qaratilgan faoliyat, faoliyat uslublari va dasturi yonalishlari tushuniladi. Ikkinchi ma'noda, siyosat ijtimoiy hayotga aloqador bo'lib, turli xil siyosiy yonalishlar, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalaydi va turli xil maqsadlar,

<sup>1</sup> Pugachev.V.P., Solov'ev.A.I. Siyosatshunoslikka kirish. –T.: YAngi asr avlodi, 2004, 33-bet.

manfaatlar, dunyoqarashga ega bo'lgan guruhlar va shahslarning majmui, ularning faoliyat sohasi sifatida namoyon bo'ladi. SHu ma'noda, siyosat faoliyat sohasini va uning shaklini ham o'zida ifoda etadi. Siyosat ko'p o'lchamli bo'lib, iqtisodiy, funktsional dunyoqarash yoki sotsial-siyosiy jihatlariga ega bo'lganligi uchun ham ko'pgina fanlar, jumladan, sotsiologiya, davlat va huquq, geosiyosat, siyosiy fanlarning ham o'rganish ob'ektiga kiradi. SHuning uchun ham siyosiy fanlar bilan siyosat sotsiologiyasining predmetini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Siyosiy fanlar siyosatga tarixiy rivojlanish va real siyosiy voqelik hamda turli xil ijtimoiy kuchlarni, madaniy va siyosiy tajribani hisobga olgan holda e'tiborni qaratadi. Siyosiy institutlar va jarayonlar, ya'ni siyosiy tizim, davlat tuzilishi, hokimiyat va hokimiyatcxilik munosabatlari, siyosiy xulq-atvor, siyosiy madaniyat, siyosiy ta'limotlar tarixi, siyosiy jarayonlar sub'ektlari, partiyalar va saylov tizimlari o'zining harakteriga ko'ra xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy fanlar bilan siyosat sotsiologiyasining predmetini aniqlashda siyosiy voqelikning markazida uning sub'ekti sifatida inson, jamiyat, davlat turishini hisobga olish muhimdir. Inson nafaqat ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy, ayni paytda, ma'naviy, sotsial-madaniy, ahloqiy mavjudotdir. Inson siyosatning sub'ekti, siyosat esa bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lgan insonlar faoliyatining amaliy ifodasidir. Jamiyat va davlatga nisbatan ham huddi shunday qiyo'slash mumkin. Demak, insonlar qanday bo'lsa, siyosat ham shunday bo'ladi. Sotsiologiya insonga e'tiborni qaratib, politologiya, falsafa, ahloqshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa fanlarning manfaat sohaslariga kirsam, bu fanlarning o'zi ham o'z navbatida sotsiologiya va politoloigiyaning manfaat sohalari bilan mushtarakligini anglash mumkin. Ana shu ikki sohaning bir-biri bilan uzviy bo'rligligi siyosat sotsiologiyasi bilan bo'rlig bo'lgan siyosiy fanlar va ma'naviy hayot sohalari: siyosiy antropologiya, siyosiy politologiya, siyosiy ahloqshunoslik to'frisida fikr yuritishni o'rganishni taqozo etadi. SHunday qilib, siyosat sotsiologiyasi muayyan siyosiy nazariyalar, u yoki bu siyosiy royalar bilan tutash keladi va ularning munosabatlari dolzarb ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

**Siyosat sotsiologiyasining ob'ekti** – siyosat, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy tuzum, siyosiy hayot, siyosiy institutlar, siyosiy munosabatlar va jarayonlar tizimidan iborat. T.Parsons fikricha, siyosat sotsiologiyasi «butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bo'lgan tizim va jarayonlarni o'rganadi». Siyosat sotsiologiyasini iqtisodiyo'tdagi foyda maromlari qiziqtirmaydi, balki uni butun jamiyatda pul qanday rolb

---

<sup>1</sup> Ergashev.I. Siyosat falsafasi.-T.: Akademiya 2004, 26-30 betlar.

o'ynaydi yoki ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda pulning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi qiziqtiradi. Huddi shu ma'noda siyosat sotsiologiyasi davlat hokimiyatining demokratik jamiyatda inson, jamiyat, davlat faoliyati, funktsiyalari bilan borliq bo'lgan bosh islohotchilik vazifalarini ijtimoiy tizim jarayonlari bilan chambarchas borlikda o'rganadi.

**Siyosat sotsiologiyasining tarkibiy tuzilishi.** Jamiyatning siyosiy hayoti yaqin tizim bo'lib, turli elementlardan tashkil topgan. Bu tarkibiy tuzilish elementlari orasida davlatning o'rni alohidadir. Zero, jamiyatning siyosiy hayotini davlatsiz tasavvur etish mumkin. Emas. Chunki aynan unda turli sotsial kuchlarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlari to'planib, boshqaruv jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, davlatning mohiyatini anglash siyosat sotsiologiyasi uchun ham muhim masala.

Davlatning mohiyati to'g'risida o'tmishda xilma-xil fikrlar bildirilgan. Aristotel fikricha, davlat kishilarning umumiy manfaatdorliklari asosida, ularni bahtli qilish maqsadida kelisxilgan holda barpo etilgan tashkilotdir. Ba'zi mutafakkirlar fikricha, davlat ilohiy narsa bo'lib, odamlarni boshqarib turadi. T.Gobbs davlat timsolida bir guruh kishilarning kelishuvi asosida ularga tinchlik-osoyishtalikni ta'kidlab, himoya qilib beradigan ijtimoiy shahs obrazini ko'rgan edi. G.Gegel esa davlat o'zining «Davlat a'zolari»dan tashkil topgan jonli organizm ekanligini aytib, davlatning ibtidosi zo'ravonlikda, deb bildi. SH.Monteskьe fikricha, davlat fuqarolarni birdamlik va tetiklikka chorlab turadi, shuning uchun u bor bo'lganda fuqarolar osoyishta yashaydi.

Demak, davlat jamiyatning shunday o'ziga xos siyosiy tashkilotiki, u o'z halqining ichki huquqiy hayotini ta'minlaydi, qonun chiqaruvchi, ijroya va sud hokimiyatlari organlarining normal faoliyatini amalga oshiradi, huquqiy nazorat qilib turadi, o'z halqini barcha havfdan himoya qilish, o'zga davlatlar oldidagi majburiyatlarini bajarish faoliyatini amalga oshiradi, o'z tasarrufidagi tabiiy resurslar va ma'naviy-madaniy qadriyatlarni asraydi.

Davlatning mazmun-mohiyatiga xos umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) Davlat jamiyat taraqqiyoti mahsuli bo'lib, uning paydo bo'lishi bilan jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarish tarixan barqaror bo'lgan shakllari qaror topadi.

2) Davlat boshqaruvida muqarrar ravishda turli sotsial guruhlar, partiyalar, ijtimoiy harakatlarning muayyan manfaatlari namoyon bo'ladi.

3) Davlat biror joyda markaziy va mahalliy organlardan tashkil topgan boshqaruv hokimiyati mavjud bo'ladi.

4) Davlat hamisha muayyan hududiy birlikka ega bo'ladi va aholining hududiy taqsimlanganligi davlat boshqaruvini amalga oshirishni qulaylashtiradi.

5) Davlat ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradi. Fuqarolar uchun majburiy bo'lgan qonunlar majmuiga tayanadi.

6) Davlat aholidan soliqlar yirib olish, muomala uchun pul chiqarilishi, byudjet siyosati kabilarni amalga oshiradi.

**Siyosat sotsiologiyasining tarkibiy tuzilishiga quyidagilar kiradi:**

1. Siyosat va uning turli talqinlari.

2. Siyosiy tizim (demokratik, totalitar, avtoritar tizim va h.k.).

3. Siyosiy rejim (demokratik va antidemokratik rejim, repressiv va mustabid rejimlar va h.k.).

4. Siyosiy va ijtimoiy institutlar (**siyosiy institutlar:** Prezidentlik instituti, davlat instituti, Ombudsman instituti, Monitoring instituti, Oliy Majlis (Qonuncxilik palatasi, Senat palatasi), YArashuv instituti, Konstitutsion sud instituti, siyosiy partiyalar instituti, Lobbizm instituti va h.k.; **ijtimoiy insitutlar:** Din, Oila, Mahalla, madaniyat muassasalari, ma'anaviy-ma'rifiy institutlar, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari institutlari va h.k.).

5. Davlat hokmiyati (Qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud va OAV).

6. Hokimiyat organlariga saylovlar.

7. Prezidentlik instituti (garchi siyosiy institutlar turiga kirsada, bu institut alohida o'rganiladigan sohadir).

8. Siyosiy tuzum (kapitalistik, sotsialistik, demokratik, liberal-demokratik, mustabid, totalitar (markazlashgan), avtoritar (tanho kishi hukmronligi) va h.k.

Keyingi savollarda ularning ayrimlari haqida so'z yuritamiz.

## **12.2. Siyosat atamasining sotsiologik ta'rifi va uning asosiy tushunchalari**

«**Siyosat**» (yunoncha «politiko» so'zidan olingan bo'lib, davlatni boshqarish san'ati, davlat yoki ijtimoiy ish) – davlatni idora etish uslubi, san'ati, jamiyat va davlat to'rrisidagi fan. **Siyosat** – bu hukumatning maqsadlariga erishish vositasi, hukumat faoliyatining asosiy mazmunidir.

Siyosat o'zi tabiati, maqsadi va amalga oshirish uslublari, manfaatlari ifoda etish darajas bilan farqlanadi. «Siyosat»:

1) Demokratik siyosat yoki 2) Totalitar siyosat. 3) Holis siyosat 4) Noholis siyosat singari ko'rinishlari mavjud. Siyosat mamlakatlar, halqlar taraqqiyotiga har xil ta'sir ko'rsatadi. U ijobiy yoki salbiy rol o'ynashini

sobiq SSSR tajribasidan va ayrim davlatlar hayotidan bilib olish mumkin. Siyosat turli ijobiy guruhlar, kuchlar manfaatlarini o'zaro uyğunlashtirish bilan bo'liq holda kechadi. Aks holda, siyosiy hayotda bosh-boshdoqlik, parokandlik kabilardan iborat siyosiy tanazzul holati yuzaga kelishi mumkin. (Falsafa, Qomusiy lufat, T.2004,364-b).

«**Siyosat**» atamasiga berilgan turli xil yondashuv va ilmiy ta'riflarni uch guruhga ajratish mumkin. Har bir guruhlarning o'zi ham bir necha bo'lim, qismlarga ajraladi. Demak, siyosat ta'riflarining uch guruhi quyidagilardan iborat:

I. Siyosat atamasining sotsiologik ta'rifi.

II. Siyosatni tavsiflashda substantsional ilmiy yondashuv.

III. Siyosatning o'ziga xos tizimli ta'rifi.

Endi ana shu siyosatga berilgan ta'riflarning har birini ko'rib chiqamiz.

## **I. Siyosat atamasining sotsiologik ta'rifi:**

### **1. Siyosatning iqtisodiy ta'rifi:**

1) Marksistik kontseptsiya.

2) Determinizm kontseptsiyasi.

### **2. Siyosatning stratifikatsion ta'rifi:**

1) Sinf va millatlar nazariyasi (marksizm).

2) Manfaatli guruhlar nazariyasi (hozirgi kunda A.Bentli, D.Trumen nazariyasi).

### **3. Siyosatning huquqiy ta'rifi:**

1) Siyosat va davlat nazariyasi.

2) Kontraktivistik (ijtimoiy bitim) nazariyasi.

### **4. Siyosatning ahloqiy («me'yoriy») ta'rifi:**

1) Umumiy va farovonlik nazariyasi.

2) Maqsadga intilish.

3) Qoidasi.

4) Ijobiy tomoni.

5) Salbiy tomoni.

Siyosatning ana shu birinchi guruhga mansub bo'lgan ta'riflariga qisqacha izoh:

### **1. Sotsiologik nuqtai nazaridan siyosatni iqtisodiy ta'riflash:**

**1) Marksizm kontseptsiyasiga kura:** siyosat iqtisodiy, bazis ustidagi ustqurma. Iqtisod uning ehtiyoj va manfaatlarining jamlangan ifodasidir deb ta'riflaydi. Bunda siyosat o'z mustaqilligini yo'qotib, faqat nisbiy cheklangan muhtoriyatni saqlab qoladi. Boshqacha aytganda,



sotsializm siyosatni iqtisoddan ustun qo'ydi. Iqtisodga ijtimoiy jihatdan ikkinchi omil sifatida qaraldi. Hayotiy tajriba shuni ko'rsatdiki, ma'muriy -buyruqbozlikning 70 yildan ko'proq tajribasi: iqtisodning siyosatga kuchli ta'sir ko'rsatishi bilan birga siyosatning ham iqtisodga nisbatan etakchi, bosh kuch sifatida chiqa olishini tasdiqladi.

**2) Determenizm** (lot. barcha hodisalarning o'zaro ob'ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bo'lanish to'rtisidagi ta'limot) **kontseptsiyasiga ko'ra**, siyosat – siyosiy sub'ektlar (aktorlar) irodasiga bo'liq bo'lmagan ob'ektiv qonuniyatlar bilan belgilangan hodisa sifatida baholanadi.

Iqtisodiy belgilanganlik ruhidagi ta'riflar siyosatning bir muhim manbaini ta'kidlaydi holos. Ular iqtisodiy manfaatlarning siyosatga ta'sirini oshirib yuboradi, uning mustaqilligini etarlicha baholay olmaydi. SHunga ko'ra, har ikkala nazariya nisbiydir. SHu boisdan ham iqtisod, ham siyosat o'zaro aloqalarini ijtimoiy hayotning teng ahamiyatli va teng huquqli sohalarining ta'siri sifatida qarash samaradorliroqdir, deb hisoblanadi.

**2. Siyosatning stratifikatsion (ijtimoiy tabaqalanish) ta'rifiga ko'ra:**

1) **Marksistik kontseptsiyaga ko'ra**, siyosat muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar va millatlar o'rtasidagi kurashdir. Uning markazida sinfiy kurash, partiyaviylik, inqilobiylik masalasi yo'tadi.

2) **Manfaatli guruhlar nazariyasida** A.Bentli, D.Trumen va boshqalar fikricha, manfaatli guruhlarning hokimiyat yordamida o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun kurashdir.

Hozirgi davrda markscha nazariyaga ko'ra, sinflar o'rtasida kurash o'z ahamiyatini yo'qotdi. Manfaatli guruhlar nazariyasi esa aksincha keng tarqaldi va rivojlandi. U siyosatni zamonaviy demokratik davlatda ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi kuchga aylantirdi.

**3. Siyosatning huquqiy ta'rifi – kontseptsiyasiga ko'ra:**

1) **Siyosat va davlat nazariyasida** siyosat va davlatning ommaviy huquqi, qonunlari va faoliyati insonning tabiy huquqlaridan kelib chiqadi.

2) **Kontraktivistik (ijobiy bitim) nazariyasini** Spinoza, Gobbs, Lokk, Russo, Kant kabi mutafakkirlar ishlab chiqdilar. Bu nazariyaga ko'ra, siyosat (davlat) har bir insonga tufilishidan ato etilgan tegishli huquqlarini: yashash, erkin bo'lish, havfsizlik, mulkka egalik qilish kabilarni himoya qilishdan iborat.

Siyosatning huquqiy kontseptsiyalariga nisbatan zid nazariyalar ham mavjud. Ular huquqiy siyosatning xosilasi, uni amalga oshirishning barqaror siyosiy tartibini yaratishning muhim vositasi, deb qarashadi.

Huquq bevosita davlat tomonidan yaratiladi va siyosiy iroda hamda davlat maqsadlariga muvofiqlikka asoslanadi.

#### **4. Siyosatning ahloqiy (me'yoriy) ta'rifi.**

1) **Umumiy farovonlik nazariyasiga ko'ra**, siyosat-umumiy farovonlikka etishishga qaratilgan faoliyatdir. Uning oliy qadriyati: umumiy farovonlik.

2) **Maqsadga intilish** – shu umumiy farovonlikka hizmat qilishdir.

3) **Qoidasi**: unga erishishga yordam beruvchi muayyan qoidalar, qonunlardir.

Umuman, siyosatga huquqiy yondashuvlar uning ahloqiy (me'yoriy, qadriyatli) ta'riflar bilan bevosita tutashadi. Siyosatning me'yoriy tushunchalari uning sotsiologik talqinlaridagi eng muhim yonalishlardan biri. Ularda qo'llanuvchi me'yoriy yondashuv siyosatni amalga oshirish lozim bo'lgan ideallar, maqsad va me'yorlarga asoslanib, ko'rib chiqishni taqozo etadi. Siyosatning me'yoriy talqini qadim davrlarda paydo bo'lgan. O'z davrida Arastu siyosatni inson faoliyatining oliy shakli, deb hisoblagan. Chunki u orqali odamlar o'rtasida adolat o'rnatilib, har birining farovonligiga erisiladi. «Adolat faqat siyosiy hayotda mavjud, negaki siyosiy hayotning tarkibi – huquqqa qurilgan», - deb yo'zadi u. Siyosatning me'yoriy talqinlari ham kuchli, ham zaif tomonlarga ega.

4) **Ularning kuchli ijobiyligi shundaki**, ular siyosatning negizini tashkil etishi lozim bo'lgan gumanistik idealni ifodalaydi. Bunday yuksak foya siyosat ishtirokchilarini ijtimoiy qadriyatlariga muvofiq harakatlarga undaydi. Me'yoriy yondashuv ko'p ma'noli, u ijtimoiy farovonlikni turlicha talqin qilish imkonini beradi. SHu sababli turli siyosiy kuchlarga o'z farazli manfaatlarini yashirishsharoitlari yaratildi. Siyosat me'yoriy talqinlarining zaif tomoni shundaki, u siyosatni umumiy farovonlikka erishishga qaratilgan faoliyat sifatida tushinish va siyosatda hudbinlik alomatlari keng tarqalganligini isbotlovchi amaliyo't o'rtasidagi farq bilan. SHuningdek, umumiy farovonlikka qaratilgan hamma harakatlar ham siyosiy emas. Ko'p odamlar jamiyat uchun foydali, olijanob ishlarni ma'naviy yoki diniy sabablar bilan ham amalga oshiradilar. SHunday bo'lsada, siyosatga me'yoriy yondashuv odamlarning, jamiyatning siyosatni madaniylashtirish, insonparvar qilishga ahloqiy asos kiritish istagida ko'rinadi.

#### **II. Siyosatni tavsiflashda substantsional ilmiy yondashuv ta'rifi.**

U o'z navbatida quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1) **Siyosat** – hokimiyatini egallash, tutib turish, foydalanish vositasi. M.Veber fikricha, siyosat «hokimiyatda ishtirok etishga yoki hoh davlat

ichidagi guruhlar o'rtasida hokimiyat taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatishga intilishdir».

2) **Siyosat hukmdor bilan** halq o'rtasidagi muomala vositasidir. Siyosiy fan asoschilaridan biri N.Makiaveli siyosatni «hokimiyatga erishish, uni boy bermaslik va foyda bilan qo'llash uchun zarur bo'lgan vositalar borligi»dir, deydi.

### **3) Siyosatning institutsional va antropologik talqinlari:**

a) **Hokimlik va institutsional talqinlarning** asosi hokimlik va unga egalik qiluvchi tashkilotlar. Bu hokimlik talqini institutsional konkretlashtiriladi va to'ldiriladi.

b) **Siyosiy hokimiyatni** amalga oshirishning davlat instituti. **Siyosat** – davlat ishlarida qatnashish, davlatni yonaltirish, davlat faoliyatining shakllari, vazifalari, mavzuini belgilash tarzida ko'rinadi.

v) **Nodavlat institutlari:** ko'pincha siyosiy partiyalar, masalan, Hitoy rolini nazarda tutib, siyosatni «inqilobiy partiyaning barcha amaliy harakatlarining boshlanish nuqtasi sifatida ta'riflaydi».

g) **Antropolik definitiyalari ta'rifi** (chuqurroq manbai inson tabiatida ekanligi). Siyosat odamlarning huquqiy asosida tamadduniy muloqat shakli, insonning jamoviy mavjudligi shakli. Bu ta'rifni Arastu bergan edi. Uning fikricha, inson – siyosiy mavjudot, chunki u jamoadagina mavjud bo'ladi. Inson o'z manfaatlarini qondirish va bahtli bo'lish boshqa odamlar bilan muloqat natijasida bo'lishi mumkin.

d) **Oila va jamoaga nisbatan siyosat.** Bu inson bahtli bo'lishining oliy birdan-bir shaklidir. Inson davlat ichidagina erkin va teng adolatli muloqatda bo'ladi. Muloqatdagi uyfunlik siyosat, davlat yordamida erisiladi.

e) **Siyosat inson tabiatiga xos,** uning jamoa a'zosi ruhida kelib chiquvchi individual erkinlik.

### **4) Ihtilof va kelishuvga asoslangan ta'riflar.**

a) Ihtilofli ta'rif (M.Dyuverje: siyosat qarama-qarshi turuvchi ikki bayoni o'rtasida dramatik tarzda kechadigan jarayon). Biriga ko'ra, siyosat-ihtilof, kurash bo'lib, unda hokimiyatga ega bo'lganlar jamiyat ustidan nazorat va imtiyo'zlarga ega. Ikkinchi qarashga ko'ra «siyosat-tartib va adolat boshqaruvini amalga oshirishga intilish, barcha fuqarolarni hokimiyatga birlashtirishni ta'minlashni anglatadi». Siyosat ihtiloflarni zo'rlik va tinchlik yo'li bilan hal qilish bo'yicha faoliyat sifatida ta'riflanadi.

b) Birlashtirishni ta'minlovchi kelishuv (konsensus) ta'rifi demokratik davlatlarda muhim o'rin tutadi. Unda ihtiloflarning oldi

olinadi. Fuqarolar o'z qadriyatlarini tan ola boshlaydi. Ihtiloflar yo'q bo'lsa, siyosat ham bo'lmaydi.

### **5) Siyosat «do'stlar»-«dushmanlar» munosabati sifatida.**

a) Siyosatda siyosiylik-odamlarning birlashishi (assotsiatsiya). Uning turtki beruvchi sabablari: diniy, milliy (etnik yoki madaniy), iqtisodiy va boshqalar.

b) Bo'linish (dissotsiatsiyalar) tezligi darajasi. Bunga ham turtki beruvchi sabablar diniy, milliy (etnik yoki madaniy), iqtisodiy va boshqalar.

v) Do'st-dushman munosabatlari.

Dushman – ushbu sub'ekt va uning manfaatlariga havf turdiruvchi begona kuch.

Do'st esa – maqsadlarga erishishga yordam beruvchi ittifoqchi.

K.SHmit «do'st - dushman» munosabatlariga siyosatni yaratuvchi, tutib turuvchi ma'noni beradi va odamlarning siyosiy bo'linishiga olib keluvchi ob'ektiv asoslarini hisobga olmaydi. «Do'st – dushman» munosabatlari siyosatning butun mazmunini qamrab ololmaydi, lekin muhim qirralardan biridir. Siyosat atamasiga berilgan uchunchi guruh ta'rifi haqida to'htalamiz.

### **III. Siyosatning o'ziga xos tizimli ta'rifi.**

**1. Siyosatning ilmiy asoslangan ta'rifi va bosqichlari.** Siyosat butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni tayyorlovchi va amalga oshiruvchi jarayon bo'lib, u quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi.

1) Siyosatning maqsadlarini belgilash, qaror qabul qilish.

2) Ommani uyushtirish, siyosiy faoliyatni tartibga solish.

3) Uni nazorat qilish, olingan natijalarni tahlil qilish va siyosatning yangi vazifalarini belgilash.

**2. Siyosatning faoliyat bilan bo'liq bo'lgan ta'rifi,** ko'pincha qarorlar nazariyasi keng qo'llaniladi.

**3. Siyosatning teologik ta'rifida** siyosat jamoaviy maqsadlarga, muvoffaqiyatlarga erishish faoliyatidir. Amerikalik sotsiolog T.Parsons fikricha, siyosat «total» tizim muayyan elementlarni uning fundamental funktsiyalaridan biriga, ya'ni umumiy maqsadlarga erishish uchun muvaffaqiyatli jamoaviy faoliyatiga muvofiq tashkil etish usullarining birligidir.

Teologik definityalarida uning ikki fundamental qirrasini qayd etiladi:

1) Faoliyatning kollektiv tabiati (bunda katta ijtimoiy guruhlar): sinflar, millatlar, davlatlar faoliyati ko'zda tutiladi.

2) Ongliligi, maqsadga yonaltirilganligi. Siyosatda individlarning shahsiy maqsadlari umumdavlat maqsadlarigacha o'sib o'tadi.

3) Siyosatning tizimli yondashuviga ko'ra, siyosat – bu nisbatan mustaqil tizim, murakkab sotsial organizm, atrof-muhit, jamiyatning boshqa sohalaridan cheklangan va u bilan doimiy aloqadorlikda bo'ladigan yahlitlikdir.

Demak, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, siyosatga quyidagicha sotsiologik ta'rif berish mumkin: **Siyosat** – ijtimoiy guruhlar va individlarning o'z ziddiyatli jamoaviy manfaatlarini anglash va taqdim etish, davlat hokimiyati yordamida amalga oshiriladigan, butun jamiyat uchun majburiy bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonlaridir.

### **12.3. Siyosiy hayotning institutsionallashuvida siyosiy tizim va uning siyosiy hokimiyat masalasi**

Siyosat sotsiologiyasida **siyosiy hayotning institutsionallashuvi**, ijtimoiy-siyosiy hayotni tashkil etish va tartibga solishning mustahkam shakllarini o'rganuvchi yonalishdir.

**Institutsionallashuv** – ma'lum darajadagi ijtimoiy ehtiyo'jlarni qondirish tomon harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijtimoiy me'yorlar, qoidalar, maqomlar va rollarning aniqlanishi va mustahkamlanishi jarayoni, ularni bir tizimga keltirish. Unga muvofiq odamlarning ijtimoiy-siyosiy hatti-harakatlari mavjud ijtimoiy institutlar bilan mustahkam bo'fliqlikda o'rganiladi. Institutsionallashuv jarayoni siyosiy tizim bilan bo'fliq.

**I. Siyosat sotsiologiyasida siyosiy tizim masalasi.** Jamiyatning siyosiy tizimi ma'lum tuzilmadan iborat bo'lib, uning elementlari o'zaro bo'rlangan va barqaror birlikdan iboratdir. Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni amalga oshirishga safarbar qiluvchi mehanizmdir. Demak, siyosiy tizim siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi davlat, siyosiy, ijtimoiy tashkilotlar va munosabatlar yirindisidir.

Siyosiy tizim kategoriyasining paydo bo'lishi T.Parnas tomonidan jamiyatni sistemali tahlil etishning rivojlantirilishi bilan bo'fliqdir. Siyosiy tizim nazariyasi birinchi marta yirik amerikalik politolog D.Iston tomonidan XX asrning 50-60-yillarida atroflicha ishlab chiqilgan. Keyinchalik bu masala G.Almond, U.Mitchell, K.Doych. A.Ettsioni, D.Divayn va boshqa olimlarning asarlarida yanada rivojlantirildi. Hozirgi davrda fanda siyosiy tizim tushunchasi **ikki o'zaro bo'fliq ma'noga ega**.

**I. Siyosiy tizimning birinchi metodologik ma'nosida** turli siyosiy hodisalarning sistemali xususiyatlarini aniqlash va bayon etishga (yo'zishga) imkon beruvchi, sun'iy yaratilgan nazariy, fikriy qurilma, qurol kabi tasavvur qilinadi. Bu kategoriya siyosiy voqelikning o'zini aks ettirmaydi, balki siyosatni tizimli tahlil etish vositasi hisoblanadi. Siyosiy tizim siyosiy tuzilmadagi: davlat, partiya, kasaba uyushmasi, siyosiy madaniyat va h.k. nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Bu tuzilmalarning har biri o'ziga xos siyosiy tizimdir.

**Siyosiy tizim muhitga munosabati bo'yicha** bir qator funktsiyalarini bajaradi. Bular: 1) Jamiyat faoliyati dasturining maqsadlari, vazifalarini aniqlash. 2) Qo'yilgan maqsadlarga erishishda imkoniyatlarni safarbar etish. 3) Umumiy maqsad va qadriyatlarni tarrif qilish, hokimiyatdan foydalanish va boshqalar yordamida jamiyat barcha elementlarining birlashuvi. 4) Barcha fuqarolar uchun noyo'b qadriyatlar taqsimotining shart ekanligi. G.Almond bu funktsiyalar ro'yhatini yanada aniqlashtiradi, u 4 ta «kirish» funktsiyasi yo'zadi: a) Siyosiy ijtimoiylashuv, fuqarolarni ishtirokchilikka jalb etish. b) Ular manfaatlarining aylanib turishi (artikulyatsiya), manfaatlarning o'zaro qo'sxilishi va uchtata «chiqish» funktsiyasi – me'yorlar (qonunlar) ishlab chiqilishi. v) Ularning qo'llanilishi. g) Ularga amal qilinishi ustidan nazorat. Muhit siyosiy tizimga, unga qo'yiladigan talablar va quvvatlashlar yoki noroziliklar orqali ta'sir ko'rsatadi. **Siyosiy tizimning bosh maqsadi** – muhitning o'zgaruvchan talablariga moslashish va unga faol ta'sir etish yo'li bilan o'zini-o'zi saqlab qolishdir.

**2. Siyosiy tizim atamasining ikkinchi ma'nosi**, ko'proq konkret atamasida ishlatilganda jamiyatda hokimiyatning shakllanishi va amal qilishining mavjud murakkab mehanizmini anglatadi. Bu mehanizm davlatni, partiyalar, OAV, siyosiy uyushmalar va birlashmalar, turli siyosiy sub'ektlar (guruh va individlar) va ularning o'zaro munosabatlari, siyosiy ong va madaniyat, siyosiy me'yorlarni o'z ichiga oladi.

**Siyosiy tizim tushunchasi** davlat tushunchasidan kengroq va siyosiy hodisalar tahlilida etarlicha yuqori aniqlikka ega. Siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar (unsurlar) siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishda tutgan o'rniga qarab quyidagi 4 ta kichik tizimlar guruhiga ajratiladi:

1. **Tashkiliy tizim.**
2. **Madaniy-mafkuraviy tizim.**
3. **Me'yoriy (norma) tizim.**
4. **Ahborot kommunikatsiya tizimi.**

Bu to'rtta kichik tizim mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

**1. Tashkiliy tizim** o'z ichiga davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlarni qamrab oladi.

Jamiyat siyosiy hayotida tashkiliy tizimga kiruvchi davlat va siyosiy partiyalar siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun tuziladi.

**2. Madaniy-mafkuraviy tizim**, unga siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri kiradi. Madaniy mafkuraviy tizim mamlakatda amal qiladigan siyosiy partiyalarning ma'lum foyalar va qarashlarga tayanishlari bilan bo'liqdir. Siyosiy partiyalar o'zlarining jamiyat taraqqiyotining yonalishlari, hokimiyat uchun kurash uslublari va kontseptsiyalaridan, harakat dasturlarida belgilangan maqsadlaridan kelib chiqib, turli foyalarni ilgari surishlari mumkin. Siyosiy partiyalar va harakatlar jamiyat siyosiy tizimida o'z munosib o'rinlariga ega bo'ladiki, qochonki ular mamlakatda amal qilayo'tgan huquqiy qonuncxilik normalariga to'la-to'kis rioya qilsalar. Aks holda ularning faoliyatlari to'htatib qo'yilishi mumkin.

Hozirgi paytgacha dunyodagi siyosiy partiyalarning faoliyatlarida: 1) liberal; 2) konservativ; 3) radikal; 4) milliy; 5) sotsialistik va boshqa turdagi foyalarni ilgari surganlar. Demokratik jamiyat foyalar xilma-xil kontseptsiyasiga tayanadi. U yoki bu mafkurani davlat mafkurasi sifatida belgilamaydi.

**3. Me'yoriy (norma) tizim** o'z ichiga siyosiy-huquqiy, tashkiliy, ahloqiy, siyosiy va boshqa me'yorlarni qamrab oladi. Jamiyat siyosiy tizim va uning tashkiliy tuzilmalari ma'lum siyosiy me'yorga tayanib faoliyat ko'rsatadi. Aks holda uning faoliyati uyfun va barqaror rivojlana olmaydi.

**Siyosiy me'yor** – bu davlat va siyosiy tuzilmalar darajasida tan olingan normalar hisoblanadi. Uning asosiy hujjati Konstitutsiya bo'lib, u jamiyat va davlatning huquqiy asoslarini o'zida ifoda ettiradi.

**4. Ahborot kommunikatsiya tizimi** o'z ichiga ommaviy ahborot vositalari, kommunikatsilari va infratuzilmalarni oladi. Jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi ana shu kichik tizimlarning barchasi ham siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'z vazifasiga ega.

**Ommaviy ahborot vositalari** (OAV), kommunikatsiyalar va infratuzilmalar tizimi jamiyat rivojida katta o'rin tutadi. Uning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni matbuot, radio va televideniylarni o'z ichiga olganligi, siyosiy jarayonlarni holisona etkazish va baholash, halqning uning ijrosini ta'minlashga safarbar etish bilan belgilanadi.

Siyosiy tizimning yuqorida keltirilgan kichik tizimlari bir-birlaridan mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatadilar va ayni paytda ular bir-birlariga bo'liq hamdir. Ularning o'zaro uyfun holatdagi faoliyati siyosiy tizim barcha mehanizmlarining normal ishlashini ta'minlaydi.

## **Siyosiy tizimni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:**

### **1. Jamiyatning turlariga ko'ra ular:**

- 1) An'anaviy siyosiy tizim, zamonaviylashgan demokratiyalar va totalitar (R.Aron, U.Rostou va boshqalar).
- 2) Muhit bilan o'zaro ta'sirining harakteri bo'yicha-ochiq va yo'piq.
- 3) Siyosiy madaniyat va ularning hokimyatni tashkil etish shakllarida ifodalanish bo'yicha – anglo-amerikacha.
- 4) Kontinental – evropacha.
- 5) Industriallashuvigacha va qisman industrilashgan, totalitar turlarga (G.Almond) bo'linadi.

### **2. SHuningdek, hozirgi davrda siyosiy tizim quyidagi turlarga bo'linadi:**

- 1) Totalitar siyosiy tizim.
- 2) Avtoritar siyosiy tizim.
- 3) Demokratik siyosiy tizim.

Ularni chegaralab turuvchi mezon bo'lib, siyosiy tartib, (rejim) – ular hokimiyat, jamiyat (halq) va shahs (fuqaro) munosabatlarining harakteri va usullari hizmat qiladi.

**Siyosiy tizimda davlat instituti** markaziy o'rinni egallaydi.

Jamiyatda mavjud bo'ladigan barcha tashkilotlar **davlat faoliyati** bilan borliqdir. Davlat o'zining mukammal maqomiga ega bo'lib, ma'lum hududga, o'z aholisiga va ma'lum bir tashkilotlarga ega bo'ladi. U ihtiyoriy, majburiy, ijtimoiy-siyosiy tashkilot hisoblanadi. U ishontirish, majbur qilish, umummanfaatlarni amalga oshirishda turli vaziyatlar (manipulyatsiya)ni qo'llash va soliq yirish kabilarda tanho huquqqa ega. Davlatning yana bir muhim belgisi – uning suverent bo'lishligidir.

### **Davlat o'z hududi doirasida umumiy ijtimoiy-siyosiy tashkilot sifatida:**

1. Mamlakat nomidan ichki, tashqi va halqaro siyosatni olib boradi.
2. Qonun chiqarilishini ta'minlaydi (bu erda davlat hokimiyati masalasi haqida ham gap ketmoqda).
3. Ijroni ta'minlaydi.
4. Odil sudni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Davlatning ichki va tashqi funktsiyalari mavjud:

**Davlatning ichki funktsiyalarini** o'z hududida yashaydigan halq bilan davlat tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish tashkil qiladi. Ular ho'jalik, tashkilotcxilik, madaniy va tarbiya sohalaridan iborat.

## **II. Siyosat sotsiologiyasida siyosiy hokimiyat masalasi.**

**Hokimiyat** – eng sirli, murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa. Politologiya va sotsiologiya fanlaridan «siyosiy hokimiyat», «davlat



hokimiyati» kabi atamalarda ham ishlatiladi. Sotsiologiya tarixida hokimiyatni tushuntirish, talqin etishda quyidagi xilma-xil yondashuv talqinlari mavjud:

1. Teologik talqin.
2. Pozitiv-sotsiologik talqin.
3. Hokimiyatning maqsad nuqtai nazaridan talqini.
4. Biheviyistik talqini.
5. Psixologik talqin.
6. Tizimli talqin.
7. Tuzilmaviy-funksionalistik talqin.
8. Relyatsionistik talqin.

Endi ana shu siyosiy hokimiyat talqinlarining har biri haqida qisqacha to'htalamiz:

**1. Teologik (maqsad nuqtai nazaridan) ta'rifi** hokimiyatni qo'yilgan maqsadlarga erishish, mo'ljallangan natijalarni olish qobiliyati sifatida harakterlaydi. Teologik ta'rif hokimiyatni ancha keng bayon etib, uni nafaqat kixilar o'rtasida munosabatlarga, balki insonning o'zini o'rab turgan dunyo bilan o'zaro ta'siriga ham tatbiq etadi. Masalan, siyosiy hokimiyatni tabiat ustidan hukmronlik to'frisida gapiriladi.

**2. Pozitiv-sotsiologik talqin** (nemis sotsiologi V.Veber)ga qo'ra, hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o'zining irodasini o'tkazish qobiliyatidir. Hokimiyat munosabatlarning asosini o'zaro ta'sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat sub'ekti va ob'ekti o'rtasida qaror topadi.

**3. Hokimiyatning maqsad nuqtai nazaridan talqini** (B.Rassel). Bu talqinda hokimiyat muayyan maqsadga erishish, ko'zda tutilgan natijalarga ega bo'lish qobiliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, hokimiyat – bu ko'zlangan maqsadlarni ro'yo'bga chiqarishdan iboratdir. Bunda hokimiyat keng ma'noda talqin etiladi. Hokimiyat nafaqat kixilar o'rtasidagi munosabatlarni, balki insonning atrof-muhit bilan, tabiat bilan o'zaro aloqalarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

**4. Biheviyistik talqinda** hokimiyat sub'ekt xulq-atvorining ko'rinishi sifatida olib qaraladi. Bunda birovlar buyuradilar, boshqalar esa bo'ysunadilar. Bu yondashuv hokimiyatni tushunishni individuallashtiradi, uni real shahslarning o'zaro harakatidan iborat, deb qaraydi. Hokimiyatning biheviyistik talqinini AQSH olimi G.Lassuel taklif etgan. U hokimiyatning paydo bo'lishi uchun dastlabki impul'slarni individga, insonga xos bo'lgan hokimiyaga intilish va «siyosiy energiyaga» egalik qilishlik beradi, deb hisoblaydi. Inson hokimiyatga intilishda hayotini yahsxilash, boylik, obro' orttirish, erkinlikka, havfsizlikka va hokazolarga

erishish vositalarini ko'radi. SHu bilan birga, **hokimiyat** - bu uni egallash bilan huzurlanishga imkon beradigan maqsad hamdir. **Siyosiy hokimiyat** siyosiy kuchlar intilishlarining to'qnashuvi, balansi, muvozanati sifatida qaror topadi. Siyosiy kuchlar muvozanatining buzilishi esa jamiyatda inqirozlar va ihtiloflarga olib keladi.

**5. Psihologik talqin** (Z.Freyd, K.Gustav, YUng, K.Horin). Bu ta'rif hokimiyatni real individlarning xulq-atvori sifatidagi biheavioristik tushinishdan kelib chiqadi. Umuman, psihoanaliz asosidagi psihologik yondashuv hokimiyat mehanizmalari motivlarini buyruq berish, itoat etish munosabati sifatida ochib berishga yordam beradi.

**6. Hokimiyatning tizimli talqini.** Bu hokimiyatga biheavioristik va psihologik yondashuvdan farq qiladi. Agar bu ikki yonalish reallikka tayanib hokimiyatni tushunishda quyidan yuqorigacha, individlardan jamiyatga qarab borishni talab qilsa, tizimli usul esa hokimiyatning individual munosabatlardan emas, balki sotsial tizimda xosil bo'lganligidan kelib chiqadi. U hokimiyatni majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash qobili sifatida olib qaraydi. Tizimli yondashuvning ayrim vakillari (K.Doych, N.Luman) hokimiyatni guruhviy ihtiloflarni tartibga soladigan va jamiyatning birlashishini ta'minlashga imkon beruvchi sotsial muomala vositasi sifatida ko'radi.

**7. Hokimiyatning tuzilmaviy-funksional talqini** (amerikalik sotsiolog T.Parsons). Bu hokimiyatni teng bo'lmagan sub'ektlarning munosabati, ijtimoiy tashkilotning xususiyati, insonlar birligining o'zini-o'zi tashkil etish, uyushtirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. **Hokimiyat** – rahbar lavozimlarni egallash va muayyan funktsiyalarni bajarish bilan bo'liq faoliyatdir. Rahbar lavozimlar esa oqilona va nooqilona chora-tadbirlar, ra'batlantirish va jazolash yordamida kishilarga ta'sir qilish imkonini beradi.

**8. Relyatsion munosabatga asoslangan talqin.**<sup>1</sup> Bu hokimiyatni ikki sherik o'rtasidagi munosabat sifatida olib qaraydi. Bunda ulardan biri ikkinchisiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Bu holda hokimiyat uning sub'ekti va ob'ektining o'zaro harakati sifatida namoyon bo'ladi, sub'ekt muayyan vositalar yordamida ob'ektni nazorat qiladi.

Hokimiyatning talqinlari, yondashuvlari bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Ularga diqqat-e'tiborni qaratish hokimiyat nazariyasini chuqur va har tomonlama o'rganishning zaruriy shartidir.

**Hokimiyatning tuzilishi.** Hokimiyat bir qator tuzilmalardan iborat bo'ladi. Uning tarkibiga:

---

<sup>1</sup> Pugachev.V.T. Solov'ev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. -T.: YAngi asr avlodi, 2004-102-110-b.

### **1. Sub'ekt (uning darajalari):**

- 1) Individ va ijtimoiy guruhlar.
- 2) Siyosiy tashkilotlar.
- 3) Siyosiy elitalar kiradi.

### **2. Ob'ekt-hokimiyatining muhim ikkinchi elementi:**

- 1) Individ, sotsial guruhlar, sinf, jamiyat.

### **Siyosiy hokimiyat tobeligini izohlashda:**

- 1) CHora oldidan qo'rquv.
- 2) Bo'ysunishga moyil bo'lgan ko'nikma.
- 3) Manfaatdorlik.
- 4) Rahbarning obro'-e'tibori.
- 5) Ob'ektni hokimiyatning sub'ekti bilan aylantirish.

### **Hokimiyat resurslari:**

- 1) Utilitar resurslar.
- 2) Majburlovchi resurslar.
- 3) Me'yoriy resurslarga bo'linadi.

**1. Sub'ekt – hokimiyatning faol, yonaltiruvchi kuchi.** U alohida inson, sotsial guruh, kixilarning birligi. Masalan, halq yoki jahon hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq, har qanday inson hokimiyatning sub'ekti bo'lavermaydi. U hokimiyat sub'ekti bo'lishi uchun qator sifatlarga ega bo'lishligi kerak. Avvalombor, bu hokimlikka hohish-istak, ko'rsatma yoki buyruq bera oladigan hokimlik qilish-ta'sir eta olish qobiliyatiga, maqomiga ega bo'lishi lozim. Ko'pxilik kixilar hokimiyatga ega bo'ladigan ruhiy qoniqishni his etmaydilar. Ular uchun hokimiyat o'z-o'zidan boylik vositasi hisoblanmaydi. Ko'plar agar hokimiyat turli imtiyo'zlarni olish uchun keng imkoniyatlar ochib bermaganda umuman rahbarlik lavozimlaridan va ular bilan bo'liq bo'lgan mas'uliyatdan o'zlarini olib qochgan bo'lur edilar. Ular uchun hokimiyatga intilish instrumental harakterga ega, ya'ni boshqa bir maqsadlarga erishish vositasi bo'lib hizmat qiladi. Hokimiyatga intilish ehtiyo'ji mavjud.

Hokimiyat sub'ekti rahbarlik qilishga hohish-istak va mas'ulyatni o'z bo'yniga olishlikdan tashqari u bilimdon bo'lishi, ishning ma'no-mazmunini, qo'l ostidagilarning holati va kayfiyatini bilish, resurslardan foydalana olish, obro'-e'tiborli bo'lishi darkor. Jamiyat uchun hokimiyat sub'ektining uyushqoqligi muhim ahamiyatga ega.

Hokimiyatning sub'ektlari murakkab, ko'p darajali harakterga ega. Uning boshlanfich sub'ektlari:

- 1) Individlar va ijtimoiy guruhlar.
- 2) Siyosiy tashkilotlar.

3) Siyosiy elitalar—eng yuqori darajadagi sub'ektlari.

**Hokimiyat qanday resurslarga asoslanishiga ko'ra quyidagi hokimiyat turlariga bo'linadi:** 1. Siyosiy hokimiyat. 2. Iqtisodiy hokimiyat. 3. Sotsial hokimiyat. 4. Madaniy-ahborot hokimiyati. 5. Majburlovchi hokimiyatlarga ajratiladi. Endi ularning har biriga to'htalamiz.

**1. Siyosiy hokimiyat** – bu siyosiy sub'ektlarning siyosatda ifodalangan irodasini turli yo'llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos alohida shaklidir. Siyosiy hokimiyat hokimiyatning eng asosiy va o'ziga xos ko'rinishlaridan biri. Siyosiy hokimiyat jamiyat va davlat hayotini bir butunligicha va yahlitligicha qamrab oladi, uni yonaltiradi va tartibga soladi, hokimiyatning boshqa barcha ko'rinishlarini birlashtiradi, ularni halq manfaatlariga bo'ysundiradi. Siyosiy hokimiyatsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. U siz jamiyatda tartibsizlik, bosh-boshdoqlik, o'zboshimchalik boshlanadi. SHuning uchun ham siyosiy hokimiyatning maqsadi-ijtimoiy va davlat hayotini tartibga solish, boshqarishdir.

**Siyosiy hokimiyat quyidagi xususiyatlarga ega:**

1) Legitimligi, ya'ni davlat miqyo'sida kuch ishlatishdan foydalanishning legalligi.

2) Hokimiyat uchun qarorlarning majburiyligi, istagan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishligi. Siyosiy hokimiyat qudratli korporatsiyalar, OAV va boshqa muassasalarning ta'sirini qonunga zid bo'lsa, cheklash yoki ularni umuman tugatishi mumkinligi.

3) Ommaviyligi, ya'ni umumiyligi. Buning ma'nosi shundaki, siyosiy hokimiyat mayda, kontakt guruhlarda mavjud bo'ladigan shahsiy hokimiyatdan farqli o'laroq, huquq yordamida barcha fuqarolarga butun jamiyat nomidan murojaat qilishligi.

4) Bir markazligi, qarorlar qabul qilish yagona markazining mavjudligi.

5) Resurslarning xilma-xilligi, siyosiy hokimiyatning nafaqat majburlovchi, balki iqtisodiy va madaniy-ahborot resurslaridan ham foydalanish.

Siyosiy hokimiyat jamiyatda hokimiyatning boshqa ko'rinishlari: iqtisodiy, sotsial, madaniy-ahborot, majburlovchi hokimiyatlarga tayanib ish ko'radi.

**2. Iqtisodiy hokimiyat** – hokimiyatning musatqil ko'rinishlaridan biri. U siyosiy hokimiyatdan farq qiladi. Iqtisodiy hokimiyat resurslar ustidan nazorat qilish, turli-tuman moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi. Bu hokimiyat jamiyat taraqqiyotining odatdagi, nisbatan tinch

davrlarida hokimiyatning boshqa ko'rinishlari orasida ustuvorlik qiladi. Sababi, iqtisodiy nazorat – bu inson hayotining biror sohasini shunchaki nazorat qilish emas, balki jamiyatning barcha maqsadlarga erishish vositalari orasida alohida ta'sir doirasiga egadir.<sup>1</sup>

**3. Sotsial hokimiyat** – u iqtisodiy hokimiyat bilan chambarchas bo'rlangan. Agar iqtisodiy hokimiyat moddiy boyliklarni taqsimlash qobiliyatini anglatasa, sotsial hokimiyat esa sotsial zinapoyadagi o'rinlarni – maqomlar, lavozimlar, imtiyo'zlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi. Hozirgi zamon davlatlari katta sotsial hokimiyatga ega. Ular sotsial siyosat yordamida aholi keng qatlamlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

**4. Madaniy - ahborot hokimiyati** – bu ilmiy bilimlar, ahborotlar va ularni tarqatuvchi vositalar orqali kishilar ma'naviy dunyosiga ta'sir eta olish imkoniyatiga ega. SHuningdek, hokimiyatning ahloqiy, diniy va boshqa ko'rinishlaridir. Hozirgi kunda ilfor mamlakatlarda ma'naviy ta'sir etishning barcha ko'rnishlari orasida ilmiy-ahborot birinchi o'ringa chiqmoqda. Bunday ta'sir ko'rsatish ijtimoiylashuv muassasalari (ta'lim, OAV) orqali amalga oshirilmoqda. Ahborot turli-tuman maqsadlarga xizmat qilishga qodir. U hukumat faoliyati haqida nafaqat ob'ektiv habarlarni tarqatishga, balki noholisona, noaniq habarlarni tashviqot-tarfiobot qilib, kishilar ongi va xulq-atvorini to'firi yo'ldan chalfitishga xizmat qilishi ham mumkin.

**5. Majburlovchi hokimiyat** – majburlovchi resurslarga tayanadigan va jismoniy kuch ishlatishni qo'llash yoki kuch ishlatish yordamida kishilarga ta'sir etishdir. U iqtisodiy, madaniy-ahborot etarli bo'lmaganda amal qiladigan, ularni to'ldiradigan hokimiyatdir. Kuch ishlatishga tayanish – majburolovchi hokimiyatning muhim xususiyatidir. Bunda majburlovchi va siyosiy hokimiyat aynan bir narsa emas. Kuch ishlatishga, majburlashga siyosiy hokimiyat ham tayanishi mumkin. Masalan, jinoiy guruhlarni tugatishda, tashqaridan bo'ladigan bosqincxilik harakatlarini bartaraf etishda majburlovchi resurslardan foydalaniladi. Bu bilan uni majburlovchi hokimiyat bilan aynan bir narsa deb bo'lmaydi. Siyosiy hokimiyat majburlovchi hokimiyat singari faqat kuch ishlatuvchi, majburlovchi (jismoniy, moddiy, ruhiy) resurslarga tayanish bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy muammolarni hal etishda iqtisodiy, sotsial va ma'naviy-ahborot resurslariga ham tayanadi. SHuning uchun ham majburlovchi hokimiyat siyosiy hokimiyatdan farq qiladi.

Hokimiyat ko'rinishlari yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi.

---

<sup>1</sup> Ergashev.I.va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma.-T.: G.A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 104-106 b.

**Hokimiyat sub'ektlariga ko'ra:** davlat, partiya, kasaba uyushmalari, armiya, oila va boshqa har xil ko'rinishlari ham mavjud.

**Hokimiyat qanday funktsiyalarni bajarishiga ko'ra:** qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linadi.

**Hokimiyat sub'ekti va ob'ekti o'zaro harakatining uslubiga ko'ra,** demokratik avtoritar va totalitar hokimiyatlarga bo'linadi.

**Hokimiyat ta'sir ko'lamiga ko'ra:** halqaro tashkilotlar, makrodarajadagi davlatning markaziy organlari, mezodarajada: viloyat, tuman tashkilotlar ta'sir etish makoniga ega bo'ladi.

**Hokimiyatning legitimligi va turlari.** «Legitimlik» atamasi o'zining lufaviy mazmuniga ko'ra, frantsuzcha «legitimite» co'zidan kelib chiqqan bo'lib, «qonuniy» degan ma'noni anglatadi. Hokimiyat legitimligi odatda uning qonuniyligi va adolatligini, fuqarolar tomonidan ijobiy baholanishini va ihtiyoriy tan olinishini anglatadi. U hokimiyatning obro'yi bilan, uning mavjud siyosiy institutlarining optimalligiga e'tiqodni shakllantirish va saqlab turish qobiliyati va imkoniyati bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

Legitimlik va legallik aynan bir xil tushunchalar emas. Agar legallik hokimiyatning huquqiy asoslanishi, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini anglatasa, legitimlik – bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qo'llab-quvvatlashdir. Qonun chiqaradigan har qanday hokimiyat ularning bajarilishini ta'minlamaganda ham legaldir. SHu bilan birga nolegitim bo'lishi, halq tomonidan qabul qilinmasligi ham mumkin.

Hokimiyatning legitimligi bir xil emas. U o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra xilma-xil turlarga bo'linadi. Hokimiyat legitimligining 3 ta klassik turini (Maks Veber) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu turlar quyidagilardan iborat.

**1. An'anaviy legitimlik.** U oldingi tartiblarning buzilmasligi tarafdori. Uning negizi siyosiy an'analar, urf-odatlarga ishonch tashkil etadi. An'anaviy legitimlik monarhiyaga xos xususiyatdir. Fuqarolarning hokimiyatga so'zsiz bo'ysunishini anglatadi.

**2. Harizmatik legitimlik** (yunoncha «harizma» - hudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat) – rahbarning haddan tashqari ilohiy qobiliyatga, favqulodda iste'dodga, ya'ni harizmaga ishonishiga asoslanadi. Uning negizini tarixiy an'analar emas, balki shahsga halqning cheksiz ishonchi tashkil etadi. Bu legitimlik an'anaviy legitimlikning aksidir. Harizmatik legitimlik mamlakatlarning o'tish davrida ko'p kuzatiladi.

---

<sup>1</sup> Pugachev.V.P., Solov'ev.A.I. Siyosatshunoslikka kirish.-T.: YAngi asr avlodi; 2004.-116-120-b.

**3. Oqilona - huquqiy legitimlik** – legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an'anaviy, harizmatik turlaridan farq qiladi. Bu legitimlik fuqarolarning alohida shahslarga emas, balki davlat tuzilishiga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil qiladi. Bu manfaat kixsilardan umumjahon tomonidan e'tirof etilgan qoidalar bo'yicha shakllangan hukumat qarorlariga ixtiyoriy bo'ysunishni uyfotadi. Oqilona-huquqiy legitimlik ilfor, demokratik davlatlarga xos.

#### **Rahbar ma'suliyati haqida.**

Bugungi kunda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan rahbar kadrlarga qo'yilgan talab va vazifalar qo'yidagilardan iborat:

1. Rahbar ko'ngli ochiq, qalbi va qo'li toza, aql-zakovat sohibi, salohiyati shakllangan bo'lishi kerak.

2. Rahbar tarbiyali, bilimli va mahoratli, halol hizmat qilishi, mas'uliyatli bo'lishi darkor.

3. Rahbar aqli, tajribali, bilimdon mutahassislarga tayanadigan, boshqalar fikrini eshitmo'ri, shunga ko'ra xulosa chiqarishi lozim hamda quyi rahbar kadrlarga e'tiborli bo'lishi zarur.

4. Rahbar bajaradigan ishlar ma'lum guruhlar uchun emas, balki halqqa hizmat qilishi lozim.

5. Rahbar fidoyisi inson, tashabbuskor va talabchan bo'lishi shart.

6. Rahbar mayda gaplar, fisqu fasod, maishatbozlikka berilmasligi kerak.

7. Katta rahbarlar kichik rahbarlarni tanlashda mahalliycxilik, oshna-oraynigarcxilik, shahsiy sadoqatga, kaltabinlikka qarab tanlamasligi zarur.

8. Rahbar maqtovga berilmasligi, «dohiy»likdan yiroq bo'lishi darkor.

9. Rahbar nafs balosiga qarshi kurashish kerak.

10. Rahbar adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi lozim.

11. Rahbar shahsiy hayotda namuna bo'lishi kerak.

12. Rahbarning barcha ishlari ochiq va oshkora bo'lishi lozim.

13. Rahbar o'z foyasi, harakat dasturiga ega bo'lishi bilan birga, halq tinchligi, farovonligi, yurt taraqqiyoti uchun halqni jiplashtira olishi zarur va h.k.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) rahbarlikning o'ziga xos, o'zbek modeli sifatida vujudga keldi. Mazkur modelning diqqat markazidagi masala shahsni shakllantirishdir. Kadrlar tayyorlash milliy dsturining asosiy sub'ekti ham shahs, inson. Insonni komil inson sifatida tarbiyalash<sup>1</sup>

## **12.4. Hokimiyat organlariga saylovlar**

<sup>1</sup> Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. –T.: YAngi asr avlodi. 2005.-15-18 b.

Siyosat sotsiologiyasida saylovlar muhim ahamiyatga ega. **Saylovlar** – zamonaviy siyosatning eng muhim tarkibi qismi. **Saylovlar muayyan qoidalar yordamida fuqarolar siyosiy irodasini bayon etish orqali hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirish, muayyan qoidalar yordamida fuqarolar siyosiy uslubidir.**

Saylov deganda biron-bir organi, masalan, hokimiyatning vakillik organi va hokazolarni ovoz berish yo'li bilan shakllantirish tushuniladi. Umuman, saylovlar o'z mazmuniga ko'ra, davlat hokimiyati vakillarini, shuningdek, jamoat birlashmalari rahbar organlarini saylash tartibi demakdir. Saylov natijasida saylangan nomzodlar hokimlik vakolatiga ega bo'ladilar. Saylovlardan turli demokratik tashkilotlarda foydalaniladi: partiyalar, kasaba uyushmalari, ko'ngilli uyushmalar, kooperativlar, aksiyadorlik jamiyatlar va boshqalar.

«**Saylov huquqi**» iborasi ikki ma'noda ishlatiladi. **Birinchi**dan, **saylov huquqi** – saylanadigan davlat organlarini shakllantirish tartibini belgilovchi huquqiy normalar yirindisidir. **Saylov huquqi** – konstitutsiyaviy huquqning muhim institutlaridan biri. Saylov huquqining asosiy printsiplari odatda konstitutsiyalarda, saylov haqida maxsus qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 117-moddasi aynan saylov tizimiga barishlangan. Bundan tashqari «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'rsida»gi, «Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'rsida»gi, «Markaziy saylov komissiyasi to'rsida»gi va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'rsida»gi qonunlar bunga misol bo'la oladi.

**Saylov huquqi ikkinchi ma'noda** fuqaroning saylanadigan davlat organini shakllantirishda qatnashishidan iborat bo'lgan sub'ektiv huquqini anglatadi. Bunda fuqaroning saylash va saylanish huquqlari nazarda tutiladi.

**Saylovlar** – ijtimoiy va siyosiy hayotda tez-tez uchraydigan hodisa, negaki ular boshqaruvning turli institutlari va darajalariga ta'sir etadi: **parlament, mahalliy hokimiyat organlari.** Masalan, AQSHda har to'rt yilda bir marta federal va umummiy prezident saylovlari o'tkaziladi, har ikki yilda – kongressning quyi palatasi – vakillar palatasiga saylovlar o'tkaziladi. SHu vaqtning o'zida ikki yilda bir marta Kongressning yuqori palatasi – Senatning uchdan bir qismi 6 yil muddatga saylanadi. SHtatlarda muntazam ravishda gubernatorlar, qonuncxilik yifinlari, bosh prokurorlar va boshqa mas'ul shahslar saylanadi, mahalliy darajada – mer maslahatxilar, hazinacxilar, klerklar, sud'yalar, sheriflar, konstebllar, maktab nazoratxilari va boshqalar uchun ovoz berishadi. Umumiy holatda



partiyalar, kasaba uyushmalar, ko'p sonli ko'ngilli uyushmalarni saylovlar to'ldiradi. Elektoral shakllarning ko'pligi fuqarolarga siyosiy faolliklarini namoyon etish va davlat hamda jamoatchilik ishlariga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyo'tlarda **demokratik sharoitda saylovlarning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatilgan:**

1. Aholining xilma-xil manfaatlarini aniqlash, saralash va taqdim etish.

2. Hokimiyat institutlari ustidan nazorat. Nazoratning eng muhim instituti parlamentdan tashkil topadi. Odatda konstitutsiya va qonunlar bajarilishini diqqat bilan kuzatadigan muholifat rasmiylashadi.

3. Xilma-xil fikrlarni yaqinlashtirish va umumiy siyosiy irodani shakllantirish. Bunday holatda anarhiyaning, tartibsizlikning oldi olinadi.

4. Siyosiy tizimni legitimlash va barqarorlashtirish, shuning, hokimiyatning muayyan institutlarini: parlament, hukumat, prezident va boshqalarni legimlash: fuqarolarning saylovda ishtirok etishi, ularning siyosiy tizim shu turini, siyosiy tarribotni amalga oshiradi. Hokimiyat organlarini shakllantirish qoidalarini, aholining muayyan mas'ul shahslar, hukumat va hukmron partiyalarga munosabatidan qat'iy nazar qobil qilishlari, tan olishlarini anglatadi.

5. Kommunikatsiyalarning, hokimiyat institutlari va fuqarolar o'rtasidagi vakolat munosabatlarining kengayishi.

6. Kanallashuv, ya'ni siyosiy ihtiloflarni institutsionallashtirgan tinch bartaraf etish yo'liga o'tkazish.

7. Saylovlarni dolzarb ijtimoiy masalalarni hal qilishga safarbar etish.

8. Aholining siyosiy ijtimoiylashuvi, uning siyosiy ongini va siyosiy ishtirokini rivojlantirish.

9. Siyosiy elitani saralash.

10. Muqobil siyosiy dasturlar raqobatli kurashi asosida jamiyat yangilanishini keltirib chiqarish.

11. Samarador muholifatni yaratish va uni siyosiy boshqaruv funksiyasini bajarishga tayyorlab borish.

YUqoridagi sanab o'tilgan funksiyalarni saylovlar faqat demokratik tarzda tashkil etilgandagina bajaradi. **Saylovlarning ijtimoiy vazifasi** – fuqarolar fikrini va irodasini aynan aks ettirib, hokimiyat organlarida asosiy ijtimoiy guruhlar va vakilligini ta'minlash, shuningdek, samarali hukumatni shakllantirishdir.

**Saylov huquqining demokratik printsiplari quyidagilardan iborat:**

1. **Umumiy saylov (huquqi) printsiipi.** Har bir mamalkatda ruhiy jihatdan soflom, ozodlikdan mahrum qilinmagan, jazoni o'tamayo'tgan, barcha fuqarolar qonunda belgilangan hamma saylov huquqlarini, ya'ni saylash (18 yoshdan) va saylanish (mahalliy hokimiyatlariga 21 yoshdan, Oliy Majlisga 25 yoshdan, Prezidentlikka 35 yosh) huquqlariga ega ekanliklari e'tirof etilishi. Saylovlarda ishtirok etishni 1) faol (aktiv), saylovchi sifatida va 2) passiv, nomzod sifatida huquqiga ega. Nomzodlarning yoshi turli mamlakatlar turlicha. Farb mamalkatlarida uzoq vaqt yo'llanma ishcxilar, kambafallar, ayo'llarni saylovda ishtirokini cheklovchi tsenzlar mavjud bo'lgan. Bu tsenzlar Frantsiyada 1944, Italiyada va YAponiyada 1945, Gretsiyada 1956, SHveytsariyada 1971, Portugaliyada 1974 yildan bekor qilingan.

2. **Teng saylov huquqi printsiipi.** Teng saylov huquqi saylovlarda qatnashishga huquqi bo'lgan barcha fuqarolar ham saylovchi, ham saylanuvchi sifatida teng huquq va majburiyatga ega ekanligini anglatadi. Har bir saylovchi bir ovozga ega va uning ovozi boshqa saylovchining ovoziga teng. Teng saylov huquqi 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolarning saylovda teng sharoitda qatnashishlarini anglatadi. Amalda saylov huquqlarining tengligi murakkab, shu sabab ayrim chekinishlarga yo'l qo'yilgan. Masalan, Germaniyada saylov qonuniga ko'ra saylov okruglari aholi soniga ko'ra uchdan bir miqdorigacha farq qilishi mumkin.

**Saylavlarda erkin qatnashish printsiipi** - saylovchi saylovda qatnashishi yoki qatnashmaslik huquqiga ham ega, agar qatnashmasa, saylovning qaysi bosqichida va qanday shaklda qatnashishini anglatadi.

3. **To'fridan to'fri (bevosita) saylash huquqi printsiipi.** Bu printsiip fuqarolarning saylovda bevosita, ya'ni pofonasiz, vakillarsiz, aynan o'zlari tomonidan saylov huquqining amalga oshirilishi anglatadi. Bu printsiipga ko'ra asosiy va birdan - bir sharti har bir saylovchi shahsan ovoz berishidan iboratdir. Salomatligi yahshi emasligi va boshqa sabablar bo'lsa, saylov binosiga kelish imkoniyati bo'lmasa. Ularning ovoz berishini turgan joylarida tashkil etishlari kerak. Bu shahslarni saylovcxilar bilan mustahkam aloqasini ta'minlashga hizmat qiladi<sup>1</sup>.

4. **YAshirish ovoz berish huquqi printsiipi.** Bu saylovchining hech bir tashqi ta'sirsiz, o'z hohish-irodasini ifoda etishdir. Bunda saylovcxilarning ovoz berishi maxsus, yo'piq va ajratilgan, holi honalarda amalga oshirilib, saylovchining saylov byulltenini qay tarzda to'ldirganligi mutlaqo yashirin holda kechadi.

YUqoridagi asosiy saylov printsiiplaridan tashqari O'zbekiston saylov qonuncxiligida halqaro normalarga mos ravishda saylov huquqining

---

<sup>1</sup> Muhamedov.H.M.Saylov huquqi va saylov tizimi. -T.: TDYUI, 2004.-11-15-b.

asosiy, konstitutsiyaviy printsiplari bilan bir qatorda quyidagi **umumiy printsiplari** ham o'z ifodasini topgan:

**1. Erkinlik printsiipi.** Saylovlarda ko'rquvsiz erkin qatnashish yoki qatnashmasliklari ham mumkin. Bu printsiip saylov qonunlarida mavjud.

**2. Oshkoralik printsiip.** Oshkoralik saylov jaaryonida qonunga xilof harakatlarga chek qo'yadi. Ovozlarni sanash saylov uchaskasi darajasidan tortib, okrug va Markaziy saylov komissiyalari darajasida oshkora ko'rilib, tasdiqlangan bo'lishi shart.

**3. Adolatlilik printsiip.** Saylov jarayonida barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni, kamida saylovcxilarni barcha nomzodlar va ularning dasturlari hususidagi ahborotga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak. Bu printsiipga ko'ra: 1) sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar; 2) saylov kuniga qadar so'nggi 5 yil mobaynida O'zbekiston hududida muqim yashamagan fuqarolar; 3) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy hizmatcxilari, Milliy havfsizlik hizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning hodimlari; 4) diniy tashkilotlar va barlashmalarning professional hizmatcxilari deputatlikka nomzod etib olinmaydilar («O'zR Oliy Majlisiga saylov to'frisida»gi qonun 25-modda).

**4. Mas'ullik printsiipi.** Barcha saylangan shahslar o'zlari saylangan lavozimini egallash vaqtida saylovcxilar oldidagi o'z mas'uliyatini tan olishini talab qiladi. Halq deputati bo'lish – yuksak sharaf va katta mas'uliyat hamdir, uning zimmasiga davlat va jamoat vazifalari yuklanadi. Deputat o'zining butun faoliyati bilan saylovcxilarning ishonchini oqlashi, unga halq tomonidan berilgan talablar darajasida bo'lishi kerak.

#### **Saylov tizimining kuyidagi turlari mavjud:**

**1. Majoritar saylov tizimi** (frantsuzcha majo'rite-ko'pcxilik so'zidan)- konstitutsiyaviy huqukda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijisida aniqlash. Majoritar saylov tizimida qonun bilan belgilangan ko'p ovoz olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yhati) mazkur okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va boshka mamlakatlarda majoritar saylov tizimi mavjud.

Nisbatan ko'pcxilik ovozigaga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi. YA'ni ko'p ovoz 50% +1 ta ovoz nazarda tutiladi va 51% ovoz olingan nomzod o'tgan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham etarli ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi. Bunda nomzodlar ro'yhatida nisbatan ko'p ovoz olgan ikki nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish o'rniga ikkinchi tur ovoz berish o'tkaziladi. Bu O'zbekistonda ham joriy qilingan.

### **Majoritar saylov tizimi 3 ko'rinishda mavjud:**

1. Malakali ko'pxilik ovozli majoritar tizimi.<sup>1</sup>
2. Mutlaq ko'pxilik ovozli majoritar tizimi.
3. Nisbiy ko'pxilik ovozli majoritar tizimi.

**2. Proportsional saylov tizimi** ovoz berish natijalari birmuncha murakkab tartibda bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan partiyalar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Proportsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamalatlarda mavjuddir. Ayrim davlatlarda majoritar va proportsional saylov tizimlarini aralashgan, uyrunlashgan holda qo'llashadi. Bu ikki tizimning aralashgan holda ikki varianti mavjud: 1) Asosan majoritar tizimi qo'llanilib, biroq proportsional tizim bilan to'ldiriladi. Bunda, masalan, parlamentning quyi palatasiga deputatlarning to'rtidan uch qismi majoritar, to'rtidan bir qismi proportsional saylov tizimi asosida saylanadi. 2) Deputatlarning yarmi butun mamlakatni qamrab olgan bir mandatli okruglardan majoritar tizim bo'yicha, qolgan qismi esa umumdavlat miqyo'sidagi partiya ro'yhatlari bo'yicha o'tkazilgan saylovlarda saylanadi. Bu holda saylovchi saylov kuni 2 byulleten oladi, birinchisi bo'yicha majoritar tizimga muvofiq, ovoz beradi, ikkinchisi bo'yicha esa partiya uchun ovoz beradi.

**3. Aralash saylov tizimi** o'zida ham majoritar, ham proportsional saylov tizimlari elementlarini mujassamlashtirgan. Masalan, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizimlari qo'llaniladi. Aralash saylov tizimi Bolgariya, Gruziya, Litva, Rossiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipga asoslanishi aytib o'tilgan. Dune mamlakatlarida esa 4-hokimiyat ommaviy ahborot vositalari qilib belgilab berilgan. Demak, davlat hokimiyatining bo'linishi printsipi:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis (Parlament).
2. Ijroiya hokimiyati (hukumat-Vazirlar Mahkamasi).
3. Sud hokimiyati.
4. Ommaviy ahborot vositalaridan tashkil topgan.

**1. Oliy Majlis** – O'zbekiston Respublikasi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyati. Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat har bir davlatda o'ziga xos

---

<sup>1</sup> Axmadshaeva.M.A., Rasulov SH.V.Saylov qonunchiligi: 100 savolga 100 javob.-T.: TDYUI, 2004.-17-18-b.

xususiyatlarga ega va turlicha ataladi (masalan, AQSHda – Kongress, SHvetsiyada – Riksdag, Hitoyda – Halq vakillari Umumhalq majlisi va h.k.). O'zbekistonda bunday hokimiyat Oliy Majlis deb ataladi. Uning maqomi, tizimi tuzilishi, vazifalari, ish va faoliyati qoidalarini belgilashda barcha ilfor davlatlarning va umuman, insoniyatning oliy qonun chiqaruvchi organini tashkil qilishdagi tarixiy tajribasi o'rganilgan va inobatga olingan.

Oliy Majlis 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan va unga birinchi saylov 1994 yil 25 dekabrda bo'lib o'tgan. Bunga qadar uning vakolatlarini O'zR Oliy Kengashi amalga oshirgan (unda jami 150 deputatdan iborat edi). 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumhalq referendumida, O'zR Oliy Majlisi o'zining 2002 yil aprely sessiyasida Oliy Majlis 2 palatadan Senatdan va Qonuncxilik palatasidan iborat bo'lishi haqida qaror qabul qildi.

1995-2004 yillarda parlament Oliy Majlis nomi bilan atalib, bir palatali va uning 250 deputati mavjud edi.

Mustaqillik yillarida halq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 deputat, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 nafar deputat saylanishi yo'lga qo'yildi.

2005-2009 yillarda oliy majlis ikki palatali parlament bo'lib, uning quyi Qonuncxilik palatasi 120 deputat, Senat (yuqori palatasi) esa 100 senatordan tashkil topdi, jami 220 deputatdan iborat bo'lib keldi.

2009 yil 27 dekabrda Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar o'tkazildi. 2010 yil 10 yanvarda ularga qayta saylovlar ham bo'lib o'tdi. Natijada 2010 yildan boshlab quyi Qonuncxilik palatasi deputatlari soni 150 ta, shundan 135 ta deputat faqat siyosiy partiyalardan saylanadi. 15 ta deputat esa O'zbekiston Respublikasi Ekologik harakatidan saylandi. Vakolat muddati 5 yil, Qonuncxilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshiradi va qonunlar ishlab chiqadi. Bugungi kunda Oliy Majlis Qonuncxilik palatasidagi fraktsiyalar quyidagicha:

1. O'zLD Partiyasi 53 (79,5 foiz) deputati mavjud.
2. O'zHD Partiyasi 32 (48 foiz) deputati bor.
3. O'zMTD Partiyasi 31 (46,5 foiz) deputati mavjud.
4. O'z Adolat SD Partiyasi fraktsiyasi 19 (28,5 foiz) deputati bor.
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologik harakatining 15 (22,5 foiz) deputati mavjud.

Qonuncxilik palatasi umumiy deputatlar sonining 33 nafari (22 foiz) hotin qizlardir.

Oliy Majlis Qonuncxilik palatasida:

1. O'zLD Partiyasi, O'zMTd Partiyasi, O'z "Adolat" SD Partiyasi fraksiyalarining Demokratik bloki tuzilgan va u samarali ishlab turibdi.

2. O'zbekiston Halq Demokratik partiyasi timsolida parlamentda muholifat faoliyat ko'rsatmoqda.

**Senatorlar** soni 100 ta. Halq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata – Senat hududiy manfaatlarini ifoda etadi. 84 senat a'zolari Qoraqalpoviston Respublikasi Jo'qori Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpoviston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 6 kishidan (ya'ni 14 ta hududdan 6 kishidan), jami 84 nafar deputat saylanadi. 16 senator Prezident tomonidan tayinlanadi:  $84+16=100$  senator (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi).

Senat so'zi lotincha "Senatus", "Sinex" so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbekchada "oqsoqol", "mo'ysafid" degan ma'nolarni anglatadi. Senat a'zolarining 15 nafari (15 foizi) ayo'llardan iborat.

Umuman, O'zbekistonda saylov qonuncxiligi, ya'ni parlament taraqqiyoti 4 bosqichni bosib o'tdi: **1-bosqich** Kostitutsiyamiz qabul qilingunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Referendum to'rtisidagi qonunlar qabul qilindi. **2-bosqich** Kostitutsiyamiz qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda «Saylov tizimi» shakllantirildi. **3-bosqich** 1997-2003 yillarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'rtisidagi qonunlar qabul qilindi. **4-bosqich** 2003 yildan–2005 yilgacha, bu davrda ikki palatali parlamentni shallantirish bilan bo'liq saylov qonunlariga o'zgartirishlar kiritildi va 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis quyi Qonuncxilik palatasiga va mahalliy hokimiyat organlariga saylov o'tkazildi.

Umuman, parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlar ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina to'liq o'z ifodasini topadi: 1) Qabul qilinayo'tgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar adolatga, inson huquq va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart; 2) bu qonunlar barcha davlat organlari, mansabdor shahslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur; 3) qonunlar mos bo'lishi qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mehanizmlarini tashkil etadi.

2005 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonuncxilik palatasi birinchi yirilishida Prezident Islom Karimov «Parlament–jamiyat hayotining ko'zgusi» mavzusida nutq so'zladi.

Haqiqatan ham Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, parlamentga saylovlar jarayonida, halqimiz o'zining faolligi, siyosiy ongi va saviyasini yorqin namoyon etdi. Saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizfin kurashlarda o'tdi, bu jarayon dunyo jamoatcxiligi tomonidan kuzatildi. Biz hech kimdan kam emasligimiz, demokratik davlat qurishda o'z yo'limiz borligi, o'ziga xosligi ayon bo'ldi. Doimo bosiq bo'lib, jim o'tirish deputatlik faoliyatiga to'firi kelmaydi. Har bir deputat o'z vakolati va mas'uliyatini teran his qilishi kerak. **Deputat** – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmasin avvalo halq oldida javob berishi kerak. SHu sabab halq manfaatlari yo'lida parlamentdagi foyalar, yondashuvga qarashlar xilma-xil bo'lgani yahshi. Deputat zalda bo'ladigan muhokama va munozara vaqtida uchta narsani esdan chiqarmasligini bayon etdi: **Birinchidan**, har qaysi deputat o'zining qadr-qimmatini bilishi lozim. SHundagina u boshqalarni ham hurmat qiladi. **Ikkinchidan**, mehr-oqibatlilik bizning halqimizga yarashadigan, halqimizga xos fazilat ekanini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. **Uchinchidan**, bobomiz Amir Temur aytganidek, qanday halqning farzandimiz, degan savolni o'zimizga berishimiz kerak. SHu bilan birga kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik degan savolni ham hech qachon unutmashlik zarur.

**Oliy Majlisning quyi palatasi** – Qonuncxilik palatasi rahbarlari yangi tartibda saylanmoqda. Buning sababi shundaki, biz demokratik davlat barpo etayo'tganimiz fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirayo'tganligimizdadir. Biz demokratik qadriyatlarni o'z hayotimizga joriy etishda salmoqli natijalarga erishdik.

Demokratik parlamentning asosiy shartlaridan biri **ko'ppartiyaviylik masalasidir**. Demokratik jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak. Qo'ppartiyaviylik avvalo jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlaridan qat'iy nazar har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirishi zarur. CHunki hayot bor ekan kimdir o'z manfaatini amalga oshirishga harakat qiladi. Har qaysi partiya–halqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch. Har inson o'ziga xos bir olam. Ikkita inson bir-biriga o'hshamaydi. Huddi shuningdek, siyosiy partiyalar ham o'z foyasi, maqsadi va vazifalari bilan bir-biridan farq qilishi zarur. SHundagina jamiyatdagi xilma-xil qarash, manfaatlar aks etadi. **Siyosiy partiyalar** halqni, mamlakatni, millatni maqsad yo'lida birlashtirib turgan. SHu bois ular o'z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga muholifat bo'lishi mumkin. YAgona Vatan haqida gap ketganda ular birlashish kerak. Milliy foya va mafkuramiz shunday birlashtiruvchi kuchdir. Har qaysi partiyaning o'z elektarati, uni qo'llab quvvatlaydigan ijtimoiy qatlam bo'lishi lozim. SHunday bo'lmasa, bu

partiya haqiqiy siyosiy kuch bo'la olmaydi. Parlament saylovlari jaryonida siyosiy partiyalar shakllandi. Saylovchilar endi duch kelgan odamga emas, o'z dastur va foyalarini yo'qtirgan partiyaga ovoz beradi. Bizda mintaqaviy partiyalar yo'q va bo'lmaydi ham, chunki mamlakat bo'linib ketishi mumkin bo'ladi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har qaysi partiya umummilliy partiya sifatida faoliyat yuritishi, Markazdan qolib ketmasligi kerak. **Saylov** – demokratiya degani, **demokratiya** – bu saylov degani. Har qaysi partiya saylov orqali o'z tarafdorlarini aniqlaydi. Bo'lib o'tgan saylovlarda O'z Liberal-demokratik partiya falaba (34,2 foiz) qildi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, 2007 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratiyalashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'frisida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun 8 moddadan iborat («Halq so'zi», 2007 yil 12 aprel').

2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonuncxilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma'ruzasida Prezident Islom Karimov davlatimizning ichki va tashqi siyosati, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, parlament oldida turgan asosiy vazifalar to'frisida fikr yuritdi. Ma'ruzada «davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonuncxilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonuncxilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Demak, ikki palatali parlamentni barpo etishdan maqsad:

1. Parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puhta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish.

2. Qonuncxilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijrocxiligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish<sup>1</sup>.

3. Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarning mutanosibligiga erishish.

4. Aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirishdan iborat.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Odilqoriev.H.T. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik jarayoni.-t.: «O'zbekiston» nashriyoti matbaa ijodiy uyi, 2005.-4-b.

<sup>2</sup> Karimov.I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi.-T.13.-T.: O'zbekiston, 2005-180-b.



**Mahalliy kengashlar haqida.** Halq deputatlari viloyat (60 nafar deputatdan iborat), tuman va shahar Kengashlariga (30 nafar deputatlardan iborat bo'ladi, bu erda hududiy jihatdan Toshkent shahriga esa 60 nafar deputat belgilangan) deputatlar saylovi umumiy hisoblanadi. Bu saylov so'nggisi 2009 yil 27 dekabrda va takroriy ravishda 2010 yil 10 yanvarda o'tkazildi. Saylanish huquqiga esa, saylov kuni 21 yoshga to'lgan hamda O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarolari egadirlar. Yangi tahrirdagi «Halq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'rtisida»gi qonun 2003 yil qabul qilindi va shu asosda o'tkazildi. Viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalarning viloyat organlari tomonidan, siyosiy partiyalarning tegishli tuman, shahar organlari tomonidan ko'rsatiladi.

## **12.5. O'zbekistonda siyosiy hayot sotsiologiyasining o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi**

Mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil belgilab oldi, mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, demokratik jamiyat qurish bosh strategik maqsadga aylandi. Bugun bizning bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan, qonun ustuvorligiga tayangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishdir. Undagi «erkinlik», «demokratik», «qonun ustuvorligi» so'zlariga e'tiborni qaratish kerak. Bu tushunchalar O'zbekiston qurayo'tgan jamiyatning qanday umuminsoniy tamoyillarga, qadriyatlarga asoslanishini ko'rsatadi. SHuning uchun ham mamlakatimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik davlatlar kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining siyosiy va ijtimoiy hamda falsafiy mazmun va mohiyatini ifodalaydi. Bu – halqimizning asriy an'alariga, insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda rivojlangan davlatlar tajribalaridan shunchaki, nusha ko'chirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'lni izcxil davom ettirishni anglatadi. Bu jamiyat hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini yanada chukurlashtirish, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurishni liberallashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'p partiyaviylikni qaror toptirishni bildiradi. Bu

mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, noadvlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeni oshirishni ko'zda tutadi. Bu «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» kontseptsiyasini amalga oshirish mamlakatimizdagi siyosiy voqelik ma'no va mazmunining siyosiy, ijtimoiy-falsafiy jihatini anglatadi.<sup>1</sup>

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonlarining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'ramiz. Konstitutsiya o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda O'zbekistonda qurilayo'tgan demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlari, tamoyillari, inson huquq va erkinliklari o'zining yaqqol ifodasini topgan. Buni O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida, davlat hokimiyatini amalga oshirish shakli bo'lgan Prezidentlik respublikasida, davlat hokimiyatining bo'linish printsiplari, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijroiya hokimiyati va sud hokimiyatida, shuningdek, mamlakatda siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslangan holda rivojlanish to'frisidagi muhim kontseptual qoidada o'z ifodasini topgan. Mustaqillik tufayli mamlakatda ko'p partiyaviylik omili paydo bo'ldi. Nodavlat, notijorat va jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ikki palatali parlament tizimiga o'tilganligi ham O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos modeliga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish, yagona kommunistik aqidalardan farqli ravishda, milliy foya va mafkuramizga asoslangan holda amalga oshirilmoqda. Uning asosiy foyalari orqali ham O'zbekistonda amalga oshirilayo'tgan demokratik jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-falsafiy ma'no-mazmunini anglab olish mumkin. O'zbekiston halqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh foyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishdan iborat. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, halq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo barrikenglik foyalarida demokratik jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va falsafiy ma'no-mohiyati mujassamlashgan. Bu foyalar mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy voqeligini, uning o'ziga xos milliy va ma'naviy xususiyatlarini aks ettiruvchi chuqur ijtimoiy mazmunga ega. Bugun biz mamlakatimizda siyosat sotsiologiyasini fan va ilmiy yonalish sifatida o'rganish dastlabki natijalarga erishmoqdamiz. Bu borada yangi-yangi karashlar paydo bo'lishi shubhasiz. Bu O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni amalga

---

<sup>1</sup> Nazarov.Q. va boshq. Falsafa asoslari.-T.: «O'zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005-316-318-b.

oshirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yonalishlarini taqozo etadigan, nazariy va amaliy, tabiiy jarayondir.

### **Qisqacha xulosalar**

**Siyosiy hayot sotsiologiyasi** – siyosat va siyosiy munosabatlarni tadqiq etuvchi sotsiologiya sohasi. Siyosiy hokimiyat, uning davlatcxilik asosida tashkil etilgan jamiyatda amal qilishi va taqsimlanishi shakllari va uslublari, individlar, ijtimoiy guruhlar va ular tashkilotlarining amaldagi siyosiy ongi manfaatlari va hatti-harakatlari – bularning barchasi siyosat sotsiologiyasining bahs mavzui hisoblanadi. SHu mavzular atrofida siyosat sotsiologiyasi XX asr 30-50-yillarida shakllana boshlangan bo’lsada, uning vujudga kelishida tarixan Platon, Aristotel, Konfutsiy, Forobiy, Qoshfariy, Nizomulmulk, Makiavelli, Gobbs, Monteskye, Tokvil, Lokk, Pareto, Lassuell, Parsons va boshqalarning siyosiy qarashlari katta ahamiyat kasb etgan.

Amalda ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar bir siyosiy fan doirasiga sirmaydi va bir necha fanlarni qamrab oladi. SHu jihatdan qaraganda, siyosiy partiya haqida chuqur, har tomonlama bilimlar olmoqchi bo’lsak, har bir partiya elektoratining ijtimoiy va demografik tarkibini – siyosiy sotsiologiya predmeti, uning rasmiy tashkiliy tuzilishini, amal qiladigan me’yorlarini – siyosiy institutlar nazariyasi, siyosiy etakcxilar va a’zolar psihologiyasini – siyosiy psihologiya, vujudga kelish tarixi va partiya an’analarini – siyosiy tarix va boshqa bir qator jihatlarini o’rganib chiqishimiz zarur bo’ladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda siyosat sotsiologiyasi bir tomondan politologiya fani, siyosiy fanlar bilan bo’rlanib ketsa, ikkinchi tmondan esa empirik, sotsiologik ta’limmotlar nazariyasi bilan uzviy bo’rliqligini ko’ramiz. CHunki siyosat sotsiologiyasining predmeti, ob’ekti, tarkibiy tuzilishi, siyosiy tizimlar, siyosiy hokimiyat kabi masalalari bevosita institutsionallashgan sotsiologiya bilan chambarchas bo’rlanib ketgan.

## 13-MAVZU. IJTIMOIIY INSTITUTLAR, TASHKILOTLAR VA TIZIMLAR SOTSILOGIYASI

### 13.1. Sotsiologiyada sotsial institutlar hamda ular amal qilishining ob'ektiv va sub'ektiv asoslari

**Sotsial institut** (lotincha—institutum, ruscha lug'aviy ma'nosi—ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi). Sotsial institutlar yoki institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yonalishdir. Sotsiologiyaga sotsial institut tushunchasi huquqshunos fanlaridan kirib kelgan. Yurisprudentsiyada sotsial institutlar deyilganda, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huquqiy normalar (merosho'rlik, mulkka egalik, oila va nikoh institutlari) tushuniladi.

**Instituttsonal sotsiologiya** – ijtimoiy hayotni tashkil etishning va idora etishning (boshqarishning, regulyatsiya qilishning) barqaror shakllarini o'rgatuvchi sohadir.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. YUzaki ko'rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko'ra esa sotsial institut va shahslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil, normalar, o'rnashmalarini bildiradi.

Sotsial institut, qisqacha ta'rifda, odamlar sotsial tashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatlarni anglatadi. Sotsial institutlar hatti-harakatining nisbatan barqaror shakl namunalarni, avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar, odatlarning qayta takror xosil qilinishini ham ta'minlaydi. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi, har bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi konkret funktsiyalar, ushbu institutga xos bo'lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek, maqsadga muvofiq, kerakli hatti-harakatni rafbattantiruvchi va deviant (o'rma) hatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanktsiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va halqaro sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat majudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari) huquqiy va

ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, soʻliqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi.

Demak, sotsial institutlarning eng muhim quyidagi turlari mavjud:

1. Oila – jamiyatning muhim institutlaridan biri.
2. Ijtimoiy-madaniy institutlar.
3. Qarindoshlik instituti.
4. Nikoh instituti.
5. Taʼlim (maktab, oliy taʼlim va h.k.) instituti.
6. Kommunikatsiya (informatsion texnologiya) va ommaviy ahbort vositalari (OAV) instituti.
7. Din instituti.
8. Mehnat instituti.
9. Iqtisodiyot instituti va h.k.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan oʻzaro taʼsirda boʻladi. Bu oʻzaro taʼsir normal tarzda, shuningdek, normaning buzilishi sharoitida ham boʻlishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga boʻysunmaydigan anomik hodisalar boʻlishi tabiiydir.

**Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi koʻrinishlarini** ajratib koʻrsatish mumkin:

1. Relyatsion (yoʻzma maʼlumotlarga asoslanuvchi) institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashʼulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi.

2. Regulyativ (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shahsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga dahlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qoʻllaniladigan sanksiyalarni (bunda sotsial nazoratning hamma mehanizmlari ham kirib ketadi) belgilab beradi.

3. Integrativ (uyʼunlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga, jamiyat manfaatlarini qondirishga maʼsul boʻlgan sotsial rollarni ifodalaydi.

4. Anʼanaviy sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urufcxilik tomonidan qatʼiy belgilangan normalar bilan boʻliqdir.

5. Madaniy sotsial institutlar. Din, sanʼat, adabiyoʻt bilan boʻliq muassasalar.

Institutsional sotsiologiyada **sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- a) jamiyat aʼzolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;

b) sotsializatsiya (individda ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarni etkazishning turli xil shakllari);

v) ishlab chiqarish va taqsimot;

g) tartibga rioya qilish va ahloqni saqlab turish.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi zamon tsivilizatsiyasi tomon qadam tashlayo'tgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanish jarayoni ro'y bermoqda. Bular:

- **iqtisodiy sohada** - bozor iqtisodiyoti amal qilishiga hizmat qiladigan sotsial institutlar;

- **siyosiy sohada** - demokratik hokimiyat turli bo'rinlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar hamda jamiyat barcha jabhalarida yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident Islom Karimov izcxil tadbiiq qilayo'tgan kontseptsiyaga muvofiq yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi, qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta'minlashga hizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

**Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov** 2010 yil 12 noyabrdagi Parlament palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" da kelgusi rivojlanishimizning muhim ustuvor yonalishlarini belgilab berar ekan, uning 5-yonalishi etib "Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish" masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyo'd nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritayo'tganligi, bu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p ekanligi ustida to'htalib, fuqarolar yifinlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etayo'tganligiga izoh berdi. Bular qatorida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston hortinqizlar Qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni" jamfarmalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin. O'tgan davrda fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyati institutlari halqaro taomilga ko'ra "uchinchi sektor" deb nomlanadi (davlat tashkilotlari – "birinchi sektor", biznes

tuzilmalari – (ikkinchi sektor). Keyingi uch yilda fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard soʻmdan ortiq mablar ajratildi. “Fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish, amalga oshirilayoʻtgan islohotlarimizning ochiq-oshkoraligi va samaradorligini tminlashda, ularning rolini kuchaytirishda “Ijtimoiy sheriklik toʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim oʻrin tutadi.”<sup>1</sup>

### 13.2. Sotsial tashkilotlar, ularning tarkibi va asosiy elementlari

Sotsial institutlar singari sotsial tizim amal qilishini taʼminlaydigan ijtimoiy strukturaning asosiy «hujayra»laridan biri sotsial tashkilotlardir. Sotsial institutlardan farqli ravishda, sotsial tashkilotlar odamlarning ish jarayonida muayyan vazifalarni bajarishdagi ixtiyoriy yoki majburiy uyushmasi tushuniladi. «Tashkilot» atamasi ijtimoiy birlashuvlarning shakli sifatida qoʻllaniladi. Tashkilot aʼzosi boʻlgan odamlarning manfaatlari umumiyligi tashkilotning ideal holiga ega, tashkilotning maqsadi uning barcha aʼzolari maqsadi bilan muvofiq kelishi koʻzda tutiladi. Sotsial tashkilotning boshqa sotsial guruhlashuvlardan farqi shundaki, uni tashkil etuvchi individ qatʼiy ravishda muayyan sotsial rol va pozitsiyalarni ijro etishlaridadir. Jamiyat sotsial tashkilotlarni turli xildagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va foyaviy maqsadlarga erishish vositasi deb qaraydi. Sotsial tashkilotlar indvidlarning ehtiyoʻj va manfaatlarini maʼlum bir qatʼiy meʼyorda qondirilishiga hizmat qiladi. Bu meʼyor odamning mazkur sotsial tashkilotda qabul qilingan sotsial norma va qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy maqomi bilan belgilangan boʻladi.

Tashkilot atamasiga quyidagicha taʼrif berish mumkin. **Tashkilot deb**, eng avvalo oʻzaro boʻrlangan va oʻziga xos maqsadlarga erishishga yonaltirilgan ijtimoiy guruhlarga aytiladi. Farb sotsiologiyasida sotsial (ijtimoiy) tashkilotlarni tadqiq qilishda, ularning psixologik qonuniyatlariga koʻproq eʼtibor beriladi. Masalan: M.P. Blau, G. Zimmels sotsiologik nazariyalarida ijtimoiy tashkilotlardagi subʼektning xulqi va motivini psixologik asosda tushuntirishga asoslaniladi.

Amerikalik mashhur sotsiolog J. Homansning ijtimoiy tashkilotlarni tadqiq qilishdagi sotsiologiya, psixologiya va pozitiv mantiqqa asoslanish zarurligi toʻrisidagi fikri, hozirgi davrda nazariy jihatdan sotsiologiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”.

T. Parsonsning tarkibiy funktsional tahlil sotsiologik maktabida ham ijtimoiy tashkilotlarni o'rganishda, jamiyat hayotidagi ijtimoiy tartib, «ijtimoiy muvozanat»ni saqlashda psixologik iqlimni o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Yana bir Amerikalik sotsiolog D. Bell universitet, institutlar ijtimoiy tashkilotlarning markaziy o'rinlarini egallaydi, deb ko'rsatadi. Uning maorif va fan ijtimoiy progressni ta'minlovchi asosiy institutlari hisoblanadi, degan fikri hozirda bir qator ilfor davlatlar tajribasida isbotlandi.

### **Sotsial tashkilotlar ikki xil funktsiyani bajaradi:**

1. Ahloq normalari va qadriyatlarni o'zlashtirish yo'li bilan ijtimoiylashuvni ta'minlash, insonlarning ijtimoiy munosabatlarda qatnashuvlari uchun dastlabki shart-sharoitlar yaratish.

2. Individ hatti-harakatlari, yonalishlari va munosabatlarini mavjud tizim doirasidan chetga chiqmasligini nazorat qilish.

Sotsiologiyadagi maxsus yonalish sotsial tashkilotlar nazariyasiga ko'ra ikki xil: **1) rasmiy** va **2) norasmiy tashkilotlarga** ajratiladi, har qanday **rasmiy tashkilot** maxsus ma'muriy apparatga ega bo'ladi.

1. Boshqacha aytganda, rasmiy tashkilotlar yuqori darajada rasmiylashgan guruhdir. Bu ma'muriy apparatning asosiy vazifasi - tashkilot mavjudligini ta'minlash uchun uning a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirishdir. Bunday tashkilot a'zolariga vazifa (funktsiya)ni bajarish nuqtai nazaridan qaraladi. Bunday individ birinchi navbatda shahs emas, balki maxsus sotsial rolni ijro etuvchi tashkilotning bo'lagidir. Tashkilot nechoflik murakkab va katta bo'lsa ma'muriy apparat ham shu darajada murakkab vazifalarni bajaradi. Har bir tashkilot muayyan darajada byurokratlashgan bo'ladi. Byurokratiya tizimi **ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv** tizimi bilan uzviy bo'liqdir. Tashkilotning byurokratlashuv darajasi ma'muriy muammolarni hal qilish uchun sarflanadigan kuchlar bilan tashkilot maqsadiga erishish uchun sarflanadigan kuchlar miqdorlarining nisbatiga bo'liqdir. Ayrim hollarda ma'muriy maqsadlar tashkilotning asl maqsadlrini mutlaqo chetlashtirishlari ham mumkin. Bunday hol tashkilotni jamiyatga emas, balki, o'z-o'ziga hizmat qilishida «beparvolikka» olib keladi.

Sotsial tashkilotlarda qat'iy byurokratik tamoyillarga asoslangan tashkiliy ierarhiya (tashkilot a'zolarining bir-birlariga nisbatan bosqichma-bosqich rasman tobelikda bo'lishlari) munosabatlardan tashqari norasmiy munosabatlar ham mavjuddir. Bu munosabatlar qat'iy ma'muriy qoidalar tizimi sharoitida tashkilot samaradorligini oshiradi va quyidagi ijobiy vazifalarni bajaradi: ish vazifasiga ko'ra bo'ysunuvchi



individlar va mansabdor shahslar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni yumshatadi, tashkilot a'zolarining birdamligini mustahkamlaydi, shahsiy qadr-qimmat hissini saqlab qoladi.

Amerikalik sotsiolog A.Ettsioni rasmiy tashkilotlarni 3 ta asosiy turini ajratadi:

1. Erkin tashkilotlar (ko'proq jamoat tashkilotlar, hotin-qizlar jamiyatlari va h.k).

2. Utilitar (manfaatli) tashkilotlar. Kooperatsiya, birlashmalar, firmalar, davlat muassasalari va h.k.

3. Majburiy tashkilotlar. Ahloq tuzatish muassasalari, qamoqhona, turma, armiya va h.k.

2. **Norasmiy tashkilotlar** – o'z-o'zidan, ichki sabablar tufayli vujudga kelgan kishilar birligi sifatida, tashkiliy masalalarni rasmiy qonunlarda ko'rsatilganidan farq qiladigan usullarda hal qilishga harakat qiladi. Erkin bo'ysunishga asoslanadi. Norasmiy tashkilotlar rasmiy ijtimoiy tashkilotlarning yo'l qo'yilgan hatolari tufayli, yahlit tizimda buzilishlar yuzaga kelganda tashkil topishi mumkin.

Sotsiologiyada tashkilotni tahlil etishda uch asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: **1) ratsional; 2) tabiiy va 3) neoratsional yondashuvlar.** **Ratsional yondashuv** nuqtai nazaridan tashkilot «asbob» aniq qo'yilgan maqsadlarga erishish vositasi deb qaraladi. Tashkilot bu holda bir-birlarini almashtirishlari mumkin bo'lgan, lekin bu bilan tashkilotning butunligini, yahlitligini dahl etmaydigan alohida mustaqil bo'laklar yirindisi, majmui deb qaraladi. Ratsional yondashuv ko'p hollarda tashkilotda mavjud bo'lgan norasmiy munosabatlarni inobatga olmaydi.

Ratsional yondashuvdan farqli o'laroq, **tabiiy yondashuv** tarofdorlari tashkilotni «tabiiy butunlik», o'ziga xos organizm sifatida o'rganadilar. Bu organizm uchun tabiiy o'sish, o'z mavjudligini davom ettirishi va tizim muvozanatini saqlab qolishga intilish xosdir. Bu nuqtai nazarga ko'ra tashkilot qo'yilgan maqsadlariga erishgandan keyin ham o'z mavjudligini davom ettirishi mumkin. Asosiy vazifa tashkilotdagi muvozanatni ta'minlashdir. Tashkilotga tabiiy yondashuvda norasmiy munosabatlarga ko'proq e'tibor beriladi.

Har ikki yondashuvning ijobiy tomonlarni qo'shishga intilish natijasida yangi yondashuv – tashkilotning **neoratsional modeli** vujudga keladi. Farb sotsiologiyasida Blau, Gouldner va boshqalar ratsional va tabiiy yondashuvni qo'shishni, tashkilotdagi ratsionallik va norasmiy munosabatlarni uyrunlashtirishni yo'qlab chiqishgan.

### 13.3. Sotsial tizimlar va ularning asosiy xususiyatlari

Sotsial institutlar, tashkilotlar va ijtimoiy hodisalar turli xil o'ziga xos kesishmalarda sotsial tizimni tashkil etadi. Odatda tizim deyilganda bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan va muayyan butunlikni tashkil etuvchi, alohida tarzda tartiblashgan elementlar majmui tushuniladi. Tabiatdagi narsalar, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar bir butun tizimni tashkil etadi. Tizimli yondashuvning asosiy vazifalaridan biri ob'ekt to'rtisidagi barcha bilimlarni bir butun sistemaga keltirishdir. Sotsial tizimlar formatsion, madaniy, individual-shahsiy sifat va darajalarida ko'rilishi mumkin.

Formatsion yondashuvda jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar, iqtisodiy munosabatlar sotsial, mafkuraviy va siyosiy munosabatlardan iborat tabiiy-tarixiy bir butun sistemadir.

Sotsial tizimlarning murakkab ierarhiyasi mavjud. Jamiyatning o'z butunligi eng katta tizim hisoblanadi. Uning iqtisodiy, sotsial, siyosiy va mafkuraviy kabi muhim ost tizimlari mavjud. Boshqa ost tizimlar - sinflar, etnik tuzilma va hokazolardir. Sanab o'tilgan ost tizimlar o'z navbatida bir qancha boshqa tizimlardan iboratdir. Sotsial tizimlar ko'p hollarda bir-biri bilan «kesishgan» bo'ladi, aynan bir individlarda turli xil tizimlar elementlari bo'lishi mumkin. Ularning har bir bosqichlari bilan aloqada yoki ulardan mustasno ravishda nisbiy mustaqildir.

Sotsial tizim qonuniyatlari uning ichki atributidir. Bu qonuniyatlarni tizimga ta'sir ko'rsatuvchi qandaydir asosiy omil deb qarash mumkin emas. Sotsial aloqadorlik qonuniyati - bu mazkur sotsial tizim va uning tuzilish qonuniyatidir. Muayyan sotsial tizim almashuvi bir vaqtning o'zida tegishli sotsial aloqadorliklarning almashishi hamdir, chunki ular sotsial tizim vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi va sotsial tizim tarqalishi yoki o'zgarishi bilan to'htab qoladi (Individning o'zi yashab turgan sotsial tizim qonunlariga bo'ysunmasdan iloji yo'qdir).

Sotsial tizim qonuniyatlari individ hayot faoliyatini belgilab beradi. Individ u yoki bu tarzda sotsial sistema norma va qadriyatlarni qabul qiladi, ijtimoiylashadi. Uning faoliyati ijtimoiy belgilangandir. SHu bilan birga faoliyat ko'rsata olishlikning bir qancha variantlari ham mavjud bo'lib, ular orasidagi o'ziga ma'qulini tanlab olish mumkin.

Sotsial tizim xillarini ko'rsatish birmuncha shartlidir. Sotsial tizimni u yoki bu mezon asosida ajratish sotsiologik tadqiqot vazifasi bilan belgilanadi.

Aynan bir xil sotsial tizim (masalan, oila) teng ravishda ham sotsial nazorat tizimi, ham sotsial institut, ham sotsial tashkilot sifatida qaralishi mumkin.

Bizning hozirdagi mavjud jamiyatimizni sotsial tizimning muayyan kokret shakli sifatida uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarining o'ziga xos tamoyillarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Chunki o'z vaqtida keyingi oqibati oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlar qoldiradi.

Sotsiologiya tarixida jamiyat o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushuniladi. SHu bilan birga jamiyat ayrim kishilarning birligigina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi va funksional qonuniyatlari, harkatlantiruvchi kuchlarini o'rganuvchi fandır. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqalarni, shuningdek, shahs, kishilarning ijtimoiy xulqi, uning jamiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yonalishda rivojlanib keldi. **Birinchi yonalish:** O.Kontdan frantsuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan elementar yonalish bo'lib, amerikalik olim T. Parsonslarning psixologik ta'limotidir. Bu yonalishda ijtimoiy tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik holatlardagi kishilarga e'tibor berilgan.

**Ikkinchi yonalish:** marksistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida, ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi rolga asosiy e'tibor qaratilgan.

Farb va Amerika sotsiologiyasida ijtimoiy tizimning muhitidagi «muvozanatini» saqlashga asosiy e'tibor beriladi.

O.Kont va E.Dyurkgeym sotsiologik qarashlarga asoslanib, jamiyatning bir butunligi uning «ijtimoiy muhitdagi doimiy muvozanati» ichki va tashqi ta'sirini muvofiqlashtirish sotsiologiyaning asosiy vazifasi qilib belgilaganlar. Umuman, ijtimoiy tizim tarkibidagi o'zgarish va integratsiya sifatidagi Parsonslarning funksional sotsiologik ta'limoti muvozanat to'g'risidagi nazariyasidir.

Marks sotsiologiyasida esa ijtimoiy tizimlarning o'zaro ziddiyatlilik harakteri «muayyan muvozanatdan o'rish» emas, balki ularning (ijtimoiy

tizimlarning) tarkibiy tuzilish mohiyati qonuniyatli ikki rivojlanishning zaruriy natijasidir.

Ijtimoiy tizimlar mohiyatini bunday tushunish jamiyatda ichki ijtimoiy ziddiyatlar (konfliktlar) sinfiy kurashlar ro'y berishini va ular jamiyat rivojining asosini, mohiyatini belgilashini anglatadi. Bunga Marks va Engelsning «Hozirgacha o'tgan jamiyat tarixi – sinflar kurashi tarixidan iboratdir» - degan qarashi fikrimizning dalilidir.

Har ikki ta'limot ham jamiyat hayotidagi muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirgan.

Sotsiologik amaliyo't funksional o'zgarishlarsiz, evolyutsiyasiz, revolyutsiya tushunchasi bilan, funksional munosabatlar tahlilisiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelishini ko'rsatmoqda.

Burjua sotsiologiyasi nomi bilan atalgan farb sotsiologik ta'limotida ham o'ziga xos ijobiy jihatlar bilan bir qatorda ijtimoiy tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarini hisobga olmaslik ham jamiyatni bir tomonlama tushuntirishga olib keladi.

«Jamiyat hayotining industrlashuvi ob'ektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizim»lar bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy anarhiyaning bir xil (yagona)tipiga olib boradi, degan Amerika sotsiologlarining fikri hozirgi tarixiy rivojlanish amaliyo'tida ta'kidlanmoqda.

Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi tabiiy - tarixiy jarayon tarzida boradi. Har bir ijtimoiy tizim boshqasining, yuqori darajadagi tizimining tarkibiga kiradi. O'zi esa quyi, kichik tartibdagi tizimlarni o'z tarkibiga oladi. Jamiyat hayotida biron-bir ijtimoiy tizim alohida ravishda, boshqalaridan, ijtimoiy muhitdan ajragan holda yashay olmaydi. Har bir ijtimoiy tizim o'zgaras va abadiy emas. Ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Ichki, tashqi funksional va ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Har qanday ijtimoiy tizim o'zining tarkib topish, rivojlanish, gullab yashash va tanazzuliga ega bo'ladi.

Ijtimoiy tizimlarga tarixiylik xos bo'lib, tarkibidagi element va mayda tizimlarning o'zaro aloqadorligi - ularning rivojlanish mohiyatini belgilaydi. Tashqi o'zaro aloqadorlik ham ijtimoiy tizimlararo munosabatlar asosini tashkil qiladi.

Alohida olingan inson va jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy jarayonlar tizimi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro iorarhik tuzilishga egadir. O'zaro iorarhik tuzilish ularni boshqarish imkonini beradi.

Ijtimoiy tizimlar maqsadga yonalganligi, moslashuvi, o'zini qayta tiklash, funksional va rivojlanish kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Har bir ijtimoiy tizim tashqi ijtimoiy muhit bilan doimiy aloqadorlikda bo'ladi. Kisxilar, ijtimoiy voqelik, jarayonlar va foyalar ijtimoiy muhit elementlari sifatida nomoyon bo'ladi.

Hozirgi ijtimoiy yangi munosabatlarning tarkib topishi jarayonida ijtimoiy muhitni sotsiologik jihatdan tahlil qilish ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy tizim o'zgarishining ijtimoiy vazifalari, funksiyalari bilan o'zaro farq qiladi. Ular muayyan iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy va boshqa qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Parsons fikriga ko'ra, ijtimoiy tizim, eng avvalo faoliyatli tizimdir. Masalan, iqtisod, siyosat, huquq kabi o'zaro ta'sirda bo'luvchi ijtimoiy tizimlar ahloqqa, ma'naviyatga faol ta'sir ko'rsatadilar.

Har qanday ijtimoiy tizimlar ikki tipdagi: funktsional va rivojlanish qonuniyatlariga amal qiladi. Ularning funktsional va rivojlanish xususiyatlari ikki omil - ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ichki omillarga: tizim va uning komponentlari, komponentlarining o'zaro munosabatlari kiradi. Tashqi omillarga: ijtimoiy tizimlarning tashqi muhit bilan aloqadorligi kiradi.

Ijtimoiy tizimlarning tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorligi ularning asosiy mavjudlik va yashash sharti bilan belgilanadi. Tashqi ijtimoiy muhit muvozanatini saqlash va o'zgarishini hisobga olish - ijtimoiy tizimning funktsional o'zgarishi va rivojlanishini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish birinchi darajali ahamiyatga ega.

Demak, sotsiologiyada ijtimoiy tizimlarni ichki va tashqi jihatdan tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatning moddiy ishlab chiqarish jarayoni sotsiologiyada ijtimoiy tizim sifatida olib qaraladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi - ijtimoiy hayot sotsial bo'lib, kisxilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bo'rlidir. Moddiy ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridan tashkil topadi. Moddiy ishlab chiqarish - jamiyatning iqtisodiy asosi bo'lib, iqtisodiyot bilan bo'rlig bo'lgan barcha tizimlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

«**Siyosiy tizim**» – jamiyatni boshqarish bilan bo'rlig bo'lgan tizim hisoblanadi. Bu tizim tarkibiga barcha siyosiy tashkilotlar, davlat, huquqiy organlar (sud, prokuratura, militsiya, qamoqhona va boshqalar), siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va ular bilan bo'rlig bo'lgan siyosiy munosabatlar kiradi.

## **Qisqacha xulosalar**

Mustaqil O'zbekiston davlatning siyosiy tizimini sotsiologik jihatdan o'rganish siyosiy sohada qilinishi kerak bo'lgan quyidagi asosiy vazifalardan kelib chiqadi, bular:

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatxilikni barpo etishda jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralari tuzilmasini tubdan yahsxilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonuncxilikni vujudga keltirish lozim bo'lgan vazifalardir.

**Mafkuraviy munosabatlar** ham ijtimoiy tizim sifatida ma'naviy hayot qirralarini o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga ma'naviy munosabatlar va ular bilan bo'liq bo'lgan tashkilotlar: madaniy muassasalar, fan, milliy mafkura, qadriyatlar va boshqalar kiradi.

Mustaqil o'zbek millatining ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy til, milliy madaniyat, urf-odatlar, qadriyatlar, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyfuni, milliy furur va iftihorni o'stirish masalalari muhim o'rin tutadi. «Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-milion kixilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga etib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam» (I.A.Karimov).

## 14-MAVZU. O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY TARAQQIYOTI

### 14.1. Sotsial taraqqiyot va sotsial o'sishning manbalari

Frantsuz sotsiologi Emilь Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi roya mehnat taqsimotiga bo'lab tushuntiriladi. Ijtimoiy rivojlanish, uning fikricha, mehanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik – hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym nazariyasida sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil mehnat taqsimoti deb qaraladi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning barham topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. Mehanik birdamlik - birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar bir-birlariga o'hshash, ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar ham bir xil, ularning shahsiy xususiyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Dyurkgeym fikricha, bu jamiyat individning ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mehanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir.

Jamiyat asta-sekin o'zgara boradi. Lokal (mahalliy) segmentlar chegarasi buzila boshlaydi, chunki turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga keladi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kisxilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. Dyurkgeym nazariyasida ushbu vujudga keladigan birdamlikning yangi ko'rinishi organik birdamlik deb talqin etilgan.

P.Sorokin birincxilardan bo'lib sotsiomadaniy o'zgarishlar dinamikasi nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra ijtimoiy voqelik o'zgarishi qonunli jarayondir. Muayyan ijtimoiy - madaniy ulkan tizimlar (supersistemalar) bir - birlari bilan dialektik ravishda almashinadi. Muayyan jamiyat hukmron bo'lib turgan dunyoqarashning «o'tmaslashib qolishi» uning boshqa dunyoqarashga o'rnini bo'shatib berishga olib keladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy muassasalar va normalarning o'zgarishiga, keyinchalik esa jamiyatning tubdan o'zgarishiga olib keladi.

«Sotsial evolyutsiya» va «sotsial revolyutsiya» sotsial rivojlanishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatta, bunda islohot o'zgarishlarini inqilob o'zgarishlari yo'lidagi, ularga bo'ysunadigan rivojlanish shakli deb qarash mumkin emas. Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li - reforma, islohotdir.

Ijtimoiy rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi. Anglangan ehtiyo'lar - manfaatlar bu faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlardir. Ijtimoiy ehtiyo'lar va manfaatlar qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologik, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyatini ta'minlash uchun ularning dastur va maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan funktsiyadir. Sotsial boshqarish esa jamiyat muayyan tizimining tartib saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: ahborotni yirish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishida umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan birgalikda; faoliyat natijalari haqidagi ahborotni to'plash va qayta ishlash.

Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Bashorat kategoriyasi ikki ma'noda konkretlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash ma'nosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq). Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish, bu keng ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

Sotsial taraqqiyot va sotsial o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida sotsial boshqarish talqin etilar ekan, uning quyidagi shakllarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir: sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish.

## **14.2. O'zbekistonning hozirgi sotsial taraqqiyoti va o'sish holati**

Istiqlolimizning mashaqqatli, fidokorona mehnati bilan 20 yili ortda qoldi. Bu yillar boy imkoniyatlarga ega bo'lgan, respublika va uning aholisini tang holatdan, moddiy va ma'naviy inqirozdan chiqarish, milliy davlatimiz poydevorini qurish, iqtisodiyotimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish yillari bo'ldi.

O'zbekistonni jahonga nomoyon qilish, ahborot va iqtisodiy jihatdan chetlashtirish hollariga barham berish, jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlari qatorida teng bo'lib olish sari intilish yillari bo'ldi.

Hayotning, jamiyatning asosiy tamoyillarini va davlatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tuzilmalarini hal qiluvchi, umuminsoniy qadriyatlarga



asoslangan, erkin demokratik kelajakni aniq belgilab borgan Asosiy Qonun, Konstitutsiya qabul qilindi.

O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning halqining manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yonaltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir.

CHuqur o'zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Sodir bo'layo'tgan tub siljishlar dunyoning haqqoniy qiyofasini o'zgartirib yubormoqda.

Mustaqillik biz uchun eng uluf, eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, furur-iftihorimiz timsoli, ezgu orzu – intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbahsh manbai sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan tobora mustahkam o'rin egallamoqda. SHu boisdan ham 2009 yil 19 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'n sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'risida»gi qarorida ta'kidlab o'tilgandek, «mustaqillik biz uchun – o'zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining garovidir» degan ezgu ro'yni o'zida mujassam etgan.<sup>1</sup> Tarixan bu qisqa 20 yillik davr – yosh davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiy va ma'naviyat, ijtimoiy hayot, sud-huquq tizimi, tashqi siyosat va havfsizlikni ta'minlash borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash davri bo'ldi, deyish mumkin.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini amalda namoyon qiladigan va ro'yo'bga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni davom etmoqda. Bank tizimi qayta tashkil qilinmoqda. Mustaqil milliy aviakompaniya, ahborot agentligi, kinokompaniya va boshqa umumdavlat hizmatlari ishlab turibdi.

O'zbek halqining mustaqillikka bo'lgan intilishini jahon hamjamiyati, halqaro jamoatchilik qo'llab-quvvatladi. Dunyodagi 180dan ortiq mamlakat O'zbekistonning Davlat mustaqilligini tan oldi. 130 ga yaqin horijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari o'rnatildi. Respublikada 88 ta chet davlat vakolathonalari ro'yhatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta nohukumat tashkilotlari ishlab turibdi. CHet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolathonasi mavjud.

Tarixda ilk bor, 1992 yilning 2 martida O'zbekiston halqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib qabul qilindi. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo – iqtisodiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 19 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'n sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'grisida»gi qarori.//«Xalq so'zi». 2009 yil 20 iyun.

munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchihonasini ochgan.

Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, halqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari va ko'nikmalarini, mavjud beqiyo's tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi.

Hozir O'zbekiston tarixiy chorrahada turibdi. Avvalo, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Respublikani milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqdi. Respublikada hozir yashab turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nabiralarning ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog'liq bo'ladi. Respublika tang holatlarni ayni darajada tezroq bartaraf etish, yakkahokimlik tizimining illatlarini batamom tugatish, rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olish shu narsa bilan ham belgilanmoqda.

Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolmoqda. SHunday jamiyatgina O'zbekiston halqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyatning qayta tiklanishini, shahs sifatida insonning ma'naviy-ahloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin.

Jahon va o'zimizning amaliyo'timizdan olingan barcha umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tajribalarni rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishi respublikaning qat'iy pozitsiyasidir.

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishidan iborat o'z yo'li aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, halq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi, chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoatchilik, mahalla asoslari O'zbekistonga xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'frisida ramho'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrihohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalor kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyfusi kixilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning asoslari va yonalishlari hususida so'z ketar ekan, bugungi kunda avvalo huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy negizlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va tehnikaviy rivojlanishiga ramho'rlik qiladi<sup>1</sup> (42-modda).

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2009, 10-bet.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan etarli salohiyatga ega. Er barrining foyat qimmatli mineral hom-ashyo'larga boyligi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanmoqda. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- halqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin nomoyon qilishi;
- vatanparvarlik<sup>1</sup>.

Davlat ramzlari – bayroq, tamra, madhiya O'zbekiston halqlarining shon-sharafi, fururi, tarixiy hotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shahsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Islohotlar strategiyasini amalga oshirishda biz uchun quyidagilar uzluksiz ustuvor yonalishlar hisoblanadi:

- ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish;
- aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish.

CHuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyo'tiga o'tish, birinchi navbatda, kadrlar potentsialiga, ularning kasb jihatdan tayyorgarligiga borliq bo'ladi.

Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar – o'z yo'liga, – degan edi Prezidentimiz Islom Karimov. – Ularni hal etish mumkin, halqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qaddini baland tutish, otabobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan o'firroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda! SHu boisdan «hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayo'tgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo halq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'nalarimizning saqlanishi va madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan borliqdir»<sup>2</sup>.

O'tgan mustaqillikning 20 yili davomida «O'zbek modeli» o'zini oqladi. Bu modelga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan qaralib, «shok terapiyasi» usullaridan tamomila farq qiladi. O'tish davrida davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Natijada O'zbekiston moliyaviy - iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, iqtisodiyo'tning real

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 76-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 381-bet.

sektori korhona va tarmoqlarning uzluksiz ishlashi ta'min etildi. Davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 13,3 foizini tashkil etdi. CHet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshdi. O'zbekiston jahon bozoriga eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, pahta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'ritlar va boshqa mahsulotlar chiqarmoqda. 2008 yil yakunlari bo'yicha respublika YAIM hajmi 9 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 12,7 foizga, qishloq ho'jalik mahsuloti etishtirish hajmi 4,5 foizga, qurilish ishlari hajmi 8,3 foizga, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi 10,2 foizga, savdo sohasi 7,2 foizga, hizmatlar hajmi 21,3 foizga oshdi<sup>1</sup>.

Prezident I.Karimov Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi (2010 yil 12 noyabrda) "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" yuzasidan ma'ruza qilib, uning oltinchi yonalishi sifatida "Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish" masalasini qo'ydi. Unda mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining dastlabki bosqichida qo'lga kiritilgan yutuqlarga to'htalgan holda, yana qanday vazifalar oldimizda turganligiga izoh berib o'tdi. YA'ni, 1991-2000 yillarda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonuncxilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratilganligi, Bular Fuqarolik, Er, Soliq va Bojhona kodekslari, "Davlat tasarrufidan chiqarish va hususiy lashtirish to'frisida", "Banklar va bank faoliyati to'frisida", "CHet el investitsiyalari to'frisida", "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'frisidagi" qonunlar qabul qilindi. Islohotlarning keyingi bosqichida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'frisida", "Hususiy korhona to'frisida", "Valyutani tartibga soliy to'frisida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'frisida", "Fermer ho'jaligi to'frisida" gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va boshqa iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400 dan ziyo'd qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va hayotga tadbiiq etildi.

Navbatdagi vazifa sifatida, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida bir qator ustuvor vazifalar belgilanib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish yuzasidan takliflar o'rtaga tashlandi. YA'ni, "Hususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'frisidagi" Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, "Tadbirkorlik

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. -56 - b.

faoliyati sohasidaberish tartib-qoidalari to'ʻrisida" gi Qonunni ishlab-chiqish va qabul qilish, kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish maqsadida biznesning yangim tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy-biznesni qonuniy belgilab qo'yish, bank-moliya sohasiga hususiy kapitalni jalb qilish, "Raqobat to'ʻrisida" gi yangi qonunni ishlab-chiqish va qabul qilish zarurligi qayd etildi.

"Hozirgi kunda mamlakatimizda ichki mahsulotning 80 foizdan ortirini nodavlat sektor ta'minlamoqda. 1991 yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va hususiyashtirish to'ʻrisida" gi Qonun, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyfunlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda". Snoska...

O'zbekistonda amalga oshirilayo'tgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda erkin bozor iqtisodiyo'ti munosabatlarini yanada rivojlantirishga hizmat qiladigan "Kredit byurolari faoliyati va kredit ahboroti almashuvi to'ʻrisida", "Garov reestri to'ʻrisida", "Rieltorlik faoliyati to'ʻrisida", "Investitsiya va pay fondlari to'ʻrisida", "Innovatsiyalar va iqtisodiyo'tni modernizatsiya qilish to'ʻrisida" gi va boshqa bir qator yangi qonunlar qabul qilishni hayot taqozo etmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Prezident Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» (2009) kitobida mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturida O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yonalishlari belgilab berilgan. Bular:

1. Korhonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish.

2. Hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korhonalarning tashqi bozordagi raqabotdosh bo'lishini ta'minlash. 70 foizdan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha imtiyo'zli kreditlar berish.

3. Qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarhini kamaytirib, korhonalarning raqobatbardoshligini oshirish.

4. Elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiyani tejash tizimini yaratish.

5. Ichki bozorda talabni rafbatalantirish orqali mahalliy ishlab-chiqarishni qo'llab-quvvatlash.

2009 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlari quyidagilardan iborat:

**1-Ustuvor yonalish.** 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi ijrosini ta'minlash.

**2-Ustuvor yonalish.** Boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish.

**3-Ustuvor yonalish.** Qishloq turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bo'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorlarning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rnini va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer ho'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

**4-Ustuvor yonalish.** 2009 yilda hizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omil sifatida yanada jadal rivojlantirish.

**5-Ustuvor yonalish.** Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish.

**6-Ustuvor yonalish.** Bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablaflarini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rafbatalantirish.

## 15-MAVZU. IJTIMOIIY-ETNIK MUNOSABATLAR

### 15.1. Millatlar va etnik guruhlarining sotsial-etnik tarkibi

Insoniyat xilma-xil ijtimoiy etnik birliklardan tashkil topgan. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashamoqda. Ularning so'zlashadigan tillari esa 5 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ammo mana shu tillardan 2 mingtasidan ko'proqida yo'zuvlar yo'q<sup>1</sup>.

Jamiyatning ijtimoiy-etnik tarkibini tadqiq qilish sotsiologiyaning maxsus sohasi bo'lib, etnosotsiologiya deb ataladi. Sotsiologiyaning bu sohasi jamiyatning ijtimoiy tarkibiy tuzilishidagi etnik millatlar, halqlar, elatlar, guruhlarining ijtimoiy rivojlanish masalalarini o'rganadi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, madaniy, ta'limiy, diniy va boshqa o'ziga xos qadriyatlarni tadqiq qiladi.

**Etnos tushunchasi** (qadimgi yunoncha so'z bo'lib "halq" ma'nosini anglatadi) – muayyan hududda tarixan tarkib topgan, boshqalardan farqlanuvchi o'z madaniyatiga, ruhiy uyfunlikka va boshqa umumiy xususiyatga ega bo'lgan kishilarning nisbatan barqaror birligini anglatadi. Demak, etnosotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti – eng avvalo halqlar, millatlar, etnik guruhlarining ijtimoiy tarkibini, boshqa etnik birliklaridan farq qiluvchi o'ziga xos madaniyati, turmushi, urf-odatlarini, tili va boshqa shu kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Millat, millatlararo munosabatlar masalasi sotsiologiyadan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar, iqtisodiyot nazariyasi, siyosatshunoslik, ahloq va nafosatshunoslik, tarix, etnografiya kabilarni ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Etnosotsiologiyada esa millat va milliy munosabatlar, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'anviy-mafkuraviy munosabatlardagi o'zaro uzviy aloqadorligi nazarda tutilgan holda, konkret etnik muhit doirasida, ijtimoiy jamoalardagi, oiladagi, hududiy tartibdagi munosabatlarni etnik xususiyatlari doirasida olib qarab o'rganiladi. SHuningdek, millatlararo munosabatlarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ta'siri va ularning ijtimoiy oqibatlarini tadqiq qilinadi. SHu jihatdan etnosotsiologiyaning jamiyatni o'rganishdagi ahamiyati kattadir.

Sobiq Sovet tuzumi davrida etnosotsiologiya to'laqonli o'z rivojini topmadi. Turli millatlar, elatlar, halqlar va etnik guruhlarining ijtimoiy taraqqiyotiga bir tomonlama yondasildi. Kelajakda ular o'zaro qo'sxilib yahlit bir Sovet halqi etnik birligi vujudga keladi, degan hayo'liy, sohta va noto'g'ri mafkuraviy siyosat yurgizilishi oqibatida har bir etnik birlikning o'ziga xos boy, go'zal va takrorlanmas qadriyatlari rivojiga siyosiy tazyiq

<sup>1</sup> Abdurahmonov F.R., Saidxodjaev X.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. T.: O'zIIVA, 2009, 89-bet.

bilan yo'l qo'yildi. Bunday siyosiy zo'ravonlik oqibatida etnosotsiologiya sotsiologik nazariya sifatida etarlicha qadrlanmadi. Sobiq sovet davrida muayyan iqtisodiy-siyosiy va mafkuraviy rejim asosida ushlab turilgan, boshqarilgan milliy munosabatlar hozirda qaytadan, yangi ijtimoiy munosabatlar asosida tiklanmoqda. SHu jihatdan O'zbekistonning ko'p millatli davlat ekanligini e'tiborda tutgan holda uning hududida istiqomat qilayo'tgan millat va halqlarning ijtimoiy turmushi, o'zaro aloqasi va shu kabi munosabatlarni sotsiologik tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi – uning farqlantiruvchi xususiyatidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining 70 foizidan ko'profini o'zbeklar tashkil qiladi. Ayni vaqtda O'zbekiston hududida o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ziyo'd millat vakillari yashaydi. YAqin o'tmishimizda sodir bo'lgan Farrona, Andijon, Sariosiyo', Uzun tumanlarida va boshqa joylarda bo'lib o'tgan voqealar qayta takrorlanmasligi uchun O'zbekistonda bundan keyin ham millatlararo hamdo'stlikni rivojlantirish, o'zaro axil bir oila bo'lib yashash talab etiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov boshcxiligidagi O'zbekiston hukumatining asosiy maqsadi ham Markaziy Osiyo' hududida har qanday milliy nizolarning oldini olish va millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa hozirda, ijtimoiy-etnik munosabatlar sotsiologiya tahlilga muhtojdir. Tarkib topayo'tgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar ham qaytadan tarkib topmoqda. SHundan kelib chiqib, ko'rsatib o'tish joizki, etnosotsiologiyada ichki va tashqi tadqiqot yonalishi mavjud.

**Ichki tadqiqot yonalishi** – bu ayrim etnik guruh tarkibidagi sotsiologik tadqiqotlardan iborat bo'lib, uning ichki, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendentsiyalari o'rganiladi. **Tashqi tadqiqot yonalishi** esa etnik guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarni, bir etnik guruhga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarni va ularning ijtimoiy oqibatlari tadqiq qilinadi. Ayniqsa, bir mamlakat hdudida yashovchi etnik guruhlarning o'zaro munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish juda muhimdir.

Mamlakat tub aholisini tashkil etmaydigan, kam sonli etnik guruhlarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Ularning madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini, ahloqiy-etnik normalari, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarini o'rganish bilan muhim (milliy) ilmiy bilimga ega bo'lamiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Jahonda katta va kichik millatlar va elatlar yo'q. Ularning har biri asriy barqaror va tengi yo'q



an'analari bilan, tarixiy me'rosining boyligi bilan milliy ruhining umumiyliги bilan, madaniyatining o'ziga xosligi bilan ahamiyatlidir".

U yoki bu etnik guruhning tabiiy tarkib topishining asosiy shart-sharoiti – bu hududiy va til birligi hisoblanadi. Muayyan etnik birlikning-millatning har jihatdan rivojlanishida uning o'z mustaqil siyosiy davlat tuzumiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

## **15.2. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sotsial-etnik munosabatlar**

O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan boshlab o'tgan dastlabki 20 yillik muddat yuz yillar mazmuniga teng bo'ldi. O'zbek halqi millat sifatida o'zligini, or-nomusini, milliy iftiharini, qadr-qimmatini, boy o'tmish madaniy merosini, tilini va shu kabi ko'plab boshqa qadriyatlarni qaytadan tikladi. O'tmishi va kelajagi buyuk bo'lishini bilib, millat sifatida yana jahonga yuz tutdi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek etnosining shakllanishida markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi katta ahamiyat kasb etgan. U millat sifatida turkiy etnik katta birligi tarkibida shakllanib bordi. SHu davrdan boshlab, o'zbek etnik guruhi boshqa turkiy guruhlardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarni ko'prok nomoyon qila boshlagan. Bularga asosan, yagona davlat fuqoroligi, yagona til, madaniy va ma'naviy qadriyatlar birligi hududiy birlik va uyushganlik hamda yagona diniy (islom) e'tiqod birligi shular jumlasidandir.

Nisbatan o'troq, asosan suforma dehqoncxilik va shahar hunarmandcxiligi bilan shufullanishi, Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashuvi va hududiy uyushganligi kabi omillar o'zbek millatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbek halqining etnik jihatdan tashkil topishi tarixan murakkab juda katta ichki va tashqi ijtimoiy zarbalar ostida bordi. Amir Temur vafotidan so'ng temuriyzodalarning o'zaro kurashi, SHayboniyhon tomonidan temuriyzodalarga qarshi olib borgan kurash, keyinchalik Movaraunnahrning (Hiva honligi) Rus imperiyasi tomonidan istilo qilinishi millatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Rusiya tomonidan bosib olinishi oqibatida Turkiston qat'iy yagona hududga birlashtirilgan bo'lsada, buyuk rus shovinizmi zo'ravonligi ta'sirida o'zbek halqi boshqa turkiy halqlar bilan bir qatorda mazlum halq sifatida tahqirlandi, kamsitildi va qaddi bukildi. Uzoq davr ma'naviy-ahloqiy, siyosiy-huquqiy tushkunlikni boshidan kechirdi. Sobiq sovet tuzumi davrida ham bunday

siyosat o'ta nozik, baynalminallik niqobi ostida o'ziga xos usullar bilan davom etdi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi munosabati bilan endilikda milliy ko'tarilish, rivojlanish jadal bormoqdaki, mavjud siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy shart-sharoit o'zbek halqini yaqin kelajakda jahonning ilfor, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan millat darajasiga erishishi muqarrardir. Zotan, tarix – halq ma'naviyatining asosidadir<sup>1</sup>.

Jamiyat o'zining tarkibiy tuzilishi jihatidan o'zaro chambarchas bo'liq bo'lgan tomonlar, jabhalar, bir butun ijtimoiy tizim tarkibidagi nisbatan katta-kichik tizimlar, ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri o'z taraqqiyoti davomida bir-birlariga muayyan salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekiston davlatining halqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalarda rivojlangan jamiyatga ega bo'lish darajasiga ko'tarilishi, uning ana shu o'zaro funktsional ta'sirda bo'luvchi tomonlari, tarkibiy bo'laklari holatining harakteriga bo'liq.

Mustaqil O'zbekiston jamiyatining ertangi kun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bugun asos solinmoqda ekan, jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada tularoq bilishga hizmat qiladi. Har bir ijtimoiy guruh ayrim, olingan shahs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega bo'ladi. SHahs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti mutahassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqey bilan farq qiluvchi tomonlari majmuasidan iboratdir. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi (lotincha stratum – qatlam, fatsio – bajaraman) hozirgi zamon sotsiologiyasida ijtimoiy differentsiatsiyaning murakkab tarkibi va tizimlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlarining tarkib topib borishi, hususiy va boshqa mulk shakllarining qonuniy deb e'lon qilinishi bilan kixilar ijtimoiy guruhlarining faolligi ortmoqda. Har bir kishi o'zidagi qobiliyat, omilkorligi, tadbirkorligi va ishbilarmonligi bilan ijtimoiy taraqqiyot ko'lamiga ta'sir ko'rsatishga imkon tufildi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sotsial mobillik (harakatchanlik) kontseptsiyasining jadal amal qilishi uchun sharoit etildi. Demokratik tuzum sharoitida kixilar o'zlarining shahsiy qiziqishlari, tirishqoqliklari bilan jamiyat ijtimoiy tarkibidagi mavqelarini yahsxilab borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Jamiyat taraqqiyotida uning tarkibiy tuzilishi, funktsional aloqadorlik o'zining "tabiiy qonunlari", evolyutsion rivojlanishi, ijtimoiy sohalarning bir maromdagi mutanosibligi asosidagina

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 146-bet.

rivojlanadi. Revolyutsiyalar davri o'tdi. Insoniyat yuqori intellektual taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning bu bosqichi yangi, o'ziga xos qonuniyatlar asosida borishi turgan gap. Abu Rayhon Beruniy bobomiz ta'kidlaganidek, aslida ilm-fan kixsilarning hayotiy ehtiyo'jlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ldi. Halq haqqoniy tarixini bilib, o'zlikni anglay boshladi.

### **15.3. Sotsial tabaqalashuv jarayoni**

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy, eng ilfor turiga o'tishga intilayo'tgan har bir mamlakat ham tehnika, ham biznes sohalarida yuksak professional tayyorgalikka ega ijtimoiy qatlamga tayanishi shart. Mazkur ijtimoiy qatlam vakillari o'z professional - malaka tayyorgarlik saviyalariga mutanosib ijtimoiy o'rin egallashga intiladi. Tarixiy taraqqiyot shunday shakllandiki, ilmiy bilimlar va ishbilarmonlik o'zlashmalari asosan farbiy davlatlar va YAponiyada mujassamlashdi. Ularda band aholi tarkibidagi oliy kategoriyali professional ijtimoiy qatlam vakillarining hajmi o'rta va past kategoriya vakillarining ulushidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu jarayon o'z yonalishda yanada rivojlanib, mazkur davlatlarning eng boy va zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy-tehnik tarqqiyo'tning old qatoridagi halqaro iqtisodiy o'rnini saqlab turishga zamin yaratmoqda.

Asosan halq iste'moli mollari ishlab chiqarishda ihtisoslashgan va iqtisodiy hom ashyo' etkazib berishga qaratilgan mamlakatlarda esa ijtimoiy qatlamlashuv tarkibi, asosan, professional ijtimoiy qatlamlarning o'rta va past kategoriya vakillaridan iboratdir. Buning sababi - mazkur davlatlar o'z taraqqiy etgan tehnologiyasini yaratishga ko'makdosh firmalar yoki hukumat darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga ko'makdosh iqtisodiy ra'batlarni ta'minlash uchun manbalarga ega emas.

Mazkur o'rnashib qolgan tartibni buzib va rivojlanayo'tgan davlatlarda jamiyat ijtimoiy tarkibida ijobiy o'zgarishga erishibgina emas, balki yuqori va o'rta kategoriyali ijtimoiy qatlamlarni shakllantirib, shart-sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati hisobiga erishish mumkin. Rivojlanayo'tgan davlatlar mehnat faoliyatining murakkab, ilmiy, ijodiy turlarini rivojlantirish uchun kuchli homiylik siyosatini o'tkazishlari kerak. Faqat shunday yondashuv natijasidagina jamiyat ijtimoiy tarkibida progressiv o'zgarishga erishish va ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda mahalliy ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda Farb davlatlari bilan tenglik ta'minlanishi mumkin.

Dunyoning ko'plab rivojlanayo'tgan mamlakatlaridan farqli o'laroq O'zbekistonda bunday ijtimoiy qatlam mavjud. U, ilgari yirik ilmiy muassasalar va boshqaruv organlarida ishlagan hamda o'sha davrning ijtimoiy poranalarida etarli darajada yuqori o'rin egallagan yuksak malakali mutahassislardan tarkib topgan.

Hozirgi paytda mazkur ijtimoiy qatlam vakillarining sezilarli qismi kichik va o'rta biznes bilan shuqullanadi, texnologik zamini ularning professional malakasiga mutanosib bo'lmagan kichik korxonalar va kooperatsiyalar negizida faoliyat yuritadi.

Mazkur ijtimoiy qatlam, iqtisodda ularning ijtimoiy maqomini qayta tiklashga qodir yangi soha yuzaga chiqishi bilan o'zi jamuljam etgan professional - malaka salohiyatini maksimal darajada ishlatishga tayyor turadi.

**Ijtimoiy tabaqalashuv turlari.** Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi va ijtimoiy tarkibi o'zaro yaqindan bo'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ijtimoiy tartib o'zgarishlarisiz sodir bo'la olmaydi. Iqtisodiy munosabatlarni ayri ravishda o'zgartirishga urinishlar aholi qarsxiliga sabab bo'lmasa ham, sustligiga duch kelishi mumkin. Jamiyatning ijtimoiy qatlamlashuvi ikki shaklda namoyon bo'ladi:

1. Insonlarning professional-ta'lim saviyasiga asoslangan professional malakali shakl.

2. Daromad darajasiga qarab taqsimlanishiga asoslangan iqtisodiy shakl.

**Professional – malakali ijtimoiy tabaqalashuv esa** ishchi bajarayo'tgan shu faoliyatning murakkabligi, aqliy salohiyati, jamiyat uchun muhurligi va ahamiyatini e'tiborga olishga asoslanadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuvi inson mulk maqomini baholashga hamda jamiyat va ma'naviy qulayliklarga erishuvlarida uning real imkoniyatlarini e'tiborga olishga asoslanadi.

Har bir mamlakatda shakllangan tabaqalar va qatlamlar tamomila turlicha bo'lishi mumkin. Ularning soni tabiiy manbalar va o'lkaning iqtisodiy tarixi, mehnat taqsimoti va iqtisoslashuv jarayonida erisxilgan daraja, davlat sektori bajaruvchi vazifalarning nisbiy miqyo'si va ro'yhati, mulkcxilik, shu jumladan o'tmishdan meros mulkcxilik harakteriga ham bo'liq bo'ladi. Professional ta'lim va iqtisodiy tabaqalashuv har doim ham mos kelavermaydi. Professional malakali va iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuv orasida mobillikka erishish mamlakat aholisining mehnat faoliyatini yuksaltirishda hal etuvchi omillardir.

***Jamiyatning ijtimoiy tarkibiga ta'sir o'tkazuvchi eng muhim ko'rsatkichlar***

1. Daromadlar taqsimlanishidagi o'zgarish.
2. Iqtisodiy maqom va professional-ta'lim saviyasi bilan borliq ijtimoiy qatlamlarning jamiyat qatlamlashuvida joylashish tarkibining o'zgarishi.
3. Ijtimoiy qatlamlashuvning quyi va yuqori qatlamlarida ijtimoiy harakatchanlik miqyo'klarining o'zgarishi.
O'tish davrining dastlabki bosqichida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan yutib chiqqanlarga nisbatan marlub bo'lganlar ko'proq bo'lib chiqadi. SHuning uchun jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvida sodir bo'luvchi moyillarni tushunish davlatning to'g'ri ijtimoiy siyosatini ishlab-chiqishining zaruriy shartidir <sup>1</sup> .

«O'zbekistonda, – deb ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov, – uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan halqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish respublikaning qudrati va yutuqlaridan fahrlanish, halqimiz qismatiga tushgan qiyinciliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».

Respublikamiz jamiyatining ijtimoiy tarkibi nazariyasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Mustaqil O'zbekiston jamiyatining ertangi kun ijtimoiy- iqtisodiy tuzumiga bugun asos solindi. SHuning uchun ham jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga xizmat qiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida ijtimoiy-sinfiy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. O'tgan davrda asosan, ikki sinf - ishcxilar va dhqonlar sinfi va intelligentsiya qatlami mavjud deb ko'rsatilib, jamiyat ijtimoiy tarkibidagi boshqa guruhlarining ahamiyati mutlaqo tilga olinmadi.

Ijtimoiy tarkibda hududiy yonalish ham mavjud bo'lib, u mintaqaviy, viloyat, shahar, qishloq, mahalla kabi hududiy birikmalarni o'z ichiga oladi. Bu tarkibiy birlikda ayrim olingan hudud doirasida sotsiologik tadqiqot olib borish talab qilinadi. So'nggi yillarda bu masalaga jiddiy qaralmoqda. Ayniqsa, shahar, qishloq, mahallaga oyid muammolarni o'rganish zaruriyati ortmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda «mahallalar faoliyati, olib borilayotgan ishlar ijobiy natijalar bermoqda. «Mahallang - ota-onang» shiori ostida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Yoshlar tarbiyasida mahallaning o'zni katta ahamiyatga ega. Mahallacxilik an'analarimiz keng rivojlanmoqda. Ko'pgina yangi-yangi mahallalar tashkil qilinmoqda. Mahallalarda «guzar»lar tashkil qilinayapti. Har bir mahallani mahalla oqsoqollari boshqarmoqda.

Jamiyat ijtimoiy tarkibida har bir shahs qaysi ijtimoiy guruhga va undagi hududiy, tarmoq va ijtimoiy mavqey yonalishiga mansubligi bilan harakterlanadi. Bulardan tashqari yana shahs jinsi, yosh jihati, oilaviy

<sup>1</sup> Inson taraqqiyoti to'g'risida hisobot. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –b. 43.

ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy mansubligi, ma'lumoti, ilmiy darajasi kabi parametrlar bilan ham o'rganiladi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrining iqtisodiy qiyinciliklari ijtimoiy guruh va ayrim shahslar qanchalik moddiy imkoniyatga egaligi, jamfarma mablari miqdori kabi tomonlarini o'rganishni ham talab etadi.

## **Qisqacha xulosalar**

Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Hususiy mulkcxilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'layapti. SHuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiyasini ishlab chiqish sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Respublikaning asta-sekin bozor munosabatlariga o'tib borish davrida Prezident I.A. Karimov tomonidan belgilangan besh tamoyilga asoslangan tarzda siyosat yurgizilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish (siyosati) munosabati bilan, O'zbekistonda mulkcxilik turli shakllarining joriy qilinishi va ularning davlat himoyasiga olinishi taqsimot munosabatlarida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. Bu esa o'z navbatida jamiyat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga hizmat qilmoqda. O'zbekiston o'z milliy puliga ega bo'lishi munosabati bilan iqtisodiy va taqsimot munosabalariga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi. O'zbekiston ichki bozorini to'ldirish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. O'zbekistonimizning bu sohadagi siyosati «milliy boylikning ko'payishi, respublikaning mustaqlligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish»dan iborat buyuk maqsadni ko'zlamoqda.

## **16-MAVZU. NIKOH VA OILA SOTSILOGIYASI**

### **16.1. Oilaning sotsial mohiyati hamda uning ahloqiy va huquqiy asoslari**

Fanda oilaga quyidagicha ta'rif beriladi: «**Oila – insonlarning tabiiy - biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviyat munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik his-tuyfulari orqali bo'langan ijtimoiy guruhdir**».

**Oila** – kixilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy – madaniy organizm. **Oila** – kixilarning tabiiy –

biologik (jinsiy munosabatlar, uy – roʻzorni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish), maʼnaviy (er-hotin, ota-ona va bolalar oʻrtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyfusi va shu kabilar) munosabatlariga asoslangan birlik.

Nikoh va oila munosabatlari qadimgi davrlardan boshlab ilmiy tadqiqotlar manbaining bir yonalishini aks ettirib, sotsial tizimni tashkil etuvchi sotsial institutlarning alohida funktsiyaga ega boʻlgan bir boʻlagi hisoblanadi.

Maʼlumki, har bir sotsial institut oʻziga xos funktsiyani bajarishga yonaltirilgandir. Turli yonalishdagi sotsiologlar bu sotsial institutlarning alohida funktsiyalarini oʻrganishga kirishib, klassifikatsiyalashga uringanlar.

Bu sohada ancha toʻliq va qiziqarli maʼlumotlarni sotsiologlar S.Lipset, D.Landberg va boshqalarning «Institutsional maktab» sotsiologiyasi manbalaridan olishimiz mumkin. Ana shu sotsial institutlardan biri **oila** hisoblanadi. Klassik sotsiologlarning nazariyalarida **sotsial institutlar amal qilishiga koʻra ikkiga ajratib koʻrsatilgan: Oddiy va murkkab.** Oddiy sotsial institutning klassik misolida oila institutini koʻrib chiqishimiz mumkin. A.G. Harchevning maʼlumotiga koʻra oila kixsilarning nikoh va qon-qarindoshlik xususiyatiga koʻra birlashmasi boʻlib, ijtimoiy turmushni shakllantirish va birgalikdagi javobgarliklariga koʻra borlangan boʻrindir.

1857-1929 yillarda yashab ijod etgan Amerika sotsiologi va iqtisodchisi T.Veblenning sotsial institutlar haqidagi kontseptsiyasi asosida funktsional yondashuvlarni koʻrish mumkin. Bunga koʻra **oila – jamiyat aʼzolarini takror ishlab chiqarish funktsiyasini bajaruvchi institutlar hisoblanadi.**

Bu masalalarni biz A.Millerning kontseptsiyalarida ham koʻrishimiz mumkin (1914-1973). Oʻz davrida M.Veber ham sotsial institutlar va ularning funktsiyalari haqida alohida toʻhtalib oʻtgan. O.Kont oʻz sotsiologik nazariyalarida oilani jamiyatning birlamchi asosi sifatida qarab chiqadi va uning kelib chiqishini insoniy munosabatlardagi tabiiy holat deb izohlaydi.

O.Kontning fikricha, oilada ijtimoiy munosabatlarning barcha koʻrinishlari oʻz aksini topadi, yaʼni notenglik (avlodlar va jinslar oʻrtasida), tobelik (oila aʼzolari oʻrtasidagi, oila boshliri, kattalar) va hokazo. SHunga koʻra oila bir kichik davlat boʻlib, u davlatning shakllanish asosi, uning modeli, oila sotsial funktsiyalari esa - jamiyat funktsiyalarini aks ettiradi. P.Sorokin oʻzining sotsiologik tadqiqotlarida

oilaviy kelishmovcxiliklar, ularning sabablari va oqibatlarini haqida keng to'htalib o'tgan<sup>1</sup>.

L.Prizberg o'zining Sotsial konfliktlar (1982 y.) asarida oilaviy kelishmovcxiliklar va ularning oqibati, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirib, ularning oldini olish va oqibatlariga qarshi kurashish jamiyat oldiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Oilaning huquqiy asoslarini asosan quyidagilar tashkil qiladi:

1. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (1948 yil 10 dekabr) 16-moddada berilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63–66-moddalarda bayon etilgan.

3. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda qabul qilingan) 8 bo'lim, 238 moddadan iborat.

4. Va boshqa shular doirasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar.

## 16.2. Oilaning funktsiyalari va uning tiplari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (63-modda)da ta'kidlanganidek, "Oila jamiyatning asosiy bo'rinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"<sup>2</sup>.

Nikoh va oila sotsiologiyasi o'z mazmuniga ko'ra juda keng qo'llamga ega bo'lib, hozirgi zamon oila-nikoh munosabatlarining barcha jihatlarini o'z ichiga oladi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy o'zgarishlarni, oilaviy munosabatlarda vujudga kelayotgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ularning ichida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy-yuridik yonalishi, ahloqiy-estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosi, oila soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy ta'minoti, turmush darajasi, oilada er-hotinning o'рни va roli, oiladagi ruhiy muhit, oilaviy mojarolar va ajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yonalishlar muhim sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda.

Aslida oilaning vujudga kelishi va shakllanishida quyidagi oila turlari majud bo'lgan:

1. Gruppaviy oila: ibtidoiy jamoa tuzumida er-hotin umumiy bo'lgan.

<sup>1</sup> Sorokin P. Inson. TSivilizatsiya. M., 1992, 272–273-betlar.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2009, 12 b.



2. Patriarhal oila: juft oila bilan monogom oila o'rtasidagi oraliq shaklida bo'lgan.

3. Monogom oila: bir nikohli (hozirgi) oila vujudga kelgan.

Oila-nikoh sotsiologiyasi turmush tarzi sotsiologiyasi bilan uzviy bo'liq holda olib qarab o'rganiladi. Zero, oila bilan bo'liq bo'lgan barcha masalalar kixilar turmush tarzi tarkibiga kiradi. Ammo, oila jamiyatning kichik yacheykasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj. SHuning uchun ham oila-nikoh sotsiologiyasi maxsus sotsiologik nazariya sifatida hozirgi davr jamiyat ijtimoiy hayotini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida nikohning quyidagi turlari mavjud:

1. **Monogom nikoh.** Nikohning bu turi eng ko'p tarqalgan bo'lib, 2 ta shahs o'rtasida amalga oshiriladi.

2. **Poliginiya nikoh.** YUnoncha poli – ko'pcxilik, giniya – nikoh, ya'ni bitta erkakning bir necha ayo'llar bilan qonuniy nikohda turilishidir. Bu ko'proq arab mamlakatlarida bor.

3. **Poliandriya nikoh.** Bunda bitta ayo'l bir necha erkaklar bilan nikohda bo'lishi mumkin.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy sotsiologik tushunchalariga quyidagilar kiradi: Oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funktsiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy mafkura va boshqalar.

Bu tushunchalar oila-nikoh munosabatlarining eng muhim jihatlarini o'zida ifodalaydi.

Oila jamiyat ijtimoiy tarkibining muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) deganda, oila va uning a'zolari hayot faoliyati, faollikni namoyon qilish usuliga baxishlanadi. Ularga quyidagilar kiradi: biologik ko'payish, tarbiyaviy, ho'jalik-iqtisodiy, o'zaro yordam, kommunikativ, regulyativ kabilar.

Oilaning funktsiyalari, asosan quyidagilardan iborat: 1. Avlodni davom ettirish. 2. Bolalar to'frisida famho'rlik. 3. Iqtisodiy funktsiya yoki uy-ho'jalik ishlarini yuritish. 4. Qariyalar to'frisida famho'rlik. 5. Burch va majburiyatlarni his qilish. 6. Muomala talablarini qondirish. 7. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish.

Ayniqsa, oilada bola tarbiyasi, keksalarga yordam, mehnatga layo'qatini yo'qotganlarga famho'rlik qilish, oilaviy an'analarni saqlash va ma'naviy munosabatlarni tartibga solish kabi muhim ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlar mujassamlashgandir. Oilada "voyaga etgan,

mehnatga layo'qatli farzandlar o'z ota-onalari haqida ramho'rlik qilishga majburdirlar"<sup>1</sup>.

SHunday qilib, "Oila turmush va vijdon erkinligi qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyo'jlari va qadriyatlari shakllanadi".

Hozirda, turli mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham oilaning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish funksiyasining salmo'i yanada ortmoqda. Bozor munosabatlarining tarkib topishi natijasida bu funktsiyaning bajarilishi, oilaning boshqa funktsiyalarining faol amal qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, oilaviy kichik korxonalar, ustahonalar, kooperativlar, oilaviy fermer ho'jaliklari, ijara pudratlari kabi ishlab chiqarish funksiyasining amal qilishi bilan jamiyat taraqqiyotida nafaqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatliroqdir, ko'p jihatdan aholini ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, ho'jalik uchun zarur mollar bilan ta'minlash (ho'jalik - iqtisodiy funktsiyasi), bolalarda yoshlikdan mehnat ko'nikmalarini shakllantirish (tarbiyaviy funktsiyasi), ijtimoiy-psihologik (o'zaro yordam funktsiyasi), oila byudjetini ta'minlaydi. Er-hotin va farzandlar o'rtasidagi ruhiy uyfunlik (kommunikativ funktsiyasi) mehr-oqibat munosabatlarini yanada oshiradi.

Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh – bu tarixan vujudga kelgan, er va hotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-ahloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-hotinning o'zaro jinsiy hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq-burchlarini qonunlashtiradi. SHu bilan birga, oila nikohga nisbatan yanada murakkabroq bo'lib, nafaqat er-hotinni, balki ularning farzandlarini va shu oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi.

### **Oila-nikoh munosabatlarining asosiy printsiplari:**

1. YAkka nikohlik tamoyili (faqat bitta).
2. Nikohning ihtiyoriyligi.
3. Ajralishning erkinligi (davlat tomonidan nazorat qilinadi).
4. Oila va oilaviy munosabatlarda er-hotinning teng huquqligi.
5. Bolalarni birgalikda tarbiyalash tomoyili.

Oila ijtimoiy institut sifatida muayyan darajalarga ega bo'ladi. Dastlab, er-hotinning nikohdan o'tishi oqibatida oila vujudga keladi. Birinchi farzandning dunyoga kelishi esa - bolali oilani yuzaga keltiradi. Bu holat oilani yanada mustahkamlaydi. Hattoki, bir-birlarini sevib qurilgan oila ham, agarda farzandli bo'lmasa, mustahkam bo'la olmaydi, bundan ko'rinib turibdiki, oilaning avlod qoldirishlik funktsiyasi jamiyat

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2009, 13-bet.

hayotida ham, oila mustahkamligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Oilaning yana bir darajasi - ko'p bolali oilalar soni hozirga kelib, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan borgan sari kamayib ketmoqda.

Oila tipining muhim belgilari quyidagilar hisoblanadi: oila a'zolarining yoshi, oiladagi bola soni, murakkab oilalar, bunday oilalar bizning sharoitimizda ko'plab uchraydi. Bunaday oila tarkibi bir necha - ikki yoki undan ortiq nikohli juftdan iborat bo'ladi. Respublikada oilaning o'rtacha soni 5,5 kishidan iborat, bir qancha viloyatlarda esa 6 kishidan iborat, bu ko'rsatkich MDHning Evropa qismidagi mamlakatlarida 3,2 kishini tashkil etadi.

Davlatning vujudga kelishi bilan oilaviy hayotni boshqarish huquqiy harakterga ega bo'lgan. Nikohni yuridik jihatdan rasmiylashtirish nafaqat er-hotin oldiga, balki davlat oldiga ham muayyan javobgarlik (burch, vazifa, ma'suliyat) qo'yadi. SHundan boshlab oilaviy munosabatlar muammolarini nazorat qilish, huquqiy jihatdan boshqarish davlat zimmasiga yuklatiladi.

Nikoh munosabatlarini, yo'lfiz yashovcxilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat ijtimoiy tarkibining ijobiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Oddiy bir misol: diniy munosabatlar asosida, avval nikoh muqaddas hisoblanar edi. Sobiq totalitar tuzum asorati sifatida biz bu masalaning ancha keyingi o'rinlardan biriga surilib qolganligining guvohi bo'lib turibmiz.

### **16.3. Hozirgi davrda oila rivojidagi sotsial xususiyatlar**

“Hozirgi vaqtda oilaning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlarini mahalladan ko'ra yahshiroq biladigan boshqa tuzilma yo'q. SHuning uchun hozirda oila sotsiologiyasi mahalla doirasida kengroq o'rganilmoqda. Bozor munosabatlari barchani tobora chuqurroq o'z doirasiga tortayo'tgan ekan, bu holat oilaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, albatta. Oilaning ishga yaroqli bo'lgan barcha a'zolari tirikcxilik bilan band bo'lib, bolalar o'z holiga tashlab qo'yilayo'tgani ham haqiqatdir. Ana shunday vaziyatlarda mahallalarning rolini, mas'uliyatini oshirish to'frisidagi da'vat va tegishli farmoyishlar, oilalardagi muammolarning keng jamoatchilik muammolari sifatida qabul qilinishi davr taqozosi ekanligidan dalolat beradi. Bolalar jamiyatning kelajagi ekanligi e'tirof etilar ekan, ularning tarbiyasi uchun shu jamiyatning har bir a'zosi mas'ul ekanligini e'tiborga olgan holda, eng

avvalo oila o'z farzandining tarbiyasi, uning kelajagi, jamiyat oldidagi burchini anglab etishida javobgar ekanligini ta'kidlash bilan birga uning zimmasiga eng o'fir mas'uliyat tushishini anglab etib, o'z funktsional vazifasiga sodiq holda jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borishi talab etiladi.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, ahloq-odobini ham yahsxilangizlar», - deyiladi hadislarda. Farzand - hayotnig guli. Darhaqiqat, odobli farzand bilan hayotimiz fayzlidir. Biroq, farzandlarimiz hatti-harakatida ham goho nuqsonlar ko'zga tashlanadi, ularning o'z vaqtida oldi olinib, bartaraf etilmasa, gunoh ishlarga olib boradi. SHuning uchun oilada farzandlarimizga hadis namunalarini uqtirib borishimiz ham foydadan holi emas.

Pedagogika fani atamasida «tarbiyasi qiyin» degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha odatda sho'h va qaysar o'quvcxilarga nisbatan ishlatiladi. SHuningdek, tarbiyasi o'fir bolalar qatoriga o'zboshimcha, hatto bezori bolalar va zararkunanda darajasiga tushib qolgan o'smirlar ham kiradi: ularni tarbiyalash, hayotini haqiqiy to'fri yo'lga solib yuborish oson ish emas, albatta. Biroq, astoydil, e'tiqod va fidoyilik ko'rsatib, ijtimoiy fanlar qonuniyatlariga suyanib, bu o'fir va mashaqqatli ishda muvaffaqiyatga erishadigan tarbiyachi-murabbiylar ham yo'q emas.

Bola ruhiyati va madaniyatining nuqsonlarini o'z vaqtida payqab, ularni bartaraf etish tadbirlarini izlash va mohirona ish yuritib, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, shubhasiz, samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun ruhiyat va pedagogika fanlarining yutuqlariga suyangan holda oilalarda, ota-onalar universitetlari ishlarini jonlantirgan holda, bu vazifaga mutasaddi bo'lgan mutahassislarning mas'ulyatini oshirish talab etiladi.

Oila a'zolari o'rtasida nutq odobi masalasi ham foyat muhim ahamiyatga egadir. Biroq, bu ishni amalga oshirishda, birinchi galda, ota-onalarning o'zlari namuna ko'rsatib, sof ona tilida so'zlashlari lozim. Ma'lumki, «sen» va «siz» so'zlari ham bir o'rizdan chiqadi. Ayniqsa, o'zbek kelinining hush odobi, mehnatsevarligi, uddaburon va chaqqonligi, saramjon-sarishtalik xususiyatlari bilan hammada havas uyrotibgina qolmay, shirin so'z, hushmuomala, yo'qimtoylik fazilatlarini bilan honadonga nur yo'fdiradilar. Baliq suv bilan tirik deganlaridek, odam-odam bilan hayotdir. Buning asl ma'nosida odamlarning o'zaro muloqotidagi aloqa qurolining ijtimoiy sifatleri yo'tadi. Bo'lajak oila vakillari, bular farzandlar ekan, ularning kelgusida qanday oila qurishlari, qanday oila egasi-yu, qanday uy bekasi bo'lishi ular o'sib-unayo'tgan oilasida shakllanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», - degan naql bejiz

emas. Oiladagi an'analar, udumlar asirlar osha davom etaveradi. Undagi yahshi va yo'mon fazilatlar hamda illatlar kelgusi avlodlar hayotida o'z aksini topadi. SHuning uchun, iloji boricha oilada ijobiy hislatlarni kengroq shakllantirib, nuqsonlarni bartaraf etib borish ota-onaning va oiladagi boshqa keksa avlodlarning jamiyat oldidagi jiddiy burchi hisoblanadi.

Oilada bolaning kitobhonligini uyushtirish ham jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, uni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Har qaysi yoshdagi bolalar uchun badiiy asarlarni to'g'ri tanlash va olib berish.

2. Ma'lum tartib asosida badiiy kitoblarni o'qish uchun vaqt hamda sharoitni belgilash.

3. Badiiy asarlarning tarbiyaviy tomonidan ta'sir ko'rsatadiganlarini tanlash va kerakli adabiyotlarni to'plab, oila kutubhonasini tashkil etish.

4. Bolalar kitobhonligini borcha va maktab bilan hamkorlikda uyushtirish. Bunda uslubcxilar va sinf rahbarlari bilan doimiy aloqa o'rnatib, bolaning tarbiyasi bilan muntazam ravishda qiziqib turish kerak.

5. Oilada bolalar kitobhonligini oshirish (uyushtirish)da turli xil usullardan foydalanish (tajriba va kuzatish, suhbat, ifodali o'qish, hikoya, bahs-munozara) yahshi samara berishini ko'rsatadi.

YUqorida aytib o'tganimizdek, oilada tarbiyaga katta ahamiyat berish kerak. Oila a'zolari bir-birlari bilan qanday muomalada bo'lsalar, shu muhit qobiridagi o'spirinlarda ham huddi shunday va ularga xos xulq-atvorlar namoyon bo'la boshlaydi. Oila a'zolari hontahta atrofida o'tirib, turli mavzularda mulohazalar yuritish, murakkab muammolarni hal qilish borasidagi atroflicha etarli bahslar, shubhasiz, yigit-qizlar aql-zakovatining o'sishida, ularning aql-kamolotida turtki vazifasini bajaradi.

Oilaviy turmush bu buyuk hayot maktabidir, unda er-hotin bir-birini tarbiyalaydi, biri ikkinchisidan o'rganadi, o'zidagi kamcxiliklarni payqaydi va bartaraf eta boradi. Ana shu kamcxiliklarga bardosh bergan oilagina bahtli bo'la oladi. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko'rishdir, avlodlar davomiyligini davom ettirish, jamiyat manfaati yo'lida hormay-tolmay mehnat qilishdan iboratdir.

Er ila hotunning qonuniy suratda birga yashab, bir vujud bo'lishlaridan oila tashkil bo'lur. Er o'zi uchun bir hotun tanlab, dunyoda bo'lgan tirikligida, shodligu-qayrusida, har bir yahshi-yo'mon kunida suyanchiq bo'ladigan, joniga rohat bahsh etadigan bir sirdosh topur. Hotun odam bolasida bo'lfon xulqlarni go'zallashtirurki, bunga sabab qattiq ko'ngillarni yumshatuvchi, insonlarni jonvor emas, inson etuvchi bir qut bo'lganidandir. Zero, do'stlik va yaqinlik kabi narsalar naqadar

mustahkam bo'lsa-da, oila tashkil etishdan qudratliroq emas. (Hadis, 9-bet).

Oila qurishdan oldin, uning inqilobi va istiqboli ustida o'ylamoq oqillarning ishi. Aksincha, ba'zilar avval turmush qurib, keyin pushaymon qila boshlaydilar. «Er va hotinning bir-biriga bo'lgan mehru-vafosi bizga bobolarimizdan qolgan bebaho merosdir».

Nikoh munosabatlarini, yo'lfriz yashovcxilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat ijtimoiy tarkibining ijobiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, oila va nikoh munosabatlari nafaqat er-hotinning o'rtasidagi shahsiy, balki ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga ham egadir. Oila nafaqat eru-hotin ittifoqi, balki jamiyatning asosiy bo'rinidir, respublikamizda o'tgan 1998 yilning «Oila» yili deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan bir qator tadbirlarning amalga oshirilayo'tganligi buning yaqqol dalilidir.

#### **16.4. O'zbekiston Respublikasida nikoh va oila munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidagi sotsial tadbirlar**

1997 yil 5 dekabr' kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 5 yilligiga barishlab o'tkazilgan tantanali yifilishda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov ma'ruza qilib, 1998 yilni "Oila yili" deb e'lon qilgan edilar.

Bu yifilishda Prezidentimiz oilaning har bir inson hayoti va umuman, jamiyat hamda davlat taraqqiyotida tutgan o'rmini atroflicha sharhlab, ajoyib fikrlarni aytdilar va jamiyat oldiga shunday masalani qo'ydilar: «... Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash - bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yahshi tushunishimiz va anglashimiz darkor»<sup>1</sup>. SHu munosabat bilan ko'p o'tmay 1997 yil 9 dekabrda Prezidentimizning oila masalasiga barishlangan maxsus farmoyishi e'lon qilindi. Farmoyishda "Oila yili" bilan bo'rlilikda Davlat dasturini ishlab chiqish uchun Respublika Komissiyasi tuzildi va uning tarkibidagi ishchi guruhlarni tashkil etish vazifasi qo'yildi. Dasturning asosiy yonalishlari belgilab berildi. 1998 yil yanvar' oyida oila manfaatlarini ta'minlash borasidagi tadbirlar, davlat Dasturi tayyorlandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 yanvardagi qaroriga asosan tasdiqlandi. Davlat Dasturi kompleks tusda bo'lib, u 150 dan ko'proq tadbirlarni o'z ichiga oldi, dasturda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun esa barcha

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 – T.: «O'zbekiston», 1998, 401-bet.

manbalar bo'yicha 144,8 mlrd. so'm mablar ajratilib, uning deyarli yarmi davlat byudjetidan berildi.

Oliy Majlisning HI sessiyasida qabul qilingan Oila Kodeksining oilaviy munosabatlarida erkak va ayo'lning teng huquqlilik printsiplari mustahkamlandi. Kodeksda oiladagi mulk, bola tarbiyasi va boshqa jihatlar yangi zamon talablari asosida talqin etilgan. SHu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazini tashkil etish to'rrisida»gi 1998 yil 2 fevral' qarori oila manfaatlarini takomillashtirish yo'lida qo'yilgan yangi salmikli qadamdir. Bu qarorga binoan O'zbekiston respublikasi Hotin-qizlar qo'mitasida Respublika "Oila – ilmiy-amaliy Markazi" tashkil etildi. Markaz oila muammolarini o'rganish bo'yicha laboratoriyaga ega bo'ldi. Bunday markazning vujudga kelishi ko'p jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, oila – jamiyatning negizidir, demak oila muammolarini o'rganish va hal qilish bilan uzluksiz, hamisha shufullanadigan, bu borada o'z taklif-mulohazalarini ishlab chiqib, vaqti-vaqti bilan davlat va jamiyat oldiga qo'yadigan muassasaga ehtiyo'j katta. Ikkinchidan, hayot, jamiyat hamisha rivojlanishda, taraqqiyotda ekan, demak oila muammolari ham o'zgarib, yangilanib boraveradi va ular to'rrisida butun jamiyat va davlat boshqaruvi o'z vaqtida aniq tasavvurga ega bo'lib boradi.

«Oila» markazi avvalo oilaning ravnaqi bilan bo'fliq muammolar majmuasini atroflicha ilmiy o'rganish va uslubiy tavsiyalar tayyorlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Bunday muammolar esa oz emas. SHu bilan birga «Oila» markazi faqat ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar bilangina shufillanib qolmay, qarorda ko'rsatilganidek, u keng amaliy faoliyat bilan ham mash'ul bo'ladi. YA'ni, oilani rivojlantirish, uni takomillashtirish, oila a'zolari salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy o'rganish bilan bir qatorda bu muammolarni hal qilish yuzasidan amaliy tadbirlar majmuasini ham bajaradi. YAna, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yahsxilash maqsadida Nikoh uylari va salomatlik markazlarida maxsus o'quv - tarbiyaviy kurslarni tashkil etish ko'zda tutilgan bo'lib, bugungi kunda bu maskanlar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqdalar. SHuningdek, oilaning huquqiy sovodhonligini yahsxilash va himoyalash – hozirgi kunda eng muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Markaz 1998 yillning «Oila yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan belgilangan tadbirlar tufayli Davlat dasturining bajarilish manitoringini olib borayo'tganligi katta ahamiyatga egadir.

Oila ilmiy-amaliy markazining faoliyati davlat va jamiyat taraqqiyoti manfaatlariga yonaltirilgandir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'rrisida»gi

qarori va uning bugungi kundagi faoliyati butun mohiyat e'tibori bilan jamiyat taraqqiyotida, ma'naviy barkamol va jismonan soflom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni muhim ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi va uning ravnaqiga hizmat qilmoqda.

Hukumatimiz tomonidan oilani, oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

1. 1999 yil "Ayo'llar yili" deb e'lon qilindi.
2. 2000 yil – "Soflom avlod yili" deb e'lon qilindi.
3. 2000 yil 15 fevralda Vazirlar Mahkamasining "Soflom avlod davlat dasturi to'frisid" qarori qabul qilindi. U 6 yonalishdan iborat.
4. 2001 yil – "Onalar va bolalar" yili bo'ldi.
5. 2001 yil 5 fevralda Vazirlar Mahkamasi "Ona va bola" davlat dasturi to'g'risida" qaror qabul qildi.
6. 2002 yil – "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilindi.
7. 2003 yil – "Obod mahalla yili".
8. 2004 yil – "Mehr va muruvvat yili".
9. 2005 yil – "Sihat-salomatlik yili".
10. 2006 yil – "Homiylar va shifokorlar yili".
11. 2007 yil – "Ijtimoiy himoya yili".
12. 2008 yil – "Yoshlar yili".
13. 2009 yil - "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili".
14. 2010 yil – Barkamol avlod yili.
15. 2011 yil – Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik yili.

Ma'lumki, oilaning avlod qoldirish funktsiyasi nafaqat oila mustahkamligini saqlashda, balki jamiyat hayotida ham juda muhim rol o'ynaydi.

Ko'p bolali oilalar hozirga kelib, ma'lum ijtimoiy - iqtisodiy omillar ta'siri ostida borgan sari kamayib ketmoqda. Bu holat yaqin kelajakda o'zbek millatining rivojlanishi va ravnaqi darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Jamiyat, har qanday davlatning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishi eng avvalo undagi oilaning barbot bo'lishi, buzilishining ko'payishiga ko'p jihatdan bo'liqdir. SHuning uchun oilaviy ajralishlarni, qo'ydi-chiqdilarini keltirib-chiqaruvchi tub sabablarni aniqlash, o'rganish va ularning oldini olish uchun ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqish oila sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.



Respublika bo'yicha nikohlar umumiy sonining o'sishi bilan ajralishlar sonining ham o'sayo'tganligi tashvishlidir. Oilaviy ajralishlarning asosiy sabablari nimalarda? Ajralishlarning tarafdori ko'proq kim? Erkaklarmi yoki ayo'llarmi? Qaysi birlari ko'prok aybdor? – degan savollar yuzasidan olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra oilaviy ajralishlarning 70% da ayo'llarning, faqat 30% da erkaklarning da'vogarligi asosida sodir bo'lmoqda. 41,4% ajralishlarning asosiy aybdori erkaklar, 26,8% ayo'llar, 4,5% har ikki tomonning o'zaro kelisha olmaganligi sababli, 7,3% esa kelin bilan qaynona o'rtasida kelishmovcxilik sabab bo'lganligi oqibatida buzilmoqda. Hozirgi vaqtda asosan ko'proq quyidagi omillar oilaviy ajralishlarga sababchi bo'lmoqda:

1. Er o'z oilasini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlay olmasligi.

2. Erlik burchini, oila boshlari sifatidagi mas'uliyatli vazifasini bajarmayo'tganligi tufayli. Erning spirtli ichimlik, narkotik moddalarni iste'mol qilishi va natijada sof'lom oilaviy muhitning buzilishi oqibatida.

3. Ayo'llarning o'z eriga nisbatan qo'pol munosabatlarda bo'lishi, erni er o'rnida ko'rmasligi, mensimasligi va oilada ayo'llik (hotinlik) burchini his qilmasligi natijasida.

4. Er-hotin o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qligi, harakterlarining to'rri kelmasligi, oddiy muomala madaniyatining yo'qligi.

5. Qaynona-kelin munosabatlaridagi kelishmovcxiliklar.

6. Yosh yigit-qizlarning bo'lfusi oilaga har jihatdan tayyor emasliklari va hokazolar.

Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy hayotda o'zlarini bahtli deb hisoblagan ayo'llar bular: ish joyida muvaffaqiyatga erishgan, har tomonlama qiziqishga va qobiliyatga ega bo'lgan, mustaqil, tashqi ko'rinishidan kelishgan va go'zal bo'lgan ayo'llar emas, balki – jiddiy, yumshoq ko'ngil, mehribon, o'z oilasiga jonkuyar, chekinuvchan, bir gapdan qoladigan ayo'llar ekan. E'tibor berilsa, haqiqiy oilaviy bahtga erishish omillari ahloqiy munosabatlarga borib taqalishi ma'lum bo'ldi.

Ayrim mualliflarning fikricha, oila qurish yoshidagi har bir erkakka 5 nafar ayo'l to'rri kelishi va bu holat esa ko'p hotinlikka ruhsat berishga asos bo'lishini ta'kidlaydi. Ammo statistik ma'lumotlar esa bu fikrlarni tasdiqlamaydi. Agar 1989 yilda respublikamizda 5481,8 ming erkak va 5820,8 ming ayo'l (1 ga 1,06) istiqomat qilgan bo'lsa, 1997 yilda 6562,7 erkak va 6873,3 ming ayo'l (1 ga 1,0) yashagan. SHundan ham ko'rinadiki, sezilarsiz bo'lgan farq yil sayin kamayib bormoqda.

Oilalarni mustahkamlash, nikohni bekor qilish holatlarining oldini olishda milliy urf-odatlar va an'analar, shuningdek, mahallalardagi yarashtiruv komissiyalarining imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayo'tganligi oqibatida nikohni bekor qilish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu ko'rsatkich Toshkent viloyatida quyidagicha: 2002 yilda viloyat bo'yicha 14648 ta nikoh qayd etilib, shundan 2857 tasi bekor qilingan. 4025 ta holatda nikohsiz farzand tufilib, otalik belgilangan. Andijon viloyati misolida "Oila kodeksi"ning "Er-hotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga taalluqli qoidalari" moddasi o'rganilganda nikohi bekor qilingan er-hotinlarning yoshlari tahlil etilib, bu ko'rsatkich asosan 20-25 yoshgacha 16,1, 30-35 yoshgacha 31,3%ni tashkil etayo'tganligi, nikoh shartnomasini tuzishda hatoliklarga yo'l qo'yilayo'tganligi aniqlangan<sup>1</sup>.

Aholining turmush sharoiti va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini izcxillik bilan yaxshilash natijasida mamlakatimizda umumiy o'lim ko'rsatkichi keyingi 10 yilda qariyb 20 foizga kamaydi. Go'daklar o'limi ko'rsatkichi esa yangi tufilgan har 1000 nafar chaqaloqqa nisbatan 23 tadan 13 taga tushdi va birgina 2007 yilning o'zida 11 foizga kamaydi<sup>2</sup>.

Agar 1991 yilda onalar o'limi bilan borliq ko'rsatkich har 100 ming nafar ayo'lga nisbatan 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda bu (ko'rsatkich) raqami 24 taga tushdi, go'daklar o'limi esa ilgari 1000 nafar chaqaloqqa 35 tadan to'firi kelgan bo'lsa, hozirgi kunda 14 taga tushdi.

### **O'rtacha umr:**

Aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990 yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda 72,5 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayo'llar o'rtasida esa 70 yoshdan 74,6 yoshga uzayganini ko'rish mumkin.

Prezidentimiz islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonuncxilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida o'tgan 20 yil davomida ijtimoiy-gumanitarsohada erisilgan marralar hususida to'htalib, "aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yonaltirilgan davlat harajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rish 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayo'llarning o'rtacha umr ko'rish 75 yoshgacha etganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman"<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ayol bor ekan, dunyo go'zal, hayot abadiy // Qonun himoyasida. 2004.№8. 31-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2008. -21-22-b.

<sup>3</sup> Karimov I.A. mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2010. –b. 4-5.

Insonlar salomatligini muhofaza qilish sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rinli bo'ladi.<sup>1</sup>

## Nikoh va oila sotsiologiyasi mavzusiga ilovalar.

Oilaning o'rtacha kattaligi<sup>2</sup>

	2000			2001			2002			2003		
	jami	shahar	qishloq	jami	shahar	qishloq	jami	shahar	qishloq	jami	shahar	qishloq
O'zbekiston Respublikasi	5,4	4,6	6,0	5,3	4,6	5,9	5,1	4,4	5,8	5,1	4,3	5,7
Qoraqalpoiston Respublikasi	6,3	5,9	6,7	6,1	5,9	6,3	5,9	5,6	6,2	5,8	5,6	6,1
Viloyatlar:												
Andijon	5,6	5,2	5,9	5,7	5,4	5,8	5,6	5,1	5,8	5,3	4,5	5,7
Buhoro	5,3	4,7	5,6	5,0	4,5	5,3	4,7	3,9	5,2	5,0	4,5	5,3
Jizzah	6,2	5,1	6,8	6,0	5,4	6,3	6,0	5,1	6,5	5,9	5,3	6,2
Qashqadaryo'	5,7	5,3	5,9	5,5	4,8	5,9	5,6	5,1	5,9	5,4	5,0	5,5
Navoiy	4,7	4,2	5,3	4,4	4,0	4,9	4,5	4,1	5,0	4,5	3,7	5,1
Namangan	5,9	6,1	5,9	5,9	6,1	5,7	5,7	5,8	5,7	5,6	5,6	5,5
Samarqand	5,6	4,6	6,3	5,3	4,5	5,9	4,9	3,5	5,8	4,9	4,0	5,4
Surhondaryo'	6,2	5,2	6,5	6,2	5,9	6,3	5,9	5,7	6,0	5,8	5,0	6,0
Sirdaryo'	5,3	4,4	5,8	5,4	4,5	6,0	5,5	4,9	5,8	5,3	4,3	5,9
Toshkent	4,6	3,4	5,9	4,8	3,8	5,9	4,7	3,7	5,7	5,0	4,0	6,0
Farrona	5,4	4,4	5,9	5,4	4,5	5,9	5,2	4,5	5,5	5,3	4,2	5,8
Horazm	5,9	5,7	6,0	6,0	5,0	6,3	5,6	4,5	5,9	5,3	4,7	5,5
Toshkent shahri	4,0	4,0	-	4,1	4,1	-	3,8	3,8	-	3,7	3,7	-

## Tug'ilganda kutilayo'tgan umr davomiyligi<sup>3</sup>

	2000	2001	2002	2009
Barcha aholi:				
Har ikki jins	70,8	71,3	71,2	71,6
Ayo'llar	73,2	73,6	73,5	75,8
Erkaklar	68,4	68,9	68,9	73,4
SHahar aholisi <sup>6</sup>				
Har ikki jins	70,2	70,7	70,5	71,1
Ayo'llar	73,5	74,0	73,6	75,3
Erkaklar	66,8	67,3	67,3	73,9
Qishloq aholisi:				
Har ikki jins	71,2	71,7	71,7	71,9
Ayo'llar	72,9	73,3	73,3	75,4
Erkaklar	69,6	70,1	70,2	73,5

## Qisqacha xulosalar

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida oila bilan borlik bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etib borishda sotsiologik ilmiy-amaliy tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun talabidan kelib

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 44-45-b.

<sup>2</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston-2005. 107-bet.

<sup>3</sup> Inson taraqqiyoti to'grisida ma'ruza. O'zbekiston-2005. 107-bet

chiqqan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirib borish dolzarb hisoblanadi:

1. “Oila” yili munosabati bilan boshlangan tadbirlar muntazam ravishda olib borilishi va amaliy natijalarga erishish uchun viloyatlarda ham “Oila va jamiyat” oila hizmati bo’yicha ishlarni olib borish darkor.

2. “Oila va jamiyat” haftanomasi va boshqa matbuot vositalari orqali tegishli materiallarni muntazam ravishda chop etib borish va ruhshunos hamda sotsiolog olimlarning maslahatli chiqishlarini uyushtirib borish maqsadga muvofiqdir.

3. Yoshlarni oila va nikoh munosabatlariga tayyorlash maqsadida o’quv yurtlarida, mahalla qo’mitalari qoshida mutahassis vrachlar, ruhshunoslar va sotsiologlarning suhbatlarini doimiy ravishda o’tkazib borish.

4. Milliy oilaviy an’analar, bayramlarni keng tarqib qilish va hokazo.

SHunday qilib, oila va nikoh munosabatlari nafaqat er-hotin o’rtasidagi shahsiy, balki ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga ham egadir. Oila sotsiologiyasi mohiyat e’tibori bilan shu umumbashariy ahamiyatga molik muammoni hal etib borishdek, buyuk vazifani bajarishga hizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib O’zbekistonda 5,5 mln. atrofida oila istiqomat qiladi. Ularning yarmidan ko’pi qishloq joylarda yashaydi. Qishloqlarda ajralishlar deyarli kam sodir bo’lishi kuzatilgan – 1000 kishiga-0,3 marta. Tipik qishloq oilasi 5,5 kishidan tarkib topgan. Uy ho’jaliklari ko’pinchalik bir tom ostida turli avlodlarga mansub bir necha qarindosh oilalarni birlashtiradi. 1997 yildan boshlab ko’p bolali, kam ta’minlangan oilalarga maqsadli ijtimoiy yordam taqsimlashni davlat mahallalariga ishonib topshirdi.

Mahallalar jamoatchilik aktivining faoliyatini nohukumat Respublika «Mahalla» fondi muvofiqlashtirib bormoqda.

## VI - BOB. SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA UMUMLASHTIRISH

### 17 - MAVZU. EMPIRIK SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR

#### 17.1. Empirik sotsiologik tadqiqotning mazmun – mohiyati

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlar to'rtisida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayo'tgan muhim o'zgarishlarni, kixilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmo'ri zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi. Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmo'ri lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari hususida to'htalib o'tamiz.

**Amaliy sotsiologik tadqiqot** jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlariga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

#### **1. BOSQICH. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:**

1.1. Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.

1.2. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha byurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzish.

1.3. Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendarъ reja, tehnik vazifalarni va byudjet (sarf qilinadigan harajatlar smetasi)ni tuzish.

- 1.4. Dastur ishlab chiqish.
- 1.5. Tadqiqot uslubiyati, texnikalarni va vositalarini ishlab chiqish.

## **2. BOSQICH. Asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:**

- 2.1. Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.
- 2.2. Pilotaj.
- 2.3. Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yirish.
- 2.4. Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

## **3. BOSQICH. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:**

- 3.1. Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.
- 3.2. Taqsimiy jadval tuzish.
- 3.3. Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

## **4. BOSQICH. YAKunlovchi bosqich bo'lib, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:**

- 4.1. Tadqiqot ma'lumotlarning dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.
- 4.2. Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.
- 4.3. Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.  
Germaniyalik sotsiologlar amaliy sotsiologik tadqiqotlarni 3 bosqichdan iborat deb qo'rsatadilar.

**1. Asosiy bosqich:** amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi. Bu bosqichda 4 ta vazifa bajariladi:

- 1.1. Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash.
- 1.2. Empirik tadqiqot foyasini ishlab chiqish.
- 1.3. Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish.
- 1.4. Analitik muolaja tayyorlash.

**Ikkinchi bosqich: Asosiy bosqich:** empirik tadqiqot va eksperiment o'tkazish.

**Uchinchi bosqich:** Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda 3 ta vazifa bajariladi:

- 3.1. Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash.
- 3.2. Nazariy jihatdan qayta ishlash.
- 3.3. Olingan natijalarni amaliyo'tda qo'llash.

Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy echimini kutayo'tgan muammo bo'lishi mumkin. SHulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil

qilishning asosiy shakllari: davlat buyurtmasi asosida, ho'jalik shartnomasi asosida, jamoatchilik va aralash tartibda bo'lishi mumkin.

## **17.2. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy tuzilishi**

Empirik sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tahlillar asosida mavjud maummoni tahlil qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy, nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha ishchi farazni tekshirishga qaratilgan. SHuningdek, tadqiqot bo'yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalar va sotsiologik tadqiqotning metodologik asosi bayonlaridan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot berilishi **annotatsiya**, deb ataladi.

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish; dasturni ishlab chiqish jarayonida komp'yuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

### **1. Nazariy - metodologik qism:**

1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.

1.2. Tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash.

1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.

1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki tahminiy tahlili.

1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

### **2. Amaliy sotsiologik tadqiqotning ish jarayoni qismi:**

2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.

2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.

2.3. Tanlov ishlari.

2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi.

2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yonalishlar.

### **3. Xulosa qismi:**

3.1. Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi.

3.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat).

**Tadqiqotning maqsad va vazifasi.** Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachi va bajaruvchilar o'rtasidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar: moliyaviy mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korhonasida mehnat unumdorligini ko'tarish muammosini sotsiologik tadqiqot qilish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoitni o'zgartirishdan iborat.

### 17.3. Tadqiqot ob'ekti va predmeti

Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot ob'ekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yonalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti shakllanganda, mavjud muammoni echish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

**Sotsiologik tadqiqot ob'ekti** deganda, sotsiologik yonaltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'ekti tizimli xususiyatiga, asosan vaqt, makoniy imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-uslubiy darajasida tadqiqot ob'ektini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo harakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi tadqiqot ob'ektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot ob'ekti unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot ob'ekti qilib olinishi mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot olib borish yoki tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. SHuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot ob'ektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Ilmiy muammo ob'ektini sistemali tahlil etish tadqiqotchisi uchun 3 faoliyat yonalishini ochib beradi. Ular:

- 1) Tadqiqot predmetini aniqlab olish.
- 2) Asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish.



3) Tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir.

### **DASTURDA ANIQ KO'RSATILISHI ZARUR**

1) Empirik tadqiqot ob'ekti. 2) Sotsiologik tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi. 3) Tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi (ro'yhat tuzish, kartoteka, sotsiologik harita kabilar).

### **SOTSIOLOGIK TADQIQOT FARAZI:**

Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi o'rganilayo'tgan ijtimoiy hodisa tarkibi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xarakteri to'rtisidagi ilmiy asoslangan farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayo'tgan ob'ekt to'rtisidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Faraz, bu tadqiqot uchun boshlanish nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga borliq bo'ladi. SHuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish–empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir.

Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazi to'rti ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiy darajasi past bo'ladi.

## **17.4. Empirik (aniq) tadqiqot usullari**

Ilmiy bilishning metodlarini falsafa va sotsiologiyada 3 turga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilmiy bilishning eng umumiy-ilmiy metodi (ongli amaliy va nazariy faoliyat).

2. Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

3. Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

Dastur tarkibi uslubiy qismining muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyati, texnika jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

**Sotsiologik tadqiqot uslubiyati** – hususiy sotsiologik usullar majmui bo'lib, undan empirik materiallarni to'plash va tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi. Metod tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash uchun vositachi demakdir. Sotsiologiyaning usul sifatidagi umumsotsiologik pirintsiplari: ijtimoiy

voqealidagi jarayonlar, hodisalarni bilishdagi hususiy printsiplar va konkret usullar – **matematik-statistik usullar, sotsiologik ahborotni yirish usullari**: kuzatish, so'roq, eksperiment va boshqalardan iboratdir.

**Sotsiologik tadqiqot texnikasi** – maxsus usullarning birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi.

Sotsiologik tadqiqot jarayoni tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning batartib borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati ham katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yirib boriladi. Quyida shular hususida to'htalib o'tamiz.

### **1. SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA KUZATISH USULI**

**Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish** – dastlabki empirik ma'lumotlarni yirish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puhta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borayo'tgan ob'ektdan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlarda ob'ektiv, holis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. SHu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'ektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. CHunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayoniga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi.

Kuzatish usulining yana bir o'ziga xos jihati: uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayo'tgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini savolga qiziqtirish, kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha so'z bilan ifodalanadi. Ammo ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yo'zish va so'z orqali ifodalash qiyin bo'ladi.

Kuzatish jarayonini harakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratsiz, to'la qamrovli va qamramaydigan, dala va laboratoriya sharoitida muntazam va tasodifiy kuzatishdir.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli o'rganilayo'tgan ob'ektga nisbatan chetdan yoki ichkaridan qo'llanilishi mumkin. Tadqiq etilayo'tgan ob'ekt chetdan kuzatilganda tadqiqotchi ob'ektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi

kuzatayo'tgan ob'ektga ro'y berayo'tgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va bo'ysunadi.

Sotsiolog K.YUnusov kuzatish jarayonining harakteriga qarab, kuzatishning quyidagi tiplarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) Nazoratli va nazoratsiz.
- 2) To'liq qamrovli va qamramaydigan.
- 3) Dala va laboratoriya sharoitida.
- 4) Muntazam va tasodifiy kabilar.

Sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan natijalar o'rganilayo'tgan ob'ekt to'rtisida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pgina sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ob'ekt to'rtisida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan ma'lumotlarni, statistik hujjatlarni qo'shimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

Umuman, kuzatish usuli bir necha ko'rinishga ega. Bu usulni tahlil qilishda vaqt va masofa belgilari hisobga olinadi. Kuzatishning ko'rinishlari quyidagilardan iborat: shartli ravishda uzluksiz va diskret, monografik, maxsus va boshqa ko'rinishlari mavjud.

Umuman, pedagog, psiholog va tadqiqot ishi bilan shurullanayo'tgan shahslar kuzatishning quyidagi shakllaridan foydalanadilar:

**Kuzatish shakllari:**

- 1) Bevosita kuzatish.
- 2) Bilvosita kuzatish.
- 3) Universal kuzatish.
- 4) O'z-o'zini kuzatish.
- 5) Ochiq-oydin kuzatish.
- 6) Uzluksiz kuzatish.
- 7) Diskret (ahayon-ahayon, alohida) kuzatish.
- 8) Monografik kuzatish (yo'zish kerak).
- 9) Tor ihtisosli kuzatish.
- 10) Izlanish-qidiruv kuzatish.
- 11) SHartli ravishda kuzatish.
- 12) Maxsus kuzatish.
- 13) Nazoratli va nazoratsiz kuzatish.
- 14) To'la qamrovli va qamramaydigan kuzatish.
- 15) Dala va laboratoriya sharoitida kuzatish.
- 16) Muntazam va tasodifiy kuzatish va boshqa shakl, turlari bor.

**2. So'rash usuli.** So'rov – sotsiologik ma'lumotlarni yirish usullaridan biri. Bu usul sotsiologik, psihologik, demografik va boshqa

tadqiqotlarda qo'llaniladigan birlamchi verbal (o'rzaki) ahborot yirish usuli deb ham yuritiladi. Bu usul XVIII asrda ishlab chiqilgan va eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. So'rov usuli yordamida boshqa hujjat manbalarida uchramaydigan, tadqiqot usuli yordamida olish qiyin bo'lmagan ma'lumot, ahborotlar olish mumkin.

O'tish davrida bozor munosabatlarini shakllantirish demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan borayo'tgan O'zbekiston uchun ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazishda bu usulning ahamiyati yanada ortib borishini tabiiy holat sifatida baholamoq kerak.

So'rov usuli harakteriga ko'ra: a) yo'zma – anketa orqali; b) o'rzaki – intervyu olish mumkin.

### **So'rov metodining turlari:**

1. Anketalashtirilgan yo'zma shakldagi so'rov.
2. Suhbatlashish (intervyu).
3. Sotsiometrik so'rov.
4. Test o'tkazish so'rov.
5. Ekspert so'rov.
6. Panel so'rovlar.
7. YAhlit so'rovlar.

**3. Intervyu** (ing. uchrashuv) – sotsiologik tadqiqotda qo'llaniladigan uslub – maqsadli suhbat. Uning maqsadi: tadqiqot dasturida ko'zda tutilgan savollarga javob berishdan iborat. Intervyu funksiyasi: a) ma'lumot yiradi; b) ta'sir ko'rsatish.

### **Intervyuning bir necha turlari mavjud:**

- 1) Erkin intervyu.
- 2) Standartlashgan intervyu.
- 3) YArim standartlashgan intervyu: a) gruppaviy panel usuli; b) kilinik intervyu; v) mo'ljalli intervyu.

**4. Prognoz** (yunoncha bashorat) – ilmiy bashoratlarni ishlab chiqish amaliyo'ti. **Tabiiy prognoz turlari:**

- 1) Metereologik (ob-havo, atmosfera hodisasi).
- 2) Hidrologik (dengiz to'lqinlari, suv oqimi).
- 3) Geologik (foydali qazilma konlar).
- 4) Biologik (hodisalarning, o'simlik va hayvonot dunyosi).
- 5) Tabiiy – biologik (inson kasalliklari).
- 6) Tehnologik muhandislik.
- 7) Kosmologik (osmon jismlari).

Yoki ijtimoiy sotsiologik prognoz turlarini ham shunday klassifikatsiyalash mumkin.

**5. Eksperimen (lat. tajriba, sinov).** Bu 3 tipda olib boriladi:

1) Ekspost – fakto eksperiment (o'tmishdan hozirgacha bo'lgan tadqiqot ob'ekti).

2) Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment.

3) Proektli eksperiment hozirgi kelajakka yonaltirilgan bo'ladi.

**6. Hujjatlarni o'rganish usuli.** Sotsiologik tadqiqotlarda ma'lumotlarni yirishning asosiy usullaridan biri.

Hujjatlarni o'rganishning quyidagi metodlari mavjud:

1) Statistika metod.

2) Avtobiografik metod.

3) Kontent – analiz metod.

### **Qisqacha xulosalar**

Amaliy (empirik) sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali talabalar, mutasaddi mutahassislar hamda keng jamoatchilik ommasi sotsiologik ahborotlar tizimini yaratishda katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Sotsiologik tadqiqotlar jamiyatning turli sohalarini faoliyatini mo'tadil rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jamiyatning turli sohalarini bir-biriga muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. Buni amalga oshirishda sotsiologiya fanining imkoniyatlaridan to'la foydalanish maqsadga muvofiqdir. Empirik tadqiqotlar tajribasidan har xil sohada va kasbdagi hodimlar ham o'z ishlarida keng foydalanishlari mumkin.

## ADABIYO'TLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2010.-40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T.: «Adolat» 1998. –b. 304
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'rtisidagi Qonuni. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «SHarq», 1997.-3-30-b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «SHarq», 1997.-31-64 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. T.: «Mehnat», 1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 – T.: O'zbekiston, 1996.-364 b.
7. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.2. -T.: «O'zbekiston», 1996.-380 b.
8. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir –T.3.-T.: «O'zbekiston», 1996.-366 b.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi - T.: «O'zbekiston», 1998.-64 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari - T.: «O'zbekiston», 1998.-686 b.
11. Karimov I.A. Bunyo'dkorlik yo'lidan. T.4. T.: «O'zbekiston», 1996.-349 b.
12. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash-davr talabi.-T.5.-T.: «O'zbekiston» 1997.-384 b.
13. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.– T.: «O'zbekiston», 1998.-429 b.
14. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-T.7.–T.: «O'zbekiston», 1999.-410 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sarasida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.-326 b.
16. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8.–T.: «O'zbekiston», 2000.-528 b.
17. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 1998.
18. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz T.9.–T.: «O'zbekiston», 2001.-432 b.
19. Karimov I.A. Havsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. -T.10.-T.: «O'zbekiston», 2002.-432 b.

20. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li.-T.11.-T.: «O'zbekiston», 2003.-320 b.
21. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga borliq. -T.12.-T.: «O'zbekiston», 2004.-400 b.
22. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: «O'zbekiston», 2005.-96 b.
23. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. T. «O'zbekiston». 2005.- 64 b.
24. Karimov I.A. O'zbek halqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.13. -T.: “O'zbekiston”. 2005.-448 b.
25. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.14.-T.: «O'zbekiston», 2006.-280 b.
26. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir.-T.15.-T.: «O'zbekiston». 2007.-320 b.
27. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir.-T.: «O'zbekiston», 2007.-48 b.
28. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li.-T.: «O'zbekiston», 2007.-48 b.
29. Karimov I.A. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2010. –b. 5.
30. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida.-T. 16.-T.: «O'zbekiston», 2008.-368 b.
31. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat–engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.-76 b.
32. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. -T.: 17 «O'zbekiston», 2009. -280 b.
33. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlat darajasiga ko'tarilish sari. –T.: 18 «O'zbekiston», 2010. -280 b.
34. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. – T.: O'zbekiston6, 2010. –56 b.

35. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izcxil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. // Halq so'zi, 2010 yil 8 dekabr, №236 (5151)
36. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: «O'zbekiston», 2009. -24 b.
37. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimizdir. “Halq so'zi” gazetasi 2010 yil. 28 yanvar.
38. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish bosh maqsadimizdir.T. “O'zbekiston” 2010.3-31 b.
39. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish bosh maqsadimizdir.T. “O'zbekiston” 2010.3-31 b.
40. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi: 2010 yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yonalishlarga bag'shlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.
41. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonuncxilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2011. – 53 b.
42. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yonalishlarga barishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 377 b.
43. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri, T.: 1993.
44. Aliqoriev N. Umumiy sotsiologiya. T.: 1999.
45. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. T.: «Fan», 1997.
46. Begmatov A. Sotsiologiya kirish. Andijon, 1995.
47. Bo'rieva M. Oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul? -T.: «Adolat», 1995.



- 48.Volkov YU.G. Lichnost' i gumanizm. (Sotsiologicheskiy aspekt). M., 1995.
- 49.Jabborov I.M. O'zbek halqi etnografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994.
- 50.Zborovskiy G.I. Sotsiologiya obrazovaniya. Ekaterinburg, 1993.
- 51.Harcheva V. Osnovy sotsiologii. M., 1994.
- 52.Holbekov A., Idivov U. Sotsiologiya. Lufat-ma'lumotnoma. T.: Abu Ali ibn Sino nashr., 1999.
- 53.Xoshimov T.R. Sotsiologiya. (O'quv uslub. qo'll.). T.: 1996.
- 54.CHeskidov V.M., Herbakova G.L. Oilaning sotsial-iqtisodiy asoslari. T.: «O'zbekiston», 1998.
- 55.Fulomov S. Ijtimoiy yonaltirilgan bozor iqtisodiyoti. T.: «Mehnat», 1997.
- 56.Radugin A.A., Radugin K.A. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. M.: TSentr», 1999.
- 57.Han S., Han V. Sotsiologiya. Kurs lektsiy. T.: «Adolat», 1999.
- 58.Holbekov A. SHarq va ʻarb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. T.: 1996.
- 59.Volkov YU.G., Mostovaya I.V. Социология в вопросах и ответах. Gardariki, M.: 1999.
60. Основы социологии. M.: 2001.
- 61.Kandaurov V.I., Stradanchenkov A.S. Sotsiologiya. Kurs lektsii. -M.: infrra-m. M.: 2001.
- 62.Abdurahmonov F.R., Saidhodjaev H.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. T.: O'zRIIVA, 2000.
- 63.Mullajanova M.M., Bahodirov O., Xoshimov T. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matnlari. T.: ToshDIU, 2006.
- 64.Nosirho'jaev S., Bekmurodov M., Sulonov T., Nosirho'jaeva H. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. T.: Nizomiy nom. ToshDPU, 2000.
- 65.Sotsiologik tadqiqotlar metodi va texnikasi. T.: ToshDU, 1999.
- 66.Sotsiologiya tarixi. T.: ToshDU, 1999.
- 67.Milliy istiqlol ro'yasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «YAngi asr avlodi», 2001.
68. Alqoriev N.S. va boshq. Umumiy sotsiologiya. –T.: ToshDU, 1999. -184 b.
- 69.Bekmuradov M.B. va boshq. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. –T.: O'AJBNT, 2000. -212 b.
- 70.Ubaydullaeva F.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologiya. –T.: «O'AJBNT» markazi, 2002. -292 b.

71. Aliev B., Rafiqov F. va boshq. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. –T.: TDYUI, 2006. -289 b.
72. Holbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: «Akademiya», 2007. -184 b.
73. Xoshimov T., Sultonov T., Mullajanova M. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2008. -128 b.
74. Bekmurodov A.SH., Aliev B., Boboev A. va b. O'zbekistonda parlamentarizim taraqqiyoti. Toshkent. 2005.
75. Sultonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. TDIU 2005.
76. Umarov B. Goloballashuv ziddiyatlari.-T.: «Ma'naviyat», 2006.-160 b.
77. Qirғizboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va horijiy tajriba.-T.: «YAngi asr avlodi», 2006.-205 b.
78. Karimov I.J. Noosefera: geosiyosat va mafkura.-T.: «Fan», 2007.-208 b.
79. Mirzaev M. Jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch.-T.: «Fan», 2007.-140 b.
80. Dunyoviylik va ijtimoiylik.-T.: «CHO'lpon», 2008.-160 b.
81. Norbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: O'zRIIV Akademiyasi, 2008. -240 b.
82. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. O'quv qo'llanma.–T.: «Toshkent islom universiteti», 2008.-246 b.
83. Ocxildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga–yuz javob). –T.: «Toshkent islom universiteti», 2009. -200 b.
84. Foyibnazarov SH. Halqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. –T.: «O'zbekiston», 2009. -296 b.

**B.ALIEV, M.MULLAJONOVA, B.RAHMONOV**

**S O T S I O L O G I Y A**

**(DARSLIK)**

**© Toshkent – “Iqtisodiyot” – 2011**